



Bismillahir Rohmanir Rohiym.

Borliq ato etuvchi va Rahmli Alloh nomi bilan

**QUR'ONDA E'TIQOD ASOSLARINI
O'RGANAMIZ
(ELLIK DARS)**

Muallif: Oyatulloh Nosir Makorim Shiyroziy

«*Andishai nur*» muassasasining tarjimonlar va mualliflar
guruhi

«*Andishai nur*» muassasasining tarjimonlar va mualliflar guruhi

Hoshir: Al-Mustafo nomli xalqaro ilmiy akademiyaning tarjima va nashr etish markazi

Matbaa: Tavhid

Chop navbati:..... Birinchi

Chop sanasi: 2014 – 1435

Adadi: 1000 nusxa

Betlar soni: 392 bet

ISBN:

©*Kitobning barcha huquqlari noshir uchun himoyalangan.*

MUNDARIJA

KIRISH	9
ALLOHNI TANISH HAQIDA O‘N DARS.....	15
1-DARS: Allohni tanish uchun izlanish.....	15
2-DARS: Allohni tanishning hayotimizdagi ta’siri.....	20
3-DARS: Allohni tanishning ishonchli ikki yo‘li.....	26
4-DARS: Muhim bir savolga javob.....	30
5-DARS: Muhim bir voqea	36
6-DARS: Allohni tanishning ikkinchi yo‘li	40
7-DARS: Yaratilishdagi tartib-intizom namunalari	45
8-DARS: Kichkina bir qushchada bir olam mo‘‘jiza.....	50
9-DARS: Hasharot va gullarning o‘zaro do‘stligi.....	56
10-DARS: Cheksiz zarrachalar olami	60
10 – DARSNING ILOVASI: Allohning sifatleri haqida	66
ALLOHNING ADOLATI HAQIDA O‘N DARS.....	74
1-DARS: Adolat nima?	74
2-DARS: Parvardigori olamning odilliga dalillar	82
3-DARS: Ofat va balolarning hikmati.....	88
4-DARS: Inson hayotidagi musibatlar va ko‘ngilsiz hodisalarning hikmati	94
5-DARS: Yana ofat-musibatlar hikmati haqida	100
6-DARS: Jabr va ixtiyor masalasi	106

7-DARS: Iroda va ixtiyorga oid aniq dalil	112
8-DARS: «Al-amru baynal amrayn» nima degani?	118
9-DARS: Hidoyat va zalolat Allohning qo'lida	126
10-DARS: Allohning adolati va doimiy azob	132
NUBUVVAT-PAYG'AMBARSHUNOSLIK HAQIDA O'N DARS	138
1- DARS: Ilohiy rahbarlarga bo'lgan ehtiyojimiz.....	138
2- DARS: Qonun chiqarishda payg'ambarlarga ehtiyojimiz	146
3-DARS: Nimaga payg'ambarlar ma'sumdirlar?.....	154
4- DARS: Payg'ambarlarni tanishning eng yaxshi yo'li...	160
5-DARS: Islom payg'ambarining eng buyuk mo'jizasi ..	168
6-DARS: Qur'on mo'jizasi ga yana bir nazar.....	176
7-DARS: Qur'on g'oyasi.....	182
8-DARS: Qur'on va bugungi ilmiy kashfiyotlar!.....	190
9- DARS: Payg'ambarimizning haq ekanliklariga yana bir hujjat.....	196
10- DARS: Islom payg'ambari - Alloh yuborgan payg'ambarlarning so'nggisi	204
IMOMSHUNOSLIK HAQIDA O'N DARS	216
1- DARS: Imomat mavzusida bahslashish qachondan boshlangan?	216
2- DARS: Imom mavjudligining hikmati.....	224
3- DARS: Imomning maxsus sharoit va sifatleri	232

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

4- DARS: Imom kim tomonidan tayinlanadi?	240
5- DARS: Qur'on va imomat	250
6- DARS: Imomat Payg'ambarimiz sunnatlarida	264
7- DARS: Manzilat va yavmud-dor hadislar.....	273
8- DARS: Saqalayn va Nuh ^(a.s) ning kemasi hadislar.....	282
9- DARS: O'n ikki imom	290
10- DARS: Imom Mahdiy – o'n ikkinchi imom va olamning buyuk islohotchisi.....	302
MAOD – QAYTA TIRILISH HAQIDA O'N DARS	318
1- DARS: O'lim tugashmi yo boshlanish?.....	318
2- DARS: Maodga ishonmoq hayotga ma'no bag'ishlaydi.....	326
3- DARS: Qiyomat mahkamasining bir namunasi vujudimizda mavjuddir.....	334
4- DARS: Qayta tirilishning fitratdagi o'rni	340
5- DARS: Qiyomat adolat tarozisida.....	346
6- DARS: Qayta tirilishni shu dunyoning o'zida bir necha marta ko'rganmiz	352
7- DARS: Maod-qayta tirilish va yaratilish hikmati	358
8- DARS: Ruhning boqiyligi oxirat borligidan dalolatdir.	366
9- DARS: Maod – jismoniy va ruhiy qayta tirilish	374
10- DARS: Jannat, do'zax va amallarning tajassumlanishi.....	384

KIRISH

Bizni so‘nggi haq va komil din bo‘lgan Islomga bo‘yin egib, hidoyat sari yuzlanib, haq yo‘lni tanlashdek buyuk tavfiqqa sharafyob etgan yuksak parvardigorimiz Alloh taologa beadam hamdu sanolar bo‘lsin hamda ul Zotning sevikli bandasi va eng so‘nggi elchisi bo‘lmish sarvari olam Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ga va ul hazratning barcha gunoh va xatolardan yiroq bo‘lgan ma’sum, mutahhar Ahli-Baytlari (xonadonlari ahli)ga hamda Payg‘ambarimizning tanlangan xos sahobalariga salavot va durudlar yo‘llaymiz.

Ahli-Bayt mazhabiga tobe bo‘lgan musulmonlarning dunyoqarashi, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning borliq va voqelikka nisbatan bo‘lgan g‘oyasi boshqa toifadagi musulmonlardan farqlanib, ular dinning quyidagi asosiga yondashdilar:

1. Tavhid (Allohning yagonaligi yoxud yakkaxudolik)
2. Allohning odilligi (Alloh adolatli zotdir)
3. Nubuvvat (payg‘ambarlarga iymon)
4. Imomat (ummatga rahnamolik qilish ilohiy mansabdir)
5. Maod (qiyomat va qayta tirilishga inonmoq)

Ahli-Bayt mazhabiga bo‘yin eggan musulmonlarning aqiydasi bo‘yicha, yuqorida zikr qilingan dinning asoslari islom olamidagi e’tiqodning negizini tashkil etishi shubhasizdir. SHU bois, islomdagi boshqa mazhablarning e’tiqodida o‘rin topgan din asoslaridan farqli ravishda Ahli-Bayt mazhabining e’tiqod majmuida Allohning odilligi va imomat ham aqoid asoslaridan hisoblanadi.

Allohning odilligi xususida, islomiy mazhablar orasida

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

ixtilof mavjuddir. Ashoira (Abulhasan Al-Ash'ariyning izdoshlari), Mo'tazila va Ahli-Bayt mazhabiga yondashuvchilar Allohning odilligi nazariyasiga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalariga ko'ra ikki yo'nalishni tashkil etadilar. Allohning odilligi nazariyasiga yondashgan guruh (Ahli-Bayt mazhabi tarafdorlari va Mo'tazila) «adliya» nomi bilan tanilganlar. Ushbu nazariyaga muxolif o'laroq, Allohning odilligini aqliy dalillar bilan isbotlash mumkin emas, degan tushunchani ko'tarib chiqqan guruh esa, «Ashoira» nomini olgan. Ashoiraning e'tiqodi bo'yicha, Alloh nimaniki to'g'ri va yaxshi deb aytsa, o'sha narsa to'g'ri va yaxshidir va nimaniki noto'g'ri va yomon deb aytsa, o'sha narsa noto'g'ri va yomondir. Misol qilib aytganda; agar Alloh iymonli taqvodor shaxsni jahannamga ravona aylasa, bu ish yaxshi va to'g'ri sanaladi va agar-da iymon keltirmagan kofir va mushrik kimsani jannatga doxil etsa, bu ish yaxshi va to'g'ri ekani shubhasizdir. Va aql bu borada hech qanaqa hukm qila olmaydi. Biroq adliyalari esa, aytib o'tilgan o'rinlar Allohning adolatini yo'qqa chiqarib aqlning ochiq-oydin hukmiga qarshi chiqishdan o'zga narsa emas, deb o'z fikrlarini bildirganlar. Boshqacha aytganda; insonning aqli ayrim yerlarda Allohning odilligini tushunib etishga qodir.

Umuman olganda; adolatning ma'nosi har bir narsani o'z o'rniga qo'yish demakdir. Shunga binoan, Alloh taoloning hamma sifatleri; (subutiya sifatleri nazarda tutilgan) Tangrining adolatidan kelib chiqqan. Masalan; Razzoq (rizqlantiruvchi) sifatini olib qarasa, yaratuvchi Zot o'zi yaratgan maxluqotlarning rizqini ham etkazadi va bu Uning adolatining taqozosidir. Yoxud solih amallar sohibi mukofotlanishi va gunohlar egasi esa azoblanishga sazovorligi; bularning barchasi ham, Allohning adolatiga muvofiqdir. Muxtasar qilib aytganda; Allohning har bir tadbiri, Uning ayni adolatidir. Shuning uchun, Allohning adolat sifatiga ega ekanligi ilohiy dinda asos deb tan

olingan. Bundan tashqari, adolatning asos qilib olinishi ijtimoiy hayotda odamlarning o‘zaro bo‘ladigan aloqalarida va bir-birlariga nisbatan ko‘rsatadigan munosibatlarida ta’sir qiluvchi omil bo‘lib qolishi muqarrardir.

Ahli-Bayt mazhabi izdoshlarining aqidasisiga binoan, Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ummatni yo‘lboshchisiz o‘z holiga tashlab qo‘yib, foniy hayotni tark etmaganlar, balki ummatga hidoyat yo‘lini ko‘rsatuvchi rahbar tayinlab, so‘ngra boqiy olamga rihlat qilganlar. Ummatga peshvo, ya’ni imom tayin etish Alloh tarafidan bo‘lgan amr ekanligida shak-shubha yo‘qdir. Shu bois, imomat g‘oyasiga iymon keltirish aqidaning asoslaridan biridir. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ummatga rahnamolik qilish ma’sumlikni taqozo qiladi. Ma’sumliki tushunchasi haqida qisqacha ma’lumot beradigan bo‘lsak, shuni aytishimiz mumkinki, uning lug‘aviy ma’nosi man etish va saqlashdir. Aqoidda esa ma’sumlik holatiga ega bo‘lgan shaxs har qanday sahv-xato, gunoh va ruhiy nopoklikdan yiroq, va boshqa so‘z bilan aytganda, ismat va ma’sumlik; shariatda gunoh hisoblangan barcha amalardan uzoqlashgan holda pok bo‘lish demakdir. Ummatga rahnamolik va peshvolik qilish kabi yuksak sharafga ega bo‘lmoq uning egasidan ma’sumlikni talab etishi, albatta, tabiiy holdir.

Imomat g‘oyasiga iymon keltirgan musulmon hech vaqt tushkunlikka tushmaydi, chunki, u biladiki, yer yuzi Allohning hujjatidan xoh oshkor holda ko‘zga ko‘rinadigan yoki ko‘zdan g‘oib bo‘lsin, xoli bo‘lmaydi. Har zamonning o‘z peshvosi va rahnamosi bo‘lib, ummatga o‘sha zamon talabiga muvofiq hidoyatning yorqin mash’ali bo‘lgan holda xizmat qiladi. Biz hayot kechirayotgan davrda bizni rushdu hidoyatga etaklaydigan imomimiz va peshvoimiz hazrati Mahdiy (*Alloh ul zotning zuhurlarini tezlashtirsin*) ekanliklari shubhasizdir.

Kitobni ta'lim berish uslubi

Islom ta'limotlarining eng muhim xususiyati insonlarni ilohiy qonun-qoidalar va me'yorlar bilan tarbiyalamoqdir. Bizning ushbu kitobni ta'lif etishdan maqsadimiz aniq dalillar bilan keltirilgan xolis islomiy aqiydalarni hammaga, alaxusus yoshlarga etkazmoqdan iboratdir. Toki, hozirgi qaltis sharoitda mo'min birodarlarimiz va opa-singillarimiz o'z e'tiqodlarini mustahkamlab, o'z ustlarida ishlab kuchli iymon egalari bo'lsinlar va ularning iymonlari yurish-turishlarida va amalraftorlarida namoyon bo'lib, ularga nur taratib tursin.

Ushbu kitob diqqat, nafosat va xos bir tashabbus bilan bitilgan bo'lib, islom aqidining asoslarini qisqa muddat ichida o'rganmoqchi yoki dars bermoqchi bo'lgan barcha shaxslarga qo'l keladi. Qo'lingizdagi ushbu kitob besh qismdan iborat bo'lib, qirq yil chamasi Qum shahrining ilmiy oligohlarida islom aqidini ta'lib berishda peshqadam va ilg'or bo'lib kelgan oyatulloh Makorim Sheroziyning qalamlari bilan ta'lif etilgan. Ushbu qo'llanma haqiqatni izlovchi barcha insonlar uchun foydali va samaralidir.

Ushbu kitobning darslarini ta'lim beradigan ustoz va murabbiylarning nazarini quyidagi muhim masalalarga jalb etamiz:

1. Darslarni tarixiy shohidlar va bugungi hayotdagi qiziqarli ayniy namunalar, mushohadalar bilan boyitmoq lozim.

2. Shogird va o'quvchilarning bilimidan foydalanib, darslarni xoh shaxsiy yoki guruhiy shaklda bo'lsin, savol-javob tariqasida o'zlashtirmoq darkor.

3. Har darsga oid bo'lgan oyatlarni chiroyli xat bilan taxtaga yozsinlar, toki, shogirdlar oyatlarning tarjimasini so'zma-so'z o'rganib olsinlar va shu bilan birgalikda, ularning Qur'on bilan tanishish saviyasi kuchaysin. Agar ulardan bir kishi yaxshi ohangda dars oyatlarini tilovat qilsa va qolganlar uning bilan birga

takrorlasa, yanada yaxshiroq bo‘ladi.

4. Har darsni bir kunda ta’lim bermoq shart emas, kerak bo‘lganda, bir darsni ikki kunda ta’lim berish mumkin.

5. Har darsning iboralarida ingichka va nozik fikrlar mavjud, shu bois, ustoz dars berishdan oldin uni diqqat bilan o‘qib chiqmog‘i lozim. Toki, darsni mukammal tarzda bera olsin.

6. Ushbu qo‘llanmaning darslarini yaxshi o‘zlashtirib, savollarga yaxshi javob bera olgan hamda dars oyatlarini tarjimai bilan yodlay olgan shogirdlarni mukofotlamoq maqsadga muvofiqdir.

7. Aytib o‘tganimizdek, ushbu qo‘llanma islom aqoidining asoslarini o‘rganmoqchi bo‘lgan barcha insonlar uchun nazarda tutilgan. Shuning uchun, hamma bundan foydalana oladi.

Kitob haqidagi barcha taklif va mulohazalaringizni quyidagi pochta manziliga yozib yuborishingizni so‘raymiz: info@najokemasi.com

▪
▪

ALLOHNI TANISH HAQIDA O‘N DARS

1-DARS:

Allohni tanish uchun izlanish

Nima uchun olamning yaratuvchisi haqida fikr yuritamiz?

1. Dunyoning yaratilishi haqida bilishga intilish ishtiyoqi fitratimizda bordir.

Har bir inson quyidagi savollarga javob olishni istaydi: Bu bepoyon osmon va uning qalbni o‘ziga oshufta etuvchi go‘zal manzarasi, chaqnoq yulduzlari, turli xil mavjudotlar, go‘zal parrandalar, dengiz baliqlarining xilma-xilligi, tog‘lar va daryolar, gullar va g‘unchalar, osmon uzra bo‘y cho‘zgan turli xil daraxtlar va boshqalar o‘z-o‘zidan vujudga kelganmi yoki bunday ajoyib va serjilo naqshlar mohir va qodir naqqosh qo‘li bilan chizilganmi?

Bundan tashqari hayotimiz mobaynida hammamiz uchun eng birinchi shunday savollar tug‘iladi:

Men o‘zi qayerdan keldim? Qayerda va nima uchun yashayapman? Qayerga ketajakman? Yuqoridagi savollarning oxirgi uchtasiga javob topa olsak, naqadar xushbaxt bo‘lar edik. Boshqacha qilib aytganda; hayotimizning avvali qayerdan boshlanib, oxir oqibat, qayerda tugashini va endilikda esa qanday vazifaga ega ekanligimizni bilishimiz lozim.

Bizning hamma narsani bilishni yoqtiradigan ruhimiz bizga orom bermay «javobini top», deb undayotganday bo‘ladi.

Ba'zan yo'l harakati hodisasiga uchragan haydovchini shifoxonaga eltib qo'yishganidan so'ng, bir oz vaqt o'tgach, u o'ziga kelib birinchi beradigan savoli «Men qayerdaman? Nega meni bu yerga keltirishdi? Bu yerdan qachon ketaman?» kabilardan iborat bo'ladi.

Bu savollar qarshisida jim o'tira olmaslik inson uchun tabiiy holdir. Shunday ekan, insonni olamning yaratuvchisi tomon yo'llaydigan omil ham, ana shunday tinib tinchimas bilimga tashna bo'lgan – ruhdur.

2. Shukr qilish hissiyoti

Faraz qilingki, sizni obro'li bir xonadonga mehmondorchilikka da'vat qilishdi. U yerda sizning rohatingizni o'ylab hamma narsani muhayyo qilib qo'yishgan bo'lsa-da, biroq siz bu ziyofatga akangiz orqali taklif etilgan bo'lib, uy egasini yaxshi tanimaysiz deylik, u holda sizni shunchalik izzat-ikrom bilan kutib olgan xonadon sohibini tanib, unga minnatdorchilik izhor qilishingiz tabiiydir. Xuddi shunday biz insonlar ham, bu dunyodagi nozu ne'matlarga to'la dasturxonning mehmoni ekanmiz, eshitguvchi quloq, ko'ruvchi ko'z, aql-hush, kuch-qudrat, turli pokiza rizq-ro'zga ega bo'lar ekanmiz, bu ne'matlar sohibini tanishni istaymiz va unga o'zimizning minnatdorchiligimizni bildirib qo'ygimiz keladi va bu bizning ikkinchi dalilimiz bo'lib, Allohni tanishga olib boradi.

3. Zarar va foydani o'zaro taqqoslash

Faraz qiling, siz bir yo'lovchisiz. Chorrahaga etib kelganingizda har tarafdan «*bu yerda to'xtab turma, zero, bu yerda turmoq xatarlidir*», degan ovozlari eshitilib turibdi. Lekin shu bilan birga, har kim bizni o'zi xohlagan tarafga chaqirib, o'sha yo'lning eng yaxshi ekanligini ta'kidlamoqda.

Shunday bir holatga tushib qolganimizda o'zimizga «*qaysi*

yo'l bilan bo'lsa ham ketaver», deb ayta olamizmi? Yoki aqlimizga o'sha yerda qimirlamay turish kerak, degan fikrni sig'dira olamizmi? Albatta, yo'q!

Qaytanga aqlimiz bizga tezroq surishtirib, har birisining aytganlarini taroziga solib, keyin bir to'xtamga kelish kerakligini buyuradi va bizga tanlagan yo'limizdan olg'a ketmoqni amr qiladi.

Bu dunyodagi hayotimiz ham xuddi shunga o'xshagan holatni boshdan kechiradi. Turli xil mazhab va firqalar bizni o'z tarafiga chaqiradi, lekin bizning baxtli yoki baxtsiz bo'lishimiz, taraqqiy etishimiz yoki tanazzulga uchrashimiz, hamma-hammasi bizning qaysi yo'lni tanlaganimizga chambarchas bog'liqdir. Bu ham bizni borliq olamning yaratuvchisi xususida fikr yuritishimizga undaydigan muhim omillardan biridir.

Alloh taolo Qur'oni Karimda bu haqda shunday marhamat qiladi:

﴿فَبَشِّرْ عِبَادِ الَّذِينَ يَسْتَمِعُونَ الْقَوْلَ فَيَتَّبِعُونَ أَحْسَنَهُ أُولَئِكَ الَّذِينَ هَدَاهُمُ اللَّهُ وَأُولَئِكَ هُمْ
أُولُو الْأَنْبَابِ﴾

«Mening shunday bandalarimga xushxabar berginki, ular turli xil so'zlarni tinglaydilar-da, so'ng ularning eng go'zaliga ergashadilar. Ana o'shalar Alloh hidoyat qilgan zotlardir va ana o'shalaragina aql egalaridir.» (Zumar surasi; 17 va 18-oyatlar)

* * *

O'ylab javob bering:

1. Shu paytgacha Xudo haqida jiddiy o'ylab ko'rganmisiz (ota-onangiz aytganlaridan tashqari)?

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

2. Xudoni tanish va Uni izlash orasida qanday farq bor?
3. Shu paytgacha Allohga iltijo qilayotgan holda ruhan lazzatlanishni his qilganmisiz?

2-DARS:

Allohni tanishning hayotimizdagi ta'siri

1. Allohni tanish va ilmdagi muvaffaqiyatlar

Faraz qiling do'stingiz, safardan sizga bir kitobni hadya sifatida olib keldi. Kitobni berayotib, uning muallifi juda aqlli donishmand ekanligini aytsa, albatta siz ushbu kitobni berilib, diqqat bilan o'qiysiz. Agar biror bir tushunmaydigan yeriga kelsangiz, soatlab vaqtingizni uni tushunishga sarflaysiz, nega deganda uning muallifi oddiy inson emas, balki donishmand bo'lib, hech bir narsani hisob-kitobsiz kitobiga yozmaydi.

Biroq agar teskarisi bo'lsa, ya'ni biror bir kitobni qo'lingizga berishsa-yu, muallifini kam savod va bilim egasi bo'lmagan bir odam deyishsa, garchi kitobning muqovasi va tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lsa-da, essiz shu kitob uchun o'qishga ketgan vaqtim deya, kitobga shunchaki nazar solib, chetga qo'yib qo'yasiz.

Bu dunyo ham bamisoli bir katta kitob bo'lib, undagi har bir mavjudotlar kalima yoki jumlarlar kabi uni tashkil qiladi. Xudojo'y bo'lgan iymonli insonlar bu yaratilgan maxluqotlar va hatto, jahonning zarrachalari ham bejiz yaratilmaganligini biladi va ularni sinchkovlik bilan o'rganib, yaratilish sirlarini bilishga kirishadi va buning o'zi ham ilmning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Zeroki, xudoparast bo'lgan inson bu buyuk olamning yaratuvchisi, beqiyos ilm va qudrat egasi bo'lgan zot ekanligini va Uning xamma ishlari hikmat yuzasidan ekanini biladi. Shu bois, u olam sirlarini yaxshiroq anglashi uchun chuqur o'rganib, aniq ravishda ko'zdan kechirishga tirishadi.

Ammo bir moddiyunchi¹ bo'lgan shaxs esa yaratilish hikmati haqida bosh ham qotirmaydi, zero, olamni shuursiz-ongsiz tabiat yaratgan, deb hisoblaydi. Agar ba'zan ayrim moddiyunchi donishmandlarning qo'lga kiritgan ilmiy ixtirolarini uchratadigan bo'lsak, bunday shaxslar ko'pincha Xudoni qabul qiladilar, ammo ular Xudoni «*tabiat*», deb nomlaydilar. Chunki, tabiat ishlarini «*tartib-intizomli*», «*hisob-kitobli*» va «*reja asosida dasturlashtirilgan*», deb biladilar.

2. Xudoshunoslik, tirishqoqlik va umid

Inson o'z hayotida biror bir mashaqqat va qiyinchilikka duch kelsa, qiyinchiliklar uni o'rab olib, qutulish yo'li har tomonlama berkitilgan bo'lib tuyulganda, o'zini ushbu qiyinchiliklar barobarida kuchsiz, zaif va yolg'iz sezib, Allohga bo'lgan iymoni unga umid va ishonch bag'ishlab turadi.

Allohga iymoni bor odam o'zini hech qachon yolg'iz va kuchsiz sezmaydi, noumid bo'lishdan saqlanadi va o'zini qiyinchiliklar barobarida kuchsiz va nochor ahvolda qolgan deb bilmaydi. Chunki, u o'zining yonida cheksiz qudrat sohibi bo'lmish Alloh taolo borligini va U zot uchun har qanday qiyinchilik va mashaqqat oson ekanligini yaxshi biladi.

Allohning fazlu karamiga umid bog'lagan bandalar bor kuchlarini ishga solib, har qanday qiyinchiliklarni Uning himoyasi va yordami ostida engib o'tadilar va o'z sa'y-harakatlari bilan qiyinchiliklarga g'olib keladilar.

Darhaqiqat, Allohga bo'lgan iymon inson uchun buyuk suyanchiq hisoblanib, sobitlik, chidamlilik, iroda va harakat

1. Borliqqa va hayotga faqat moddiy nuqtai nazardan yondashuvchi kishi, boshqa ta'bir bilan aytganda; borliqni faqat modda va materiya ko'zi bilan ko'ruvchi kishi. «*Moddiyunchi*» va «*materialist*» bir ma'noga ega. (Tarjimon izohi)

manbaidir. Allohga bo'lgan iymon umid nurlarini qalblarda doimo jonlantiradi.

Shuning uchun, iymonli bandalar hech qachon o'zlarini nobud qilish darajasiga etib bormaydilar. Negaki, o'z joniga suiqasd qilish noumidlik, ma'yuslik va hayotida muvaffaqiyat qozona olmaganidan kelib chiqadi. Ammo iymonli insonlar o'z hayotlarida tushkunlikka tushmaydilar, yutqizish va mag'lubiyat nimaligini bilmaydilar.

3. Xudoshunoslik va mas'uliyatni his qilish

Ba'zi shifokorlarni taniymizki, ular oldilariga muhtoj bo'lib qolgan bir bemor kelganida, nafaqat bepul muolaja qiladilar, balki dorilarining pulini ham o'zlari to'laydilar. Yoki agar bemorlari xavfli holatda bo'ladigan bo'lsa, kechasi bilan uylariga bormay, o'sha xastaning yonida uyg'oq qoladilar. Bunday odamlar iymonli va xudoparastdirlar.

Ammo shunday shifokorlarni ham ko'rganmizki, ular to pul olmasalar, bemorga qaramaydilar ham. Chunki, bundaylarning iymonlari zaifdir. Iymonli inson qaysi sohada faoliyat yuritmasin, mas'uliyatni his qiladi, vazifasini to'g'ri bajaradi. U saxovatmand, muruvvatli va kechirimli bo'lib, o'z qalbida doimo uning bajaradigan amallarini kuzatib turuvchi ma'naviy nazoratchi borligini his qiladi.

Iymonsiz odamlar esa xudbin, mustabid va xatarlidirlar. Zero, ular o'zlarida hech qanday mas'uliyatni his qilmaydilar, boshqalarga zulmu zo'ravonlik qilish va o'zgalarning haq-huquqini oyoq-osti etish ular uchun oson bo'lib, juda oz hollarda boshqalarga yaxshilik qilishga tayyor bo'ladilar.

4. Xudoshunoslik va hotirjamlik

Ruhshunos donishmandlarning aytishicha, bizning davrimizda ruhiy xastaliklarga chalinganlar soni boshqa davrlarga qaraganda ancha ko'pdir. Boz ustiga ularning

aytishicha, bu kasalliklarning asosiy sabablari kelajakda yuz beradigan hodisalardan xavotirlanish, o'limdan qo'rqish, qurolli to'qnashuvlardan bezovtalanish, kambag'allik va omadsizliklardan hadiksirashdir.

Olimlarning aytishlariga qaraganda, ana shu xavotirlanishlarning oldini oluvchi muhim omil – bu Xudoga bo'lgan iymondir. Chunki, xavotirlanish va bezovtalanish kabi siquvchi ruhiy holatlar uning ruhiyatiga kirib kelayotganda Allohga bo'lgan iymon uni mustahkam saqlab turadi.

Mehribon Alloh, rizq beruvchi Alloh va bandalarining holidan xabardor bo'lgan Alloh har vaqt bandalar Unga yuzlanganida, ularga xotirjamlik ato etishini iymonlilar yaxshi biladilar.

Shuning uchun haqiqiy mo'aminlar hamisha hayotlarida xotirjamlik va osoyishtalik holatini o'zlarida his qiladilar, har qanday iztiroblanish ularning ruhidan yiroqdir. Ularning hamma ishlari Alloh uchun bo'lgani bois, agar ishlarida zarar ko'rsalar ham o'rnini Allohning o'zi to'ldiradi deyдилar va hatto jang maydonida ham tabassum ularning yuzidan arimaydi.

Alloh taolo Qur'oni Karimda bu borada shunday buyuradi:

﴿الَّذِينَ آمَنُوا وَلَمْ يَلْبِسُوا إِيمَانَهُمْ بِظُلْمٍ أُولَٰئِكَ لَهُمُ الْأَمْنُ وَهُمْ مُّهْتَدُونَ﴾

«Iymon keltirgan va o'z iymonlarini zulm bilan qorishtirmaganlar- aynan o'shalar uchun xotirjamlik, omonlik bordir va o'shalarigina hidoyat topganlardir.» (An'om surasi, 82-oyat)

* * *

O'ylab javob bering:

1. O'tmishdagilar tarixidan iymonlarining yuqorida aytib o'tilgan ta'siridan bahramand bo'lganlari haqida eslay olasizmi?
2. Ba'zilar iymonli ekanliklarini da'vo qilishlariga qaramay, axloqsizliklar qilishlari va ularda yuqorida sanab o'tilgan iymon asarlari yo'qligining sababini bilasizmi?

3-DARS:

Allohni tanishning ishonchli ikki yo‘li

Allohni tanish yo‘llari haqida qadimdan hozirgi davrga qadar juda ko‘plab kitoblar yozilgan bo‘lib, donishmandlar va turli insonlar orasida ko‘plab munozaralar bo‘lib o‘tgandir. Ularning har biri ushbu haqiqatni anglash uchun ma‘lum bir yo‘lni tanlashgan. Biroq bizni borliq koinotning vujudga keltiruvchisiga yaqinlashtiradigan ikki yo‘l boshqa yo‘llardan ko‘ra yaxshiroqdir:

1. Ichki yo‘l yoki qalbga quloq solmoq yo‘li;

2. Tashqi yo‘l;

Birinchi yo‘l o‘zimizning ichki olamimizga chuqur nazar solib, qalbimizdagi tavhid (yakkaxudolik) nidosini jonimiz bilan eshitishimizdir.

Ikkinchisida esa keng olamga ibrat ko‘zi bilan boqib, Allohning belgilarini unda ko‘ramiz. Biz mushohada qiladigan har bir zarrachalarda ham, Uni ko‘ramiz. Garchi bu ikki yo‘l haqida bahslashish ko‘p vaqt talab qilsa-da, biroq biz bu mavzuni qisqacha ko‘rib chiqishga harakat qilamiz:

Ichki yo‘l yoki qalbga quloq solish

1. Donishmandlarning aytishicha, har qanday odam qaysi toifaga tegishli bo‘lishidan qat‘iy nazar agar o‘z holiga tashlab qo‘yilib, hech qanday ta‘lim ko‘rmasa, hatto xudojo‘ylar bilan moddiyun¹lar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbatlardan ham xabari bo‘lmasa-da, butun borliqni qamrab olgan, moddiy jahondan yuksak bo‘lgan bepoyon va cheksiz qudratga ega bo‘lgan Zotni his qila boshlaydi. U qalbining tubidan otilib chiqadigan mehrli

1. Ushbu so‘zga kitobning 21 – betida izoh berilgan.

va latif nido, uni qudrat va ilm manbai bo'lmish Alloh taolo tomon chorlayotganini his etib turadi. Bu fitratdan chiqadigan pok sadodir.

2. Bu dunyoning turli-tuman tashvishlari insonni ovora qilib qo'yishi mumkin, natijada inson o'z fitratining pok nidosini eshitmay, g'ofil qolishi mumkin. Lekin biron-bir qiyinchilik yoki musibatga, turli tabiiy ofatlarga va halokatga uchrayotgan tayyorada ketayotganida yoki shunga o'xshash xavfli vaziyatga duchor bo'lganida, dunyodagi moddiy ko'maklardan umidi uzilganida, qalbidagi fitriy sado unga orom va xotirjamlik bag'ishlaydi. Bu nido insonni qudratnilarning eng qudratlisi tomon undaydi. Barcha qiyinchiliklar bu qudrat qarshisida oson hal bo'lishini his etadi.

Hayotda og'ir ahvolga tushib qolgan odamning yuqoridagi holatga tushmasligi maholdir. Ushbu holda inson beixtiyor Xudoga yuzlanib, Unga yolvora boshlaydi. Shunda Allohning insonga naqadar yaqin ekanligi tobora oshkor bo'ladi.

Albatta ushbu fitrat nidosi hamisha qalbdan bordir, lekin qiyinchilik va tushkunlik vaqtida uning ta'siri bir necha barobar oshadi.

3. Tarixning guvohlik berishicha, hotirjamlikda kun kechirgan qudrat egalari hatto Allohning nomini tilga olishdan ham ibo qilishgan. Biroq qudratlarini tahdid ostida ko'rsalar yoki qasrlari qulayotganini ko'rganlarida qalb nidolarini aniq eshitishgan.

Masalan; Fir'avn to'lqinlar ichra g'arq bo'layotganida va o'zini nochor holda topganida, dalalarga barakot beruvchi suvning o'lim farmonini keltirayotganini ko'rganida, bir qancha kichik to'lqinlar qarshisida ham ojiz qoladi. Ana shunda faryod qilib dedi: *«Endilikda e'tirof qilib aytamanki, Musoning buyuk Xudosidan o'zga iloh yo'qdir.»* Bu faryod aslida Fir'avnning qalbidan otilib chiqqan fitriy nido edi. Nafaqat Fir'avn, balki

har qanday inson ham, shunday sharoitda qolganda, qalb nidosini eshita oladi.

4. Har vaqt qalbingizning tubiga nazar solsangiz, u yerda Alloh tarafiga chaqiruvchi nur borligini ko'rishingiz mumkin. Balki biron qiyinchilikka duch kelib, hamma yerdan noumid bo'lganingizda, siz ham shunday holatga tushgan bo'lishingiz mumkin. Bunday lahzalarda tanho umidingiz va Unga bo'lgan ishqingiz, qalbingizga oro bergan bo'lsa ajab emas.

Ushbu yo'l Alloh tomonga etaklaydigan eng yaqin yo'l bo'lib, har bir inson o'zining ichki olamidan butun borliqni yaratgan buyuk Zot sari yo'l ololadi.

Faqat birgina savol:

Balki ba'zilar shunday savol tug'ilishi mumkinki, Allohga bo'lgan intilishimiz ota-onaning tarbiyalari yoki sharoit va muhitning ta'siri orqali vujudga kelgan bo'lishining ehtimoli yo'qmi?

Bu savolning javobini keyingi darsda tushuntiramiz. Hozir esa quyidagi oyatga diqqatingizni qaratmoqchimiz:

﴿فَإِذَا رَكِبُوا فِي الْفُلْكِ دَعَوُا اللَّهَ مُخْلِصِينَ لَهُ الدِّينَ فَلَمَّا نَجَّاهُمْ إِلَى الْبَرِّ إِذَا هُمْ يُشْرِكُونَ﴾

«Qachonki, ular kemaga minsalar (g'araq bo'lishdan qo'rqib,) Allohga chin ixlos bilan iltijo qilurlar. Va qachonki, (Alloh ularni quruqlikka chiqarib,) najot bergach, banogoh ular (Allohni unutib, Unga) shirk keltirurlar.» (Ankabut surasi; 65-oyat)

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Yuqorida keltirilgan oyatni va uning ma'nosini yodlab olishga harakat qiling.
2. Har tomondan umidingiz uzilib, og'ir ahvolga tushganmisiz, shunda umidingiz faqat Xudodan bo'lganmi?
3. Nima uchun bu yo'lni eng yaqin yo'l, deb ham atashadi?

4-DARS:

Muhim bir savolga javob

Savol:

Oldingi darsda shu masalaga keldikki, hamisha qalbimiz tubidan tavhid va yakkaxudolik nidosini eshitamiz, ayniqsa uni og'ir damlarda ko'proq his qilib, beixtiyor Allohni yodga olamiz va Uning cheksiz qudrati va fazlu marhamatidan madad so'raymiz.

Bu o'rinda shunday savol tug'ilishi mumkin: Biz «*fitrat nidosi*» deb nomlaganimiz ushbu ruhiy nido jamiyatning yashash muhit va sharoiti, maktabu oliygohda berilgan ta'limlar ta'sirida va yoki ota-onaning tarbiyasi natijasidan kelib chiqqan odat emasmikan?

Javob:

Bu savolga javob berish uchun qisqagina muqaddimaga to'xtalib o'tamiz.

Odat va rasm-rusumlar o'zgaruvchan bo'lib, uzoq davom etmaydi. Biz hech bir xalqni topa olmaymizki, butun tarix davomida ularning rasm-rusumlari va milliy an'analari o'zgarmas bo'lib qolgan bo'lsin. Bugungi kunda odat tusiga kirgan narsalar ertaga kelib o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ba'zi xalqlarga odat bo'lgan udumlar boshqa xalqlarda uchramasligi mumkin.

Binobarin, agar butun asrlar davomida barcha millat va elatlar orasida hammadam mavjud bo'lgan hissiyotni insonlar ruhi va jonining tubida qaror topgan va fitriy negizga ega, deb hisoblash mumkin.

Masalan: Onaning farzandiga bo'lgan mehri-muhabbatini

targ'ibot va ta'limot yoki odat va rasm-rusum orqali yuzaga kelgan, deya olmaymiz. Zero, hech bir zamonda va hech bir qavm tarixida onaning bolasiga nisbatan mehsiz bo'lgani kuzatilmagan.

To'g'ri, ruhiy bezovtalanish tufayli o'z bolasini o'ldirgan onalar ham bo'lgan yoki johiliyat davrida noto'g'ri va xurofotiy e'tiqod ta'sirida o'z qizini tiriklayin ko'mgan otalar ham bo'lgan. Biroq, bunday holatlar nihoyatda kam uchraydigan va mustasno vaziyatlar bo'lib, u ham bo'lsa zudlik bilan oradan ko'tarilib, farzandga muhabbat bo'lmish asl holat yanada o'z o'rnini tiklab olgan.

Yuqorida aytib o'tilgan muqaddimadan so'ng, xudojo'ylik masalasi xususida o'tmishda va bugungi kundagi holatga nazar solaylik. (Bu dars ko'proq diqqat talab qiladi).

1. Jamiyatshunos va buyuk tarixchi olimlarning bergan guvohliklariga ko'ra, hech bir davr va zamoni bilmaymizki, unda bashariyat biron-bir diniy e'tiqodsiz yashagan bo'lsin. Balki, har bir asr va zamonda va dunyoning har bir qit'asida diniy e'tiqodning biror bir turi insonlarda bo'lgan. Bu masala – xudojo'ylik va dindorlik, inson ruhining tubidan va uning fitratidan kelib chiqqaniga yorqin dalildir. Zeroki, dindorlik rasm-rusum, odat va an'ana ta'sirida yuzaga kelmagan, balki qalblar tubida mavjud bo'lgan fitriy bir nidodir. Agar xudojo'ylik va dindorlik qalbdan chiqqan fitriy nido bo'lmaganida edi, bu qadar davomli va keng yoyilgan bo'lmaz edi.

Hattoki, tarixda hali yozib qoldirish boshlanmasdan burun ham diniy aqiydalar bo'lganligi haqida ayrim nishona va asarlar mavjud. Xat yozish hali ixtiro qilinmagan va insonlar o'zlaridan biror bir maktub yozib qoldira olmagan zamoni «*tarixdan oldingi davr*», deb atashadi.

Albatta, ibtidoiy tuzumda odamlar Xudoni tabiat olamidani

yuqori bo'lgan mavjudot sifatida taniy olmaganliklari sababli Xudoni tabiiy mavjudotlar orasidan qidirishgan va o'zlari uchun tabiiy maxluqotlardan butlar yasab, ularga sig'inishgan. Ammo insonlarning ijtimoiy hayoti va tafakkurlarining taraqqiyoti natijasida fikrlash qobiliyati kuchayganligi sababli haqiqatni taniy boshlaganlar va moddiy mavjudotlar bo'lmish butlardan voz kechib, bu moddiy tabiatning orqasida buyuk g'ayrimoddiy kuch borligiga ishonch hosil qila boshlaganlar.

2. Ayrim ruhshunos olimlarning aytishlaricha, inson ruhida to'rt asliy hissiyot mavjuddir:

- ❖ **«Bilishga intilish hissiyoti»:** Bu his insonni ilmu ma'rifat tomon etaklaydi va uning ruhida ilmu ma'rifat kasb etishga nisbatan chanqoqlik paydo qiladi, xoh bu ilmlar moddiy manfaatlar keltirsin yoki keltirmasin, lekin inson baribir ilm va izlanishda bo'ladi.
- ❖ **«Yaxshilik qilish hissiyoti»:** Bu his insonni ezgulik qilishga undaydi va insondagi xush muomalalik xususiyatlarining manbai sanaladi.
- ❖ **«Go'zallik hissiyoti»:** Inson hamisha go'zallikni xush ko'radi va unga intiladi. Bu his she'r, adabiyot va hunarning paydo bo'lishiga asosiy omildir.
- ❖ **«Xudojo'ylik hissiyoti»:** Bu his insonni Tangri taoloni tanishga undaydi va Unga bo'lgan sig'inishga ehtiyoj yaratadi. Bu his inson ruhidagi asosiy va chuqur negizga ega bo'lgan hissiyotlardan biri bo'lib, hech vaqt undan ajrala olmaydi.

3. Kelgusi darslarda, Xudoni inkor qiluvchilarning o'zlari ham e'tiqodga ega ekanliklarining, biroq ular Allohning nomini boshqacha ataganliklarining shohidi bo'lamiz. Ular Xudoning sifatlarini tabiatga taqaydilar.

Masalan: Moddiyun¹larning aytishiga qaraganda, tabiat insonga ikkita buyrak ato etganining sababi, agar biri ishdan chiqib qolsa, ikkinchisi uning hayotini davom ettirishda bir kuniga yaraydi, shuning uchun tabiat bejiz insonga ikkita buyrak bermagan. Ushbu mavzu shuursiz va ongsiz tabiatga uyg'un keladimi? Yoki moddiyunchilarning bu so'zlari garchi Unga tabiat nomini qo'ygan bo'lsalar-da, cheksiz va bepoyon ilmu qudrat sohibi bo'lmish Allohga qarata aytilgandir.

Yuqorida aytib o'tilgan bahslardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- Allohga bo'lgan ishq va muhabbat butun vujudimizga singgan va shunday bo'lib qoladi.
- Tangriga bo'lgan iymon shu'lasini doimo qalb va ruhimizni isitib turadi.
- Allohni tanish uchun uzundan uzun yo'llarni bosib o'tishga hojatimiz yo'qdir, balki faqat qalbizni tubiga nazar tashlasak etarli, ul Zotni o'sha yerdan topa olamiz.

Qur'oni Karimda bu xususida shunday deyilgan:

﴿وَنَحْنُ أَقْرَبُ إِلَيْهِ مِنْ حَبْلِ الْوَرِيدِ﴾

«Biz insonga shoh tomiridan ko'ra ham yaqinroqdirmiz.» (Qof surasi; 16 – oyat)

* * *

1. Ushbu so'zga kitobning 21 – betida izoh berilgan.

O'ylab javob bering:

1. Odat va fitratga bir nechta misol keltiring.
2. Nima uchun nodon odamlar butlarga sig'inishgan?
3. Nimaga moddiyunchilar Allohni «*tabiat*», deb nomlaganlar?

5-DARS:

Muhim bir voqea

Aytib o'tganimizdek, Xudoni inkor qiluvchilar ham qalblarining tubida Allohga iymonlari bordir.

Shubhasiz, ba'zi odamlar uchun qandaydir muvaffaqiyatlar ularni mag'rur qiladi, qalblaridagi bor haqiqatni ham unutadilar. Shu darajaga etib boradiki, inson o'z qalbidagi ilohiy his-tuyg'ularini unutib qo'yishi hech gap emas. Ammo hodisalar to'foniga uchraganida, balo-ofatlar va qiyinchiliklar shamoli har tarafdin esganida, ko'z oldini to'sib qo'yan mag'rurlik pardalari chetga surilib, tavhid va yakkaxudolik fitrati (ilohiy his-tuyg'usi) va shuningdek, Allohni tanishi yuzaga chiqadi.

Tarixda bunga ko'p misollar bordir. Bu darsda ana shunday voqealarning birini hikoya qilmoqchimiz:

Qadimda qudratli bir vazir yashab o'tgan bo'lib, hech kim u bilan bahslashishga botina olmas edi. Kunlarning birida u diniy ulamolar majlisida ishtirok etib, ularga qarata shunday deydi: Tokaygacha jahonda Xudo bor, deb aytasizlar?! Men sizlarga uning yo'qligiga mingta dalil keltirishim mumkin.

Bu gapni o'ziga xos mag'rurlik-la aytadi. Davradagi donishmandlar esa bu odamga gap uqtirish befoyda ekanligini yaxshi bilganliklari uchun uning gapiga e'tibor bermay, hech narsa demasdan sukut saqlaydilar. Shundan so'ng, ma'lum vaqt o'tgach, hukumat tomonidan haligi vazir ayblanib, zindonga tushib qoladi.

O'sha kungi majlisda ishtirok etgan ulamolarning biri, endi bu odamni g'aflatdan uyg'otish vaqti keldi. Negaki, u g'urur egaridan pastga tushdi, ko'z oldidagi xudbinlik pardalari ochildi, endi nasihat qilsam samarali bo'ladi, deb uning

yaqiniga bordi. Tashqaridan mo'ralab qarasa, u xonasida yolg'iz holda u yoqdan bu yoqqa yurib, past ovozda bir nimalar deb, pichirlardi. Yaxshilab quloq solsa, quyidagi hikmatli so'zlarni tilga olardi:

Biz hammamiz arslonlarmiz, ammo bayroq arsloni

Hamlamiz dambadam bo'lur shamoldan!

Hamlamiz goh ko'rinar, goh ko'rinmas

Jon fido bo'lsin u ko'rinmas Zot uchun!

She'ning ma'nosi: Biz xuddi bayroqlarda chizilgan sher rasmidekmiz, shamol esganda go'yo hamla qilayotgandek ko'rinamiz, lekin haqiqatda esa o'zimiz hech narsa emasmiz, shamolning esishigina bizni harakatga keltiradi. Biz qanchalik qudratli bo'lmaylik, kuch-qudratimiz o'zimizniki emas. Bu qudratni ato etgan Alloh qachon istasa, bizdan uni olajak!

Donishmand ko'rdiki, bu odam Xudoni inkor qilish u yoqda tursin, balki xudojo'yga aylanib qolibdi. Donishmand undan hol-ahvol so'ragandan keyin, esingda bo'lsa o'sha kuni, Allohning yo'qligiga mingta dalil keltirmoqchi eding, men senga uning borligiga faqat bitta dalil keltirmoqchiman. Alloh sendan osonlik bilan qudratingni tortib olgan Zotdir! Bu gaplarni eshitgan vazir boshini egib, o'z xatosiga iqror bo'lgan holda, javob bermay turardi, negaki, o'z xatosini e'tirof etib, qalbining tubida Alloh nurini mushohada qilari edi.

Qur'oni Karimda Fir'avn haqida bunday deyiladi:

﴿وَجَاوَزْنَا بِبَنِي إِسْرَائِيلَ الْبَحْرَ فَأَتْبَعَهُمْ فِرْعَوْنُ وَجُنُودُهُ بَغْيًا وَعَدُوًّا حَتَّى إِذَا أَدْرَكَهُ الْعَرَقُ قَالَ
آمَنْتُ أَنَّهُ لَا إِلَهَ إِلَّا الَّذِي آمَنْتُ بِهِ بَنُو إِسْرَائِيلَ وَأَنَا مِنَ الْمُسْلِمِينَ﴾

«Va bani Isroilni dengizdan o'tkazdik. Fir'avn va uning askarlari haddan oshgan va tug'yon qilgan holda ularni ta'qib etdilar. Toki, Fir'avnga g'arq bo'lish vaqti etganida esa, u dedi: «Bani Isroil iymon

keltirgan Zotdan o'zga iloh yo'qligiga iymon keltirdim va men Allohga taslim bo'lganlardanman.» (Yunus surasi; 90 – oyat)

* * *

O'ylab javob bering:

1. Yuqorida hikoya qilingan voqeaning natijasini bir necha satrda bayon qiling.
2. Nima uchun bani Isroilni shu nom bilan atashgan?
3. Fir'avn kim bo'lgan? U qayerda yashagan va nimalikni da'vo qilgan edi?

6-DARS:

Allohni tanishning ikkinchi yo'li

Tashqi yo'l;

Atrof-muhitga nazar solishimiz bilan dunyodagi bor narsalar shunchaki tartibsiz holda emas, balki ma'lum nazm-tartib asosida qurilganligiga amin bo'lamiz. Go'yoki, yaratilgan olam tizimi tartib-qoidaga bo'ysungan harbiy qo'shinlar kabi guruhlarga bo'linib, muayyan maqsad sari ketayotgandek tuyuladi.

Quyidagi masalalar bu xususidagi noaniqlikni bartaraf qilib, mazkur muddaomizni isbot qilish uchun yordam beradi:

1. Har bir tirik mavjudotning yashab qolishi uchun ma'lum shart-sharoit muhayyo bo'lmog'i lozim. Masalan: Bir daraxtning o'sib-unishi uchun tuproq, suv, munosib havo, kerakli miqdorda issiqlik va yorug'lik zarur bo'ladi, toki, urug'ni ekkanimizda, ekin yaxshi oziqlanib, yaxshi nafas ololsa, ko'karib o'sishi mumkin bo'ladi.

Agar yuqoridagi sharoitlar bo'lmasa, ekin o'sib, una olmasligi aniqdir. Bu sharoitlarni muhayyo qilish esa faqat ilm va aql-idrok sohibining qo'lidangina kelishi shubhasizdir.

2. Har bir mavjudotning o'ziga xos xususiyati bordir. Olov va suvning ham o'ziga xos xususiyati bor bo'lib, bu xususiyatlarni ushbu moddalardan aslo ajratib bo'lmaydi va ular doim muayyan bir o'zgarmas qonunga ergashadilar.

3. Dunyodagi barcha mavjudotlar o'zaro chambarchas bog'liqdirlar. Misol tariqasida, odam organizmini ko'rib chiqishimiz mumkin. Inson badanining o'zi butun boshli bir olam hisoblanib, yuqori aniqlikda ishlovchi badan a'zolari o'zaro hamohang holda ishlaydi. Masalan: Xavfli vaziyatda

inson badanining a'zolari o'zaro birikib, mudofaa uchun kurashadi. Bu kichik olamdagi tartib-qoida go'yoki, ulkan olamdagi tartib-intizomning kichraytiril-gan modeli bo'lib, butun olamning yagona nizomga bo'ysunishining yaqqol dalilidir.

4. Borliq olamga sinchiklab boqsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, tartib-qoida faqat bir organizm miqyosidagina emas, balki keng bu olamning xilma-xil bo'lmish barcha mavjudotlarida ham mavjuddir. Masalan: tirik mavjudotlarning parvarish topishlari uchun quyosh yorug'lik va issiqlik beradi, bulut yomg'irga aylanadi, shabada esadi, yerdagi tabiiy va ma'danli o'g'itlar uni oziqlantiradi va hokazo... bularning hammasi borliq olamning yaxlit bir tizimga bo'ysunishidan dalolat beradi.

Tartib-qoida va aql o'rtasidagi bog'liqlik

Har bir oqil odam uchun shu narsa ma'lumki, qayerda tartib-intizomga asoslangan biror dastgoh bo'lsa, bu dastgohni yaratuvchi aql-idrok sohibi borligidan nishonadir. Zero, har bir inson qayerdagi tartib-intizom va o'zgarmas qonun-qoidani ko'rmasin, o'sha yerda ilm va qudrat egasi borligini tushunib etadi va o'zining ushbu vijdoniy idroki to'g'ri ekaniga dalil va isbot keltirishga ehtiyoj sezmaydi.

Masalan: Bir ko'zi ojiz va besavod odam hech vaqt chop qiluvchi mashina bilan yaxshi bir insho yoki ilmiy maqola yoza olmasligi aniqdir. Yoki ikki yashar go'dak qalamni qo'liga ushlab, o'zicha xatlar chizib chiroyli bir san'at asarini yarata olmaydi. Aksincha, agar biror qadriyatli maqolani o'qib qolsak, uni yaxshi bir savodli va aql-zakovatli muallif yozganligini tushunishimiz aniq. Yoxud biron muzeyda chiroyli san'at asarini ko'rib qolsak, mohir va hunarmand rassomning qo'li bilan yaratilganiga shubhalanmaymiz. Garchand maqola muallifi yoki rassomni tanimasak ham yaratilgan asarlarni

ko'rishimiz pirovardida, bularning yaratuvchisi borligi haqida xulosaga kelishimiz shubhasizdir.

Binobarin, biror dastgohning yasaliş tizilmasi qanchalik chuqur va aniq bo'lsa, o'sha dastgoh yaratuvchisi bo'lmish muhandis ham o'ta zakovatli va yuqori malakali ekani ma'lum bo'ladi.

Har bir chizma asosida qurilgan dastgohda ilm va aql-zakovat sohibiga tayanilganini isbotlash uchun oliy matematikada qo'llanadigan «ehtimollar nazariyasi»dan foydalanishimiz mumkin. Masalan: Bir savodi yo'q odamning chop mashinasi oldiga o'tirib olib, istagan tugmalarni bosish yo'li bilan tasodifan she'r yoki maqola yoza olishi mumkinligi to'g'risida «ehtimollar nazariyasi» bo'yicha, milliardlab yil talab qilinadiki, buning uchun butun boshli kurrai zaminning umri ham etmaydi!

Alloh taolo Qur'oni Karimda bu borada shunday buyurmishdir:

﴿سُرِّيهِمْ آيَاتِنَا فِي الْأَفَاقِ وَفِي أَنْفُسِهِمْ حَتَّىٰ يَتَّيَّنَ لَهُمْ أَنَّهُ الْحَقُّ أَوَلَمْ يَكْفِ بِرَبِّكَ أَنَّهُ عَلَىٰ كُلِّ شَيْءٍ شَهِيدٌ﴾

«U (Alloh)ning haqligi oshkor bo'lsin, deb Biz ularga ham ufqlardagi, ham o'z jonlaridagi oyat-belgilarimizni ko'rsatamiz. Sening Parvoardigoring har bir narsaga shohid ekanligi (Uning borligiga) kifoya emasmi?!» (Fussilat surasi; 53 – oyat)

* * *

Demak, Allohni anglashning eng oson yo'li yaratilish olamida sayr qilish, Qur'oni Karim ta'biri bilan aytganda, ilohiy oyatlar haqida tafakkur qilmoqlikdir.

Tevarak-atrofimizdagi olam juda aniq tartib-intizom asosida yaratilgan bo'lib, bu tartib-intizom ana shu olamni yaratgan va

uning ustidan hukmronlik qiladigan hikmatli va cheksiz bilim va qudrat sohibi bo'lmish ulug' Zotning mavjudligidan dalolat beradi.

Har bir sahifasi oliy aql va tafakkur ila bitilganidan darak beruvchi yaratilishning buyuk kitobini varaqlaganimizda bu haqiqatga yanada ko'proq ishonch hosil qilamiz.

Borliq olam haqida tafakkur qilish odamlarning barcha qatlamlarining qo'lidan keladi. Oddiy odamlardan tortib eng ulug' mutafakkirlargacha bu uslubdan foydalana oladilar. Har bir kishi o'zining aql-zakovati va dunyoqarashi doirasida borliq mavjudotdagi voqea-hodisalardan Alloh taoloning mavjudligi haqidagi dalillarni ilg'ab olishi mumkin.

Imom Sodiq *(alayhis salom)* buyuradilar:

«Biror bir asbob uskunani kimdir yasagan bo'ladi. Samoga qad ko'targan binoni kimdir qurganiga ishonch hosil qiladi kishi, garchi binoning qurilish jarayonini ko'rmagan bo'lsa ham.»

Insonning aql-zakovati chegaralangan. Uning tafakkur doirasi qanchalik ulkan, dunyoqarashi keng bo'lishiga qaramasdan Alloh ilmining kengliklarini qamrab ololmaydi.

Borliq hayot biz uchun ikki qismdan iborat:

Biri oshkor, biri pinhon. Bu narsaga ilmiy tilda g'ayb va shuhud ham deyiladi.

Olamning ayrim haqiqatlari tashqi hislar bilan idrok etilmaydi. Ammo shunga qaramay, ushbu haqiqat inkor etib bo'lmaz voqelikdir. Demak, barcha haqiqatlar faqatgina tajribaga asoslangan hissiy idrok bilan anglanmaydi. Aksincha, aql va tafakkur, tajriba va hissiy idrokka ko'maklashgan taqdiridagina, ko'pgina voqea-hodisalarning sir-asrori oshkor bo'la oladi.

Ahli-Bayt ta'limotida aql Parvardigori olam tomonidan insonga ato etilgan nurga o'xshatiladi. Ushbu aql haqni botildan, yaxshini yomondan ajratguvchi mezondir.

Hazrati Ali (*alayhis salom*) bu borada buyurmishlar:

«Aql vositasi ila Allohning mavjudligiga e'tiqod hosil qilinadi va Allohning mavjudligiga iqror bo'lish bilan iymon kamolotga etadi.»

Yeru osmon, hamda inson vujudidagi har bir o'zgarishlar butun borliqni yaratgan Zotning mavjudligiga dalil bo'lib, inson qalbining qutbmosini doimo va hamma joyda hoziru nozir bo'lgan borliqning Yaratuvchisi tomon hidoyat etadi. Onga shak-shubha va gumonsirashdan uzoq bo'lgan kishilar o'z Yaratuvchilarini tezroq anglab olib Unga yaqinlashadilar. Bu yo'l esa uzundan-uzoq muqaddimaga muhtoj emas. Shu sabab, bu usul qay bir aqliy darajada bo'lishdan qat'iy nazar, xaloyiqning barcha qatlamlari uchun tushunarlidir. Bu yo'nalish hammadan oldin insonlarning fitrati (ilohiy tabiati)ni uyg'otishga asoslanadi.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Darsda keltirilgan misollardan tashqari o'zingiz sanoat dastgohlaridan misol keltiringki, uning yaratuvchisi borligidan dalolat bersin.
2. «*Ufqlardagi*» va o'z «*jonlaridagi*» belgilarning ma'nosi nimadir? Allohning bunday alomatlariga misollar keltiring.

7-DARS:

Yaratilishdagi tartib-intizom namunalari

Yaratilgan jahonning qaysi burchagiga ko‘z tashlamaylik, unda «nazmu tartib» (*tizim*), «maqsad» va «reja-dastur»ni ochiq-oydin ko‘rishimiz mumkin. Ushbu masalaning bir necha namunalari ko‘rib chiqish uchun bu darsda siz aziz o‘quvchilarga bir necha kichik va katta misollardan keltirmoqchimiz.

Hartugul, bugungi kunda ilmu sanoat rivojlanishi bilan yaratilish sirlari, tabiat olamining ajoyib tomonlari, inson, hayvonot va o‘simliklar tuzilishining ingichka taraflari, insonni hayratlantiradigan bir hujayrali mavjudotlar va yulduzlarning g‘aroyib olami kashf etilmoqda. Har bir kashfiyot bu olamning qanchalik aniq ekanligini yaqqolroq ko‘rsatib, koinot sirlarining kashf etilishi va ilm-fanning zarralar olamiga kirib kelishi bilan go‘yoki tavhid va yakkaxudolikni o‘rganish eshiklari biz tomonga ochilmoqda.

Shu narsani jur‘at bilan ayta olamizki, tabiatshunoslikka oid bo‘lgan kitoblarning barchasi bizga tavhid va yakkaxudolik darsini o‘rgatib, Parvardigori-mizning azamati va qudratini namoyon qilayotir. Negaki, ushbu kitoblar olamdagi mavjudotlarning ajoyib nazmu tartibini oshkor etib, yaratuvchi Zot naqadar olim va qodir ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

1. Badanimiz mamlakatining boshqaruv markazi:

Inson bosh suyagining ichki qismida kul rangli to‘liq bir modda mavjud bo‘lib, unga «miya», deb aytiladi. Miya badanimizning eng muhim va murakkab a‘zosini tashkil etib, aniq vazifani bajaradi. Chunki, ushbu qismdan badanning butun a‘zolariga farmon beriladi. Bu boshqaruv markazining

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

qanchalik ahamiyatga egaligini quyidagi xabardan bilib olish mumkin:

Ro'znomalarda yozilishicha, bir talaba yigit avto halokatga uchrashi ta'sirida miyasi zarba yeydi. Yigitning tashqi ko'rinishidan biror holat ro'y bermagandek edi. Lekin hamma badan a'zolari sog'lom bo'lishiga qaramay, uning miyasi chayqalgani uchun xotirasini qo'ldan berib qo'ygan edi. Fikrini ishlatishda yaxshi hamda barcha gaplarni yaxshi tushunsa-da, biroq o'z o'tmishini unutgani uchun ota-onasini ko'rganida, ularni hech taniy olmasdi. Onasini unga tanishtirishganda, uni birinchi marta ko'rib turibman, deb ajablanardi. Uni o'z uyiga olib borib, yigitga o'zining yasagan narsalarini ko'rsatishganda, ularga hayratlanib boqar va yigit bularning hammasini birinchi marta ko'rayotganligini aytar edi.

Shunda ma'lum bo'ldiki, avto halokatda miyasining xotiralar qismi lat eb, fikrlash bilan xotirada saqlash markazini bir-biriga ulab turadigan ayrim miya hujayralari ishdan chiqqan ekan.

Qizig'i shundaki, miyasining shikastlanish ta'sirida ishdan chiqqan qismining miqdori bir ignaning uchidek kichik bo'lishi mumkin. Lekin inson hayotida ana shunday miyaning kichik qismi ham qanchalik buyuk ta'sirga ega ekani va inson miyasining qurilmasi naqadar murakkab va ajablanarli ekani insonni hayratga soladi.

Miya va asablar tuzilmasi ikki qismdan iboratdir:

1. Ixtiyoriy asablar tuzilmasi: Yurimoq, so'zlashmoq, qaramoq va ... kabilar insondan ixtiyoriy ravishda sodir bo'ladigan har bir xati-harakatlar ixtiyoriy asablar tuzilmasining nazorati ostida amalga oshadi.

2. Ixtiyoriy bo'lmagan asablar tuzilmasi: Yurak, me'da va boshqa a'zolar faoliyatini boshqaradi. Bu tizimning kichik bir bo'lagi ham ishdan chiqib qolsa, yurak yoki boshqa a'zoning

mutlaqo ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Miyaning ajoyib qismlaridan biri

«*Miya*» aql-idrok, iroda, his-tuyg'u va xotira markazi bo'lib, asabiylashish, quvonish va qo'rqish singari ruhiy holatlar unga tegishlidir.

Agar biror jonzotning asab tizmasi sog'lomligicha qoldirilib, miya qismi esa olib tashlansa, u bilish va his qilish xususiyatini mutlaqo yo'qotadi. Misol tariqasida, sinab ko'rish uchun bir kabutarning miya qismini olib tashlashadi. Shunda kabutar bir muddat tirik qolsa-da, biroq uning oldiga sepilgan donni aniqla olmay, ochlikda qoladi va uni havoga uchirganlarida, ma'lum bir to'siqqa tegib, yerga yiqiladi.

Miyaning hayratlanarli boshqa qismi xotiradir

Xotira kuchi qanchalik ajoyib ekani xususida fikr yuritganmisiz? Agar bizdan bir soatchalik xotira olib qo'yilsa, qanday ham qayg'uli taqdirga duchor bo'lishimiz mumkin?

Xotira markazi, miyaning kichik qismini tashkil etib, butun umr davomidagi xotiralarni nozik xususiyatlari bilan birga saqlab qoladi. Biz bilan uchrashgan shaxslarning qaddi qomati, rangi, kiyimi, axloqi va ruhiy xususiyalarning barchasini xotira o'zida saqlab, uchrashgan har bir shaxs uchun ularga xos hujjatlar yig'imi to'playdi. Biror shaxs bilan uchrashgan zahotiyoyq, fikrimiz o'sha yiqqan ko'p hujjatlar ichidan mazkur shaxsga xos bo'lganini olib, uni zudlik bilan ko'zdan kechiradi.

Ajablanarlisi shundaki, xotira markazi o'zi to'plagan hujjatlar asosida uchrashgan shaxs bilan qanday muomalada bo'lishni bizga buyuradi. Agar u do'stimiz bo'lsa, ehtirom qilishni va agar dushmanimiz bo'lsa, undan nafratlanishni buyuradi. Bu ishlarning hammasi shu qadar tezlik bilan bajariladiki, taqriban zamon o'tishi his qilinmaydi.

Masalaning hayratlanarli tomoni shu payt oshkor bo'ladiki,

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

xotiramizda to'plangan narsalar, suratlar va tasvirlar yordamida yozib qoldirilsa, shubhasiz, ko'p varaqalar tuziladi. Natijada, keng omborni egallaydi. Shunda har bir suratni ko'p suratlar ichidan olib chiqish uchun ko'p shaxslarni ma'mur qilish lozim bo'ladi. Lekin inson xotirasi bu ishlarni osonlik va tezlik bilan bajaradi.

Shuursiz-ongsiz tabiat qandayiga aql-idrok yarata oladi?

Inson miyasining ajoyib ekani xususida ko'plab kitoblar yozilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlari kitoblarida bu borada to'la ma'lumotni qo'lga kiritish mumkin. Shunday ingichka, murakkab, aniq va sirli idrok markazini shuursiz va ongsiz bir tabiat yaratganiga ishonish mumkinmi? Shuursiz tabiat aql-idrokni yaratgan, deb bilishimizdan ham ajablanarliroq so'z bormi?

Qur'oni Karim bu xususida shunday buyuradi:

﴿وَفِي أَنْفُسِكُمْ أَفَلَا تُبْصِرُونَ﴾

«O'z vujudingizda Alloh buyukligining va qudratining belgilari mavjuddir. Bu haqiqatni ko'rmaysizlarmi?» (Zoriyot surasi, 21 – oyat)

* * *

O'ylab javob bering.

1. Inson miyasining hayratlanarli ekani xususida boshqa ma'lumotlarni bilasizmi?
2. Alloh inson miyasini turli xil hodisalar qarshida muhofaza qilish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rgan?

8-DARS:

Kichkina bir qushchada bir olam mo‘jiza

Bu darsda buyuk bir o‘lka bo‘lmish o‘z vujudimizdan tashqariga chiqib, boshqa bir mavjudotlar olamiga sayr qilib, harchand hali buyuk o‘lka bo‘lmish o‘z vujudimizning etti shahridan bir ko‘chasini ham kirib ko‘rmagan bo‘lsak ham ularning ajoyib nazm-tartibiga bir nazar tashlamoqchimiz.

G‘ira-shira bo‘lgan osmonga nazar solsak, qorong‘ida tezlik bilan har tarafga uchayotgan jajjigina chaqqon va boshqa qushlardan farq qiladigan qushchaga ko‘zimiz tushadi. Sirli ko‘lanka kabi zulmatli pardalar orasida uchayotib, o‘z ozuqasini chaqqonlik va botirlik bilan ov qiluvchi bu ajoyib kichkintoy qush hammamizga tanish bo‘lgan ko‘rshapalakdir.

Uning qorong‘ida biror to‘siqqa urilmasdan aniq va tez harakat bilan uchishi insonni hayratga soladi. Har qancha uning ustida kuzatuvlar olib borilsa, bu jumboqli qushning yangi sirlari ochila boshlaydi.

Bu qush tunning qorong‘i zulmatida bir kabutarning quyosh nurlari yog‘ib turgan kunduzi chog‘i uchayotgani kabi, tezlik va dovyuraklik bilan parvoz qilishini kuzatishimiz mumkin. Shubhasiz, agar ko‘rshapalak to‘siqlar borligini etkazib turadigan axborot vositasi bilan jihozlanmaganida edi, juda ehtiyot bilan qanot qoqib uchgan bo‘lard.

Ko‘rshapalak qorong‘i va har xil to‘siqlar va qurumlarga to‘la tunnelga qo‘yib yuborilsa-da, juda tez uchishiga qaramay, biror marta tunnel devori yoki u yerdagi turli xil to‘siqlarga urilib ham ketmaydi, uning qanoti ustiga zarrachalik qurum ham qo‘nmaydi. Ko‘rshapalakning bunday ajoyib yaratilishi uning murakkab tuzilishidadir.

Chunki, bu parrandaning vujudida «radar»ga o'xshash dastgoh mavjuddir. Bu yerda ko'rshapalakning kichik organizmidagi «radar apparati»ga o'xshash xususiyati bilan tanishishimiz uchun «radar dastgohi» xususida bir oz ma'lumot berishni zarur, deb bilamiz:

Fizikada tovushlar borasida so'z yuritilganida, ultratovush to'lqinlari haqida ma'lumot berilishicha, uning to'lqinlarining tebranish chastotasi¹ 20 kilogertsdan² yuqori bo'lgani uchun inson quloqlari ularni eshitishga qodir emas. Shu bois, ularni «ultratovush» deb atashadi. Ultratovush to'lqinlarining elastik tebranishlarini maxsus dastgoh yordamidagina eshitish mumkin.

Shunday to'lqinlarni biror bir kuchli yuboruvchi moslama orqali fazoda paydo qilsak, ushbu to'lqinlar fazoda keng tarqalib, olg'a bora boshlaydilar. Biroq fazoning biror nuqtasida biror-bir to'siqqa, masalan; dushmanning harbiy tayyorasiga yoki uning uchog'iga urilganda, devorga urilgan koptok kabi yoxud toqqa urilib, undan qaytib eshutiladigan aks-sado singari qaytib keladi. Ushbu to'lqinlarning to'siqqa urilib qaytib kelish zamonining oralig'i miqdoridan o'sha to'siq masofasini aniqlash mumkin.

Tayyoralar, uchqichlar, uchoqlar va kemalarning aksari «radar dastgohi» yordamida boshqariladi va istalgan maqsad sari yo'naltiriladi va shuningdek, dushman tayyoralari va kemalarini qidirib topish uchun radardan foydalaniladi.

1. Ma'lum vaqt ichida takrorlangan harakat yoki tebranishlar soni, boshqa ta'bir bilan aytganda; chastota – bu bir soniyadagi to'liq tebranishlar sonidir, u gerts bilan o'lchanadi. (Fizikaga oid istilah)

2. Kilogerts – bu davriy tebranishlar chastotasining o'lchov birligi. (Tarjimon izohi)

Ko'rshapalak biror to'siqqa yaqinlashganida, ulardan chiqadigan, inson sezishga qodir bo'lmagan ultraqisqa to'lqinlarni seza olish qobiliyati bilan, o'sha to'siqdan uzoqlashishga yordam beradi. Ko'p hollarda hozirgi zamon sanoat jihozlarida radardan foydalaniladi. Radarlar samoetlarda ham qo'llanilib, uni maqsad sari yo'naltiradi. Harbiy tayyorlarda ham radarlardan foydalaniladi. Ular dushman ob'ektini topishda qo'l keladi va h.k.

Olimlarning aytishlaricha, ko'rshapalakning kichik organizmida radarga o'xshash dastgoh mavjud bo'lib, u eshitilmaydigan past to'lqinlarni mikrofon kabi 30-60 barobar kuchaytirib beradi. Natijada, ko'rshapalak devor va to'siqlardan kelayotgan to'lqinlarni o'ta kuchaytirilgan holda qabul qiladi. Agar ko'rshapalakni biror xonada uchirsak va o'sha zahotiy oq ultratovush to'lqinlarini eshitish mumkin bo'lgan to'lqinlarga o'zgartiradigan mikrofonni o'rnatib, quloqqa ozor beradigan g'ala-g'ovur ovozlarni xonani qo'rshab oladi va har soniyada 30 dan 60 martabagacha ultratovush to'lqinlari ko'rshapalakdan eshitiladi.

Lekin bu yerda bir savol tug'iladi, u ham bo'lsa: *«Ko'rshapalakning qaysi bir a'zosi to'lqinlarni jo'natadi-yu va qaysi biri qabul qilib oladi? Boshqacha qilib aytganda: Ko'rshapalakning to'lqinlarni jo'natuvchi dastgohi qaysi va qabul qilib oluvchi dastgohi qaysidir?»*

Bu savolga olimlar quyidagi javobni beradilar:

Ushbu to'lqinlar ko'rshapalak halqumining kuchli mushaklari orqali paydo bo'lib, burnining teshiklaridan tashqariga yuboriladi. To'siqlarga urilib qaytgan to'lqinlarni esa uning katta-katta quloqlari qabul qilib oladi.

Shunday qilib, ko'rshapalakning tungi ajoyib uchishining asosiy omili uning quloqlaridir. Rus olimi «*Jurin*» o'zining ko'rshapalak ustida olib borgan tekshirishlari asosida shunday

xulosaga keladi: «Agar ko'rshapalakning quloqlari kesib tashlansa, u biror to'siqqa urilmay uchish qobiliyatini yo'qotar ekan. Lekin agar uning ko'zlari butkul olib tashlansa, xuddi avvalgidek, oliy mahorat bilan ucharkan.»

Kichkina jajji ko'rshapalakning ko'zlari bilan emas, balki quloqlari orqali ko'rishi naqadar hayratlanarli! Endi aytingchi, ana shunday jussasi kichik va jajji bir parrandaning vujudiga kim shunday aniq, hayratomuz va qudratli jihozni o'rnatib qo'ygan? Kim ko'rshapalacka kechquruning qorong'i-zulmatida uchayotganida o'z jonini turli xil xavf-xatardan saqlab qolish uchun to'lqinlarni jo'natib, ularni qabul qilib oluvchi jihozdan foydalanishni o'rgatgan?... Chindan ham kim o'rgatgan?

Ongsiz va shuuri bo'lmagan tabiat bu ishni qila oladi, deyish mumkinmi? Buyuk olimlar mashaqqat chekib, ko'p mablag'lar sarflab, yasagan dastgohni tabiat osonlik bilan ko'rshapalakning organizmida yarata oladimi?

Hazrati amiral mo'minin Ali (*alayhis salom*) «*Nahjul balog'a*» nomli kitoblarida ko'rshapalak yaralishi to'g'risida irod etgan xutbalarida shunday deydilar:

«وَلَا تَمْتَنِعْ مِنَ الْمُضِي فِيهِ لِعَسَقِ دُجْنِيهِ... فَسُبْحَانَ الْبَارِيءِ لِكُلِّ شَيْءٍ، عَلَيَّ غَيْرِ مِثَالٍ خَلَا

مِنْ غَيْرِهِ»

«Qorong'i zulmatda hech ikkilanmasdan shitob uchayotgan ko'rshapalacka qarang... Darhaqiqat, butun ayb-nuqsondan pok va munazzah bo'lgan Allohga hamd-sanolar bo'lsinki, U hech bir namunasiz o'z qudrati bilan maxluqotlarini yaratadi» (*Nahjul balog'a*, 154 – Xutba)

O'ylab javob bering:

1. Ko'rshapalak yaralishi haqida boshqa yana qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Ko'rshapalakning qanotlari, nasl qoldirishi va hatto uxlash tarzi ham boshqa hayvonlardan farq qilishini bilasizmi?

9-DARS:

Hasharot va gullarning o‘zaro do‘stligi

Bahor fasli havolar asta-sekin isiy boshlagan bir kunda bog‘ yoki ekinzorlarga bir boqing. Dasta-dasta mayda o‘ynoqi hasharotlarni ko‘rishingiz mumkin. Asalarilar, tillarang pashshalar, kapalak va boshqalar gullar tomon harakat qilib, bir-bir ularning ustiga qo‘nishlarini zerikmasdan soatlab tomosha qilishingiz mumkin.

Ular shunchalik o‘z ishlari bilan ovoradirlarki, go‘yoki ularning tepalarida junboqli bir kuch ularga farmon berib turgandek tuyuladi. Qanot va oyoqlari gullar changiga botib, ularning sarg‘ish rangini o‘ziga olgan bu hasharotlar ishchi kiyimini kiyib olib, o‘z ishiga sho‘ng‘ib ketgandek ko‘rinadilar.

Bu jajji mavjudotlarning qilayotgan ishlari o‘ta muhim va ulkan ekani xususida professor Reliun Bertin shunday deydi:

«Agar hasharotlar bo‘lmaganida edi, ko‘pgina mevalardan bebahra qolgan bo‘lur edik.»...

Biz uning so‘ziga qo‘shimcha qilib aytadigan bo‘lsak: *«Agar hasharotlar bo‘lmasa, bog‘ va ekinzorlar o‘zining tarovatini, so‘lim va yashnayotgan holatini yo‘qotgan bo‘lar edi»*, deymiz. Chunki, hasharotlar mevalarni parvarish qilib, gul urug‘larining etishishiga yordam berishadi.

Balkim nima uchun bunday deganimizga taajjublanayotgan bo‘lsangiz kerak. Chunki, ekin va o‘simliklarning eng muhim va hayotiy ishi bo‘lmish chatishish va juftlashish amali hasharotlar yordamida amalga oshadi. O‘simliklar va gullarning ham hayvonlar kabi ikki jinsligi (erkak va urg‘ochidan tashkil topgani) haqida eshitgan bo‘lsangiz kerak. Gullar va o‘simliklar o‘rtasida urchish ishi amalga oshmaguncha, urug‘lanib, meva

va hosil bermaydi.

Ammo bir yerda turib, his-tuyg'u va harakatsiz ko'rinadigan o'simlik va giyohlar qanday qilib bir-birlari bilan chatishib ko'payadilar? Qandayiga inson spyermasi singari bo'lgan erkak o'simliklarning changi, urg'ochi o'simliklar urug'i bilan chatishib, ularning juftlashishi amalga oshadi? Bu to'g'risida fikr qilganmisiz?

Ushbu ish ko'p o'rinlarda hasharotlar zimmasiga yuklangan. Albatta ba'zi yerlarda shamolning esishi ham ushbu juftlashishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Biroq bu jarayon biz o'ylagandek sodda emas. Bu muborak «*nikohlanish*» ishi hasharotlarning sovchiligida amalga oshadi va o'ziga xos tarixiga va maxsus tartib-qoidaga ega bo'lib, biz bu haqda bir oz to'xtalib o'tmoqchimiz.

* * *

Qadimiy ikki chin do'st

Tabiatshunoslarning tadqiqot ishlari natijasida erishilgan ma'lumotlar bo'yicha, yer yuzida o'simliklar va gullar, tuproqshunoslik ikkinchi davrining ikkinchi yarmida vujudga kelgan bo'lib, o'sha davrdayoq hasharotlar ham vujudga kelishgan. Bu ikkalasi hamisha yaratilishning hodisalarga to'lib toshgan tarixi bo'ylab, qadimdan ikki samimiy va vafoli do'st sifatida birga yashab, bir-birlarining takomil topishlariga ko'maklashib kelmoqdalar.

Gullar doimiy do'stlari bo'lmish hasharotlarni o'zlariga jalb qilish uchun o'zlarida shirin va xushbo'y bo'lgan shirani zaxira qilishadi. Hasharotlar esa erkak gullarning changini olib borib, urg'ochi gullarga etkazib berish bilan birga, gullarning juftlashib hosil berishiga yordam beradilar. So'ngra esa gullarning bag'riga qo'nib, o'sha shirani tekingina qo'lga

kiritadilar-da, keyin uni iste'mol qiladilar. O'ziga xos va arzirli bo'lgan bu shirinlik shu qadar hasharotlar uchun totlidirki, ularni beixtiyor o'z tomoniga tortadi.

Ba'zi botaniklarning fikricha, gullarning chiroyli rangi va o'zidan taratadigan yoqimli hidi ham hasharotlarni gullar tomon jalb etishda muhim rol o'ynaydi. Asalarilar ustidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, ular ranglarni yaxshi ajratib, gullar hidini seza oladilar.

Darhaqiqat, gullar o'zlarini hasharotlar uchun chiroyli va xushbo'y qilib ko'rsatadilar, natijada ishtiyoqli kapalaklar va nozik didli asalarilar ularga mahliyo bo'lib, ularning bu chaqirig'ini ochiq ko'ngil bilan qabul qilib, gullarning juftlashishidagi birinchi bosqichini boshlab beradilar. Shunda ular gullarning shirasini ham eya boshlaydilar. Gullarning bunday shirin shirasi hasharotlarning eng oliy ozuqasi hisoblanib, bu shirin ozuqaning to'planishi esa asalni tashkil etadi. Zeroki, hasharotlar gullar ustiga qo'nganda gullar shirasining bir qismini gulning o'zida eb, surbet qo'noqlar singari ko'proq qismini o'zi bilan olib boruvchi asalarilar o'sha ozuqani o'z uyalarida zaxira qilib, yig'ib qo'yadilar va bu ishda ham gullar foyda ko'rishadi va ham asalarilar o'ziga ozuqa jamg'arishadi. Shuning uchun, bu ikki do'stning do'stligi mangudir.

* * *

Allohni tanish darsi

Hasharotlar va gullarning hayratlanarli hayotini kuzatayotgan inson fikrida beixtiyor ushbu savol tug'iladi: «*Bu muhabbat va do'stlik aloqasini gullar va hasharotlar orasida kim yaratgan ekan?*»

Gullarga bu totli va shirin nektarni kim bergan? Hasharotlarni o'ziga rom qiladigan guldagi go'zal ranglar, www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

yoqimli va xushbo'y hidlarni kim ularga ato etgan?

Gullar changini tashish qulay bo'lishi uchun hasharotlarga, kapalaklarga, asalarilarga va tilla rangli arilarga nozik badan va oyoqlarni kim baxsh etgan?

Nima uchun asalarilar ma'lum muddat faqat bir xil gullar taraf boradilar? Nimaga hasharotlar va gullarning paydo bo'lishi bir paytga borib taqaladi?

Biror odam qanchalik o'jar bo'lmasin, bu yaratilishlarning hammasi shunchaki tasodifan va oldindan rejalashtirilmagan holda yuzaga kelgan deb ayta oladimi? Nahotki, shuursiz tabiat ana shunday hayratli sahnalarni yaratgan bo'lsa-ya? Hargiz! Bunday bo'lishi mumkin emas!

Qur'oni Karimda bu haqda shunday deyilgan:

﴿وَأَوْحِي رَبُّكَ إِلَى النَّحْلِ أَنْ اتَّخِذِي مِنَ الْجِبَالِ بُيُوتًا وَمِنَ الشَّجَرِ وَمِمَّا يَعْرِشُونَ ﴿٦٨﴾ ثُمَّ كُلِي مِن كُلِّ الثَّمَرَاتِ فَاسْلُكِي سُبُلَ رَبِّكِ ذُلُلًا يَخْرُجُ مِنْ بُطُونِهَا شَرَابٌ مُخْتَلِفٌ أَلْوَانُهُ فِيهِ شِفَاءٌ لِلنَّاسِ إِنَّ فِي ذَلِكَ لَآيَةً لِّقَوْمٍ يَتَفَكَّرُونَ﴾

Parvardigoring asalariga: «Tog'lardan, daraxtlardan va ko'tarilgan so'ritoklardan uy tutgin.

So'ngra hamma mevalardan egin. Va Robbing oson-qulay qilib qo'ygan yo'llardan yurgin», deb vahiy qildi. Ularning qorinlaridan turli rangdagi sharbat-asal chiqar. Unda odamlar uchun shifo bordir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavm uchun oyat-belgi bordir.» (Nahl surasi; 68 va 69 – oyatlar).

O'ylab javob bering:

1. Gullar ildizining shirinligi, ularning xushbo'yliги va go'zalligining foydalaridan aytib bering.
2. Asalarilarning ajoyib hayotlaridan yana nimalar bilasiz?

10-DARS:

Cheksiz zarrachalar olami

Bizlar mo‘jizalarga to‘la bu dunyoning bag‘rida yashayotganimiz uchun uning bu mo‘jizalaridan hech hayratlanmaymiz, chunki, ularga odat qilganmiz va ular bizga shunchaki oddiy tuyuladilar go‘yo! Misol tariqasida:

1. Mayda hasharotlar olamiga diqqat bilan qarajak, jussasi bir yo ikki millimetr keladigan, biroq ularning qo‘l-oyoq, ko‘z, quloq va hatto miyaga ega bo‘lishlari va asab tizmasi hamda hazm qilish tizimining mavjudligiga hayron qolasan, kishi.

Agar bir chumolining miyasini mikroskop ostiga olib qarajak, unda badanning har bir a‘zosini boshqaruvchi qismlar mavjud ekanligini ko‘ramiz. Chumoli miyasi shunday murakkab tuzilishga egaki, biror-bir kichik o‘zgarish kiritilsa, chumolida falajni yuzaga keltirishi mumkin.

Hayratlanarlisi shundaki, ninaning uchidek keladigan bu organda bir dunyo hissiyot, zakovat, madaniyat va did-hunarmandlik yashiringan. Olimlar umrlarini bu kichik bir hasharotni o‘rganish uchun sarflab, uning hayratlanarli va qiziqarli ekani haqida ko‘pgina ma‘lumotlarni o‘z kitoblarida yozib qoldirganlar.

Kichik bir mavjudotda joy olgan bu hush va zakovatni ninaning uchichalik miqdorda ham ong va shuuri bo‘lmagan tabiat yarata olarmikan?

2. Sirlarga to‘la dunyomizning hozirgacha tanilgan eng kichik zarrasi – atom va uning qismlaridir. Atomlar shunchalik kichikki, uni hatto kuchli mikroskoplar ham ko‘rishdan o‘zib o‘tadirlar.

Agar atomlarning naqadar kichikligi haqida bilmoqchi

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

bo'lsangiz, bir tomchi suvda yer yuzidagi bor-yo'q mavjudotlarning sonidan ham ko'proq miqdorda atom borligini tasavvur qilishingiz, kifoyadir. Agar bir santimetr miqdoridagi nozik bir simda nechta proton borligini bilmoqchi bo'lsak va bu ish uchun ming nafarni yordamga chaqirsak va har bir soniyada bitta protonni ajratsak, u holda uni sanab chiqish uchun kecha-yu kunduz uxlamasdan tinimsiz ishlasak, atomlar xilma-xilligini nazarga olgan holda 30 yildan 300 yilgacha vaqt kerak bo'ladi.

Agar bir santimetrlik ingichka simning o'zida shuncha ko'p atom mavjud bo'lsa, butun boshli osmon va yerda, suv va havoda, Somon yo'li (Galaktika)larda va quyosh sayyorasida qancha atom bor ekan? Ularning sonini ham tasavvur etish odamzotga qiyin bo'lib, uni toliqtirib qo'yadi. Ammo atomlarning sonini yaratgan Zotdan o'zga hech bir mavjudot aniq holda bila olmas.

* * *

Atomlar insonga yakkaxudolik darsini beradi

Atomlar haqidagi ilm bugungi kunda muhim va quvonch baxsh etadigan ilmlardan hisoblanadi. O'ta kichik zarralardan iborat bo'lmish atomlar bizga yakkaxudolik va xudoshunoslik sabog'ini beradi, chunki, atomlar olamida hammadan ko'proq to'rt masala inson nazarini o'ziga jalb etadi:

1. Favqulodda nazm-tartib (tizim): Atomlarning hozirgacha kashf etilgan soni 100 dan ortiq bo'lib, ulardagi elektronlar soni 1 tadan boshlanib, 100 dan ortiq bo'lishi mumkin. Bu ajoyib tizim shuursiz va ongsiz tabiatning ishidir deb ayta olamizmi?

2. Kuchlar muvozanati: Ikki manfiy zaryadga ega bo'lgan zarrachalar o'zaro tortishish kuchiga egadirlar. Shunga ko'ra, manfiy zaryadli elektronlar bilan musbat zaryadli atom o'zagi

(yadrosi) o'rtasida o'zaro tortishish kuchi mavjuddir.

Elektronlar neytronlar atrofida aylanishlari bilan markazdan qochish kuchi (itarish kuchi)ni yuzaga keltiradilar. Bu markazdan qochish kuchi elektronlarni atom muhitidagi neytrondan uzoqlashtirib, atomning yorilishiga olib keladi, boshqa tarafdin esa, atom o'zagi (yadrosi)ning zaryadlangan elektronlarni o'zi tomon tortishi natijasida paydo bo'lgan kuch atomning nobud bo'lishiga olib keladi.

Qanday ham aniq hisob-kitob bilan atomlarda o'rnatilgan tortish va itarish kuchi elektronlarni atom atrofidan qochib ketishdan yoki atomga tortilib yo'q bo'lishidan saqlab qoladi va bunday qarama-qarshi kuchlarni muvozanatda saqlab turib, ularni o'z yo'nalishi tomon harakatlantiradi. Shunday ingichka muvozanatni shuursiz va ongsiz tabiat yarata oladi deb o'ylaysizmi?

3. Har biri o'z yo'nalishida harakatlanadi: Yuqorida aytib o'tganimizdek, atomlar yuzdan ortiq elektronlarga ega bo'lishlari mumkin. Biroq bu elektronlarning hammasi bir xil yo'nalishda harakatlanmay, balki, har qaysi o'ziga xos orbita bo'ylab, muayyan masofada va o'z xududida o'ta tezlik bilan harakatlanadi. Millionlab yillar davomida ma'lum masofani saqlagan holda biror marta o'zaro to'qnashuvlarga duch kelmay, aniq o'lchov bilan harakatlanayotgan zarrachalarni kim boshqarmoqda ekan?

Ularning har birini hayratlanarli nizom va tartib-qoida bilan muayyan madorda va aniq yo'nalishda qilib qo'yishni oddiy bir ish deb o'ylaysizmi?

4. Atomlarning buyuk qudrati: Atomning ulkan kuchini chuqurroq anglash uchun e'tiboringizni quyidagi voqeaga qaratamiz:

1945 – yilda suvsiz va o'simliksiz qurib yotgan Meksikaning

bir sahosida atom bombasini sinovdan o'tkazish ishlari amalga oshiriladi. Shunda kichkinagina bir atom bombasi po'latdan yasalgan minoraga qarab otiladi. Portlashdan keyin po'lat minora erib suvga aylangach, undan bug' chiqib, chaqmoq va qo'rqinchli bir tovush yuqoriga ko'tariladi. Olimlar borib qaraganlarida, minoradan hech qanday asar qolmagan edi.

O'sha yilning o'zida ikkita kichkina atom bombasi Yaponiyaga – biri Nagasaki va ikkinchisi esa Xirosima shahriga tashlanadi. Atom bomba ta'sirida Nagasakida 70 ming odam yo'q bo'lib, yana shuncha odam og'ir yaralanadi. Xirosimada esa 30 mingdan 40 mingga yaqin odam nobud bo'lib, xuddi shu miqdordagi kishilar yarador bo'ladilar. Ushbu mojarodan so'ng Yaponiya so'zsiz Amerikaga taslim bo'ladi.

Faqatgina atomning turli sirlarini o'rganib chiqishning o'zi – insonni olamning yaratuvchisi tomon olib borishga kifoya qilmaydimi? Yaratuvchining borligiga dalolat qiladigan olamdagi mo'jizalar soni undagi atomlar sonidan oz emasdir.

Alloh taolo Qur'oni Karimda bu haqda shunday marhamat qiladi:

﴿وَلَوْ أَنَّمَا فِي الْأَرْضِ مِنْ شَجَرَةٍ أَقْلَامٌ وَالْبَحْرُ يَمُدُّهُ مِنْ بَعْدِهِ سَبْعَةُ أَبْحُرٍ مَّا نَفَدَتْ كَلِمَاتُ اللَّهِ إِنَّ اللَّهَ عَزِيزٌ حَكِيمٌ﴾

«Agar yer yuzidagi (bor) daraxt qalamlar bo'lib, dengiz (siyoh bo'lsa va) undan so'ng yana etti dengiz unga yordamga kelsa, Allohning so'zlari tugab-bitmas. Albatta, Alloh qudrat va hikmat Egasidir.» (Luqmon surasi, 27 – oyat)

* * *

O'ylab javob bering.

1. Chumolilar haqida yana qanday qiziqarli ma'lumotlar bilasiz?
2. Atomning tuzilishini doskaga chizib, ko'rsatib bera olasizmi?

10 – DARSNING ILOVASI:

Allohning sifatlari haqida

Shuni bilmoq lozimki, yaratilmish olam sirlarini o‘rganib chiqish orqali Allohning borligiga osonlik bilan ishonch hosil qilganimiz kabi, Allohning sifatlarini ham anglab olish oson bo‘lmay, ko‘proq diqqat qilishni insondan talab qiladi.

Nima uchun deysizmi? Chunki, Allohning hech bir sifati bizga va biz ko‘rib, eshitib yurgan narsalarga aslo o‘xshamaydi. Shuning uchun Uning sifatleri bilan tanishib chiqishning dastlabki sharti, yaratilgan maxluqotlarning butun sifatlarini Allohning Zoti pokidan chetlashtirishdir. Boshqa so‘z bilan aytganda, Allohni tabiat olamidagi cheklangan mavjudotlarning hech biriga o‘xshatmaslikdir. Mana shu yerda bu masalaning o‘ta nozikligini tushunib etamiz. Zero, biz tabiat qo‘ynida tug‘ilib, uning qo‘ynida unib o‘sganmiz va doim tabiat bilan aloqada bo‘lib, unga bog‘liqlik topganmiz. Shu bois, biz har bir narsani tushunish uchun tabiatdagi mavjudotlar bilan taqqoslab, ularni ko‘z oldimizga keltirishni yaxshi ko‘ramiz. Bu holat esa, Allohning sifatlarini tanishga to‘sqinlik qiladi.

Boshqa ibora bilan aytganda biz ko‘rib o‘tgan narsalarning barchasi jism va jismoniy xususiyatlar bo‘lib, muayyan bir zamon va makonga tegishlidirlar. Boshqacha aytganda, maxsus o‘lcham va shakllarga egadirlar. Shunga asosan na jism, na zamon va na makonga ega bo‘lmagan, ayni holda butun zamonlar va makonlarni qamrab olgan va har jihatdan beqiyos, bepoyon va cheksiz bo‘lgan Allohni tasavvur etish o‘ta mashaqqatli ishdur. Negaki, biz Allohni tabiatdagi biror mavjudot ko‘rinishida tasavvur qilmoqchi bo‘lamiz. Shuning uchun, bu yo‘lda ehtiyot bilan qadam tashlashimiz lozim bo‘ladi.

Ammo shu narsani ham eslatib o'tish kerakki, biz hech qachon Allohning zoti qandayligini tasavvur qila olmaymiz va buning umidida ham bo'lmasligimiz kerak. Chunki, bunday umidda bo'lishimiz, cheksiz bir ummonni kichik bir akvariumga sig'dira olish mumkin yoki onaning qornidagi bolani yorug' dunyodagi hamma narsadan xabardor qilish mumkindir deb aytishga o'xshaydi. Holbuki, bunday ish mumkin emasdir va asosan inson aqli Alloh taoloni butkul anglab olishdan ojjizdir.

Bu masalada ozgina og'ish insonni xudoshunoslik va yakxaxudolik yo'lidan adashtirib qo'yadi. Natijada uning butparastlik va maxluqotlarga sig'inish botqog'iga botib qolishi hech gap emas. Shuning uchun ehtiyot yo'lini tutib, Alloh taoloning sifatlarini maxluqotlar (yaratilganlar) sifati bilan qiyoslamasligimiz lozim.

Olamdagi mavjudotlarda «*kamolot va komillik*» sifatlarini ko'rishimiz mumkin. Go'zallik, adolat, to'g'riso'zlik, ezgulik va boshqalar ijobiy xislatlar bo'lib, Yaratuvchi tomonidan bandalarga ato etilgan. Shubhasiz, maxluqotlarda mavjud bo'lgan barcha sifatlar Xoliqning o'zida to'la-to'kis va barkamol shaklda mavjuddir. Aks holda maxluqotlar ham bu sifatlarga ega bo'lmasdilar. Qudrat, ilm, hikmat, adolat, rahmat va boshqalar Allohning sifatlaridandir.

Allohning zoti cheksiz bo'lgani uchun Uning sifatlari ham zotiga teng bo'lmog'i lozim. Boshqa so'z bilan aytganda, Alloh ayni ilmdir va shuningdek, ayni qudratdir va hokazo.

Allohning jamol va jalol sifatlari

Odatda Allohning sifatlarini ikki guruhga bo'lishadi:

1. Subutiy sifatlar, ya'ni Alloh taoloda mavjud bo'lgan sifatlar. Bunday sifatlarga «*jamol sifatlar*» ham deyiladi.

2. Salbiy sifatlar, ya'ni Alloh taolo bunday sifatlarga ega bo'lmay, ulardan pok va munazzahdir. Bunday sifatlarni «*jalol sifatlar*» deb ham atashadi.

Endi shunday savol tug'ilishi mumkin: Allohning nechta sifati bor?

Ushbu savolga javoban shunday deymiz: Bir qarashda Allohning sifatlari bepoyon va cheksizdir va boshqa qarashdan esa Allohning hamma sifatlari birgina sifatga kelib xulosa bo'ladi. Chunki, Allohning barcha subutiy sifatlarni quyidagi jumlada xulosa qilish mumkin:

Allohning zoti cheksiz va beqiyos bo'lib, «*kamolot va komillik*» deb hisoblanmish butun xususiyatlar Allohga xosdir.

Aksincha, Allohning salbiy sifatlari esa ushbu iborada xulosa qilinadi: Allohning zoti har qanday ayb-nuqsondan pok va munazzahdir.

Biroq kamolotlar va ayb-nuqsonlar darajalari bilan farqlanib, cheksiz kamolot va bepoyon ayb-nuqsonni tasavvur qilish mumkin. Shuning uchun qisqagina qilib aytganda: Alloh taolo cheksiz va bemiqyos subutiy sifatlar va barcha kamolotlar egasi bo'lib, ayb-nuqson deb hisoblangan hamma xususiyatlardan pok va munazzahdir. Zero, Alloh taolo «*kamol va yuksaklik*» deb tasavvur qilingan barcha xususiyatlarga ega bo'lgan va aybu nuqsonlik deb tasavvur etilgan hamma xususiyatlardan munazzah va yiroq bo'lgan zotdir. Demak, Allohning subutiy va salbiy sifatlari benihoya va cheksizdir.

* * *

Allohning mashhur subutiy sifatlari

Allohning mashhur subutiy sifatlari quyidagi iborada jamlangan:

Olim, Qodir, Hay-yu Murid va Mudrik

Hamda Qadim-u Azaliy so'ngra Mutakallim-u Sodiqdir

1. Alloh olimdir, ya'ni hamma narsani bilguvchi zot.
2. Alloh qodirdir, ya'ni har narsaga qodir bo'lgan zot
3. Alloh hayydir, ya'ni tirikdir. Zero, tirik zot ilm va qudrat egasi bo'la oladi. Alloh taolo ilm va qudrat egasi bo'lgani uchun hayy-tirikdir.
4. Alloh muriddir, ya'ni U iroda va ixtiyor sohibi bo'lib, o'z ishlarida majbur emas va har bir ishni muayyan bir maqsad va hikmat uzra amalga oshiradi. Yer va osmonda hech bir narsa maqsadsiz va hikmatsiz yaralmagan.
5. Tangri taolo mudrikdir, ya'ni U har narsani idrok qiluvchi, hammani ko'rib turuvchi va butun tovushlarni eshituvchi zot bo'lib, hammadan ogoh va xabardordir.
6. Alloh taolo qadim va azaliydir, ya'ni hamisha bor bo'lgan va Uning borligining boshlanishi bo'lmagan. Zero, Uning mavjudligi zotidan jo'shib chiqqan va shuning uchun abadiy va mangu zotdir, chunki, mavjudligi uning o'zidan bo'lgan zot, foniy va yo'q bo'lishi ma'nosizdir.
7. Xudo mutakallimdir, ya'ni U havoda to'liqlarni paydo qilib, payg'ambarlar bilan so'zlasha olish qudratiga egadir. Biroq buning ma'nosi Allohning og'zi, tili va bo'g'iz torlaridan iborat so'zlashadigan a'zosi bor degani emas.
8. Alloh taolo sodiqdir, ya'ni U rostgo'y va to'g'ri so'z bo'lib, aytgan so'zlari rost va ayni haqiqatdir. Zeroki, yolg'on so'zlash nodonlik va bilmaslikdan yoki zaiflik va kuchsizlikdan yuzaga keladi. Cheksiz ilm va qudrat egasi bo'lmish Allohdan yolg'on so'z sodir bo'lishi maholdir.

* * *

Allohning mashhur salbiy sifatлари

Allohning salbiy sifatleri ostki iborada jamlangan holda keltirilgan:

U na murakkab, na jism, na ko'rinadigan, na makonlidir

Sheriksiz-u ma'no-mafhumlarsizdir, sen Uni Yaratuvchi, Behojat bil

1. Alloh murakkab emas, ya'ni qismlar va bo'laklardan tuzilgani emas. Zero, agar qism va bo'laklardan tuzilganida edi, bu qismlarga ehtiyoji bo'lar edi, holbuki, Alloh hech bir narsaga ehtiyoji bo'lmagan zotdir.
2. Alloh jism emas, chunki, agar jism bo'lganida edi, ma'lum makonda chegaralanib qolib, o'zgaruvchan va foniy bo'luvchi bo'lar edi. Biroq, U abadiy, azaliy va biror makonga cheklanib qolmagan benihoya va cheksiz zotdir.
3. Alloh ko'zga ko'rinmasdir, agar ko'zga ko'rinadigan bo'lsa edi, u holda «*jism*» bo'lib, cheklangan va foniy bo'lardi.
4. Alloh hech bir makonga ega emas, chunki, U jism emas, to makonga ehtiyoji bo'lsin.
5. Allohning sherigi yo'qdir, agar sherigi bo'lganda edi, chegaralangan bo'lib qolardi. Zero, ikki mavjudning har jihatdan chegarasiz va benihoya bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, olamning yagona tizimi yaratuvchining yagonaligidan dalolat beradi.
6. Alloh hech bir ma'no va mafhumba ega emas, ya'ni Uning sifatleri zotining ayni o'zidir.
7. Alloh muhtoj emas, balki behojat va yuksakdir. Zeroki, ilm va qudrat va boshqa kamolot jihatidan bepoyon va bemiqyos bo'lgan zot, har qanday ayb-nuqsondan pok

va munazzah bo‘lib, hech kimga muhtoj bo‘lmaydi.

Alloh taolo Qur‘oni Karimda bu borada quyidagi me‘yorni bayon qiladi:

﴿لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ﴾

«Hech narsa U kabi emasdir.» (Sho‘ro surasi, 11 – oyat)

* * *

Zotiy va Fe‘liy sifatlar

Alloh taolo sifatlarining yana boshqa bir taqsimoti mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Zotiy sifatlar
2. Fe‘liy sifatlar.

Ayrim sifatlar zotiy bo‘lib, hech bir maxluqotni nazarga olmagan taqdirda ham doimo Alloh taolo uchun sobit va oshkordir. Masalan; ilm, qudrat, hayot va boshqalar. Mazkur sifatlarning «zotiy» deb nomlanishi ularni qo‘lga kiritish uchun maxluqotlarni nazarga olmay, faqat Allohning zotini nazarda tutish kifoya qilgani sabablidir.

Lekin, Allohning shunday sifatleri ham borki, Uning faqat maxluqotlarga nisbatan bo‘lgan aloqasini nazarga olgan holdagina mazkur sifatlar ayon bo‘ladi. Bunday sifatlar «fe‘liy» sifatlar deyiladi. Misol uchun; Roziq (rizqlantiruvchi), Xoliq (yaratuvchi), Rahiym (rahimli) Rabb (tarbiyalovchi), Iloh (sig‘inishga loyiq zot), Murid (iroda sohibi), Hakim (hikmat egasi), Sodiq (rostgo‘y) va shunga o‘xshash Qur‘oni Karim oyatlari va hadisi shariflarda kelgan ko‘p sifatlarni keltira olamiz.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Allohning yagonaligiga va Uning sherigi yo'qligiga boshqa dalillaringiz bormi?
2. Shu paytgacha uchta xudoga ishonadigan dinlar haqida eshitganmisiz? Ikki xudolik dinlar haqidachi?

ALLOHNING ADOLATI HAQIDA O‘N DARS

1-DARS:

Adolat nima?

- ❖ **Nima uchun Alloh sifatleri orasidan Adolat sifatini din asoslarining biri, deb tan olishgan?**
- ❖ **«Adolat» bilan «tenglik» o‘rtasidagi farq nimada?**

Bu darsda birinchi bo‘lib shu narsaga aniqlik kiritib olishimiz lozim bo‘ladiki, nima uchun buyuk ulamolar Alloh sifatlaridan biri bo‘lmish Adolat sifatini dinning besh asoslaridan biri deb tanlab olishgan?

Alloh Olimdir, Qodirdir, Odildir, Hakimdir, Rahmon va Rahimdir, Azaliy va Abadiydir, Xoliq va Roziqdir. Nimaga endi barcha sifatlar orasidan aynan Adolat sifatini tanlab, dinning besh asoslaridan bir asosi qilib belgilanganlar?

Bu muhim savolga javob berish uchun avval bir necha masalaga e‘tiboringizni qaratmoqchimiz:

1. Allohning adolati boshqa sifatlar orasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘pgina boshqa sifatlar bu sifat (ya’ni adolatga) kelib taqaladi. Negaki, «Adolat» keng ma’nodagi «*har narsani o‘z yeriga qo‘yish*» tushunchasini anglatadi. Shunga binoan, Allohning Hakim, Razzoq, Rahmon, Rahim kabi boshqa sifatleri Uning odillik sifatiga muvofiq kelib, Adolat sifati ularni o‘z ichiga oladi.

2. Qayta tirilish va qiyomat masalasi ham Allohning odilligiga chambarchas bog‘liq bo‘lib, payg‘ambarlarning yuborilishi va imomlarning tayin etilishi ham Tangrining

adolatidan kelib chiqqan.

3. Islom dini kirib kelgan dastlabki davridayoq Allohning adolati xususida musulmonlar orasida kelishmovchilik yuzaga kelgan edi. Ahli sunnat musulmonlari toifasidan bo'lmish «*Ashoira*» guruhi yoxud Ash'ariylar (Abulhasan Al-Ash'ariyning izdoshlari) Allohning adolatini butunlay inkor qilib, Alloh borasida adolat va zulmdan so'z ochish bema'nidir, negaki, butun olam Uning mulkidir, har ishni bajarsa – ayni adolat bo'ladi deb o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Ularning fikricha, inson aqlining tanho o'zi yaxshi va yomonni ajratish qobiliyatiga ega emasdir, hatto yaxshilik qilishning yaxshiligini va zulm qilishning yomonligini ham tushunishga o'z ijodidir.

Ahli sunnatga tegishli «*mo'taziliylar*», deb nomlangan boshqa bir guruh va shuningdek, «*imomiyalar*» jamiyatining hammasi Allohning adolatiga yondashganlar. Ularning e'tiqodicha, Alloh hargiz zulm qilmaydi.

Mana shu ikki xil qarashni bir-biridan ajratish uchun «*mo'tazila*» va «*imomiya*»larni «*adliya*» guruhi deb, nomlaydilar, «*Ashoira*» guruhiga esa, «*g'ayriadliya*» deyishadi. Shialar o'zining g'oyasini boshqa «*adliya*» guruhidan ajratib aniqlash maqsadida «*imomat*»ni ham din asoslarining biri deb qabul qilishgan.

Binobarin, qayerda «*Allohning odilligi*» va «*imomat*» haqida so'z yuritilar ekan, «*o'n ikki imomlik shialar*»ning e'tiqodi namoyon bo'ladi.

4. Dinning shoxlari bo'lmish ahkom, dinning negizi bo'lgan aqid asosida tuzilgani uchun olamlar Parvardigorining odilligi insonlar jamiyatiga chuqur ijobiy ta'sir ko'rsatgani hamda ijtimoiy adolat insonlar jamiyatida muhim o'ringa ega bo'lgani sababli, «*jamiyatda adolat qayta tiklanib, unga ko'proq rioya qilinsin va jamiyatda yuz beradigan har qanday zulmu*

zo'ra vonlikka qarshi kurashilsin» degan maqsadda «adolat» dinning negizi va asosi qilib tanlandi.

Shuningdek, Allohning zoti va sifatleri yagonaligi va yolg'iz U ibodat qilinishga sazovor ekanligi, insonlar jamiyatidagi birlashish va yakdillikning asosi va negizi bo'lib, insonlar o'rtasidagi uyushqoqlikni kuchaytiradi.

Demak, payg'ambarlar va imomlarning insonlar jamiyatiga rahbarlik qilishlari «haqiqiy rahbarlikning timsoli» bo'lganidek, butun borliq ustidan hukm surayotgan Parvardigorning adolati insonlar jamiyatining barcha tarmoqlarida adolat hukmronlik qilishi zarur ekaniga ramziy ishoradir.

Yaratilmish buyuk olam adolat asosida ustivor va barqaror bo'lgani kabi, bashariyat olami ham adolatsiz ustivor va bardavom bo'la olmaydi.

Adolat so'zining ma'nosi

Adolatning ikki farqli ma'nosi bor:

1. Ushbu so'zning keng ko'lamlil ma'nosi; «har narsaning o'z joyiga qo'yilishi» va boshqa so'z bilan aytganda: «Har bir narsaning bir maromda va bir tartibda bo'lishi va muvozanatining saqlab qolinishi», demakdir.

Bu ma'nodagi Allohning adolatini butun yaratilgan olamda ko'rishimiz mumkin. Koinot, sayyoralar, atomlar olamida, insonning tuzilishida, o'simlik va hayvonot olamida Allohning adolati hukm surayotganligini mushohada qilishimiz mumkin.

Payg'ambarimiz hazrati Muhammad Mustafo (sallallohu alayhi va olihi vasallam)ning quyidagi hadisi shariflarida ana shu adolat haqida quyidagicha so'z yuritilgan:

«بِالْعَدْلِ قَامَتِ السَّمَوَاتُ وَالْأَرْضُ»

«Allohning adolati tufayli yeru osmonlar barpo bo'ldi». Agar

yerning «*tortish*» va «*itarish kuchi*» o'z muvozanatidan chiqib ketib, shu ikkala kuchdan biri ikkinchisining ustidan g'olib kelsa edi, quyidagi ikki holdan biri yuz bergan bo'lur edi:

Yo quyosh kuchi ko'payib ketib, yerni o'ziga tortib uni kuydirib, kul qilar edi, yoki yer kurrasi o'z orbitasidan chiqib ketib, cheksiz fazoda sargardon bo'lib, oxir-oqibat, yo'q bo'lib ketar edi.

Shoir o'z she'rida ushbu ma'nodagi adolat haqida shunday deydi:

Adl nimadir? Har narsani o'z o'rniga qo'yishdir.

Zulm nimadir? O'z o'rni bo'lmagan yerga qo'yishdir!

Adl nimadir? Daraxtlarga suv bermakdir.

Zulm nimadir? Tikanlarga suv bermakdir!

Ma'lumki, agar suvni gul, mevali daraxt va foydali ekinlarni sug'orish uchun qo'ysangiz, suvni o'z o'rnida ishlatgan bo'lasiz va bu ayni adolatdir. Biroq suvni keraksiz va zararli o'tlar va tikanlarni sug'orish uchun ishlatsangiz, noo'rin ishlatgan bo'lasiz va bu ayni zulmdir.

2. Adolatning boshqa ma'nosi esa «*insonlarning haq-huquqiga rioya qilish*» bo'lib, uning aksi bo'lmish zulm esa, «*boshqaning haq-huquqiga tajovuz qilib, uni poymol etish yoki birovning haqini tortib olib, boshqaga berish yoxud o'ziniki qilish*»dir. Boshqa so'z bilan aytganda «*zulm – bu insonlar haq-huquqi o'rtasiga tafovut solib, bo'lmagan narsaga ba'zilarni boshqalardan ustun qo'yish demakdir.*»

Ikkinchi ma'nodagi adolat «*xos ma'no*»da bo'lib, birinchi ma'nodagi adolat esa umumlashma va keng ma'nodadir. Allohning adolati haqida har ikkala ma'no qo'llaniladi, lekin kalom ilmida ikkinchi ma'nodagi adolat haqida ko'proq bahs olib boriladi.

Allohning adolati deganda birovning haqini zoe qilmaslik va birovning haqini boshqa shaxsga bermaslik tushuniladi. Xuddi shuningdek, Tangri taolo insonlar o'rtasida ularning haq-huquqini ato etishda farq belgilamaydi. Alloh har tomonlama va butun ma'noda adolatli zotdir va biz Allohning odilligiga oid bo'lgan dalillarni keyingi darsda keltirajakmiz.

Zulm – xoh birovning haqini olib qo'yish bo'lsin yoki boshqaning haqini birovga berib yuborish bo'lsin yoxud yaratilganlar huquqini to'kis qilib berishda ularning o'rtasida farq qo'yish bo'lsin, butun nuqsonlardan pok va munazzah bo'lgan Allohdan yiroqdir. Demak, Alloh taoloning zoti zulmning har qanday ko'rinishidan pok bo'lib, U hargiz solih va yaxshilarni jazolamaydi, yomonlarni esa mukofotlamaydi. Hech kimni boshqaning gunohi sababli azoblamaydi va hech qachon quruq va ho'lni birgalikda yondirmaydi.

Hatto agar biror bir jamiyatda hamma odamlar fosiq va gunohkor bo'lsa-yu, faqat bir nafar solih bo'ladigan bo'lsa, Alloh taolo albatta ana o'sha odamning hisobini boshqalardan ajratib, gunohkorlar qatorida uni azoblamaydi.

«Ashoira» guruhining «Agar Xudo hamma payg'ambarlarni jahannamga ravona qilsa va butun gunohkorlarni jannatga yo'llasa, Uning bu ishi zulm bo'lmaydi» degan so'zlari qabih, noma'qul va asossiz bo'lgan iddaoning o'zidir. Xurofot va mutaassiblikka berilmagan har bir odamning aqli bu kabi fikrlarning qabihligiga guvohlik berib, uni rad etadi.

Adolat va tenglik o'rtasidagi farq nimada?

Aytib o'tilishi muhim bo'lgan bahslardan yana biri shundan iboratki, gohida «barobarlik va tenglik» bilan «adolat»ning bir-biridan farqi yo'q degan tushunchaga borib, ko'pincha adolat – bu teng huquqlikka rioya qilish deb gumon qilganlar.

Vaholanki, hargiz adolatda teng huquqli bo'lish sharti mavjud emasdir, balki o'z haq-huquqiga to'raligicha erishish birinchi darajada nazarga olinmog'i lozim. Masalan, o'quvchilar orasida adolatga rioya qilish maqsadida o'qituvchi o'quvchilarining hammasiga besh baho qo'ysa, shunda harakat qilib, darsini o'qib o'zlashtirgan yaxshi o'quvchilar bilan ishyoqmas, dangasa va hech dars o'qimay o'zlashtirmagan o'quvchiga bir xil baho qo'yish, qandayiga adolat bo'ladi? Bu o'rinda shuni aytish kerakki, muallim tenglikka rioya qildi, lekin shu paytning o'zida adolatga rioya qilmadi. Yoki ikki ishchining o'rtasida adolatni joriy qilishning ma'nosi – bu har ikkalasiga bir xil mehnat haqi to'lash emas. Zero, u holda tenglik – zulmga uyg'un keladi, adolatga emas. Balki, yuqoridagi ikki o'rinda adolatga rioya qilish har bir shaxsning mehnatiga va qilgan sa'y-harakatiga yarasha baho berish yoki mehnat haqi to'lash bilangina amalga oshadi.

Tabiat olamida ham keng ma'nodagi ushbu adolatni ko'ramiz va bu adolat tenglik ma'nosida bo'la olmaydi. Masalan, katta bir nahang baliqqa chumchuqning yuragini qo'yish adolatdan emas. Sodaroq qilib aytganda, tenglikka rioya qilish maqsadida bir tonna chamali nahang baliq yuragi bilan bir grammchalik bo'lgan qushcha yuragining andozasi bir xil qilib qo'yilsa, adolat bo'ladimi yoki zulmmi? Agar uzun bo'yli yo'g'on bir daraxtning ildizi kichik bir niholning ildizi bilan barobar bo'lsa, adolat emas, balki zulm bo'ladi.

Adolat – bu har bir mavjudotning haq-huquqiga, qobiliyat va iste'dodiga hamda layoqatiga yarasha, ehtiyojidan kelib chiqib, unga ulush ajratilishidir.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Nima uchun Allohning hamma sifatlari ichidan aynan «Adolat» sifati dinning asosi va negizi qilib qabul qilingan?
2. «Ashoira» guruhi qanday guruhdir? Ularning e'tiqodi haqida nimalar bilasiz?
3. Allohning adolatiga bo'lgan e'tiqod jamiyatda qanday ta'sir kuchiga ega?
4. Adolatning necha xil ma'nosi bor? Ularni sharhlab bering.
5. «Adolat» va «tenglik» tushunchalari bir xil ma'noga egami?

2-DARS:

Parvardigori olamning odilliga dalillar

1. Aqlning yaxshi va yomonni ajrata olish qobiliyati

Shu narsani aytib o'tish kerakki, insonning aqli diqqatga sazovor bo'ladigan ma'lum bir hududgacha ayrim narsalarning yaxshi va yomonligini ajrata olish qobiliyatiga egadir. Shu bois, donishmandlar inson aqli ma'lum bir miqdorgacha yaxshilik va yomonlikni ajrata olish qobiliyatiga ega deb e'tiqod qilganlar.

Masalan: Adolat va ehsonni yaxshi ekanligi, zulm va baxillikning yomon ekanligi dinda aytilishidan ilgari ham bizga ayon bo'lgan edi. Lekin shunday bir masalalar borki, ularni tushunib etishga bizning ilm saviyamiz etarli darajada emas. Negaki, inson aqli hamma narsani idrok qilishdan oqizdir. Shunga ko'ra, Alloh yo'lga hidoyat qiluvchi ilohiy rahbarlar va payg'ambarlarning ko'rsatgan yo'llaridan borish zarur ekani yaqqol namoyon bo'ladi.

Binobarin, agar musulmonlarning «*Ashoira*» vakillari aqlning ayrim narsalar yaxshi va yomonligini ajrata olish qudratini inkor etib, hamma narsaning yaxshi va yomonligini faqatgina din va shariat orqali bila olamiz, din va shariat bo'lmaganida edi, inson aqli hatto adolatning yaxshiligini va zulmning yomon ekanligini tushunib etolmagan bo'lur edi deb e'tiqod qilishlari noto'g'ri va asossizdir.

Agar inson aqli ayrim narsalarning yaxshi va yomonligini tushuna olishga qodir bo'lmasa, Alloh yolg'onchi shaxs ixtiyoriga mo'jiza qilishni topshirib qo'ymaganligini qayerdan bila olamiz? Biroq aqlimiz yolg'on so'zlash qabih va yomon ish ekanini bilgani uchun Allohdan yolg'on so'zlash kabi qabih va yomon ish sodir bo'lishi maholdir deb e'tiqod qilamiz. Shu e'tiqodga binoan, Uning va'dasi haq bo'lib, U hargiz va'dasiga xilof qilmaydi va Uning barcha so'zlari rost va to'g'ridir va U

hech qachon mo'jizalarini yolg'onchi odamning ixtiyoriga berib qo'yib, uni qo'llab-quvvatlamaydi deb ishonamiz.

Shuning uchun shariat va dinda keltirilgan ta'limotlarga inonamiz. Shunday ekan, aql ayrim narsalarning yaxshi va yomonligini ajrata olish qudratiga ega ekaniga e'tiqod qilish dinning asosini tashkil qiladi (diqqat qiling!).

Endi esa Allohning adolatiga dalillar keltiramiz:

2. Zulmning kelib chiqish omillari

Zulm qilinishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- I. **Jaholat;** zulm qilayotgan odam gohida chindan ham o'zi zulm qilayotganligini va kimningdir haq-huquqini poymol qilayotganini bilmay, qilayotgan ishidan bexabar bo'ladi.
- II. **Ehtiyoj va muhtojlik;** gohida odamning boshqalar qo'lida bo'lgan narsalarga ehtiyoji bo'lgani uchun vasvasaga tushib, insonlarga zulm qiladi. Holbuki, agar o'sha narsalarga ehtiyoji bo'lmaganida edi, zulm qilishga hech bir hojat qolmas edi.
- III. **Ojizlik va kuchsizlik;** ba'zida inson zulm qilib, boshqalar haq-huquqini oyoq-osti qilishni istamaydi, biroq undagi ojizlik va kuchsizlik noxosdan uni «*zulm qilish*» tomoniga undagandek bo'ladi.
- IV. **Xudbinlik, gina-kudurat va intiqom olish hissiyoti;** ba'zan odam zulm qilishi uchun yuqorida aytilgan sabablarning hech biri mavjud emas, ammo uning «*xudbinligi*» boshqalar huquqiga tajovuz qilishiga sabab bo'ladi. Yoki «*intiqom olish*» va «*arazlash hissiyoti*» odamni birovga zulmu zo'raonlik qilishga undaydi va yoxud «*tanho hukmronlik qilish va hamma yaxshi narsalarni o'ziga ixtisos berish*» xususiyati va www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

shunga o'xshash xususiyatlar boshqalar huquqini oyoq-osti qilishga bois bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan qabih sifatlar va nuqsonlarning hech biri, butun borliq egasi bo'lmish Alloh taoloda mavjud bo'lmagani uchun hamda barcha yaxshi sifatlar va cheksiz kamolot sohibi bo'lmish Alloh – hamma narsadan ogoh, barchadan behojat (hech narsaga muhtoj emas), har narsaga qodir, hammaga mehribon bo'lgani uchun zulm qilishga hech qanday asos va omil qolmaydi va shu bois, U hech vaqt bandalariga zulm qilmaydi.

Cheksiz vujud va borliqqa molik va benihoyat kamolot egasi bo'lgan zotdan yaxshilik va adolatdan boshqa narsa, g'amxo'rlik va mehribonlikdan o'zga xislat paydo bo'lmaydi.

Xuddi spirtli ichimlik yoki narkotik moddalar iste'mol qilgan odam o'limga olib keladigan turli kasalliklarga yo'liqqani kabi, agar Tangri taolo yomon bandalarini jazolasa, bu jazo darhaqiqat, ularning qilgan amallari natijasi bo'lib, qiyomat kuni ularning o'ziga ko'rsatilajak. Qur'oni Karim bu xususida shunday deydi:

﴿هَلْ تُحْزَنُونَ إِلَّا مَا كُنْتُمْ تَعْمَلُونَ﴾

«Sizlarning jazolaringiz o'zlaringiz qilgan amallardan o'zga narsami?» (Naml surasi, 90 – oyat).

3. Qur'on va Allohning adolati

Qur'oni Karimda Allohning adolati haqida ko'plab oyatlar keltirilgan va ulardan birida shunday buyuriladi:

﴿إِنَّ اللَّهَ لَا يَظْلِمُ النَّاسَ شَيْئًا وَلَكِنَّ النَّاسَ أَنفُسَهُمْ يَظْلِمُونَ﴾

«Albatta, Alloh odamlarga biror narsada zulm qilmaydi. Lekin odamlar o'zlariga zulm qiladilar.» (Yunus surasi; 44 – oyat)

Boshqa oyatda esa:

﴿إِنَّ اللَّهَ لَا يَظْلِمُ مِثْقَالَ ذَرَّةٍ﴾

«Albatta, Alloh bir zarra miqdoricha (ham) hech kimga zulm qilishni ravo ko'rmaydi.» (Niso surasi; 40 – oyat)

Quyidagi oyatda qayta tirilish kunining hisob-kitobi to'g'risida shunday deyiladi:

﴿وَنُصِّعُ الْمَوَازِينَ الْقِسْطَ لِيَوْمِ الْقِيَامَةِ فَلَا تُظْلَمُ نَفْسٌ شَيْئًا﴾

«Biz qiyomat kuni uchun adolat tarozilarini qo'yurmiz, demak, biror jonga zarracha zulm qilinmas.» (Anbiyo surasi; 47 – oyat)

Diqqatga sazovor bo'lgan narsa shuki, qiyomat kunidagi «taroz»dan murod yaxshi va yomon amallarni bir-biridan ajratib, ularni baholaydigan o'lchov vositasidir va u esa bu dunyodagi tarozilar singari narsalar vaznini og'ir yoki engil qilib uradigan tarozilardan emasdir.

4. Adolatga da'vat qilish

Aytib o'tganimizdek, insonning xususiyatlari Alloh sifatleri yog'dusida bo'lishi lozim. Insonlar jamiyatida ham Alloh sifatlarining nuri keng yoyilmog'i darkor. Shu e'tiqodga asosan, Qur'on Allohning adolatiga tayangan holda insonlar jamiyatini ham adolatli bo'lishga chaqirib, butun insonlarga adolat yuzasidan ish yuritishlarini buyurgan. Qur'oni Karimda zulm va adolatsizlikning insonlar jamiyatini buzg'unchilikka uchratib nobud bo'lishiga olib kelishi bayon etilib, zolimlarning taqdiri o'ta dardli bo'lishi uqtirilgan.

Qur'onda ilgari qavmlar tarixini bayon etish bilan birga, ularning qilgan zulmlari tufayli Allohning alamli azobiga duchor bo'lib, nobud bo'lganlari zikr qilanadi va zolimlarning oqibati juda og'ir bo'lishi ta'kidlanadi va bizlarni ham zulm-adolatsizlik oqibatida bunday ayanchli taqdirga muhtalo

bo'lishdan qaytaradi.

Qur'oni Karim o'tgan qavmlarning sarguzashtlarini hikoya qilib, unda zulm qilgan qavmlar oqibatidan saboq olib, to'g'ri xulosa chiqarishga da'vat etadi:

﴿إِنَّ اللَّهَ يَأْمُرُ بِالْعَدْلِ وَالْإِحْسَانِ وَإِيتَاءِ ذِي الْقُرْبَىٰ وَيَنْهَىٰ عَنِ الْفَحْشَاءِ وَالْمُنْكَرِ وَالْبَغْيِ﴾

«Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qavm-qarindoshga yaxshilik qilishga buyurur hamda buzuvchilik, yovuz ishlar va zulm-zo'ravonlikdan qaytarur.» (Nahl surasi, 90 – oyat)

Diqqatimizni o'ziga jalb qiladigan narsa shundan iboratki, zulm qilish qanchalik xunuk va qabih bo'lsa, boshqaning zulmini qabul qilish ham Islom va Qur'oni Karim nuqtai nazaridan noto'g'ri va noma'qul ish hisoblanadi. Chunki, zulmga nisbatan beparvo bo'lish zolimlarni zulm qilishga rag'batlantiradi.

Baqara surasining 279 – oyatida aytilishicha:

﴿لَا تَظْلِمُونَ وَلَا تُظْلَمُونَ﴾

«Ham zulm qilmang va ham sizga zulm qilishlariga yo'l qo'ymang.»

Asosan, zolim va zo'ravonlarga taslim bo'lish zulmga rag'batlantirishga va jamiyatda zulm ko'payib, zolimlar kuchayishiga sabab bo'ladi.

O‘ylab javob bering:

1. Aql shariatga suyanmagan holda (ya'ni mustaqil holda) yaxshilik va yomonlikni ajratishga qodirmi yoki yo‘qmi?
2. Zulmni keltiruvchi omillarni sanab o‘ting. Allohning adolatiga aqliy dalil keltiring.
3. Qur’onda Allohning adolati haqida va zulm qilish kerak emasligi haqida qanday oyatlar bor?
4. Insonning zulm va adolat qarshisida qanday vazifalari bordir?
5. Zulm ko‘rish va zulmga taslim bo‘lish gunoh hisoblanadimi?

3-DARS:

Ofat va balolarning hikmati

Qadim zamonlardan beri xudoshunoslikdan bexabar bo‘lgan shaxslar Allohning adolatiga shubha bilan qarab, bu xususida o‘zlarining tanqidiy mulohazarini bildirganlar. Ular ro‘y beradigan tabiiy ofatlar va noxush hodisalarni Allohning adolatiga to‘g‘ri kelmaydi va agar Alloh taolo odil bo‘lsa, nega bunday hodisalar yuz beradi? – deyishadi. Ular nafaqat bu hodisalarni Xudoning adolati yo‘qligiga, balki mutlaqo Allohning borligini inkor qilishga ochiq dalil deb tushunganlar.

Zilzila, to‘fon, sel va boshqa noxush voqealar shular jumlasidandir. Ularning nazarida odamlar orasidagi yaratilishga oid bo‘lgan tafovutlar hamda insonlarga yoki hayvonlar va o‘simliklardan iborat bo‘lgan boshqa mavjudotlarga zarar etkazadigan tabiiy ofatlar ham go‘yoki, adolatsizlikning nishonasidek tuyuladi.

Ushbu masala gohida moddiyunchilarga zid o‘laroq, xudoshunoslikka tegishli bo‘lgan bahslarda keltiriladi va ba‘zan esa bu masala haqida Tangrining adolatiga oid bo‘lgan mavzuda so‘z yuritiladi. Biz bu masalani Allohning odilligi xususidagi bahslarda ko‘rib chiqishni lozim topdik.

Yuqorida zikr qilingan fikr-mulohazalar chuqur tahlil qilinganda, naqadar asossiz va sust ekani ma‘lum bo‘lishi uchun quyidagi masalalarni mufassal ko‘rib chiqishimiz lozim:

1. Nisbiy xulosa chiqarish va ma‘lumotlarning cheklanganligi

Odatda biz biror narsa ustidan hukm chiqarmoqchi bo‘lsak, o‘zimizning ma‘lum chegaradagi qarashlarimizga va atrofimizdagi narsalar bilan bo‘lgan aloqamizga tayanamiz.

Masalan: Falon yer uzoq yoki yaqin deymiz. Aslida ana shu uzoq yoki yaqinlikni o'zimizning turgan yerimizga nisbatan aytamiz. Yoki falonchi kuchli yo kuchsiz, deb aytganimizda ham o'zimizning jismoniy yoki ruhiy vaziyatimiz bilan taqqoslagan holda xulosa chiqaramiz. Insonlarning tabiiy ofat va noxush hodisalar haqidagi fikr-mulohazalari ko'pincha o'zlarining vaziyatlari bilan taqqoslagan holda bo'ladi.

Biror mintaqaga yomg'ir yog'sa, o'sha yomg'irning hammaga nisbatan bo'ladigan ommaviy ta'sirini nazarga olmay, faqatgina o'z atrof-muhitimiz, uyimiz, bog' va ekinzorlarimiz yoki keng qaraydigan bo'lsak, yomg'irning shahrimizga bo'ladigan ta'sirini nazarga olamiz. Agar ushbu yomg'irning qoldiradigan ta'siri foydali va ijobiy bo'lsa, «*bu Allohning rahmati va ne'mati*», deb aytamiz, agar uning ta'siri salbiy va zararli bo'lsa, «*boshimizga balo keldi*» degan nazar bilan qaraymiz.

Agar biror eski binoni qayta tiklash uchun buzishayotgan bo'lsa va biz u yerdan o'tib ketayotgan bo'lsak, chang'ubordan ozor chekkanimiz uchun, garchi o'sha qurilayotgan bino ko'pchilik manfaatini ta'minlaydigan makon, ya'ni shifoxona bo'lsa-da, «*buncha yomon ish bo'libdi*» deymiz. Yuqorida keltirganimiz yomg'ir misolida ham garchand mazkur yomg'irning qoldiradigan ta'siri o'sha mintaqada yashovchilarning aksariyatiga foydali va ijobiy bo'lsa-da, biz o'zimizni nazarga olgan holda «*boshimizga ofat va balo yog'di*» deymiz.

Chetdan qaraganda ilon zaharini yomon balo va ofat deb hisoblaymiz. Holbuki, ilonning nishli zahari uning o'zini himoya qiluvchi qurolidir. Boz ustiga, ilon zahridan inson hayoti uchun muhim dori-darmonlar olinib, minglab insonlar jonini saqlab qolish uchun qo'llaniladi.

Shunday ekan, agar hukm chiqarishda «*xatoga yo'l*

qo'ymaylik» desak, o'zimizning ozgina ma'lumotlarimizga suyanmasdan bir yoqlama hukm qilmay, har tomonlama fikr yuritishimiz va masalaning butun qirralarini ko'rishimiz hamda o'zimizni yon-atrofimizdagi narsalarga bog'lanib, cheklab qo'yasligimiz kerakdir.

Asosan jahonda ro'y beradigan hodisalarning barchasi zanjir halqalari kabi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir: bugun shaharni vayronaga aylantirayotgan to'fon yoki osmondan sel kabi quyilayotgan yomg'ir, boshqa mintaqadagi tabiiy hodisalar bilan to'laligicha aloqadordir. Shuningdek, bugun yuz berayotgan hodisalar o'tmishda sodir bo'lgan yoki kelajakda ro'y beradigan hodisalar bilan uzviy bog'liqdir.

Shunga binoan, barmoqni kichkina bir nuqtaga qo'yib, mana bu hodisa yaxshi yoki yomon deb qat'iy xulosa chiqarish aql va mantiqdan uzoqdir.

Diqqatga sazovor bo'lgan narsa shundan iboratki, dunyoda «*mutlaqo yomonlik*» borligi inkor qilinadi. Ya'ni har qanday yomonlikning yaxshi tarafi ham bo'lib, yuz beradigan tabiiy hodisalarning yomon tomoni bo'lganidek, ularning yaxshi tomoni ham bor va yaxshi tomoni yomon tomoning ustidan g'olib keladi. Shuning uchun «*mutlaqo yomonlik*» olamda voqe bo'lmaydi. Jarrohlik amali bir tomondan achinarli va dardli bo'lsa, ko'p tomonlardan inson sog'ligi uchun foydalidir. Shu bois, dunyodagi xayrlilik va yaxshilik nisbiydir. Zero, mutlaq yaxshilik moddiy olamning mohiyatiga mos kelmaydi.

Ushbu masalani chuqurroq tushunishimiz uchun zilzilani misol qilib keltiramiz: To'g'ri, yer qimirlashi biror yerda vayronalarga sabab bo'lsa, lekin boshqa tarafdin nazar tashlab zilzilaning boshqa hodisalar bilan chambarchas bog'liqligini nazarga olsak, zilzila va balo haqidagi fikrimiz o'zgarishi ajab emas.

Zilzila sababi haqida olimlar turli fikr bildirganlar. Ba'zilar

zilzilani «*yer osti harorati va bug'lanishi natijasida yuz beradi*» desalar, boshqa donishmandlar esa oyning tortish kuchi natijasida yerning ustki quruq qatlami tortilib sinishi ta'siridan kelib chiqadi deb aytishadi. Ayrim olimlar har ikki nazarni tasdiqlaganlar.

Nima bo'lganda ham yerning ostki qatlamida juda kuchli haroratning yuzaga kelishi asrimizning muhim energiya manbai bo'lmish neft boyligining vujudga kelishi va shuningdek, ko'mir kabi foydali qazilmalar paydo bo'lishi uchun zarurdir. Ko'rganingizdek, zilzilaning ham nisbiy yaxshiligi bordir.

Oyning tortishish kuchi tufayli dengiz suvining to'liq qinlanib yuqoriga ko'tarilishi undagi jonivorlar tirik qolishi uchun hayotbaxsh bo'lib, shu bilan birga qurigan sohillarni sug'orishda shirin suvlarning dengizga oqib tushishida ham xayrli tomoni bor.

Mana ko'rib turganimizdek, cheklangan ma'lumotlarimizga asoslanib, bir yoqlama va nisbiy hukm chiqarishimiz to'g'ri natijaga olib kelmay, yuz beradigan tabiiy hodisalarni yaratilgan olamning qorong'i tomonlari deb tushunishimizga sabab bo'ladi. Olamda ro'y beradigan tabiiy hodisalarning bir-biriga bog'liq va aloqador ekani xususida qanchalik fikr yuritsak, shunchalik chuqur tushunchaga ega bo'lib, masalaning nozik tomonlarini ko'ra olamiz.

Qur'oni Karim bu xususida bizlarga shunday deydi:

﴿وَمَا أُوتِيتُمْ مِّنَ الْعِلْمِ إِلَّا قَلِيلًا﴾

«Sizlarga juda oz ilm berilgandir, xolos.» (Isro surasi; 85 – oyat)

SHunday ekan, bu oz ilmimiz bilan hukm chiqarishda va nazar bildirishda shoshmasligimiz kerak.

* * *

2. Noxush hodisalar orqali insonni ogohlantirish

Hammamiz hayotda ayrim odamlar noz-ne'matlarga g'arq bo'lganlarida o'zlarini yo'qotib qo'yib, takabbur va xudbinlik yo'lga kirib qolganlarini va ushbu holda o'zlarining insoniy vazifalarini unutib qo'yganlarini mushohada qilganmiz.

Shuningdek, agar inson hayoti orom holdagi ummon kabi har qanday to'siq va monelarsiz farog'at va osoyishta kecha boshlasa, «g'aflat va uyquda uxlab yotganlik holati» insonda yuz berib, hayotning qizig'i qolmay qoladi va bunday holat insonning yomon oqibatga duchor bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shubhasiz, hayotda yuz beradigan noxush voqealar insondagi g'urur va takabbur holatini sindirishda yoki g'aflat uyqusidan uyg'otishda katta xizmat qiladi.

Shuningdek, shoyad tajribali haydovchilarning shikoyatlarini eshitgandirsiz. Ular yo'lning tep-tekis va qayrilishsiz, tepapastsiz va dovonsiz bo'lishini xatarli biladilar. Chunki, bunday bir tekisdagi yo'llar haydovchilarning uyquga borishiga sabab bo'ladi va bunday holda avto halokati yuz berishi mumkin.

Shuning uchun ba'zi davlatlarda ana shunday yo'llarda haydovchilar uxlab qolib xatarga yo'liqmasinlar deb tepapastliklar va sun'iy to'siqlarni yaratishadi.

Odamning hayoti ham aynan shunga o'xshaydi, agar inson hayoti to'siq va to'g'onsiz bir tekis davom etib, unda noxush hodisalar ro'y berib turmasa, shunday holda odam g'aflat uyqusiga duchor bo'lib, yaratgan Tangridan uzoqlashadi va o'zining zimmasidagi vazifalarini va kelajakdagi taqdirini unutadi.

Shubhasiz, ba'zi hodisalar odamlarni g'aflatdan uyg'onishlari uchundir. Albatta biz odamlar o'z qo'llari bilan noxush hodisalar va qiyinchiliklar yaratishlari lozim ekan demaymiz. Negaki, bunday hodisalar inson hayotida uchrab

turishi tabiiy hol. Balki biz noxush voqealar ortida hikmat yotganligini aytmoqchimiz xolos. O'sha hikmatlardan biri, inson baxt-saodatining dushmani bo'lmish mag'rurlik va g'afolat uyqusiga barham bermoqdir. Mazkur hikmat noxush hodisalar yuz berishining ayrim hikmatlaridan hisoblanib, Xudo xohlasa, kelgusi darslarda bu hodisalarning qolgan ba'zi hikmatlari xususida so'z yuratajakmiz.

Hidoyat nuri bo'lmish Allohning hikmatli kitobi bo'lmish Qur'oni Karimda bu borada shunday marhamat qilingan:

﴿وَلَقَدْ أَرْسَلْنَا إِلَىٰ أُمَمٍ مِّن قَبْلِكَ فَأَخَذْنَاھُمْ بِالْبَأْسَاءِ وَالصَّرَّاءِ لَعَلَّهُمْ يَتَضَرَّعُونَ﴾

«Batahqiq, Biz sendan avvalgi ummatlarga ham elchilar yuborganmiz. So'ngra, shoyad tavba-tazarru' qilsalar, deb ularni balo va ofatlarga tutganmiz.» (An'om surasi; 42 – oyat)

* * *

O'ylab javob bering:

1. Ofat va balolarni e'tiqodga oid masala deb kimlar aytgan edi?
2. Hayotdagi ofat va balolarga misol keltiring. Siz ham shunday hodisalarning shohidi bo'lganmisiz?
3. Bir yoqlama hukm chiqarish deganda nimani tushunasiz? «*Mutlaqo yomonlik*» dunyoda bormi?
4. To'fon va zilzilalar faqat zarar keltiradimi?
5. Noxush hodisalar inson hayotida qanday musbat ta'sirga ega bo'lishi mumkin?

4-DARS:

Inson hayotidagi musibatlar va ko'ngilsiz hodisalarning hikmati

Oldingi darsda ko'rib chiqqanimizdek, ba'zi tanqidchi guruhlar hayotda sodir bo'ladigan noxush va ko'ngilsiz hodisalarni, ofat-balolarni va qiyinchiliklarni bahona qilib, Allohning adolatini va gohida Allohning mavjudligini ham inkor qiladilar!

Shuningdek, bunday hodisalarni tahlil qilib, ularning orqasida yashiringan ikki hikmat haqida so'z yuritdik. Bu darsda shu bahsni davom ettiramiz:

* * *

3. Inson qiyinchiliklar og'ushida tarbiyalanadi

Aytib o'tganimizdek, inson o'z qo'li bilan o'ziga qiyinchilik va mushkullik yaratishi kerak emas, lekin gohida qiyinchiliklar, ko'ngilsiz va noxush hodisalar inson irodasini va uning chidamini orttirib mustahkamlaydi. Yonib turgan issiq pechkaga tashlangan po'lat metali qizib erishi bilan baquvvat va chidamli bo'lganidek, inson ham qiyinchilik va og'ir kunlar boshiga tushganda chiniquib, quvvatlanadi.

Urush yomon bir voqeadir, lekin gohida uzoq muddatli va og'ir urush xalq iste'dodining gullab-yashnashiga sabab bo'lib, o'zaro tafriqalarga barham berishga ko'maklashadi, urush orqada qolgan taraqqiyotni jadallashtirishga undaydi.

Taniqli tarixchi bo'lmish g'arb olimlaridan biri shunday degan: *«Jahonning biror bir qit'asida yuzaga kelgan har bir porloq tamaddun boshqa qudratli davlat bilan urushganida hamon*

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

kuchsiz mamlakat o'zida yashirinib yotgan kuch-quvvatidan foydalanishi tufayli ma'lum taraqqiyotga erishgan. Bu narsa tarixda isbotlangan haqiqatdir!»

Albatta odamlarga boshiga og'ir kunlar tushib, ayanchli va ko'ngilsiz hodisalar ro'y berganida, ular bu qiyinchiliklarga nisbatan turlicha munosabat bildiradilar. Ba'zilar ma'yuslangan holda zaif va kuchsiz bo'lib qolib, tushkunlikka tushadilar va ushbu hodisalardan salbiy va manfiy natija oladilar. Ammo ba'zilar esa qiyinchiliklar barobarida harakatga kelib, o'zlarida mavjud bo'lgan iste'dodni ro'yobga chiqarib, tirishqoqlik va jadal harakat qilish bilan o'zlaridagi kuchsiz tomonlarni va nuqsonlarni isloh qilishga kirishadilar.

Biroq odamlar bunday qiyinchilik va og'ir ahvolga tushganlarida bir taraflama va yuzaki hukm chiqarib, faqat hodisalarning yomon va achchiq tomonini ko'radilar va ularning musbat va samarali ta'sirini e'tiborga olmaydilar. Inson hayotida yuz beradigan noxush hodisalarning barchasi ijobiy va samarali ta'sirga egadir deb da'vo qilmaymiz, lekin hech bo'lmaganda ayrim musibatlar shunday ta'sirga egadirlar.

Agar olamning etuk va dahiy shaxslari hayotiga nazar solib, ularning tarjimai holini mutolaa qilsak, ularning aksariyati qiyinchiliklar ko'rib, og'ir kunlarni boshidan o'tkazganliklarining shohidi bo'lamiz. Noz-ne'matda parvarish topganlar orasidan etukli insonlar chiqib, yuqori martabaga erishganlarni uchrata olmaymiz. Agar misol qilib aytadigan bo'lsak, yuqori darajali harbiy qumondonlar o'tmishda og'ir va shiddatli jang maydonlarida dovyuraklik ko'rsatganlari sabab, o'zlarida kerakli tajribalar kasb eta olganlar. Shuningdek, iqtisodchi buyuk mutafakkirlar ham inqirozga yuz tutgan iqtisodiy vaziyatga duchor bo'lishlari natijasida bunday iqtisodchi mutafakkirlar bo'lib etishganlar. Kuchli va yuksak martabali siyosatchilar qiyinchiliklarni va og'ir siyosiy sharoitlarni boshlaridan kechirib, aziyat-ozor chekkanlari

tufayli yuqori martabaga erishganlar.

Qisqa va lo'nda qilib aytganda: Qiyinchilik va mashaqqatli kunlar insonni o'z bag'rida tarbiyalaydi.

Qur'oni Karimda bu borada shunday deyiladi:

﴿فَعَسَىٰ أَنْ تَكْرَهُوا شَيْئًا وَيَجْعَلَ اللَّهُ فِيهِ خَيْرًا كَثِيرًا﴾

«Balkim, sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko'pgina yaxshiliklar qilib qo'yar.» (Niso surasi;19 – oyat)

* * *

4. Qiyinchiliklar odamni Alloh tomoniga yo'naltiradi.

Oldingi darslarda ko'rib chiqqanimizdek, insonning har bir a'zosi ma'lum maqsad asosida yaratilgan; ko'zi, yuragi, miya, asab tizimi va ... hammasi ma'lum maqsad uchun yaratilgan, hatto insonning barmoq uchi chiziqlari ham ma'lum bir hikmat asosida yaratilgan.

Shunday ekan, qandayiga butun boshli vujudimiz maqsadsiz va hikmatsiz yaratilgan bo'lsin? Oldingi bahslarimizda shunga amin bo'ldikki, mazkur maqsad insonning butun sohalarda takomil topishidan o'zga narsa bo'la olmaydi. Inson ushbu maqsadga etishi uchun chuqur rejalashtirilgan ta'lim va tarbiya dasturi asosida tarbiyalanmog'i lozim va bu ta'lim-tarbiya uning butun vujudini qamrab olmog'i darkor. Shuning uchun, Alloh insonga yakkaxudolikka asoslangan pok fitrat, ya'ni ilohiy tabiatni ato etganidan tashqari, insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun buyuk payg'ambarlarni samoviy kitoblar bilan yuborgan.

Maqsadi sari yashayotgan odamzotga gohida o'zi yo'l qo'ygan xato va gunohlarining salbiy ta'sirini ko'rsatib turish zarur bo'ladi. Alloh farmonidan bo'yin tovlab, chetga chiqish naqadar yomon oqibatlariga, turli xil ofat va balolarga olib

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

kelishini ko'rgan inson, o'zining qilmishidan pushaymon bo'lib, yaratgan Tangri tarafga yuzlanajak. Bunday holatda boshga tushgan kulfat balo emas, balki darvoqe, Allohning ne'mati va rahmati hisoblanadi.

Qur'oni Karim bu haqiqatni ochiq-oydin tilga olib shunday marhamat qiladi:

﴿ظَهَرَ الْفَسَادُ فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ بِمَا كَسَبَتْ أَيْدِي النَّاسِ لِيُذِيقَهُمْ بَعْضَ الَّذِي عَمِلُوا لَعَلَّهُمْ
يَرْجِعُونَ﴾

«Odamlarning qilmishlari tufayli quruqlik va dengizda buzg'unchilik va fasod paydo bo'ldi. Zora, Alloh tomon qaytsalar, deb qilgan ba'zi (yomon) ishlarining (jazosi)ni ularga tottiradi.» (Rum surasi; 41 – oyat)

Yuqorida aytilganlarni inobatga olib aytishimiz mumkinki, hayotda ro'y beradigan noxush va dardli hodisalarni «yomonlik» deb bilish, ularni «balo va ofat» deb nomlash va mazkur hodisalarni «Allohning adolatiga zid» deb hisoblash aql va mantiqdan juda ham yiroqdir. Negaki, ushbu masalani qanchalik teran o'rgansak, uning hikmatini ham shunchalik chuqurroq anglay olamiz.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Bizlarning yaratilishimizdan ko'zlangan maqsad nimadir? Qaysi yo'l bilan bu maqsadga etish mumkin?
2. Qanday qilib inson qiyinchiliklar bilan chiniqib mustahkam bo'lishi mumkin?
3. Qiyinchilikda ulg'ayib, yuqori maqomga erishgan insonni ko'rganmisiz yoki shunday insonlar haqida tarixda o'qiganmisiz? Ular haqida so'zlab bering.
4. Qur'onda gunohlarimizning salbiy ta'siri haqida nima deyilgan?
5. Qanday odamlar noxush va ayanchli hodisalardan ijobiy natija oladilar va qanday odamlar salbiy natija oladilar?

5-DARS:

Yana ofat-musibatlar hikmati haqida

Balo-ofatlar, noxushliklar, musibatlar, ko'ngilsiz va ayanchli hodisalarning yuz berishi xudoshunoslik va yakkaxudolik sohasida tadqiqot qiluvchi olimlar uchun hal qilish qiyin bo'lgan masala bo'lgani bois va ko'pchilik bu qiyinchiliklarni Allohning adolatiga to'g'ri kelmaydi, deb hisoblagani uchun, yana shu mavzuda bahslashish va uni tahlil qilishni, ushbu balo-ofatlar, ko'ngilsiz va ayanchli hodisalarning hikmatini yoritib berishni lozim topdik.

5. Qiyinchilik va turli past-balandliklar inson hayotiga ruh bag'ishlaydi

Shoyad sarvlahani o'qiganlar: «*Qanday qilib qiyinchilik inson hayotiga ruh bag'ishlashi mumkin?*» – deb hayron bo'lsalar kerak. Negaki, agar Allohning noz-ne'matlari bir zaylda davom etsa, ularning insonlar nazdidagi qadr-qiymati yo'qoladi.

Bugungi kunga kelib qiziq bir narsa kashf etilgan. Agar biror bir aylana shakldagi jismni har tarafdin kuchli va bir xil nur tushib turgan shar shaklidagi xonaga qo'ysak, shu holda qo'yilgan jism aslo ko'rinmaydi, zero, jismni ko'rish uchun nur bilan birga soya ham kerak bo'ladi. Chunki, nur yonidagi soya, jismning o'lchamini aniqlab berib, uni atrofida gilardan ajratadi. Shundagina biz o'sha jismni ko'ra olamiz.

Xuddi shunga o'xshash, agar inson hayoti bir tekis davom etadigan bo'lib, unda soya solib turadigan qiyinchilik va noxushliklar mavjud bo'lmasa, hayotning qadr-qiymati ma'lum bo'lmay qoladi. Butun umr davomida bemor bo'lmagan inson hech qachon sog'lik lazzatini his qilmaydi. Kasal bo'lgan odamgina salomatlikning qadriga eta oladi. Kechasi bilan

isitmalab qiynalib, tong ottirgan odam ertalab agar isitmasi tushgan bo'lsa, subhi damda sog'lig'ining lazzatini his eta boshlaydi va har vaqt o'sha dardli kecha yodiga tushsa, salomatlik naqadar buyuk va arzirli ne'mat ekanligini yangitdan his etadi.

Bir zaylda davom etadigan hayot, hatto eng yaxshi sharoitga ega, bekamu ko'st va pastu balandsiz bo'lgan o'ziga to'qbadavlat kishilarning hayoti jonsiz, zerikarli va toliqtiruvchi bo'ladi. Bulardan ayrimlarining hayoti, shu qadar to'lato'kisligi va farovonligi sababli hech qanday qizig'i yo'q bo'lganligidan o'zini o'ldirishgacha etib boradi yoki hayotlaridan doim shikoyat qilib noliydilar.

Hech vaqt yaxshi me'mor binoning eski holatini ta'mirlayotganida, uning devorlarini qamoqxonaniki kabi bir tekis qilmaydi, balki turli xil shakl va munosib ranglar bilan bezaydi.

Nima uchun tabiat bunchalik go'zaldir? Nimaga tog' yonbag'irlarida unib o'sgan o'rmon manzaralari va katta-kichik daraxtlar o'rtasidan oqadigan anhorlardagi suvlar bunchalik go'zal va yoqimlidir? Buning aniq sabablaridan biri shuki, tabiat bir xillikdan xolidir.

Yorug'lik va zulmat uzra yaratilgan tuzum, Qur'oni Karim oyatlarida aytilganidek kecha va kunduzning almashinishi inson hayotiga rang va ma'no bag'ishlab, bir tekis kechayotgan hayotga xotima beradi. Chunki, agar quyosh ko'kning bir chetida bo'lib, uning holati o'zgarmay va tunning qorong'i pardasi osmonni qoplamay hamisha bir xilda yer kurrasiga nur sochib turganida edi, hayot to'xtab qolishi kabi mushkullardan tashqari, hayot o'z jozibasini yo'qotgan bo'lur edi va odamlar tez orada bunday hayotdan toliqqan va zerikkan bo'lar edilar.

Shularni nazarga olgan holda hayotdagi qiyinchiliklar, noxushliklar va ko'ngilsiz hodisalarning hech bo'lmasa ayrim

ijobiy tomoni borligini e'tirof etib, insonlar hayotiga ruh va jon bag'ishlashini, insonlarga hayotni shirin va lazzatli qilishini hamda Alloh ato etgan noz-ne'matlarning qadr-qiymatini tushunib etib, ulardan oliy darajada foydalanish imkonini yaratishini nazarga olaylik.

* * *

6. Insonlar qilmishidan tug'iladigan qiyinchiliklar

Bahsimizning oxirgi qismida inson o'z qo'li bilan yaratadigan ba'zi musibatlar va ko'ngilsiz hodisalar haqida so'z yuritmoqchimiz. Ba'zi odamlar boshlariga keladigan zulmu sitamlarni va musibatlarni Allohning adolatsizligiga yo'yib (surib), qilgan hisob-kitoblarida xatoga yo'l qo'yadilar va insonlar tomonidan sodir bo'lgan zulmu zo'ravonlikni hamda bashariyatning ishlaridagi tartib-intizomsizlikni Alloh yaratgan tuzumning nuqsonidan deb tushunishadi. Vaholanki, bularning barchasini odamlar yuzaga keltirganlar.

Masalan, «*kambag'alni ot ustida ham it qopadi*» qabilidagi gaplarni aytadilar. Nimaga zilzilalar qishloqlarni vayron qilib, ko'p insonlar buzilgan bino qoldiqlari ostida qolib halok bo'lishlariga sabab bo'ladi-yu, shaharlarga bunchalik zarar etkazmaydi. Bu qanday adolat bo'ldi? Agar ofat-balolar insonlar orasida taqsimlanishi kerak bo'lsa, nega barobar taqsim qilinmaydi? – deb e'tiroz qiladilar.

Nima uchun kuchsiz va zaif sanalgan insonlar boshqalarga qaraganda ko'proq balolarga va dardli hodisalarga duchor bo'ladilar? Tarqalgan epidemiyalarga ham ko'pincha shunday odamlar muhtalo bo'ladilar.

Biroq mazkur balolar va ayanchli hodisalarning hech biri Yaratganning adolatiga aslo daxli yo'q bo'lib, insonlarning bir-biriga qilgan zulmu zo'ravonligidan va mustamlakachilik hatti-harakatidan kelib chiqqan.

Agar qishloqliklar shaharliklar zulmining ta'sirida qashshoqlik va mahrumlikka duchor bo'lgan bo'lsalar va qishloqda yashovchilar ham shaharliklar kabi uylarini mustahkam qilib qursalar, nimaga qishloqqa kelgan zilzila oqibatida ulardan bunchalik ko'p qurbonlik bo'lishi kerak, ammo boshqalardan juda oz?

Ammo modomiki, qishloqliklarning uylari oddiy loydan yoki tosh va turli taxta-yog'ochlar yoxud sinchdan omonat qilib qurilib, gohida hamon binolarda qurilish buyumlaridan iborat tsiment, ohak, alibastr va gipslardan qo'llamay, sodda uslubda bir-birining ustiga mindirib sust qilib yasalar ekan va shamolning shiddatli esishi yoki yerning ohista qimirlashi natijasida qulab tushadigan bo'lsa, qandayiga mustahkamlik haqida so'z yuritish mumkin? Ammo buning Alloh odilligiga nima aloqasi bor?

Biz ham bir shoirning asossiz so'zlari kabi: *«Ey Xudo, birini noz-ne'matga g'arq qilding, birini esa xoru zalil, birini boy-badavlat qilding va birini esa faqiru muhtoj!»* – deb aytishimiz mutlaqo to'g'ri emas.

Bunday e'tirozni jamiyatdagi adolatsizlikdan va nomunosib ijtimoiy tuzumdan ko'rmoq lozim va jamiyatdagi adolatsizlikka va noo'rin hatti-harakatlarga barham bermoq darkor. Faqirlik va yo'qchilikka qarshi kurashib, jamiyatdagi kuchsiz va zaif deb hisoblangan insonlarning haq-huquqini zolimlardan undirib, ularning o'ziga qaytarib berish kerak. Shundagina jamiyatdagi adolatsizlik o'rtadan ko'tariladi.

Agar jamiyatning hamma a'zolari kerakli bo'lgan eguliklar, dori-darmonlar va gigienik sharoitlar bilan ta'minlansa, kasalliklarga qarshi kurashish quvvati oshadi.

Ammo agar jamiyatdagi nufuzli ba'zi shaxslar uchun hamma shart-sharoit yaratilsa, hatto it-mushugining alohida muolaja qiluvchi shifokori bo'lsa-yu, boshqalarning esa chaqalog'ini

parvarish qilish uchun oddiy imkoniyati ham bo'lmasa, bu jamiyatning naqadar adolatsiz ekanidan dalolat beradi. Bunday achinarli sahnalarning shohidi bo'lganimizda, Xudoga ta'na qilish o'rniga o'zimizni koymog'imiz lozim.

Zolinga qarab: «*Zulm qilmagin*» va mazlumga qarata: «*Zulmga qarshi kurash*» deyishimiz lozim bo'ladi.

Jamiyatdagi butun insonlarning etarli darajada gigiena qoidalari va davolanish uslublari bilan hamda oziq-ovqat, uy-joy, madaniyat va ta'lim-tarbiya kabi muhim bo'lgan sharoitlar bilan ta'minlanishiga harakat qilishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, hamma balolarni yaratilish tuzumiga ag'darib, o'z gunohlarimizga e'tiborsiz bo'lishimiz yaramaydi.

Qachon Alloh bizni bunday hayot kechirishga majbur qilgan? Va qayerda bunday hayot tuzumini tavsiya qilib buyurgan? Alloh bizni erkin qilib yaratgan, negaki, ozodlik takomil topish va taraqqiy etish ramzidir. Biroq bizlar ozodlikni noto'g'ri yo'lda ishlatib, kuchsizlarga zulm qilishni ravo ko'ramiz yoki boshqalar zulmiga bosh egamiz. Zulm va zo'rvonlikning natijasi, ijtimoiy hayotdagi tartib-intizomsizlik shaklida namoyon bo'ladi.

Afsuski, ko'plar (jumladan Ashoira guruhi) ushbu mavzu haqida noto'g'ri tushunchalarga borishgan, hatto ma'ruf shoirlar bu borada she'rlar bitishgan. Qur'oni Karim qisqa va lo'nda qilib bu borada bunday deydi:

﴿إِنَّ اللَّهَ لَا يَظْلِمُ النَّاسَ شَيْئًا وَلَكِنَّ النَّاسَ أَنفُسَهُمْ يَظْلِمُونَ﴾

«Alloh odamlarga zarrachalik zulm qilmaydi, lekin ularning o'zlari o'zlariga zulm qilurlar.» (Yunus surasi; 44 – oyat)

Shunday qilib, ofat-balolar, musibatlar va ko'ngilsiz hodisalarning hikmati haqidagi bahsimiz, garchi hali bu haqda ko'plab bahslashish mumkin bo'lsa-da, qisqa va ixcham

ma'lumoga ega bo'lish uchun shu miqdor etarli deb hisolaymiz.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Balo va musibatlarning hikmati nimada? Bu haqda qisqacha izoh bering.
2. Hayotning bir tekis davom etishining qanday salbiy ta'siri bor? Siz ham boy-badavlat yashab turib, hayotidan noliydigan odamlarni ko'rganmisiz?
3. Yaratilishdagi «*nur va zulmat*» hikmatidan nimani bilasiz?
4. Jamiyatda sodir bo'ladigan noxushliklarning hammasi dunyoning yaratilishiga bog'liqmi yoki ba'zilarida bizning ham hissamiz bormi?
5. Jamiyatdagi musibat va noxushliklarni yo'qotish uchun to'g'ri yo'l bormi? Zaif sanalgan insonlar barobarida bizning zimmamizga qanday vazifa yuklanadi?

6-DARS:

Jabr va ixtiyor masalasi

Allohning adolati bilan bogʻliq muhim masalalardan biri – «*jabr va ixtiyor*» masalasidir. Jabriylar eʼtoqodicha, inson oʻzi hech ixtiyor sohibi boʻlmay, uning amali va yurish-turishida, aytadigan soʻzlarida, aʼzolarining harakatlanishi va barcha xatti-harakatida, mashina qitʼalari kabi jabriy va majburiy holda yoʻnaltiriladi.

Shuning uchun, yuqoridagi bu masala «*Allohning adolatiga qanday uygʻun keladi?*» degan savol tugʻiladi. «*Ashoira*» guruhi oldingi darslarda ular haqida soʻz yuritganimizdek, «inson aqli din taʼlimotlaridan foydalanmay turib, ayrim yaxshilik va yomonlikni taniy olish va ularni bir-biridan ajratishga qodir emas» degan xulosaga kelgandilar. Ular shu eʼtiqodga binoan «*jabr nazariyasi*»ga yondashib, Allohning odilligini inkor qilganlar. Chunki «*jabr nazariyasi*»ni qabul qilish bilan adolat masalasi maʼnosiz boʻlib qoladi.

Ushbu masalani yoritish uchun bir necha mavzularni koʻrib chiqishimiz lozim:

1. «Jabr» eʼtiqodining kelib chiqishi

Har bir inson oʻz vujudida, qiladigan qarorida erkin ekanligini his etadi. Masalan: Biror doʻstiga moliyaviy koʻmak berishi yoki bermasligida ozod ekanini yoki chanqagan holda, oldida turgan idishdagi suvni ichish yoki ichmasligi oʻz ixtiyorida ekanini yoxud uni ranjitib qoʻygan kishini kechirish yoki kechirmaslik oʻzining qoʻlida ekanini yaqqol tushunadi.

Yoki har bir inson qariganligi yo bemorligi sababli beixtiyor qaltirayotgan odam qoʻli bilan oʻz iroda-ixtiyori natijasida harakatlanayotgan sogʻlom kishi qoʻli oʻrtasida farq qoʻyadi.

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

Shunga ko'ra, iroda-ixtiyorning ozodligi butun insonlarga tegishli bo'lgan umumiy bir hissiyot bo'lishiga qaramay, nimaga ba'zilar «jabriya» g'oyasiga ergashib ketganlar?!

Albatta bu masalaning bir necha dalillari mavjud bo'lib, biz bu *dars*da buning muhim dalilini bayon qilamiz. Ushbu dalil shundan iboratki, insonga muhitning ta'sir qilishini, qanday tarbiyada bo'lganining ta'sir ko'rsatishini, turli xil chaqiriq va targ'ibotlar ta'sirini, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning insonlar ongi, ruhi va ularning his-tuyg'usida taassurot qoldirishini va irsiyat ham bir omil sifatida ta'sir ko'rsatishini inkor qilib bo'lmaydi.

Yuqorida zikr etilgan bir necha omillar ta'siri to'plamini nazarga olsak, go'yoki insondan iroda-ixtiyori tortib olingandek ko'rinadi. Go'yoki tashqi va ichki omillar insonni muayyan bir ishni qilishga majbur qilayotgandek tuyuladi. Gohida «*agar bu omillar bo'lmaganda edi, inson bu ishni qilmagan bo'lar edi*» deb o'ylaymiz. Bu omillarni «*muhit jabri*», «*iqtisodiy sharoit jabri*», «*ta'lim-tarbiya jabri*», «*irsiyat jabri*» deb nomlash mumkin.

* * *

2. «Jabriy»larning asosiy xatosi

Jabriylar asosiy bir masaladan g'ofildirlar. U ham bo'lsa «*his-tuyg'u*» va «*noqis sabab*»ni «*komil sabab*» bilan adashtirishlaridir. Hech kim «*yashash muhiti*», «*ta'lim-tarbiya*» va «*iqtisodiy sharoit*»ning inson tafakkuri va uning xatti-harakati shakllanishida ta'sirga ega ekanligini inkor qila olmaydi. Biroq mazkur omillarning hech biri inson yo'nalishini tayin etuvchi asosiy va komil sabab bo'la olmaydi, negaki nima bo'lganda ham va har qanday sharoitda qaysi yo'lni tanlashimiz bizning iroda-ixtiyoriga bog'liqdir.

Chunki, hatto fasod va gunohga botgan va yo'ldan og'ish uchun barcha shart-sharoit muhayyo bo'lgan muhitda ham fasod yo'lga kirmay, poraxo'rlik qilmay va gunoh ishlarga qo'l urmay hayot kechirish mumkin va shunday sharoitda ham inson gunoh qilishga majbur emas.

Binobarin, «*shart-sharoit yaratuvchi omillar*»ni «*tayin etuvchi asosiy va komil sabab*»dan ajratmog'imiz lozim.

Shuning uchun ba'zi bir yomon oilalarda parvarish topgan yoki o'ta tuban muhit va madaniyatda unib-o'sgan yoxud nomunosib irsga molik bo'lgan ko'pgina insonlar to'g'ri yo'lni tanlab, jamiyatdagi buzg'unchilik va fasodlarga bardosh bera olmay, o'sha muhit va madaniyatga qarshi oyoqqa turib inqilob qilganlar. Agar muhit va madaniyatni inson ixtiyorini tortib oluvchi sabablardan biri deb hisoblasak, unda yer yuzasidagi hech bir davlatda inqilob ro'y bermagan bo'lur edi va hamma o'z muhit va madaniyatiga bo'yin egib, yangi madaniyat va muhit yaratmagan bo'lar edi.

Demak, yuqorida sanab o'tganimiz omillar (muhit-madaniyat, tarbiya, irs, iqtisod va siyosat) hech biri inson taqdirini belgilamaydi, balki ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatib, inson qaysi yo'lni tanlashi uchun shart-sharoit yaratadi. Inson taqdirini o'z iroda-ixtiyori bilan qaysi yo'lni tanlab amal qilishni belgilaydi va u bu yo'lni tanlashda majbur qilinmagan.

Ushbu da'vomizga yana bir misol: Inson o'z iroda-ixtiyori bilan yozning jazirama issig'ida Allohning farmoniga bo'yin egib, ro'za tutishga qaror qiladi. Shunda uning butun vujudi chanqagani uchun suv ichishni talab qila boshlaydi, ammo u esa Alloh farmoniga bo'ysunib badan talabini qondirishni e'tiborga olmay ro'za tutishni ustun ko'radi. Holbuki, boshqa bir shaxs ushbu talabga taslim bo'lib, ro'za tutmay suv ichishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, barcha omillardan ustun turadigan insonning iroda va qarori qaysi yo'lni tanlashi bilan uning

taqdirini belgilaydi.

* * *

3. Jabriya nazariyasi paydo bo'lishining ijtimoiy-siyosiy omillari

Tarix ma'lumotlariga qaraganda, jabr va ixtiyor masalasi ko'p o'rinlarda suiiste'mol qilingan bo'lib, nazarga olinmagan bir qator omillar, jabr e'tiqodining keskinlashishiga va inson o'z iroda-ixtiyorida ozod ekanini inkor qilinishiga sabab bo'lgan, jumladan:

❖ Siyosiy omillar

Ko'pgina zolim, xudbin va siyosatchi hukmdorlar xalqning oyoqqa turishining oldini olib, ularni bo'yin eggan holda saqlab turish va inqiloblarning alangasini so'ndirish hamda o'zlarining nopok hukumatlarini davom ettirish maqsadida biz insonlar hech qanday iroda-ixtiyorga ega emasmiz, balki qazo va qadar va tarixning majburlashi oqibatida ayrimlar hukmdor va boshqalar esa hukmdorlar qo'l ostida bo'lmoqlari lozim, degan e'tiqod asosida o'zlarini oqlashar edi. Ularning da'vosi bo'yicha, Tangrining qilgan taqdiri tufayli hokimlar hukumatga keladilar va ularga taslim bo'lish – bu taqdirga tan berish va tarixning majburlashiga taslim bo'lish hisoblanadi.

Ma'lumki, bunday e'tiqodni xalq orasiga kirgizish naqadar ularni orom holda saqlar va hukmdorlarning mustamlakachilik siyosatini davom ettirishga yordam berar edi. Holbuki, aql va din hukmi bo'yicha, biz o'z taqdirimizni o'zimiz tanlagan yo'l va qilgan amallarimiz bilan belgilaymiz va «qazo va qadar» masalasida jabr aslo yo'qdir. Allohning qazo va qadari bizning qiladigan sa'y-harakatlarimiz, iroda, istagimiz va iymonimiz orqali tayin qilinadi.

❖ **Ruhiiy omillar**

Ba'zi irodasi sust va yalqov odamlar hayotlaridagi muvaffaqiyatsizliklarini peshonada yozilganlikka yo'yib, o'zlarining ayblarini va hayotdagi mag'lubiyatga uchraganliklarini o'z zimmalariga olib, qilgan xatolari va ish yoqmasliklaridan deb bilish o'rniga taqdir taqozosiga yuklagandek bo'ladilar. «*Nima ham qilar edim, peshonamga baxti qaro deb yozilgan bo'lsa, uni hech narsa bilan o'zgartirib bo'lmaydi, hatto Zamzam va Kavsar suvi bilan ham ketkazib bo'lmaydi*» – deydilar. Shu gaplar bilan o'zlarini yupantirib, bezovtalanishdan uzoqlashishga urinadilar va o'zlarini xotirjam qilib ko'rsatadilar.

❖ **Ijtimoiy omillar**

Ba'zilar hayotda «*ozod*» bo'lmoqchi bo'lib, shahvatlarini qondirish yo'lida qabih gunohlarga qo'l uradilar. Ular qilgan ishlarida o'zlarini begunoh ko'rsatmoqchi bo'lib: «*Alloh bizni shunday yaratgan*» – deb jabriylar nazariyasidan foydalanadilar. Shuning bilan ham o'zlarini ham qoniqtiradilar va insonlar jamiyatida ham o'zlarini gunohsiz qilib ko'rsatadilar.

Ular jabr e'tiqodiga yuzlanishlari orqali o'zlarining shahvatparastliklarini; «*Biz tutgan yo'limizda iroda-ixtiyorga molik emasmiz*» degan so'zlar bilan oqlashga harakat qiladilar.

Lekin biz ularning bu da'volari yolg'on ekanligini yaxshi bilamiz. Hatto bu gunohlarga yo'l qo'ygan shaxslarning o'zi ham, keltirgan uzi-bahonalari asossiz va yolg'on ekanligini tushunib turadilar. Biroq qisqa muddatli dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lish va o'z moddiy manfaatlarini qo'lga kiritish uchun haqiqatni oshkor qilmaydilar.

Shuning uchun insonlar jamiyatini fikriy va e'tiqodiy nuqtai nazardan sog'lomlashtirish uchun zolim hukmdorlar o'zlarining mustamlakachilik manfaatlari yo'lida qurol qilib olgan, fosiq va

dangasa shaxslar o'zlarining xato va gunoh ishlarini oqlash uchun bahona qilib olgan va insonlar jamiyatini fasod va bulg'anishlarga olib keladigan «*jabr*» nazariyasiga qarshi kurashmoq lozim.

* * *

O'ylab javob bering:

1. «*Jabr va ixtiyor*» nazariyalarining farqi nimada?
2. Jabriylar ko'pincha qaysi dalillarga tayanadilar?
3. Muhit, tarbiya, irsiyatning ko'rsatadigan ta'siri haqida nima deysiz?
4. Jabr nazariyasini ro'yobga chiqaradigan siyosiy, ruhiy va ijtimoiy omillar nimalardan iborat? bu haqida so'zlab bering.
5. O'sha omillar qarshisida biz egallaydigan mavqeimiz qanday bo'lishi kerak?

7-DARS:

Iroda va ixtiyorga oid aniq dalil

1. Jami insonlarning vijdoni jabrni inkor qiladi;

Ilohiyotchi olimlar va faylasuflarning inson ixtiyoriga oid ko‘p dalillari bor. Lekin biz eng yaqqol dalilni keltirishni lozim topdik. Bu dalil bashariyatning vijdonidir. Har qanday jamiyat, dindor bo‘ladimi yoki yo‘qmi, g‘arblik yoki sharqlik bo‘ladimi, qadimdami yoki hozirgi zamondami, badavlat yoxud faqir-muhtojmi, taraqqiy etgan yoki taraqqiylashmagan, har qanday madaniyat sohibi bo‘lishidan qat’iy nazar, ushbu haqiqatdan ogohdirki, jamiyat uchun qonun-qoida tuzilishi zarur. Har bir odam ana shu qonun-qoida oldida javobgar bo‘lib, qonunga xilof ish qilganlar, albatta jazolarini olishlari kerak.

Muxtasar qilib aytganda, «qonun hokimligi», «uning barobarida javobgarlik» va «qonun bo‘yicha jazolanish» masalasida olamning barcha aql-idrok egalari o‘zaro ittifoqqa erishganlar va bu uch muhim masalani madaniyatdan yiroq bo‘lmish vahshiy toifagina tushuna olmaydi, xolos. Buning o‘zi insoniyat vijdoni odamning iroda-ixtiyor sohibi ekanligini e’tirof etishini anglatadi. Nega deganda, agar inson o‘z amalida iroda-ixtiyorga ega bo‘lmasa, qandayiga qonun oldida mas’ul deb ayta olamiz? Yoxud beixtiyor va majbur bo‘lgan holda bajargan ishi sababli qonun oldida jazolanishi mumkin?! Qonunga xilof ish qilgani uchun zindonga yoki o‘limga qanday qilib hukm qilishimiz mumkin? Bu holda qilgan ishimiz odamlarning hayotiga xavf solib, tog‘dan dumalab tushayotgan toshlarni muhokama qilgandek bo‘lamiz.

To‘g‘riki, insonning toshdan juda ham katta farqi bor. Biroq inson o‘z iroda-ixtiyorida ozod ekanini inkor qilsak, inson bilan tosh o‘rtasida faqatgina zohiriy farq bo‘lib, har ikkalasi jabriy kuch ta’siri ostida amalini bajargan bo‘ladi. Tosh yerning

tortish kuchi ta'siri tufayli yo'l o'rtasiga dumalab tushgan bo'lsa, jabriylar e'tiqodi bo'yicha, jinoyatkor, qotil va qonunbuzar shaxs, jabriy omillar ta'sirida qo'l urgan jinoyatiga majbur bo'lgan. Jabriylar e'tiqodiga binoan, tosh va inson o'rtasida natija nuqtai nazaridan hech qanday farq yo'qdir. Zeroki, ularning hech biri o'z iroda-ixtiyori bilan ishni bajarmagan. Nimaga biri (inson) muhokama qilinishi kerak ekan-u, boshqasi (tosh) muhokama qilinmas ekan?!

Biz ikki yo'l qarshisida birini tanlashimiz kerak: Yo barcha odamlar vijdonini sahv-xatoga yo'yib, butun qonun va adliya mahkamalari va jinoyatkorlarning jazolanishini behuda va foydasiz, balki zulm va shafqatsizlik deb hisoblashimiz kerak. Yoxud «*Jabriya*» nazariyasini inkor qilishimiz lozimdir. Albatta ikkinchi yo'lni tanlash ma'quldir.

Ajablanarlisi shundaki, aqliy-falsafiy nuqtai nazaridan «*jabr nazariyasi*»ga yondashadigan va uni isbotlash uchun dalil keltiradigan shaxslar kundalik kechiradigan hayotlarida inson o'z iroda-ixtiyorida ozod ekanini amalda ko'rsatib berib, iroda-ixtiyor ozodligi tarafdori bo'lib ko'rinadilar.

Zero, agar biror shaxsning ikkinchi bir shaxs tomonidan haq-huquqi oyoq osti qilinsa yoki unga aziyat-ozor bersa, o'sha shaxsni malomatlanish va jazolanishga sazovor deb bilib, uning ustidan adliya mahkamasiga shikoyat qilishadi va gohida dod-faryod ko'tarib, shovqin solishadi va qonunbuzar jinoyatchini qonun barobarida jazoga tortmagunlaricha orqaga chekinishmaydi!

Agar chindan ham inson iroda-ixtiyor sohibi bo'lmasa, jinoyatchini koyimoq va uning ustidan shikoyat qilmoq va o'z haq-huqini undirish uchun shovqin-suron ko'tarib, faryod etmoq nima ma'noni anglatadi?!

Har holda, aql-idrok egasi bo'lgan barcha insoniyatning vijdoni inson iroda-ixtiyor sohibi ekaniga yorqin dalil bo'lib,

ular bu haqiqatning mavjudligini butun vujudlari bilan tasdiqlaydilar va bu e'tiqodlariga vafodor va mustahkam bo'lib kelganlar. Hatto bir kunga bo'lsa ham, bu e'tiqodlaridan ko'z yumib, ijtimoiy va shaxsiy hayotlarini boshqarishga o'zgiradilar.

Islom olamining buyuk faylasufi bo'lmish Xoja Nosiriddin Tusiy «*jabr va ixtiyor*» masalasini qisqa bir ibora bilan shunday bayon qilgan:

«والضرورة قاضية باستناد أفعالنا إلينا»

«*Zaruriy idrok etishimiz va vijdonimiz hukmi bo'yicha, barcha amalimiz o'zimizga bog'liqdir.*»¹

2. Jabr tushunchasining din mantig'iga zidligi

Yuqorida keltirgan dalilimiz odamlarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar ularning vijdoniga asoslangan edi. Biroq diniy tafakkurga tayangan holda undan kelib chiqqan jabriyaga qarshi qat'iy dalilimiz bor.

Zero, diniy e'tiqodlar «*jabriya nazariyasi*»ga muvofiq emas. Jabriya nazariyasini qabul qilish bilan din ta'limotlarining hammasi puchga chiqadi. Axir qanday qilib oldingi darslarda yoritib isbotlaganimiz Allohning adolatini jabr e'tiqodiga tatbiq eta olamiz?! Qandayiga Alloh bandasini biror yomon ishga majburlab, so'ngra uni bu ishni qilgani uchun: «*Nimaga bu ishga qo'l urding*», deb jazolashi mumkin?! Bu mantiqqa umuman to'g'ri kelmaydi.

Binobarin, jabriya nazariyasini qabul qilsak, ajr-mukofot va jazo, jannat va jahannam tushunchalari ma'nosiz bo'lib qoladi.

Shuningdek, Qur'oni Karim oyatlarida zikr qilingan nomai amal, oxiratdagi hisob-kitob, solihlarni qadrlash, fosiqlarni

1. Tajridul aqoid, «*jabr va ixtiyor*» bahsi

jazolash kabi ta'limlarning hammasi asossiz bo'lib qoladi. Zeroki, jabr e'tiqodiga ko'ra, solihlar ham, fosiqlar ham amallarini o'z ixtiyorlari bilan bajarishmaydi.

Bundan tashqari, biz din deganda avvalo, «vazifa va mas'uliyat»ni tushunamiz. Agar hech bir inson qiladigan amalida ixtiyorga ega bo'lmasa, unda vazifa va mas'uliyat qabul qilish nima ma'noni anglatadi?! Agar biror kishining qo'llari uning iroda-ixtiyorida tashqari holda qaltirasa, «qo'llaringni qaltiratma» – deya olamizmi? Yoki tepalikdan sirg'anib pastga dumalab ketayotgan odamga «to'xta!» – deb buyruq bera olamizmi?

Mana shuning uchun mo'aminlar amiri Ali (*alayhis salom*) mashhur xutbada «jabriya nazariyasi» butparastlar va shayton guruhining tutgan yo'li ekanini uqtirib, bu haqda shunday deganlar:

«تلك مقالة إخوان عبدة الأوثان و خصماء الرُحمان و حزب الشَّيْطَان»

«Bu (jabr e'tiqodi), butparastlar birodarlarining va Alloh dushmanlarining va shayton hizbining so'zidir.»

* * *

O'ylab javob bering:

1. Jabrni botil qiluvchi yaqqol dalil keltiring.
2. Butun insonlarning vijdoni iroda-ixtiyor ozodligi xususida hukm qilishini izohlab bering.
3. Jabriya nazariyasi tarafdorlari chindan ham jabriydirlarmi?
4. Jabr e'tiqodi Allohning adolatiga to'g'ri keladimi? To'g'ri kelmagan taqdirda buning sababini aytib bering.
5. Nima sababdan iroda va ixtiyor ozodligi vazifa va mas'uliyat qabul qilishning asosi hisoblanadi?

8-DARS:

«Al-amru baynal amrayn» nima degani?

1. Jabr nazariyasiga teskari bo'lgan tafviz (o'z holiga qo'yilish) e'tiqodi

Haddidan oshish holatida turgan jabr nazariyasi qarshisida tamoman qarama-qarshi o'laroq, sustlik tomonini tutgan «*tafviz*», ya'ni o'z holiga qo'yib qo'yish g'oyasi vujudga kelgan edi. «*Tafviz*», ya'ni o'z holiga qo'yib qo'yish nazariyasi tarafdorlarining e'tiqodi bo'yicha, Alloh bizlarni yaratgandan keyin hamma narsani bizning ixtiyorimizga berib qo'ygan va bizning amal va kirdikorimizdan butunlay begonadir. Shuning uchun, odamlar hamma ishlarida mutlaqo mustaqil va ozodirlar.

Shubhasiz, bunday e'tiqod ham tavhid (yakkaxudolik)ga ziddir. Chunki, tavhid ta'limoti bo'yicha, butun jahon Allohning mulkidir va hech narsa uning nazari va hokimiyatidan chetda emas, hatto amallarimizni bajarishda ixtiyor va irodamiz o'z qo'limizda bo'lgani bilan Allohning qudrati va hukumatidan tashqarida emas. Aks holda Allohga shirk keltirishimiz shubhasizdir.

Boshqacha aytganda, biz ikki xudoga: Biri butun borliqni yaratgan buyuk Xudoga va ikkinchisi esa buyuk Xudo uning amaliga hech qanday ta'sir ko'rsata olmaydigan va iroda-ixtiori mutlaqo o'z qo'lida bo'lgan mustaqil va erkin bo'lmish kichik xudoga, ya'ni insonga e'tiqod qila olmaymiz. Bu e'tiqod bir necha ilohga sig'inish bo'lib, shirkdan xoli emas.

Biz esa insonni erk, iroda va ixtiyor sohibi deb bilishimiz hamda Allohni inson va uning amali ustidan hukmron deb bilishimiz muhim masaladir.

«*Na jabr va na mutlaqo ixtiyor*» aqidasi musulmonlar uchun umid manbai sanaladi. Shu bois, jabrga e'tiqod qilganlarning dunyoqarashiga binoan, «*peshanamizdagini ko'ramiz*», savob qilamizmi yoki gunoh, har holda jannatiy yoki do'zaxiy ekanligimiz oldindan belgilab qo'yilgan. Ushbu g'oyaga ko'ra, hayotning ma'no-mazmuni yo'qdek tuyuladi. Ahli-Bayt mazhabining izdoshlari bundaylarga qarata shunday deyishadi:

Do'zaxiy yoki jannatiy ekanligimizning belgilanishi bizning qilgan amalimiz natijasidir. Shuhasiz, Alloh taolo O'zining azaliy ilmi bilan bandalarining oxiratdagi oqibatini oldindan biladi va bu ilmida hech qachon adashmaydi. Lekin buning ma'nosi Alloh bandasidan tanlash huquqini olib qo'ydi, degani emas. Aks holda, jannat va do'zaxning yaratilishi foydasiz bo'lib, bu esa Alloh taoloning hikmatiga ziddir. Va asosan Alloh O'zining azaliy ilmi bilan qay bir amalni bajarishimiz yoki tark etishimizni va shuningdek qanday oqibatga duchor bo'lishimizni, ya'ni jannat yoki do'zax ahlidan bo'lishimizni oldindan bilishi bizni biror narsaga majbur etmaydi. Uning oldindan hamma narsalarni bilishi insonlar uchun hech bir majburiyat tug'dirmaydi.

Bularga zid o'laroq, «*mo'taziliylar*» insonga shunchalik ko'p ixtiyor berdilarki, hatto bu masalada shirkka yo'l qo'ydilar. Axir Allohning iznisiz biror bir ish amalga oshmaydi-ku. Qanday qilib bu oshkor haqiqatni inkor etish mumkin?!

Albatta shuni aytib o'tish kerakki, ko'pincha siyosiy mojarolar islomdagi firqalarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Masalan; oddiy xalqni bo'ysundirish uchun «*jabriya*» oqimining aqidasi hukmron kuchlar uchun juda qo'l kelardi. Irodasini qo'ldan bergan xalq hech qachon hukmdorlarga qarshi oyoqqa turishga jur'at qilolmasligi barchaga ayondir. Tarixdan ma'lumki, doimo Ahli-Bayt mazhabining tarafdorlari zulm va nohaqlikka qarshi qat'iy kurashib kelganlar. Ularning shiori

imom Husayn (*alayhis salom*) ning shiorlari bo'lib, «*hayhot minnaz zillah*», ya'ni «*zalil va xor bo'lishga hech qachon yo'l qo'ymaymiz!*» yoki «*sharafli o'lim zillatli hayotdan ko'ra afzaldir*» ular butun tarix bo'ylab doimo zulmu zo'ravonlikka hamda zolim va mustabid tuzumlarga qarshi kurashib kelganlar.

2. Mo'tadil nazariya g'oyasi

Bizning e'tiqodimiz, yuqorida aytib o'tilgan ikki nazariyaning (jabriya va tafviz) orasidagi e'tiqod bo'lib, ham Allohning odilligini to'la-to'kis qabul qilib, bandalar uchun «*ozodlik va mas'uliyat*» borligini e'tirof etamiz va ham tavhid (yakkaxudolik), ya'ni Alloh butun borliqqa hukmron ekaniga ishonamiz, ham insonning qiladigan amallarida ozod ekanligiga bovar qilamiz, hamda Allohning yagonaligi va mutlaq hokimiyat egasi ekanligiga iymon keltiramiz. Bunday e'tiqodga «*Al-amru baynal amrayn*» deyiladi.

Bu masalaga bir oz tushunish qiyin bo'lgani uchun sodda misol keltirmoqchimiz. Faraz qiling, siz tramvay haydovchisiz. Elektr simi tramvay bilan elektr manbaini ulab turadi. Agar biror daqiqaga elektr energiyasi etmay qolsa, tramvay darhol yurishdan to'xtab qoladi. Albatta siz haydovchi sifatida yo'lingizning istagan yerida to'xtab yoki to'xtamasdan harakat qilishingiz mumkin. Lekin ozodlik va ixtiyor sohibi bo'lishingizga qaramay, tramvayingizni boshqarishingiz uchun elektr energiyasini etkazib beruvchi kuch borki, agar u sizni elektr energiyasidan mahrum qilsa, u holda siz tramvayni boshqara olmay, to'xtab qolasiz, negaki, sizning butun kuch va qudratingiz o'sha elektr energiyaga bog'liq bo'lib, uning tugmasi o'sha kuchning qo'lidadir.

Agar bu misolga diqqat bilan nazar solsak, ko'ramizki, haydovchining ayni ozod qudratga ega paytida uni bu ozodligidan mahrum qila oladigan qudrat bordir. Bu ikki kuch

birga bo'lishi hech ziddiyatga sabab bo'lmaydi. Zeroki, biri nisbiy ozod bo'lsa, biri esa mutlaqo ozoddir.

Boshqa bir misol:

Faraz qiling: Biror bir shaxs yuz bergan yomon hodisa yoki xastalangani sababli asab tizimi ishdan chiqib qolib, qo'lini qimirlatish qudratiga ega bo'lmasa, shunda agar bir muloyim va engil elektr energiyasiga ulab qo'yib, uning asabi kuchlantirilsa, qo'lini harakatlantirishga qurbi etadi.

Mazkur shaxs o'sha kuchga kirgan qo'li bilan biror bir jinoiy ishga qo'l ursa, masalan, biror kimsaning yuziga shapaloq tushirsa, yoki begunohning qalbiga pichoq ursa, shubhasiz, qilgan jinoyatida javobgarlikka tortiladi. Negaki, mazkur jinoyatga ham kuchi etgan va ham o'z iroda va ixtiyori bilan ushbu jinoyatni amalga oshirgan. Shuning uchun kuch-qudrat va iroda-ixtiyorga ega bo'lgan o'sha shaxs amal va kirdikorining barobarida mas'uldir.

Lekin shunga qaramasdan o'sha shaxsga elektr energiya orqali qudrat va kuch yaratgan tabib uning ustidan hukmron bo'lib, erkin holatida ham tabibning qudrati ostida ekani shubhasizdir.

Endi esa asl masalaga qaytsak. Alloh bizga kuch-qudrat, aql-hush va jismoniy sog'liqni berib, har lahza bu ne'matlarni bizga etkazib beradi. Agar Alloh taolo o'z marhamatini bizdan bir lahzaga bo'lsa-da, darig' tutsa, shubhasiz, biz nobud bo'lamiz. Agar biz biror ishni bajarishga qodir bo'lsak, faqat Uning qudrati tufaylidir. Hatto bizning iroda va ixtiyorimiz ham Uning tarafidan berilgan. Shunday ekan, biz ozod bo'lishimiz bilan ayni paytda Undan quvvat olib, takomillasha boramiz va zinhor Uning hokimiyat chegarasidan chetga chiqa olmaymiz.

Shu bois, iroda-ixtiyor va erkinlikka molik bo'lishimiz bilan Allohning qudrati ostida ekanimiz va Uning hokimiyati

chegasidan tashqarida emasligimiz va kuch-qudratimiz bo'la turib, Unga bog'liqligimiz va Uningsiz hech narsa emasligimiz muqarrardir.

«*Al-amru baynal amrayn*» degan so'zning ma'nosi ana shudir. Biz insonni «*mutlaqo ozod*» demaymiz, zero, shirk keltirgan bo'lamiz va insonni butun amallarida «*majbur*», deb ham aytmaymiz, zero, unga zulm qilgan bo'lamiz.

Bu darsni biz payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) va u zotning «*Ahli-Baytlari*»dan o'rganganmiz. Ulardan «*jabr va ixtiyor*» orasida yo'l bormi? - deb so'rashganda: «*Ha, yer va osmon oralig'idan ham ortiqroq kenglikda yo'l bor*» - deb javob berganlar.

3. Qur'onda jabr va ixtiyor masalasi

Insonning irodasi ozod ekanligi Qur'oni Karimning yuzlab oyatlarida kelgan:

- Amr va nahiy qiluvchi, ya'ni yaxshilikka buyuruvchi va yomonlikdan qaytaruvchi oyatlarning hammasi insonning iroda-ixtiyori ozod ekanligiga dalolat qiladi. Negaki, agar inson majbur bo'lganida edi, uni yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish behuda va foydasiz bo'lardi. Holbuki, hikmatli Tangridan behuda va foydasiz ish sodir bo'lmaydi.
- Fosiqlarni malomat va solihlarni madh qiluvchi oyatlar barchasi inson irodasining ozod ekaniga yaqqol dalildir. Chunki, inson majbur bo'lgan taqdirda yomon amali uchun uni koyimoq yoki solih amali sababli uni qadrlamoq ma'nosiz bo'ladi.
- Qiyomatdagi savol-javob va muhokama qilinishi haqidagi oyatlar va shuningdek, jannatda beriladigan ajr-mukofotlar va jahannamdagi azoblar haqidagi oyatlar inson iroda-

ixtiyorining ozodligiga ochiq dalildir. Chunki, majbur bo'lgan taqdirda bularning barchasi tushunarsiz bo'lib, yomonlarni jazolash ochiq zulm hisoblanadi.

- Inson qiladigan amaliga yarasha muomalada bo'linishi haqidagi oyatlar insonning iroda-ixtiyori ozod ekaniga yorqin dalildir. Misol uchun quyidagi oyatlar:

﴿كُلُّ نَفْسٍ بِمَا كَسَبَتْ رَهِيْنَةٌ﴾

«Har bir shaxs o'zi (hayoti dunyoda) bajargan (yaxshi va yomon) amali bilan garovlidir (ushlanuvchidir).» (Muddassir surasi, 38 – oyat)

﴿كُلُّ اٰمْرِئٍ بِمَا كَسَبَ رَهِيْنٌ﴾

«Har bir kimsa o'zi kasb qilgan ishi bilan garovga olinuvchidir (ushlanuvchidir).» (Tur surasi, 21 – oyat)

﴿اِنَّا هَدَيْنٰهُ السَّبِيْلَ اِمَّا شٰكِرًا وَاِمَّا كٰفِرًا﴾

«Darhaqiqat, Biz unga (insonga) xoh u shukr qiluvchi (musulmon) bo'lsin va xoh noshukr (kofir) bo'lsin, yo'l ko'rsatdik.» (Dahr surasi, 3 – oyat)

Mazkur oyatlar qilgan da'vomizga ochiq dalildir.

Qur'oni Karimning ayrim oyatlarida kelgan iboralar, «*Al-amru baynal amrayn*» ta'limotiga yorqin dalil bo'lib, gohida ba'zi ogoh bo'lmagan shaxslar o'sha iboralarni «*Jabr nazariyasi*»ga yo'yishgan. Masalan:

﴿وَمَا تَشٰؤُوْنَ اِلَّا اَنْ يَّشَآءَ اللّٰهُ اِنَّ اللّٰهَ كَانَ عَلِيْمًا حَكِيْمًا﴾

«(Ey, insonlar,) Alloh xohlasagina, sizlar ham xohlarsiz. Shubhasiz, Alloh biluvchi va hikmatli zotdir.» (Dahr surasi, 30 – oyat)

Ma'lumki, bu va bunga o'xshash oyatlar inson iroda va ixtiyori sohibi emasligini bayon etmaydi, balki «*siz insonlar iroda va ixtiyoringiz o'z qo'lingizda bo'la turib, Allohning farmoni ostidadirsiz*» degan haqiqatni isbotlaydi. Bu xususida yuqorida batafsil izoh berdik.

Mazkur oyatning mazmuni: «*insonlar iroda-istak sohibi bo'lishlari bilan bir qatorda shu paytning o'zida Allohning iznu irodasi ostidadirlar*» demakdir.

* * *

O'ylab javob bering:

1. «*Tafviz*» (o'z holiga qo'yib qo'yish) deganda nimani tushunasiz? Va ushbu nazariyada nima nuqson bor?
2. Ahli-Baytdan o'rganimiz «*Al-amru baynal amrayn*»ni misollar bilan tushuntirib bering.
3. Qur'on oyatlari «*jabr va ixtiyor*» masalasi xususida nima deydi?
4. Agar jabriya aqidasi qabul qilsak, jannat va jahannam, qiyomat va savol-javob masalalari qanday bo'ladi?
5. «*Faqat Alloh istasagina, ular istay oladilar*» qabilidagi oyatlar jabrga dalil bo'la oladimi?

9-DARS:

Hidoyat va zalolat Allohning qo‘lida

1. Hidoyat va zalolat turlari;

Agar biror musofir sizning oldingizga kelib bir uy manzilini sizdan so‘rasa, u holda siz ikki yo‘ldan birini tanlab unga yordam berishingiz mumkin:

1- Uni istagan manziligacha olib borib qo‘yasiz va xayrixohlik vazifasini oliy darajada o‘taysiz.

2- Yoki unga yo‘lni turgan joyingizdan turli xil belgi va ko‘rsatgichlarni aytish bilan istagan manzili sari yo‘llaysiz.

Shubhasiz, har ikkala holatda ham siz unga yo‘lboshchilik qilgan bo‘lasiz, faqat farqi shundaki, ikkinchi holatda siz faqat yo‘l ko‘rsatib bergan bo‘lasiz. Bu holatga *«iro‘atut-tariyq»*, ya‘ni yo‘l ko‘satish deyiladi. Biroq birinchi holatda o‘sha musofirni istagan manziliga etkazib qo‘yasiz. Bu holatga *«iysolun ilal matlub»*, ya‘ni maqsadga etkazib qo‘yish deb aytiladi.

Qur‘oni Karim va hadis shariflarda hidoyat so‘zi har ikki ma‘noda kelgandir. Boshqa tarafdin qaraganda, ba‘zan hidoyat faqat tashriiy, ya‘ni ma‘lum qonun-qoidalar dasturi asosida bo‘lsa, ba‘zan esa hidoyat takviniydir. Buning ma‘nosi – yaratilishga oid bo‘lgan hidoyat, masalan nutfaning to‘liq inson bo‘lgunga qadar harakatlanishiga o‘xshash holatlar, quyosh va yerning harakatlari va boshqalardir. Hidoyatning turlarini ko‘rib chiqqanimizdan keyin asl maqsadga o‘tamiz.

Aslida biz hidoyat deganda *«zalolat»* qarshisidagi hidoyatni tushunamiz. Ko‘p oyatlarda kelishicha, hidoyat va zalolat Xudoning qo‘lidadir. Albatta, shaksiz, Alloh to‘g‘ri yo‘lga

hidoyat qiluvchi payg'ambarlarni yuborib hidoyat bo'lishga sharoit yaratadi va insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi (keltirgan misolimizning birinchi holati).

Lekin majburiy holda maqsadga olib borib qo'yish esa (keltirgan misolimizning ikkinchi holati) bandalarning iroda-ixtiyori ozodligiga to'siq bo'lish deganidir. Alloh bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatib, bandalarning o'z ixtiyorlari bilan ana shu yo'lda yurishlarini istaydi. Alloh hidoyatining ma'nosi; insonlar to'g'ri yo'l topishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni ularga yaratish demakdir.

2. Muhim bir savol

Muhim bir savol shundan iboratki, Qur'on oyatlarida *«Alloh istagan bandalarini hidoyat qiladi va istaganlarini esa zalolatga boshlaydi»*, deyilgan. Masalan;

﴿فِيضِلُّ اللَّهُ مَنْ يَشَاءُ وَيَهْدِي مَنْ يَشَاءُ وَهُوَ الْعَزِيزُ الْحَكِيمُ﴾

«Demak, Alloh (O'zi) xohlagan kimsani yo'ldan ozdirur va (O'zi) xohlagan kishini hidoyat qilur. U qudratli va hikmatli zotdir.» (Ibrohim surasi; 4 – oyat)

Ba'zilar boshqa oyatlarni va oyatlar esa bir-birini tafsirlashini nazarga olmagan holda, mazkur oyatni ko'rishlari bilanoq, darhol e'tiroz qila boshlashadi. Masalan bunday deyishadi: *«Agar Xudo o'zi istaganini hidoyat yoki gumroh qiladigan bo'lsa, bizning nima gunohimiz bor?»*

Bu o'rinda shu narsani ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Qur'on oyatlarining haqiqiy ma'nosini qo'lga kiritish uchun ularni bir-biriga bog'liq holda ko'zdan kechirishimiz kerak. Biz hidoyat va zalolat haqidagi oyatlardan bir nechta namuna keltirmoqchimiz. Bu oyatlarni yuqoridagi oyat bilan taqqoslab kerakli xulosani o'zingiz chiqaring:

﴿وَيُضِلُّ اللَّهُ الظَّالِمِينَ وَيَفْعَلُ اللَّهُ مَا يَشَاءُ﴾

«Zolimlarni esa Alloh (haq) yo'ldan ozdirur. Alloh (O'zi) xohlagan ishni qilur.» (Ibrohim surasi; 27 – oyat)

﴿كَذَلِكَ يُضِلُّ اللَّهُ مَنْ هُوَ مُسْرِفٌ مُّرْتَابٌ﴾

«Haddan oshuvchi va shak keltiruvchi kimsalarni Alloh mana shunday yo'ldan ozdirib qo'yur.» (G'ofir surasi; 34 – oyat)

﴿وَالَّذِينَ جَاهَدُوا فِينَا لَنَهْدِيَنَّهُمْ سُبُلَنَا وَإِنَّ اللَّهَ لَمَعَ الْمُحْسِنِينَ﴾

«Bizning (yo'limiz)da jihod qilganlarni (tirishganlarni), albatta, O'z yo'llarimizga hidoyat qilurmiz. Shubhasiz, Alloh ezgu ish qiluvchilar bilan birgadir!» (Ankabut surasi; 68 – oyat).

Ko'rib turganimizdek, Allohning hidoyat qilish irodasi shunchaki emas, balki odamning o'z iroda-ixtiyoriga ham uzviy bog'liq. Alloh hech kimga hisob-kitobsiz hidoyat bo'lishni nasib etmaydi va biror kimsadan hisob-kitobsiz hidoyat yo'ldan borishni olib qo'ymaydi.

Alloh yo'lida o'z havoyi nafsiga qarshi kurashib, tashqi dushmanlar barobarida oyoqqa turuvchilarga Tangrining O'zi hidoyat bo'lishlarini nasib qiladi va bu ayni adolatdir.

Ammo zulmu zo'ravonlikka asos solgan va insonlar qalbida shak-shubha tug'dirish yo'lida sa'y-harakat qilgan zolim va sitamgarlarga Alloh hidoyat bo'lish tavfiqini nasib etmaydi. Ularning qablari qilgan amallari tufayli qorayib, zulmatga to'lib toshadi. Shu bois, «Alloh ularni gumroh qiladi» degan so'zning ma'nosi Alloh ularning qilgan amallari natijasini ruyobga chiqaradi, demakdir. Ko'rib turganingizdek, bu ham ayni adolatdir.

3. Allohning azaldan bilishi itoatsizlikka sabab bo'la oladimi?

«*Jabr va ixtiyor*» masalasida yana aytishimiz lozim bo'lgan masala – jabriylarning bahonasi bo'lmish Allohning azaldan bilishi haqidadir. Ular bunday deydilar: Alloh falonchining falon vaqtda o'zini o'ldirishini yoki sharob ichishini bilmaydimi? Shunda «*bilmaydi*» desangiz, Allohning azaldan bilishini inkor qilgan bo'lasiz, mabodo «*biladi*» desangiz, «*Alloh aytgani albatta bo'lishi kerak*» - deyishadi.

Demak, Allohning azaldan bilishi natijasida gunohkorlar gunoh qilishga va itoatkorlar bo'ysunishga majburdirlar.

Ular o'z xato va gunohlarini yashirish maqsadida bunday bahonalarni to'qib chiqarishadi. Shubhasiz, ular bir haqiqatdan g'ofildirlar va u esa, Alloh taolo o'z iroda va ixtiyorimiz bilan itoat yoki gunoh yo'lini tanlashimizni azaldan biladi. Buning ma'nosi biz o'z iroda va ixtiyorimiz bilan amal qilishimiz Allohning azaliy ilmida yozilgan. Shu bois, agar biz qiladigan amalimizda majbur bo'lsak, Allohning azaliy ilmi haqiqatga xilof bo'lib, jaholatga aylanadi.

Aniqroq tushunishingiz uchun ruxsat bering bir misol keltiraylik: Aytaylik o'qituvchi o'z o'quvchisining yalqov ekanligini bilgani uchun yil oxirida imtihondan o'ta olmasligini oldindan biladi. Uning bu xulosasi ko'p yillik tajribasidan kelib chiqqani uchun yuz foiz amalga oshadi.

Agar yil oxirida o'quvchi imtihondan chindan ham o'ta olmasa, shunda u: «*Siz oldindan o'ta olmasligimni aytganingiz uchun men imtihondan o'tmadim*» – deb, ustozini malomat qilishi to'g'rimi?

Yoki biror avliyo gunohkor kishiga: «*Agar falon ishni tark qilmasang, oqibatda bunday bo'lasan*» – deb oldindan yomon oqibatga duchor bo'lishini xabar bergan bo'lsa, o'sha xatkor avliyoning oldiga kelib: «*Sen aytganing uchun shunday bo'ldi*», – deya oladimi? Oldindan ogohlantirish gunohkorning iroda-

ixtiyorini olib qo'yish emas-ku, axir!!

Turli xil hodisalarning yuz berishidan bir necha soat oldin ko'ra oladigan yangi asbob uskunalar yaratilsa va biror shaxs o'z iroda-ixtiyori bilan falon ishni muayyan bir soatda bajarishi asbob uskunalar yordamida unga e'lon qilinsa, o'sha shaxs mazkur ishni qilishga majbur bo'ladimi?!

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Allohning azaldan bilishi bandadan ixtiyorini olib qo'ymaydi va biror ishga majbur qilmaydi!

* * *

O'ylab javob bering:

1. Necha xil hidoyat bor? Sharhlab bering.
2. Qur'ondagi oyatlardan Allohning hidoyat va zalolat qilishi haqidagi oyatlarni keltirib tushuntirib bering.
3. Allohning hidoyati va zalolati ma'no-mazmunini tushuntirib bering.
4. Allohning azaldan bilishi nima ma'nodadir?
5. Allohning azaldan bilishi odamlarni ozodona iroda-ixtiyorga ega bo'lishdan mahrum qiladimi? misol bilan tushuntirib bering.

10-DARS:

Allohning adolati va doimiy azob

Ma'lumki, Qur'onda kofirlarning doimiy azobda qolajaklari haqida ochiqdan-ochiq aytilgan:

﴿وَعَدَ اللَّهُ الْمُنَافِقِينَ وَالْمُنَافِقَاتِ وَالْكُفَّارَ نَارَ جَهَنَّمَ خَالِدِينَ فِيهَا﴾

«Alloh munofiq va munofiqalarga hamda kofirlarga; (ular) abadiy qoladigan jahannam olovini va'da qildi.» (Tavba surasi; 68 – oyat)

Xuddi shu oyatning davomida iymonli erkak va ayollarning jannat bog'laridagi abadiy rohatlanishlari haqida shunday aytilgan:

﴿وَعَدَ اللَّهُ الْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمِنَاتِ جَنَّاتٍ تَجْرِي مِنْ تَحْتِهَا الْأَنْهَارُ خَالِدِينَ فِيهَا﴾

«Alloh mo'minlar va mo'minalarga ostidan anhorlar oqib turadigan, mangu yashaydigan jannat (bog'laridagi pok maskanlarni va'da qildi.» (Tavba surasi; 71 – oyat)

Bu yerda shunday savol tug'ilishi mumkin: Inson o'zi etmish, sakson va yuz yil umr ko'radimi yoki yo'qmi, nima uchun qilgan gunohi deb, milliard yillab va undan ham ortiqroq azob ko'rishi kerak ekan?

Albatta bu gap azob haqida so'raladi. Chunki, jannatdagi rohatning abadiyligi haqida Allohning rahmati kengdir deb tushuntiriladi. Ajru mukofot bandalar uchun qancha ziyoda bo'lsa, shu holda Allohning rahmati va Uning fazlu karami cheksiz ekanidan dalolat beradi. Alloh ba'zi bandalarini qisqa umri davomida qilgan gunohi sababli mangu azoblashi adolatga to'g'ri keladimi va Allohning odilligini nazarga olgan holda gunohkorlarning mangu azoblanishini qanday tushunish mumkin? – degan savol tug'iladi.

Bu savolga javob:

Mazkur savolga aniq javob berish uchun bir necha masalalarni ko'rib chiqishimiz kerak;

Birinchidan, oxirat dunyosining jazosi, bu dunyoning jazolaridan farq qiladi. Masalan, agar biror shaxs o'g'rilik qilsa qo'lini kesish yoki zindonga qamash bilan jazolanadi. Lekin qiyomat jazosi, inson amalining ta'siri va xosiyatidan kelib chiqqan holda bo'ladi. Ochiqroq qilib aytganda, gunohkorlarning qiyomatdagi cheksiz dardu azobi ularning qilgan amalining natijasi sababli bo'ladi.

Bu haqda Qur'oni Karimda aniq qilib aytilgan:

﴿فَالْيَوْمَ لَا تَظْلَمُ نَفْسٌ شَيْئًا وَلَا تُجْزَوْنَ إِلَّا مَا كُنْتُمْ تَعْمَلُونَ﴾

«*Mana bugun hech bir jonga zulm qilinmas va sizlar faqat o'z'laringiz qilib o'tgan amallaringizga qarab taqdirlanursizlar.*» (Yosin surasi; 54 – oyat)

Oddiy bir misol bilan bu haqiqatni oydinlashtirishimiz mumkin: Kimdir spirtli ichimlik yoki narkotik moddalariga odat qilgan bo'lsa, harchand bu ishi yomon va organizmiga zararli ekanligi unga aytilgani bilan, o'z bilganidan qolmaydi. Ma'lum muddatgacha kayfu safo qilib yurgan bu odam, baribir bir kun kelib, qilgan ishining zararini ko'radi va sog'lig'idan ayrilib, oshqozon yarasi, asab buzilishi va yurak sanchishi kabi balolarga giriftor bo'ladi. Qilgan qisqa muddatli xatosi tufayli umrining oxirigacha zarari va azobini tortadi. Biz bu o'rinda «*nima uchun atigi bir necha oy yoki bir necha yil spirtli ichimlik ichib yoki giyohvandlikka berilib, gunoh ishga qo'lgan bo'lsa, umrining oxirigacha azob tortishi kerak?*» - deya olamizmi? Agar shunday savol so'ralsa, darhol o'zining qilgan ishining natijasi va ta'siridir deb aytamiz!

Agar ichkilik ichuvchining umri hazrati Nuh *(alayhis salom)* umri

kabi uzoq bo'ladigan bo'lsa-da, azob chekishining muddati ham uzun bo'ladi va bu ayanchli holat, bilib turib o'zi tanlagani sababli yuzaga keladi.

Qiyomat kuni jazolari shunga o'xshash bo'ladi. Shuning uchun Allohning odilligi xususida hech qanday tanqidiy mulohazalar qolmaydi.

Ikkinchidan, ba'zilar fikrlarida xatoga yo'l qo'yib shunday deydilar: Jazoning muddati gunoh qilingan muddat bilan barobar bo'lishi kerak. Albatta bu fikr xatodir, chunki, gunoh va jazo orasidagi bog'liqlikni zamon miqyosida o'lchab bo'lmaydi, balki gunohning qanchalik yomon ta'sir qilganiga bog'liqdir. Masalan, bir zunda begunoh odamni o'ldirish mumkin va ba'zi davlatlar qonuni bo'yicha bu ishning jazosi zindonga umrbod mahkum etilishdir. Zeroki, bu jinoiy ish bir lahzada yuz bergan bo'lsa-da, ammo uning jazosi bir necha yillar davom etadi. Biroq hech kim bu ish adolatdan emas, demaydi. Chunki, bu o'rinda daqiqa, soat, oy va yil degan gaplar o'rta kelmaydi.

Uchinchidan, abadiy azobda qolish shunday gunohkorlarga xoski, ular butun najot darichalarini o'zlariga berkitib qo'rganlar va bilib turib, qasddan buzg'unchilik, fasod, kufr va nifoqqa sho'ng'ib ketganlar va oqibat, gunoh qorong'iligi ularning butun vujudini qamrab olgandir. Darhaqiqat, ular gunoh va kofirlik tusiga kirganlar. Qur'oni Karimda bu haqida shunday deyiladi:

﴿بَلِيٍّ مِّنْ كَسْبٍ سَيِّئَةٍ وَأَخَاطَتٍ بِهِ خَطِيئَتُهُ فَأُولَٰئِكَ أَصْحَابُ النَّارِ هُمْ فِيهَا خَالِدُونَ﴾

«Yo'q, aslo! Kimki, yomonlik kasb etsa va gunohlari uning butun vujudini qamrab olsa, ana o'shalar do'zax ahlidirlar va ular u yerda abadiy qoluvchilardir.» (Baqara surasi; 81 – oyat)

Bundaylar Alloh bilan aloqalarini butkul uzgan bo'lib, najot va saodat yo'lini o'zlari uchun to'sib qo'rganlar. Ular o'z qanotlarini atayin sindirib kuydirgan qushga o'xshab, yer

yuzida turg'un bo'lib qolganlar, shu bois, osmonlar uzra uchishdan to abad mahrumdirlar.

Yuqorida aytilgan uch masala yog'dusida, ushbu haqiqat ma'lum bo'ladi: Munofiq va kofirlarning xos guruhi uchun nazarda tutilgan mangu azoblanish Allohning adolatiga zid emas, balki bunday og'ir jazo ularning qilgan amallaridan kelib chiqqan. Shubhasiz, Alloh tomonidan yo'llangan payg'ambarlar va elchilar ayrim gunohlarning yomon oqibati jahannam azobida doimiy qolish ekanini butun bashariyatga etkazgan edilar.

Agar mazkur shaxslar johil, ya'ni ilmsiz bo'lgan bo'lsalar hamda payg'ambarlar da'vati ularga etmagan bo'lsa va bilmaganlari sababli og'ir gunohga yo'l qo'ygan bo'lsalar, u holda ularning jazolari bunday ayanchli shaklda bo'lmagan bo'lardi.

Qur'on oyatlari va hadisi shariflardan olingan ta'limotlar bo'yicha, Allohning rahmati shu darajada keng va terandirki, gunohkor va xatokorlarning ko'pchiligini o'z ichiga qamrab oladi va quyidagi yo'llarning biri orqali azobdan omon qolishadi:

- ❖ Ayrimlar shafolat yo'li bilan;
- ❖ Boshqa toifadagilar kechirilish yo'li orqali;
- ❖ Ba'zi guruh gunohkorlar qilgan kichik solih amallari tufayli Alloh taolo O'zining buyukligi bilan ularga ulkan mukofot ato etadi.
- ❖ Qolgan ba'zilar esa do'zaxda ma'lum muddat qolib, gunohlari sababli jazolanajaklar, keyin esa butun gunohlaridan poklanib, Allohning rahmati va Uning fazlu karami bilan undan chiqariladilar.
- ❖ Faqat haq bilan dushmanlikda bo'lgan va zulm-zo'ravonlik, fisqu fasodga mukkasidan ketgan hamda

butun vujudini kofirlik va iymonsizlik qurshab olgan ashaddiy guruhgina mangu azobda qolajakdir.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Nima uchun ba'zilar; «*doimiy azobda qolish*»ni Allohning adolatiga zid deb aytishadi?
2. Bu dunyodagi jazolar oxirat jazolariga o'xshaydimi? Agar o'xshashligi bo'lmasa qanday ekanini tushuntirib bering.
3. Allohning adolati gunoh va jazo o'rtasida zamonga bog'liq aloqa bo'lishi kerakligini taqozo etadimi?
4. Mangu azob kimlarga oid bo'ladi?
5. Allohning avf etishiga kimlar va qanday yo'l bilan erishishlari mumkin?

NUBUVVAT-PAYG‘AMBARSHUNOSLIK HAQIDA O‘N DARS

1- DARS:

Ilohiy rahbarlarga bo‘lgan ehtiyojimiz

Ilmimizning mahdudligi haqida;

Ba’zilarda; «*asosan payg‘ambarlarning Alloh taolo tomonidan insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish uchun yuborilishlari zarurmi yoki yo‘qmi?*» – degan savol tug‘ilishi mumkin.

Ularning fikricha; inson aqli va ongi voqelik va haqiqatni anglashga etarli emasmi? Bashariyat ilm va fanining rivojlanishi, sir-asrorlarning kashf etilishiga va natijada butun haqiqatlarning oshkor bo‘lishiga sabab bo‘lmaydimi?

Yuqoridagi fikrlarga binoan, Payg‘ambarlar bizga o‘rgatishlari mumkin bo‘lgan ilmlar, ikki holdan xoli emas: Yo bizning aql-idrokimiz o‘sha ilmlarni tushunib eta oladi, yoxud anglay ololmaydi?

Birinchi holatda, payg‘ambarlarning sa’y-harakatlariga hech qanday ehtiyojimiz bo‘lmaydi, ammo ikkinchi holatda esa aql-idrokimizga zid bo‘lgan masalalarda payg‘ambarlarga taslim bo‘la olmaymiz!

Boshqa tomondan qaraganda; inson o‘z ixtiyorini bironing qo‘liga topshirib qo‘yib, so‘zsiz uning ko‘rsatgan yo‘lini qabul qilishi to‘g‘ri bo‘ladimi? Payg‘ambarlar ham bizlar kabi inson emaslarmi? Biz qanday qilib o‘zimizni bizga o‘xshash insonlar ixtiyoriga topshira olamiz?

Javoblar:

Quyidagi bir nechta masalalarni nazarga olish bilan yuqoridagi savollarning javobi oydinlashib, payg‘ambarlarning

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

insonlar hayoti tuzumidagi o‘rni ma’lum bo‘ladi.

1. Bilishimiz kerakki, biz insonlarning qo‘lga kiritgan bilim va ma’lumotlarimiz juda ham cheklangan bo‘lib, butun ilm va fanlarda yuksak taraqqiyotga erishib, insoniyatning ilm-sanoati ancha rivojlangan bo‘lishiga qaramay, hali ham bizning biladigan narsalarimiz bilmaydiganlarimiz oldida dengizdan bir qatradir, xolos yoki tog‘ barobarida ko‘rinmas bir somondek, deb aytsak ham, yanglishmagan bo‘lamiz. Ayrim yirik olimlarning aytishlaricha; biz insonlar endigi zamonda egallagan barcha ilmlarimiz borliq olamning ulkan kitobi uchun alifbo hisoblanadi, xolos.

Boshqacha qilib aytganda; Bizning ma’lumotlarimiz faqat aqlimizning qudrati etadigan tor doirada bo‘lib, ilm va fan taraqqiyoti o‘sha miqdorni yoritgan va biz bu doiradan tashqaridagi ma’lumotlardan butkul bexabardirmiz.

Alloh tomonidan yo‘llangan payg‘ambarlar o‘zlarining vahiy asosidagi ta’limlari bilan bizning ehtiyojimiz bo‘lgan ilm va ma’rifatni keltirib, ma’lumotlarimizning tor doirasini kengaytiradilar. Darhaqiqat, aqlimiz nur taratadigan va yoritadigan kuchli chiroq kabi bo‘lsa, biroq payg‘ambarlarning keltirgan vahiy-lari (ilohiy xabar-lari va ko‘rsatmalari) olamni yorituvchi quyosh kabidir. Kim kuchli yorug‘lik taratuvchi chiroqqa ishora qilib, menga buning nuri etadi va quyoshga ehtiyojim yo‘qdir, deb ayta oladi?

Aniqroq tushuncha kiritmoqchi bo‘lsak; hayotdagi masalalarni uch qismga bo‘la olamiz: «*Ma’qul*», «*noma’qul*» va «*noma’lum*».

Payg‘ambarlarning hech biri «*noma’qul*», aqlga zid narsani aytmaydilar va agar aqlga zid narsani aytadigan bo‘lsalar, u holda payg‘ambar bo‘lishmaydi, balki payg‘ambarlar noma’lum va majhul narsalarni anglab olishimizda, bizga yordam beradilar va bu biz uchun o‘ta muhim masaladir.

Shunga binoan, o'tmishda Hindistonda va dunyoning boshqa joylarida istiqomat qiluvchi Brahmanlar: «*Inson aql-idrokka ega bo'lgani uchun payg'ambarlarga ehtiyoji yo'qdir*», deyishgan bo'lsa, bugungi kunda esa: «*Ilm-fan taraqqiy etgan, shuning uchun payg'ambarlar va ularning biz insonlarga keltiradigan ta'limotlarining keragi yo'q*», deyidiganlar, na bashariyat qo'lga kiritgan ilm-fanning ahvolidan xabardordirlar va na payg'ambarlar yuborilishining mohiyatini to'g'ri tushuna olganlar.

Ularni birinchi sinfni tugatgan go'dakka o'xshatish mumkinki, «*harflarni o'rganib olib, endi menga o'qituvchining keragi yo'q*», deganidek. Holbuki, uning ustozga bo'lgan extiyoji ortib turgan bir paytda, uning bu so'zi asossiz emasmi?

Shuni unutmash kerakki, payg'ambarlar faqatgina bashariyatning muallimi bo'lib qolmay, ularni to'g'ri yo'lga etaklovchi rahbar va yo'l boshchidirlar. Bu borada keyinchalik mufassal so'z yuritgaymiz.

2. Hech kim «*inson o'z ixtiyorini o'ziga o'xshagan biror shaxsning qo'lga butkul topshirib qo'ysin*», deb aytmaydi. Muhim masala shundan iboratki, payg'ambarlar Alloh taoloning yo'llagan vahiyi va Uning cheksiz ilmi bilan aloqadadirlar va biz avvalo qat'iy dalillar bilan ularning Alloh bilan aloqada bo'lganlarini va ularning haqiqiy payg'ambar ekanliklarini bilib olishimiz lozim. Shundagina ushbu ilohiy rahbarlarning so'zlariga quloq tutib, ularning qadrli ta'limotlarini jonu dilimiz bilan qabul qilgaymiz.

Agar tuzalib ketishimiz uchun mohir, tajribali va jonkuyar shifokorning aytganlariga amal qilsak, ixtiyorimizni qo'ldan berib qo'yib, nojo'ya ish qilgan bo'lamizmi?!

Shubhasiz, payg'ambarlar insoniyatning ruhiy shifokorlaridirlar. Agar men ustozimning ong-u fikrimga

monand bo‘lgan hikmatli so‘zlariga quloq tutib, aytganlarini bajarsam, noma’qul ish qilgan bo‘lamanmi?! Payg‘ambarlar butun insoniyatning buyuk ustozidirlar.

Payg‘ambarlarning Alloh tomonidan yuborilishi zarur ekanligiga dalillar keltirib, bu masalani ko‘zdan kechirsak, yaxshi va munosib ish bo‘lar edi.

Shuning uchun, payg‘ambarlar yuborilishi va ularning ko‘rsatmalari naqadar zarur ekanligini bilishimiz uchun uchta dalilni ko‘rib chiqamiz:

1. Ta’lim-tarbiya yuzasidan bo‘lgan ehtiyojimiz

Bizlar agar nur to‘lqinlaridan yasalgan afsonaviy bir ulovga minsak-da va uning tezligi nur tezligida (har bir soniyada 300000 km) bo‘lsa, bu bepoyon fazoda sayr qilishimiz uchun shubhasiz, hazrati Nuh (*alayhis salom*) umrlaridan minglab yil kerak bo‘ladi, to bu keng jahonning faqatgina kichik bir qismini tomosha qila olsak.

Aqlni hayratlantiradigan o‘ta keng bu olam o‘zidan-o‘zi behudaga yaratilmagani shubhasizdir va shuningdek, xudoshunoslik darslarida o‘rganganimizdek, bu keng olamning yaratilishi Alloh uchun hech qanday foydasi yo‘qdir. Negaki, Alloh har jihatdan komil, hojatsiz va cheksiz zot bo‘lgani uchun, Unda hech qanday kamchilik va nuqson yo‘qdir, toki, jahon va bashariyatni yaratish orqali O‘zidagi kamchilik va nuqsonni bartaraf etsin.

Shunga binoan, yaratishdan maqsad; bu dunyodagi mavjudotlarga marhamat ko‘rsatib, ularga fazl-karam bilan nazar solib, ularni ko‘zlangan kamolotga etkazish bo‘lgan. Chunonchi, osmondagi quyosh bizlardan hojatsiz bo‘lgan holda, biz yerdagilarga o‘z nurini sochadi. Quyoshning nur sochishi faqat bizlarning foydamizgagina, xolos va aks holda, bizning quyoshga qanday foydamiz tegishi mumkin?

Boshqa tomondan qarasak; bizning olgan bilim va ma'lumotlarimizning tanho o'zi kamolot sari etaklab, har tomonlama komil inson bo'lishimiz uchun etarlimi?

Biz jahonning sir-asrorlaridan qanchalik xabardormiz? Hayotning haqiqati va mohiyati nimadir? Bu jahon qachon yaralgan? Hech kim bu savollarning aniq javobini bilmaydi. Qachongacha bu jahon boqiy qolajak? Yana hech kim bunga ham javob bera olmaydi.

Ijtimoiy va iqtisodiy masalalarda ham, donishmandlar turlicha nazariyalarni bildirib, o'zaro ixtilofga egadirlar.

Masalan: Bir guruh olimlar «*kapitalizm va sarmoyadorlik tuzumi*»ni tavsiya etishsa, boshqalar esa «*sotsializm va kommunizm*»ni tavsiya qilganlar. Uchinchi toifaga mansub olimlar esa har ikkala tuzumni qoralab, bu fikr-mulohazalar insoniyatga zarar etkazadi deb boshqa tuzumni tavsiya etadilar.

Olimlar o'rtasida hayotning boshqa masalalarida ham aynan shunday ixtiloflar mavjuddir. Inson bu nazariyalar qarshisida hayratlanib, qaysi biriga ergashish kerakligiga aqli etmay qoladi.

Shu bois, insof yuzasidan ushbu haqiqatni e'tirof etishimiz lozimki, biz insonlarni yaratishdan ko'zlangan asl maqsad, ya'ni «*insoniyat hayotining butun tarmoqlarida takomil topib, unib-o'sish*»ga etishish uchun insonni hayotning voqelik tomoniga etaklaydigan va kamolotga etkazadigan hamda xato va kamchiliklardan xoli bo'lgan to'g'ri ta'limotlar tizimiga ehtiyojimiz bordir. Ushbu ta'limotlar shunday xususiyatga ega bo'lishi lozimki, insonga bu uzoq yo'lni bosib o'tib, yaratilishning asl maqsadiga erishishda yordam bera olsun.

Bunday ta'limotlar yolg'iz Allohning payg'ambarlarga yo'llagan vahiyi orqali bashariyatga etkaziladi. Ushbu dalilga ko'ra; hidoyat yo'lidan borish uchun bizni yaratgan Alloh taolo

bunday ilm-ma’rifatni bizga etkazishi lozim.

* * *

2. Ijtimoiy va axloqiy masalalarda rahbarga bo‘lgan ehtiyojimiz

Hammamizga ma’lumki, vujudimizda aql-idrokdan tashqari, «*g‘arizalar¹ va tabiiy mayllar*», deb nomlangan kuchli his-tuyg‘ular bordir. Chunonchi; o‘zni yaxshi ko‘rishlik g‘arizasi, g‘azab qilish g‘arizasi, shahvatga kelish g‘arizasi va boshqa shunga o‘xshash ko‘plab g‘arizalar mavjud.

Shubhasiz, agar biz bu g‘arizalarimizni jilovlamasak, ular aql-ongimiz ustidan hukmron bo‘lib olishadi va natijada, aql-idrokimiz ularning asiriga aylanib, qamoqqa olinadi. Shunda inson o‘z g‘arizalarini jilovlamagan tarixning sitamgar va zolimlari kabi vahshiy va yirtqich bo‘riga aylanib, cho‘lda yurgan bo‘rilardan ham bir qancha xatarliroq bo‘ladi.

Axloqiy nuqtai nazardan tarbiyalanishimiz uchun yuksak martabali murabbiyga muhtojdirmiz, toki, ularning yurish-turishlari bizlar uchun go‘zal namuna bo‘lsin va biz ularning xatti-harakatlariga hamda tutgan yo‘llariga ergashaylik.

Bizlarning fasod va qorong‘iliklarga to‘lib-toshgan bu dunyoda qo‘limizdan tutadigan, g‘arizalarimiz (tabiiy mayllarimiz) tug‘yon qilib, o‘z haddidan oshishining oldini olish uchun ularga qarshi kurashish yo‘llarini bizga ko‘rsatadigan va o‘z amali va so‘zi bilan axloqiy fazilatlarini

1. «*G‘ariza*» so‘zi arabcha bo‘lib, biologiya fanida «*instinkt*», deb aytiladi. Ushbu istilohning ma’nosi: «Tirik oraganizmning tashqi va ichki muhit ta’sirlariga nisbatan ongsiz ravishda, ammo tug‘ma, maqsadli harakatlar yig‘indisi» yoki boshqacha aytganda: «Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tug‘ma va g‘ayrihuuriy reflekslar.» G‘ariza so‘zini o‘zbek tilida: «*His-tuyg‘u, tabiiy mayl va itilish*», deb tarjima qilish mumkin. (Tarjimon izohi)

bizning jonu dilimizga singdirib, shijoatli va jasur bo'lishni, insonsevarlikni, kechirimli va muruvvatli bo'lishni, vafodorlik va to'g'rilikni hamda omonatdor va iffat-hayoli bo'lishni hayotda ko'rsatib, ushbu oliy xislatlarni bizning ruhimizda parvarishlaydigan, bizlarni to'g'ri yo'lga boshlaydigan va har tomonlama tarbiya topgan yuksak va komil insonning bo'lishi zarurdir.

Ana shu aytilgan og'ir vazifalarni barcha gunohlardan yiroq bo'lgan payg'ambarlardan o'zga kim o'tashi mumkin?!

Shuning uchun, rahmli, mehribon va qodir bo'lgan Parvardigorimiz bizlarni mana shunday ilohiy rahbarlar, yo'l boshchilar va murabbiylardan mahrum etishi mukiin bo'lmagan ishdir.

Bu darsning davomini keyingi darsda o'qiysiz.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Ilm va ma'lumotlaringiz ko'paygani sari bilmagan narsalaringiz bilganlaringizdan juda ham ko'p ekanligini sezasizmi? Misol keltiring.
2. Payg'ambarlarga itoat qilish bilan, ko'r-ko'rona ergashishlik orasidagi farqni tushuntirib bera olasizmi?
3. Agar biz yo'l boshchisiz tanimagan yo'ldan ketaversak, qanday xatarlarga duch kelishimiz mumkin?
4. Payg'ambarlarga bo'lgan ehtiyojimizning turli jihatlarini yoritib bering.
5. Sizning fikringizcha, navbatdagi dars uchun bu xususida aytilishi kerak bo'lgan yana qanday masalalar qoldirilgan?

2- DARS:

Qonun chiqarishda payg‘ambarlarga ehtiyojimiz

Oldingi darsda bashariyatning payg‘ambarlarga bo‘lgan ehtiyojining ikki jihatini «*ta’lim*» va «*tarbiya*» masalalari yuzasidan ko‘rib chiqdik. Endi esa payg‘ambarlarning ijtimoiy hayot uchun qonun-qoidalar tuzishdagi muhim o‘rnini o‘rganish vaqti keldi.

Bilamizki, inson hayotidagi hamma muvaffaqiyatlari va butun sohalarda qo‘lga kiritgan yutuqlari uning takomil yo‘lidagi ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan.

Agar insonlar bir-birlari bilan aloqada bo‘lmay, tarqoq holda yashaganlarida edi, fikrlash va madaniylashish jihatidan «*tosh asri*» odamlarining tafakkuri kabi sayoz fikrlaydigan bo‘lar edilar!

Birlashib qilingan faoliyatlar sababli madaniyat va tamaddun chirog‘i olamga nur taratmoqda, birgalashib qilingan sa’y-harakatlar tufayli ilmiy kashfiyotlar va taraqqiyot ro‘y bermoqda.

Masalan: Oyga qilingan parvozni ko‘rib chiqsak, bu ish bir yoki bir necha donishmandning tafakkuri natijasida amalga oshmagan, balki millionlab olim va donishmandlarning birgalashgan holda minglab yillar davomida qilgan ilmiy tadqiqotlari va qo‘lga kiritgan tajriba va kashfiyotlari ijtimoiy hayot kechirish sababli bizlargacha etib kelib, bir yerga to‘plangani uchun hayotning butun tarmoqlarida ulkan rivojlanishlarga olib kelgan.

Yoki bizning davrimizdagi bir mohir shifokor agar hanuz ham foydalanish mumkin bo‘lgan, o‘lik odamning yuragini jarrohlik amali bilan tirik odamga o‘tkazib, uni qat’iy o‘limdan

qutqazgan bo‘lsa, bu o‘tmishdagi minglab mohir tabiblarning qo‘lga kiritgan tajribalari va bu tajribalar ularning shogirdlari orqali bizgacha etib kelgani sabablidir.

Biroq bu ijtimoiy hayotning foydalari qarshisida, uning o‘ziga yarasha kamchiliklari ham bordir. U ham bo‘lsa, odamlar manfaatlari va ularning haq-huquqlarining bir-biri bilan to‘qnashuvi bo‘lib, gohida bir-birlariga tajovuz qilish va hatto qonli urushlargacha borganlar.

Mana shu yerda qonun-qoidalar va dasturilamallarga bo‘lgan ehtiyojimiz oshkor bo‘ladi, nima uchun deganda, qonun-qoidalar hayotdagi uchta katta mushkulni bizga hal qilib beradi:

1. Qonun har bir shaxsning jamiyat oldidagi vazifasini, jamiyatning har bir inson barobaridagi vazifasini aniqlab, insonlar iste’dodining gullab-yashnashiga va ularning sa’y-harakatlarining bir-biri bilan uyg‘unlashishiga sabab bo‘ladi.

2. Qonun odamlarning o‘z vazifalarini qanchalik bajayotganliklari ustidan nazorat qilishga yo‘l ochib beradi.

3. Qonun insonlarning bir-birlarining haq-huquqlariga tajovuz qilishlarining oldini olib, tartibsizlikka va shaxs va guruhlarning to‘qnashuviga barham beradi. Kerakli o‘rinlarda esa qonundan bo‘yin tovlagan tajovuzkorlarga qilmishiga munosib jazo berishni tayin etadi.

* * *

Eng yaxshi qonun chiqaruvchi kim?

Endi esa yuqoridagi asosiy uch talabga javob bera oladigan, ya’ni insonlar va jamiyatning vazifalarini, haq-huquqlarini ko‘rsatib beradigan va ular ustidan to‘laqonli va to‘g‘ri nazorat qiladigan hamda qonunbuzar tajovuzkorlarning oldini oladigan qonun-qoidalarni kim, hammadan ko‘ra yaxshiroq tuza olishini ko‘rib chiqamiz.

Ijzat bering, masalani yoritish uchun avvalo bu yerda sodda bir misol keltiraylik:

Insonlar jamiyatini ulkan bir poyezdga o'xshatsak, undagi hukmdor shaxslar lokomotiv jihozi kabi ushbu buyuk poyezdni muayyan yo'lda harakatga keltiruvchidirlar.

Qonun esa temir yo'llar o'rnida bo'lib, ushbu poyezdning manzilga etishi uchun uning muayyan yo'nalishini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalish poyezdni tepa-pastliklardan, tog'lar oralig'idan va egik va bukik yo'llardan olib boradi. Shuning uchun bu temir yo'llarning (reislarning) mustahkam bo'lishi va shuningdek, poyezd o'tadigan yerlar katta bosimni ko'tara oladigan bo'lishi naqadar zarur ekanligi hammaga ayon.

Bundan tashqari, temir yo'llarning o'rtasidagi oraliq poyezd g'ildiraklariga mos kelib, o'zaro muvoziy (parallel) bo'lishi lozim. Shuningdek, poyezd tunellardan o'tayotganda ularning balandligi poyezdning balandligiga munosib bo'lmog'i shart. Yo'lining past-balandligi poyezdning tormozini ishdan chiqarib qo'yadigan darajada shiddatli bo'lmasligi lozim.

Shuningdek, atrofdagi tog'-adirlar toshlarining qulab tushishi, yoki sel kelishi va tog' qorlarining siljish xavfi aniq hisobga olinishi kerak, toki, poyezd har qanday sharoitga duch kelganda ham eson-omon yo'llardan o'tib, o'z manziliga etib borsin va shunga o'xshash masalalar nazarga olinmog'i darkordir.

Yuqorida keltirgan misolimizni inobatga olgan holda insonlar jamiyatiga qaytamiz:

Eng yaxshi qonun-qoidalarni insonlar uchun chiqarmoqchi bo'lgan shaxs quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Insonning qanday xususiyatga egaligini to'liq va mukammal tanimog'i, uning g'arizalari (tabiiy mayllari va his-tuyg'ulari)dan va ehtiyojlaridan hamda hayotdagi

muammolaridan tamoman ogoh va xabardor bo‘lmog‘i lozim.

2. Insonlarda mavjud bo‘lgan barcha iste’dodlarini va yaroqli xususiyatlarini nazarga olib, ularning yuzaga chiqishi uchun qonun-qoidalar chiqarmog‘i darkor.

3. Kelajakda inson jamiyatida ro‘y beradigan hodisalarni oldindan ko‘ra olish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu hodisalar qarshisida qanday chora-tadbirlar ko‘rish kerakligini bilishi kerak.

4. Qonun chiqaruvchi shaxs jamiyatda o‘z manfaati uchun biror narsani kuzlamaydigan bo‘lmog‘i lozim, toki qonun chiqarayotganda o‘zining shaxsiy manfaatini yoki qavm-qarindoshlari yoxud o‘z toifasining foydasini nazarga olmasin.

5. Qonun chiqaruvchi insonlarning qo‘lga kiritishi mumkin bo‘lgan ilmiy ixtirolar va rivojlanishlardan yoki tubanlikka yuz tutishlar va insoniy tanazzulga uchrashlardan boxabar va ogoh bo‘lishi kerak.

6. Qonun chiqaruvchi unutulchanlik va sahv-xatoga yo‘l qo‘yish xususiyatidan yuqori darajada saqlangan va daxlsiz bo‘lmog‘i darkor.

7. Nihoyat, qonun chiqaruvchi shunday kuch-qudratga ega bo‘lmog‘i lozimki, jamiyatdagi qudrat va maqom sohiblarining hech biridan qo‘rqmaydigan, ayni holda insonlarga mehribon va jonkuyar bo‘lishi kerak.

* * *

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoitlarning hammasi kimda mavjud?

Inson eng yaxshi qonun chiqaruvchi bo‘la oladimi?

- Shu paytgacha biror kim odamzotni to‘la-to‘kis tanib olganmi? Asrimizning buyuk donishmandlaridan biri

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

inson xususida mufassal bir kitob yozib, unga «*Inson tanilmagan mavjudotdir*», deb nom bergan. Shunday bir davrda insonni yaxshi tanib oldik, deya olamizmi?

- Insonlarning hamma ruhiy xususiyatlari, tabiiy mayllari, g'arizalari va his-tuyg'ulari to'liq o'rganib chiqilganmi?
- Insoniyatning jisimiy va ruhiy ehtiyojlari, yaratgan Tangridan boshqa biror kimga ma'lum bo'lganmi?
- Jamiyatda oddiy insonlar orasida ma'lum bir foyda-manfaatlarga ega bo'lmagan biror shaxsni topa olasizmi?
- Yoki oddiy insonlar orasidan sahv-xatoga yo'l qo'ymaydigan, hech narsani unutmaydigan va insonlar jamiyati muhtalo bo'ladigan turli-xil muammolar va masalalarga ogoh shaxsni taniysizmi?

Shunday ekan, Allohdan o'zga va Uning yo'llagan vahiyi asosida jamiyatni boshqaradigan payg'ambarlardan boshqa hech kim insonlar jamiyati uchun yaxshi, har tomonlama va mukammal qonun chiqara olmaydi!

Shunga asoslanib, quyidagi xulosaga kelamiz: Bashariyatni takomil topish yo'lini tutishi uchun yaratgan Alloh taolo ularni hidoyatga boshlash uchun muayyan insonlarni (payg'ambarlarni) tayin etmog'i lozim, to ular insonlarning moddiy va ma'naviy manfaatlarini ta'minlovchi Allohning mufassal va mukammal qonun-qoidalarini ularga etkazsinlar.

Muhaqqaqki, insonlar ushbu qonun-qoidalar Alloh taolo tomonidan ekanligini bilsalar, chuqur ishonch va e'timod bilan ularni hayotga tatbiq etadilar. Boshqa so'z bilan aytganda; insonlarning ogoh bo'lishi ushbu ilohiy qonun-qoidalar ular orasida joriy bo'lishining garovidir.

* * *

Yakkaxudolik va payg‘ambarlik o‘rtasidagi bog‘liqlik

Shuningdek, diqqatga sazovor bo‘lgan ingichka bir masalani qayd etishni zarur, deb bilamiz: Yaratilishdagi tartib-intizomning o‘zi Allohning yuborgan elchilari va payg‘ambarlarining mavjudligiga va ular o‘z risolatlari (vazifalari)ni to‘liq bajarganliklariga ochiq bir guvoh va shohiddir.

Masalaning izohi: Borliqning hayratlanarli tuzumiga qisqacha bir nazar solsak, bu haqiqatning shohidi bo‘lamiz: Alloh taolo jahondagi barcha mavjudotlarni yaratishi bilan birga ularning zaruriy ehtiyojlari Uning marhamatli nazari va fazl-karamidan chetda qolmagan. Chunoschi, Alloh taolo bizning ko‘rishimiz uchun ko‘zni yaratgan bo‘lsa, bu ko‘zni turli-xil ofatlardan muhofaza etib, nurning unga kirishini tartibga solish uchun qovoq va kipriklar bilan ham ta‘minlagan.

Ko‘zlar burchagida joylashgan bezlar esa ko‘z yoshi ishlab chiqarib, ko‘z yuzasini nam va ho‘l holda saqlaydi va shu tufayli uni qurib qolishdan saqlaydi. Nega deganda, ko‘zning qurib qolishi, uning nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, mazkur bezlar yana ko‘z burchagida o‘ta kichik kanallar yaratadi va ko‘zning ortiqcha yoshlari o‘sha kanallar orqali burun ichiga to‘kiladi va agar bu kichik kanallar bo‘lmaganida edi, ko‘z yoshlarimiz yuzimizga oqib tushgan bo‘lur edi.

Alloh taolo insonning ko‘z qorachig‘ida shunday bir sezuvchanlik xususiyatini yaratganki, qorong‘ilikda va zaif nurlar barobarida kengayadi va yorug‘likda va kuchli nurlarga qarshi torayadi, to ko‘zga tushadigan nur kerakli miqdorda uyushtirilib, nurning ko‘zga etkazadigan zararining oldini oladi.

Alloh taolo ko‘z soqqalari atrof-tevaragida turli-xil mushakchalar bilan o‘rab qo‘ygan bo‘lib, ular orqali

ko'zlarimizni xohlagan tomonga aylantira olamiz va boshni u yon-bu yonga burmay turib, bizga yon-atrofnı ko'rish imkonini beradi.

Endi aytingchi, inson ko'zini kerakli jihozlar bilan ta'minlagan buyuk Zot bo'lmish Alloh – butun boshli bashariyatni O'zining yo'llagan vahiyi bilan aloqador, butun gunohlardan yiroq (ma'sum) va ishonchli bir rahbar va yo'lboshchisiz qoldirishi mumkinmi?!

Mashhur faylasuf va tabib Abu Ali Ibn Sino o'zining «*Al-shifo*» nomli kitobida bu borada shunday deydi:

«Insonning ko'z kipriklariga, qoshga yoki oyoq kaftining chuqurligi va tovoniga bo'lgan ehtiyojidan ko'ra, insoniyat turkumining saqlanib qolinishi va kamolotga erishishi uchun Alloh tomonidan yuboriladigan payg'ambarlarga bo'lgan ehtiyoji ko'proq va shiddatliroqdir. Shuning uchun, Alloh taolo insonning bunday ehtiyojini azaliy ilmi va inoyati bilan bila turib, boshqa ehtiyojlarini ta'minlaganidek, insonni uning bilan ta'minlamasligi aslo mumkin emas!»

* * *

O'ylab javob bering:

1. Insoniyat hayotining eng buyuk ustunligi nimada?
2. Nima uchun insonlar qonunsiz yashay olmaydilar?
3. Odamlar hayotida qonunning o'rin va ahamiyatini oydinlashtirish uchun jonli misol keltiring.
4. Eng yaxshi qonun chiqaruvchi qanday xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim?
5. Sizningcha nima uchun payg'ambarlar inson naslidan bo'lmog'i darkor?

3-DARS:

Nimaga payg‘ambarlar ma‘sumdirlar?

Gunoh va sahv-xatolardan pok bo‘lish

Shak-shubhasiz, har bir payg‘ambar o‘z vazifasini o‘tashdan oldin insonlar ishonchini qozongan bo‘lmog‘i lozim, toki odamlar uning so‘zlari yolg‘on yoki sahv-xato ekaniga bormay turib, uning rostgo‘yiligiga iqror bo‘lsinlar. Aks holda, uning rahbarligiga putur etadi.

Agar Allohning tanlagan payg‘ambarlari ma‘sum (begunoh) bo‘lmasalar, u holda bahona qidiruvchilar *«payg‘ambarlar yanglishayaptilar»*, deb uzr va bahona keltirsalar, haqiqatni izlovchilar esa, *«payg‘ambarlar da‘vatining mazmun va mohiyatiga bo‘lgan ishonchlari susayib»*, payg‘ambarlarning da‘vatini qabul qilishdan bosh tortgan bo‘lar edilar yoki hech bo‘lmasa, ularning da‘vatini jon va dillari bilan qabul qila olmagan bo‘lardilar.

«Ishonch va e‘timodga sazovor bo‘lish», deb nomlay olish mumkin bo‘lgan yuqoridagi masala payg‘ambarlar barcha gunohlardan yiroq (ma‘sum) ekanliklariga dalolat qiluvchi eng muhim dalillardan biridir.

Boshqa ta‘bir bilan aytganda; qanday qilib Alloh taolo insonlarga sahv-xatoga yoki gunohga yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan bir insonga so‘zsiz itoat etishni buyuradi? Mazkur holda agar odamlar gunohkor va xatokor shaxsga itoat qiladigan bo‘lsalar, shunda ular sahv-xato va gunoh sari borishlariga to‘g‘ri keladi. Ammo agar sahv-xato va gunohga yo‘l qo‘yadigan payg‘ambarga bo‘yin sunmasalar, ushbu holda ularning rahbarlik maqomi xatar ostida qoladi, ayniqsa payg‘ambarlarning rahbarlik va yo‘lboshchilik martabasi

boshqalar bilan mutlaqo farqli ekanini nazarga olsak, ushbu masala yanada aniqroq bo‘ladi. Nega deganda, insonlar o‘zlarining butun e‘tiqod va dunyoqarashlarini va hayotlarining barcha dasturilamal va yo‘l-yo‘riqlarini payg‘ambarlardan o‘rganib oladilar.

Mazkur dalilga ko‘ra, buyuk tafsirchi olimlar Niso surasining 59 – oyati

﴿يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا أَطِيعُوا اللَّهَ وَأَطِيعُوا الرَّسُولَ وَأُولِي الْأَمْرِ مِنْكُمْ﴾

«Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qilingiz va Payg‘ambarga hamda o‘zlarinigizdan bo‘lgan yo‘lboshchilarga itoat etingiz.» tafsiriga kelganlarida quyidagi tushunchani bildirganlar:

Bu oyatdagi itoat qilish farmoni Alloh taolo tomonidan hech bir qayd-shartsiz (shart-sharoitsiz) sodir etilgani ham Payg‘ambar (sallallohu alayhi va olihi vasallam) va ham payg‘ambarning yo‘lini davom ettiruvchi boshliqlar barcha gunohlardan yiroq bo‘lgan ma’sum zotlar ekaniga yorqin dalildir. Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam) yo‘llarini davom ettiruvchi boshliqlardan murod, o‘n ikki ma’sum imomlar bo‘lib, ushbu oyati karima ularning gunohsiz va ma’sum ekanliklariga dalolat qiladi, aks holda Alloh taolo mo‘‘minlarga hech bir qayd-shartsiz (shart-sharoitsiz) o‘sha zotlarga itoat etishni buyurmagan bo‘lardi.

Ikkinchi dalil: Payg‘ambarlar gunohsiz-ma’sum bo‘lishlarining yana bir sababi, «*ularning vujudlarida gunohga boshlovchi omilning yo‘qligidir.*»

Izoh: Biz o‘zimizning holimizga nazar tashlab, holatimizni ko‘zdan kechirsak, ayrim gunoh, nopok va qabih amallardan taqriban pok va ma’sum ekanimizga amin bo‘lamiz.

Quyidagi misollarga e‘tiboringizni qaratamiz:

Aql va hushi o'z joyida bo'lgan qaysi bir odamni olovni yeydigan yoki supurindi, axlat va iflos narsalarni yutayotgan holda ko'rgansiz?

Yoki fahm va farosatli biror insonni onadan tug'ilgan paytidek, qip-yalang'och bo'lgan holda ko'cha va bozorni kezib yurganini ko'rganmisiz?

Albatta «yo'q» deb, javob beramiz. Agar yuqorida zikr qilingan amallardan biror birini bajargan shaxsni ko'rib qolsak, tabiiy holdan chiqqan ruhiy bemor ekaniga ishonchimiz komil bo'ladi, aks holda odatda aql va hushi o'z joyida bo'lgan shaxs bunday ishlarga qo'l urmaydi.

Agar bunday ish va holatlarni «*sinchiklab ko'zdan kechirsak*», ushbu amallar aql va hushli inson nazarida o'ta ketgan darajada qabih va jirkanch ekani oshkor bo'lgani uchun hech bir inson ular tomon bormaydi.

Bu yerda shu xulosaga kelamizki, har bir aql va hushli sog'lom inson ayrim qabih va jirkanch amallardan yiroq va pokdir. Boshqa so'z bilan aytganda; mazkur amallar barobarida ma'sumlik xususiyatiga egadir.

Agar nazarimizni bir oz yuqoriroqqa qadasak, ma'lum bo'ladiki, ba'zi etukli insonlar qolgan boshqa amallarning nopok va qabihligini aynan his qilgan holda, ularni tark etadilar va ushbu amallar barobarida ma'sumlik darajasiga egadirlar, holbuki, qolgan oddiy insonlar bunday xususiyatga ega emaslar.

Chunonchi; mohir va ogoh shifokor mikroblarning yuzlab xillarini yaxshi tanigani uchun hech qachon yuqumli kasallikka duchor bo'lgan bemorlarning yuvilgan kiyimidan to'plangan iflos suvni ichmaydi. Lekin savodi yo'q odam bu suvni hech ikkilanmay ichishi mumkin.

Shunday qilib odam qanchalik «*qilinadigan amallar oqibati*» haqida ko'proq va chuqurroq ma'lumotga ega bo'lsa va uning

ilm va ma’rifati bu xususida oshib borsa, shunchalik unda qabih va jirkanch amallar barobarida daxlsizlik va poklik xususiyati vujudga kelib, sahv-xato va gunoh ishlarga yo‘l qo‘ymay, pok va ma’sum holda qoladi.

Ushbu tahlilga binoan, har kimning *«iymon va bilim darajasi»* ortib borsa, Allohga va Uning qiyomat kunidagi adolatli muhokamasiga bo‘lgan iymon-e’tiqodi shu darajada komil bo‘lsaki, guyo bularning hammasi o‘zining ko‘z o‘ngida gavdalanib turgandek bo‘ladi. Bunday odam har qanday gunoh va sahv-xatoga yo‘l qo‘yishdan saqlanadi va har bir qabih amal uning nazarida onadan tug‘ilgan vaqtdagi kabi yalang‘och holda bo‘lib, ko‘cha-ko‘yda kezib yurgandek bo‘lib ko‘rinadi.

Bunday ulug‘vor zotlar uchun harom molni eyish yonib yotgan olov chug‘ini og‘ziga qo‘yish bilan barobardir. Bizlar yonib yotgan olov chug‘ini og‘zimizga qo‘ya ololmaganimiz kabi ular ham, harom molni og‘izlariga yaqinlashtirmaydilar!

O‘tgan suhbatlarimizdan xulosa chiqarib aytadigan bo‘lsak, payg‘ambarlarning ilm va ma’rifatlari hamda ularning iymonlari yuqori darajada bo‘lganligi uchun, gunohga bo‘lgan moyillikni jilovlab, o‘z nafslarini gunoh tomonga yo‘nalishdan saqlay oladilar va natijada gunoh qilishga undaydigan omillar ularning aql va iymonlari ustidan g‘olib kela olmaydi va shuning uchun oddiy gunohga ham, qo‘l urmaydilar. Ushbu mantiqqa asoslanib shunday xulosaga kelamiz: Payg‘ambarlarning hammasi, ma’sum va barcha gunohlardan pokdirlar va ular gunohlar qarshisida muhofaza etilganlar.

Ma’sumlik darajasi faxrlanishga arziydimi?

Ba’zilar ma’sumlik tushunchasi va gunohlardan saqlanish omillari haqida to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lmaganliklari uchun: *«Agar Tangri taoloning O‘zi biror shaxsni gunoh qilishdan qaytarib, gunohga moyil bo‘lish omillarini undan bartaraf etsa, bunday poklikka ega bo‘lish faxrlanishga arzimaydi, nimaga*

deganda, bunday poklik majburiy bir holat bo'lib, insoniy fazilat hisoblanmaydi!» – deb shubha tug'dirganlar.

Yuqorida bu xususida batafsil keltirgan dalilimizga tayanib, ushbu shubhaga javoban shuni aytishimiz lozim:

Payg'ambarlarning barcha gunohlardan pok bo'lishlari majburiy holatda bo'lmay, balki ularning gunohlardan uzoqlashib, ma'sum va pok insonlar bo'lishlari ularning kuchli iymoni, yuqori saviyadagi ogohlik va ilmu ma'rifatidan kelib chiqqan. Shu bois, ma'sumlik xususiyati ular uchun eng yuqori iftixor va fazilat hisoblanadi.

Masalan: Agar yuqori darajali bilimga ega bo'lgan tabib kasallik tarqatuvchi narsalardan saqlansa, bu uning majbur ekaniga dalil bo'la oladimi? Agar shunday bir shaxs tozalik va gigienaga rioya qilsa, uning uchun fazilat hisoblanmaydimi?

Yoki xavfli jinoyatning yomon oqibatidan xabardor bo'lgan huquqshunos o'zini, ushbu jinoyatdan qattiq qo'riqlasa, *«bu jinoyatni qilmaslikka majbur bo'lgan, shuning uchun, uning bu ishi fazilat emas»*, deya olamizmi?

Shunga ko'ra, quyidagi xulosaga kelamiz: payg'ambarlarning gunohlardan yiroq-ma'sum bo'lishlari ularning o'z iroda-ixtiyorlariga bog'liq bo'lib, ma'sumlik ular uchun fazilat hisoblanadi.

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Ma’sum bo‘lishning necha pog‘onasi bor?
2. Agar payg‘ambarlar ma’sum bo‘lmalar edi, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin edi?
3. Pok va begunoh, ma’sum bo‘lishning sir-asrori nimada?
4. Darsda keltirilgan misollardan tashqari hamma yoki ayrim toifa insonlarning ba’zi gunohlardan pok bo‘lishlariga yana qanday misollarni keltira olasiz?
5. Payg‘ambarlarning ma’sum bo‘lishlari ixtiyoriy holatmi yoki majburiy? Qanday dalil keltira olasiz?

4- DARS:

Payg‘ambarlarni tanishning eng yaxshi yo‘li

Shubhasiz, har bir da‘vogarning iddaosini isbotlamasdan qabul qilish aql va mantiqqa zid bo‘lgan ishdir. «*Alloh tarafidan yuborilgan payg‘ambarman*», deb da‘vo qiluvchi kimsa rostgo‘y va to‘g‘ri so‘z bo‘lishi mumkin, ammo o‘zini haqiqiy payg‘ambarlardek qilib ko‘rsatib, qulay vaziyatdan foydalanib, odamlar ishonchini suiiste‘mol qiluvchi, yolg‘onchi, firibgar va soxta bir shaxs ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, payg‘ambarlikni da‘vo qiluvchilarning qaysi biri rost va Allohning haqiqiy elchisi ekanini va qaysi biri yolg‘onchi va firibgar ekanligini aniqlash uchun qat‘iy me‘yorlarga tayanmog‘imiz zarur.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir necha me‘yorlar mavjud bo‘lib, hammadan muhimroq bo‘lgan ikki me‘yorni bu yerda keltiramiz:

- 1. Payg‘ambarlar da‘vatining mazmun-mohiyatini o‘rganib chiqib, da‘vatning qanchalik vaqelikka muvofiqligi xususida belgi va nishonalar to‘plash;**
- 2. Mo‘‘jizalar va insoniyatning qo‘lidan kelmaydigan g‘ayritabiiy ishlarni bajara olish;**

Avval mo‘‘jiza haqida so‘z yuritishni muhim deb, bilganimiz uchun mo‘‘jizaga doir bir qator masalalarni ko‘rib chiqamiz:

Mo‘‘jiza kalimasidan tajjublanib, uni afsonalar qatorida ko‘radigan shaxslar ham topiladi. Holbuki, agar mo‘‘jizaning mazmun-mohiyatiga ilmiy jihatdan yondashadigan bo‘lsak, bunday fikr-mulohazalar mutlaqo noto‘g‘ri ekani ma‘lum bo‘ladi.

Mo‘‘jiza sababsiz vujudga kelgan g‘ayrimumkin bir ish

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

emas, balki sodda bir so‘z bilan aytganda; oddiy odamlarning qo‘lidan kelmaydigan odatdan tashqarida bo‘lgan va tabiat olamidan yuqori bo‘lgan kuch-qudratga tayangan ishlarga «*mo‘jiza*» deyiladi.

Shunga binoan, «*mo‘jiza*» quyidagi shartlarga ega bo‘lmog‘i lozim:

- Bajarish mumkin va qabul qilinadigan ishlardandir.
- Oddiy odamlar hatto aql-idrok egasi bo‘lgan etukli va daho shaxslar ham insoniy kuch-qudratga tayanib, mo‘jiza yaratishdan oqibdirlar.
- Mo‘jiza ko‘rsatayotgan shaxs o‘z amaliga shu darajada ishonchi komil bo‘lishi kerakki, inkor etuvchilarni qo‘rqmasdan bunday ishda bahs-munozaraga chaqira olsin.
- Hech kim mo‘jizaga o‘xshash amalni ko‘rsata olmasligi lozim, «*mo‘jiza*» deb, atalganing sababi ham, hamma insonlar uning barobarida oqib ekanliklarini anglatadi.
- Mo‘jiza keltirayotgan odam albatta payg‘ambarlik yoki imomlik da‘vosini qilmog‘i zarur. SHuning uchun, payg‘ambar va imom bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan g‘ayritabiiy ishlarga «*mo‘jiza*» deb, aytilmaydi, balki «*karomat*» deb, nomlanadi.

Bir necha yorqin namunalar:

Hammamizga ma‘lumki, hazrati Iso (*alayhis salom*)ning qilgan mo‘jizalaridan biri, o‘liklarni tiriltirish va davolash mumkin bo‘lmagan bemorlarni muolaja qilish bo‘lgan. Shu yerda bir necha savol ilgari suriladi:

Inson organizmi ishdan chiqib, o‘lganidan so‘ng, qayta tirila olishi mumkin emasligiga ilmiy va aqliy dalillarimiz bormi?!

Yoki saraton kasalini bugunga qadar tabiblar va shifokorlar davolay ololmaganliklariga qaramay, uni davolash yo‘li

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

yo'qligiga ilmiy va aqliy dalil bormi?!

Shubhasiz, hozirgi sharoitda inson o'zining bor kuch-qudrati bilan o'liklarni tiriltirishga yoki saraton kabi ayrim og'ir kasalliklarni davolashga qodir emas. Harchand jahondagi butun tabib olimlar bu yo'lda bir-birlariga ko'maklashib, to'plagan tajriba va ma'lumotlarini ishga solsalar-da, hech bir natijaga erishmagaylar.

Biroq Alloh tanlagan inson (payg'ambar) Xudoning cheksiz ilm ummonidan bahramand bo'lgan holda ilohiy kuch bilan jonsiz jasadga jumboqli ishora etib, unga ruhni qaytara olishining yoki dardi davosiz bo'lgan bemorga shifo berishining nima aybi bor?!

Bashariyatning qo'lga kiritgan ilmi «*men bunday ishlarni bilmayman va ularni bajarishga qodir emasman*» - deb aytadi, ammo «*hech qachon bu ishlar mumkin emas va tasavvur qilib bo'lmaydi*» - deb aytmaydi.

Boshqa misol; Oy sayyorasiga safar qilish kosmik kemasiz, sun'iy yo'ldoshsiz va oyga qo'nar kemasiz hech bir inson uchun aslo mumkin emas, lekin shunga qaramay, kimdir biz insonlarning oddiy kuchimizdan yuqorida turadigan ilohiy kuch-qudratdan foydalanib, bashariyat ixtiro qilgan uchoq va raketalardan ustun bo'lgan jumboqli bir ulov yordamida hech bir kosmik kemasiz, oyga qo'nar kemasiz va raketasiz oyga yoki yuqoriroq sayyoralarga boradigan bo'lsa, bunga nima to'sqinlik qila oladi?!

Agar biror bir shaxs chindan ham yuqorida aytib o'tilgan odatdan tashqari bo'lgan g'ayritabiiy ishlarni bajarsa, shuning bilan birga payg'ambarlikni da'vo qiladigan bo'lsa, boshqalarni ham qo'rqmay shunday ishni bajarishga da'vat etib, ularni bellashishga chaqirsa va hamma insonlar uning qarshisida ojiz bo'lib qolsalar, u holda to'liq va komil ishonch bilan: «*Bu odam Alloh taolo tarafidan yuborilgan Payg'ambardir*» - deb ayta

olamiz.

Zeroki, Alloh hech qachon bunday qudratni yolg‘onchi kimsalarning qo‘liga topshirib, O‘z bandalarining gumroh bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. (diqqat qiling!)

* * *

Mo‘‘jizalarni xurofot bilan qorishtirmaslik haqida

Har bir ishda «*haddidan oshib, chegaradan chiqib ketmoq*» yoki «*sustlik qilish*» ikki omil sifatida hamisha fasod va buzg‘unlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lib, haqiqat chehrasini qora qilib ko‘rsatib kelgan.

Mo‘‘jiza masalasida ham xuddi shundaydir. Ayrim «*o‘zini ziyoli qilib ko‘rsatadiganlar*» ochiq-oydin yoki ishora bilan har qanday mo‘‘jizalarni inkor etsalar, boshqa bironlar esa har narsani mo‘‘jizaga chiqarib, bo‘rttiradilar. Ikkinchi toifadagilar esa, zaif hadislar va xurofiy afsonalarni bo‘rttirib, haqiqiy mo‘‘jizalar bilan qorishtiradilar va natijada ular payg‘ambarlar mo‘‘jizasining o‘ziga xos jozibasini yo‘q qilib, haqiqiy mo‘‘jizalarning ilmiy chehrasini soxta afsonalar va asossiz xayollar bilan berkitadilar. Albatta bunday ishlarda islom dushmanlarining ham hissasi bordir.

Modomiki, haqiqiy mo‘‘jizalar ana shunday yot unsurlar va to‘qima afsonalardan tozalanmas ekan, mo‘‘jizalarning asl chehrasi oshkor bo‘lmaydi.

Shuning uchun, islom olamining buyuk ulamolari doimo mo‘‘jiza haqidagi hadislarining sahih bo‘lishiga va bunday to‘qima afsonalardan yiroqlashtirishga alohida ahamiyat berib kelishgan.

Shunga ko‘ra, sahih hadislarini zaiflaridan ajratib, asossiz, xayoliy masalalarni haqiqiy ta‘limotlar bilan aralashmasligi uchun, hadis rivoyat qiluvchi roviylarni yaxshi o‘rganib chiqish

maqsadida *«ilmi rijol»* yuzaga kelgan.

Bugungi kunda mustamlakachilik va xudosizlik siyosati vakillari bekor o'tirganlari yo'q, ular dindorlarning pok qalblariga asosi bo'lmagan tushunchalarni haqiqiy-diniy e'tiqod bilan aralastirib, talqin qilmoqdalar. Ular shu yo'l bilan *«mo'jizalarning hech qanday ilmiy asosi yo'q»*, deb ko'rsatishga harakat qilmoqdalar. Shuning uchun bunday shum rejalarining oldini olish uchun biz etarli darajada ilm va ma'rifatga molik bo'lmog'imiz zarur.

* * *

Mo'jiza va g'ayrioddiy ishlar o'rtasidagi farqlar

Qulog'ingizga chalingan bo'lsa kerak Hindistonda yashaydigan riyozatchi shaxslar o'z ustilarida ishlab, og'ir riyozatlar chekkanliklari uchun notabiiy ishlarni qila oladilar va bunday g'alati ishlarni ko'rgan shaxslarning soni oz emas, bu afsona emas, balki bir haqiqatdir.

Shuning uchun quyidagi savol tug'ilishi mumkin: *«Payg'ambarlar mo'jizasi bilan, ana shunday g'ayrioddiy ishlarning orasida qanday farq bor? Biz qaysi me'yor va mezon bilan payg'ambarlar keltirgan mo'jizalarni bunday g'ayrioddiy ishlardan ajrata olamiz?»*

Bu savolga bir necha javob bera olish mumkin, ammo ular orasidan ikki yechimni ustun deb, bilamiz:

1. G'ayrioddiy ishlarni bajaradigan riyozatchilar hamisha ma'lum bir cheklangan ishlarni amalga oshira oladilar, boshqacha aytganda; hech bir riyozatchi shaxs siz taklif qilgan ishni bajarishga rozi bo'lmaydi. Balki ular faqat o'zlari mashq qilib, mukammal o'rgangan g'ayritabiiy ishlarinigina bajara olishadi, xolos. Buning sababi ma'lumdir, nimaga deganda har bir insonning qudrati chegaralangan va shu bois, ma'lum bir

ishni bajarishga qurbi etadi.

Ammo payg‘ambarlarning mo‘‘jizalari biror bir ishga cheklanib qolmay, hech qanday qayd-shartlarga bog‘liq emas, payg‘ambarlar zarur bo‘lgan taqdirda, ulardan talab qilingan har qanday mo‘‘jizani ko‘rsata oladilar. Negaki, payg‘ambarlar mo‘‘jizalarining barchasi Alohning cheksiz va tunganmas kuch-qudratiga tayangan, holbuki, inson qudrati ma‘lum bir chegarada cheklangan.

2. Bir riyozatchining g‘ayrioddiy ishlarini boshqa bir riyozatchi ham qila oladi. Chunki, ularning ishlari inson qudratining chegarasidan chetga chiqmaydi.

Shuning uchun, g‘ayrioddiy ishlarni bajaradigan riyozatchi shaxs boshqa riyozatchilarni shunga o‘xshash ishni qilishda bellashuv va musobaqaga taklif etmaydi. Chunki, u biladiki, uning yashaydigan shahrining biror yerida yoxud boshqa shahrlarda yashovchilar orasidan o‘ziga o‘xshaydigan biror shaxs xuddi shunday ishni qila olishi mumkin.

Lekin payg‘ambarlar esa komil ishonch va iymon bilan o‘zlari keltirgan mo‘‘jizaga o‘xshash ishni bajarishda boshqalarni bellashuvga chaqirib: *«Agar yer yuzidagi jami insonlarni yig‘ib, biz qilgan ishga o‘xshagan biror ishni bajarishga urinsalar-da, aslo uddasidan chiqa olmaslar»*, deb ayta oladilar.

Biz yuqorida qayd etgan ikki tafovutni *«sehr»* masalasida ham ayta olamiz. Ushbu ikki farq asosida Sehr va jodu bilan mo‘‘jizaning o‘rtasidagi chegara ma‘lum bo‘ladi. (diqqat qiling!)

* * *

O'ylab javob bering:

1. Nima uchun «*mo'jiza*» mo'jiza deb, nomlangan?
2. Mo'jiza ko'rsatish «*sababiyat qonunidan*» tashqari hodisa hisoblanadimi?
3. Riyozatchilar amalini va sehrni mo'jizadan ajrata olish uchun necha xil yo'l bor?
4. Mo'jiza ko'rsatishning asl sharti nimadir?
5. Umringizda mo'jizaga o'xshagan hodisani ko'rganmisiz?

5-DARS:

Islom payg‘ambarining eng buyuk mo‘‘jizasi

Mangu qolajak mo‘‘jiza;

Barcha islom ulamolari birdamlik va hamjihatlik bilan: «*Qur‘oni Karim islom Payg‘ambarining eng buyuk mo‘‘jizasidir*», deb e‘tiqod qilganlar. Buning sababi:

Birinchidan; Qur‘on insonlarning ruhi va aqliga uyg‘un keladigan aqliy mo‘‘jizadir.

Ikkinchidan; hamisha saqlanib kelgan mangu va abadiy mo‘‘jizadir.

Uchinchidan; o‘n to‘rt asrdan buyon: «*Agar bu samoviy Kitob Alloh tomonidan nozil etilmagan desangizlar, xuddi unga o‘xshaganini keltiringiz*», deb butun olamni da‘vat etib kelmoqda.

«*Bellashuvga chaqirmoq*» deb, nomlangan ushbu da‘vat Qur‘oni Karimning bir necha joylarida ochiq-oydin kelgan, jumladan bir yerda shunday buyuradi:

﴿قُلْ لَّيْنِ اجْتَمَعَتِ الْإِنْسُ وَالْجِنُّ عَلَيَّ أَنْ يَأْتُوا بِمِثْلِ هَذَا الْقُرْآنِ لَا يَأْتُونَ بِمِثْلِهِ وَلَوْ كَانَ بَعْضُهُمْ لِبَعْضٍ ظَهِيرًا﴾

«*Ayting: «Shubhasiz, agar butun insonlar-u jinlar (kalima va ma‘no jihatidan) bu Qur‘onga o‘xshashini keltirish yo‘lida jamlansalar, unga o‘xshashini keltira olmaslar, agarchi bu ishda ularning ba‘zilari ba‘zilarga madadkor bo‘lsalar-da.» (Isro surasi; 88 – oyat)*

Qur‘onning boshqa oyatida ushbu bellashishning shartini engilroq etib, shunday marhamat qiladi:

﴿أَمْ يَقُولُونَ افْتَرَاهُ قُلْ فَأْتُوا بِعَشْرِ سُوْرٍ مِّثْلِهِ مُفْتَرِيَاتٍ وَّادْعُوا مَنِ اسْتَضَعْتُمْ مِّنْ دُونِ اللّٰهِ إِن كُنْتُمْ صَادِقِينَ﴾

Yoki: «Uni (Qur‘onni Muhammad) to‘qib chiqargan», - deydilarmi? Ayting: «Shunda, agar rostgo‘y bo‘lsalaringiz, shunga o‘xshash o‘nta to‘qilgan sura keltiring va Allohdan o‘zga kuchingiz etgan kimsani (yordamga yoki guvohlikka) chaqiringiz!» (Hud surasi; 13 – oyat)

Bundan so‘ng shunday qo‘shimcha qiladi: Agar ushbu da‘vatni ijobat qilmasalar, shunda bilingizki, bu oyatlar Alloh taolo tomonidan tushurilgan.

﴿فَإِن لَّمْ يَسْتَجِيبُواْ لَكُمْ فَاعْلَمُواْ أَنَّمَا أُنزِلَ بِعِلْمِ اللّٰهِ وَأَن لَّا إِلَهَ إِلَّا هُوَ فَهَلْ أَنْتُمْ مُّسْلِمُونَ﴾

«Demak, agar (ular) sizlarning da‘vatingizni ijobat qilmasalar, u holda bilingizkim, u (Qur‘on) shubhasiz, Allohning ilmi bilan nozil qilingan va Undan o‘zga hech bir iloh yo‘qdir. Demak, endi sizlar haqiqatga taslim bo‘lurmisiz?!» (Hud surasi; 14 – oyat)

Yana bir karra bellashish sharoitini eng kam miqdorda bayon etib, shunday buyuradi:

﴿وَإِن كُنْتُمْ فِي رَيْبٍ مِّمَّا نَزَّلْنَا عَلَيَّ عَبْدِنَا فَأْتُوا بِسُوْرَةٍ مِّثْلِهِ وَّادْعُوا شُهَدَاءَكُمْ مِّنْ دُونِ اللّٰهِ إِن كُنْتُمْ صَادِقِينَ﴾

«Va agar bandamizga tushirgan narsamizdan shubhada bo‘lsangiz, agar rost so‘zlovchilar bo‘lsangiz, unga o‘xshash bir sura keltiring va Allohdan o‘zga yordamchilaringizni yordamga chaqiring.» (Baqara surasi; 23 – oyat)

Alloh taolo mazkur oyati karimaning davomida oshkora shunday buyuradi:

﴿فَإِن لَّمْ تَفْعَلُوا وَلَٰن تَفْعَلُوا فَاتَّقُوا النَّارَ الَّتِي وَقُودُهَا النَّاسُ وَالْحِجَارَةُ أُعِدَّتْ لِلْكَافِرِينَ﴾

«Demak, agar qilmasangiz va hargiz qila olmaysiz ham, shunda yoqilg‘isi odamlar va tosh [but va sanam]lar bo‘lgan va kofirlar

uchun hozirlab qo'yilgan olovdan saqlaningiz.» (Baqara surasi; 24-oyat)

Yuqoridagi ma'noda nozil bo'lgan oyatlar Qur'oni Karimning Alloh tarafidan nozil bo'lganligiga va Qur'on Payg'ambarimizning buyuk mo'jizasi ekanligiga eng yorqin dalildir. Tarix kitoblarida keltirilganidek, harchand Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) boshqa ko'plab mo'jizalarni ham keltirgan bo'lsalar-da, ammo Qur'onning mo'jiza ekanligiga ko'proq tayanardilar.

Qur'oni Karim hammaning ixtiyorida bo'lgan jonli mo'jiza bo'lgani sababli biz ko'proq Qur'onning mo'jiza ekani xususida so'z yuritmoqchimiz.

Qandayiga Qur'onning da'vati qarshisida ojiz qoldilar?

Qizig'i shundaki, Qur'oni Karim o'z muxoliflarini o'ta kuchli darajada bellashishga chaqirib, hech kimga uzr va bahona qolmasin degan maqsadda ularni qo'zg'atuvchan iboralar bilan kurash maydoniga da'vat etgan.

«Agar rostgo'y bo'lsangiz, qani Qur'on oyatiga o'xshash biron narsa keltiring-chi», «Hargiz bu ishning uddasidan chiqa olmaysizlar», «Bu ishda butun olamlardan yordam so'rasangiz», «Hech bo'lmasa shunga o'xshagan birgina sura keltiring», «Agar yuz o'girib kofir bo'lsangiz, olovda yongaysizlar» va...singari iboralar ushbu haqiqatni tasdiqlaydi.

Bularning hammasi bir tomon, boshqa tarafdin esa payg'ambarimizning din dushmanlariga qarshi kurashish-lari oddiy bir kurashish bo'lmagan, chunki, islom nafaqat ularning yurak bog'lab tutgan yo'llarini xatar ostiga qo'yardi, balki, ularning iqtisodiy, siyosiy nufuzlariga va qolaversa, ularning hayotiga jiddiy xavf tug'dirar edi.

Boshqa so'z bilan aytganda; islomning rivoj topib tarqalishi islom dushmanlarining butun hayotini tag-tomiri bilan quritardi.

Shuning uchun, dushmanlar bor kuch-qudratlari bilan islomga qarshi kurashishga bel bog‘lagan edilar.

Ular Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ni mag‘lub qilish uchun nima bo‘lganida ham Qur‘on oyatiga o‘xshash biror narsa keltirishga urinar edilar va bu yo‘l bilan islom nufuzini to‘xtatib, o‘zlarini inqirozga yuz tutishdan saqlab qolmoqchi bo‘lganlar. SHuning uchun, ular Arablarning gapga chechan va usta bo‘lgan buyuk notiq va shoirlarining barchasidan yordam so‘rab, ulardan Qur‘onga o‘xshash biror oyat bitishni so‘raganlar. Lekin ularning hammasi Qur‘onga yuzma-yuz kelganlarida engilib, uning oldida ojiz va notavon qolganlar va shu bois, zudlik bilan orqaga chekinganlar. Bu haqda tarixda ko‘p ma‘lumotlar yozib qoldirilgan.

Valid bin Mug‘ayra dostoni

Qur‘onga qarshi kurashishga da‘vat etilganlarning biri «*Valid bin Mug‘ayra*» edi. U «*bani Maxzum*» qabilasidan bo‘lib, o‘sha zamonda arablar orasida ish ko‘zini biladigan, fikri o‘tkir shaxs sifatida tanilgan edi.

Shuning uchun, islom dushmanlari undan Qur‘oni Karim haqida biror chora-tadbir ko‘rib, Qur‘onning g‘aroyib oyatlari va uning favqulodda ta‘siri to‘g‘risida o‘z fikrini bildirishni so‘radilar.

Valid islom payg‘ambarining huzurlariga kelib, ul hazratdan Qur‘ondan bir necha oyatni unga o‘qib berishlarini so‘raydi. Hazrati Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) unga «*Hamim sajda*» surasidan qisman tilovat qilib beradilar.

Bu oyatlarni eshitgan Valid juda qattiq ta‘sirlanadi va u beixtiyor o‘rnidan turib, «*Bani Maxzum*» qabilasi tomonidan uyushtirilgan yig‘ilishga kelib shunday deydi: Xudoga ont

bo'lsinki, hozirgina men Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) dan shunday so'zlarni eshitdimki, na insonlarning so'ziga o'xshaydi va na jinlarnikiga... davomida shunday dedi:

«وَأَنَّ لَهُ لَحْلَاوَةً وَأَنَّ عَلَيْهِ لَطَاوَةٌ وَأَنَّ أَعْلَاهُ لِمَثْمَرٍ وَأَنَّ أَسْفَلَهُ لِمَغْدَقٍ وَأَنَّهُ يَعْلُو وَلَا يَعْلى عَلَيْهِ»

«Uning aytganlari qalbga halovat beradi va o'zgacha go'zallikka egadir, uning yuqorisi bamisoli baland daraxt kabi, shoxlarida etilgan mo'l-ko'l mevalar bor, uning ildizi esa barakotli ozuqaga ega bo'lib, u har narsa ustidan g'olib keladi va hech narsa undan ustun bo'la olmagay.»

Bu xabar Quraysh orasida tez tarqaldi va odamlar «*Valid Muhammadning oshig'iga aylanibdi*», deb aytishar edi! «*Abu Jahl*» bu gaplardan ogoh bo'lishi bilanoq, hovliqqan holda shoshilib, Validning uyiga keldi-da, ushbu xabar Quraysh orasida tez tarqalganini unga etkazdi va uni o'zlarining maslisiga da'vat etdi.

«*Valid*» ularning majlisiga kelib shunday dedi: Sizlar Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ni majnun, deb o'ylaysizmi? Hargiz unda majnunlik belgilarini ko'rdingizmi?!

Majlisda o'tirganlar: «*Yo 'q*» – deb javob berishdi.

Shunda Valid: Sizlar uni yolg'onchi, deb bilasizlarmi? Shu paytgacha orangizda rostgo'y va omonatdor bo'lib, tanilmaganmidi va uni ishonchli, to'g'ri so'z nomi bilan chaqirmasmingiz?! – deb so'radi.

Quraysh boshliqlarining ayrimlari, «*Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam) ni nima deb, ayblashimiz mumkin?*» – deyishdi.

Valid bir oz o'ylovga borib: «*U sehgardir!*» – deb aytinglar, dedi.

Garchi islom dushmanlari Qur'ondan ta'sirlanib, uning oshig'i bo'lgan odamlarni islom payg'ambarini sehgardlikda

ayblab, ul zotdan uzoqlashtirmoqchi bo‘lgan bo‘lsalar-da, ammo «*sehr*» so‘zining o‘zi Qur‘onning favqilodda jozibaga molik bo‘lgan oddiy bir kalom emasligini yaqqol ko‘rsatar va odamlarni Qur‘on tarafiga ko‘proq jalb qilar edi. Ular bu jozibaning nomini sehr deb qo‘ygan edilar. Holbuki, Qur‘on va sehr orasida hech qanday aloqa yo‘q edi.

Quraysh zodagonlari xalq orasida yurib: «*Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam) mohir sehrgardir va bu oyatlar uning sehridir, demak, undan uzoqlashinglar va uning suhbatlariga quloq bermanglar, u sizlarni ham sehrlab qo‘yadi!*» – deb har yerda ovoza qila boshladilar.

Biroq ularning bu urinishlari foyda bermadi va ularning tuzgan rejasi amalga oshmadi. Hamma yoqda pokiza qalbgga ega bo‘lgan haqiqat izlovchi tashna insonlar, to‘p-to‘p bo‘lgan holda, Qur‘oni Karim tomon kela boshladilar va bu samoviy Kitobning zilol ma‘rifatidan bahramand bo‘ldilar va axir-oqibat, mag‘lubiyatga uchragan dushmanlar ortga chekindilar.

Bizning davrimizda ham, Qur‘oni Karim butun olamlarga bo‘lgan o‘z xitobini o‘zgartirgani yo‘q va hanuz ham shakshubha qiluvchilarni bellashuvga chaqirib: «*Agar Qur‘on oyatlarining to‘g‘ri va haq ekanligida shak qilib, uni bashariyatning fikridan kelib chiqqan, deydigan bo‘lsangizlar, loaqaq birgina unga o‘xshash sura keltiring-chi, ey donishmandlar, faylasuflar, shoir-u yozuvchilar, har qanday millat va elatlardan bo‘lishdan qat‘iy nazar!*» – deb murojaat qilmoqda.

Biroq hamma Qur‘oni Karim qarshisida ojiz qolib kelmoqda. Ayniqsa islom dushmanlari bo‘lgan masihiy dinining ruhoniylari islom dinini oliy ma‘no-mazmunga ega bo‘lgan inqilobchi din sifatida o‘zlarining ashaddiy va xavfli raqibi deb, bilganlari uchun har yil millionlab dollar pullarni sarflab, islomga qarshi targ‘ibot yo‘lida tirishib kelmoqdalar va ular o‘n

to'rt asrdan buyon bir lahza ham tinch o'tirganlari yo'q. Ular madaniy, ilmiy, inson huquqlari, demokratiya va sog'liqni saqlash kabi turli xil niqoblar ostida, chiroyli shiorlar bilan faoliyat ko'rsatib, qo'llaridan kelgancha islomni yomon qilib ko'rsatishga urinib kelmoqdalar. Nega ular hozirgacha arab tilida so'zlashadigan olim, shoir, yozuvchi va faylasuf nasroniylardan foydalanib, Qur'on suralariga o'xshaganini bitib, islom va musulmonlar chirog'ini so'ndirish uchun uni butun insonlar orasida tarqatmaydilar?!

Shubhasiz, agar bunday ishning amalga oshishi mumkin bo'lganida edi, har qanday holatda ham, uni yuzaga keltirgan bo'lardilar.

Ularning Qur'oni Karim barobarida ojiz bo'lib qolishlari ushbu ilohiy Kitob buyuk mo'jiza ekanligiga ochiq-oydin dalildir.

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Nima uchun Qur’oni Karim aziz Payg‘ambarimizning eng buyuk va yuksak mo‘‘jizalari hisoblanadi?
2. Qur’on qay uslubda bellashuvga chaqiradi?
3. Nimaga dushmanlar Qur’onni sehr deb, ataganlar?
4. Nima uchun nasroniylar islomni o‘zlarining ashaddiy raqibi deb, hisoblaydilar?
5. Valid bin Maxzumning dostonini aytib bering.

6-DARS:

Qur'on mo'jizasiga yana bir nazar

Muqatta'a harflari haqida;

Biz bilamizki, Qur'oni Karimning ba'zi suralari muqatta'a harflari bilan boshlanadi: Masalan; «*alif lom mim*», «*alif lom mim ro*», «*yosin*» va boshqalar.

Suralarning bunday muqatta'a harflari bilan boshlanishining hikmat va sir-asrorlari haqida turli xil nazariyalar mavjuddir. Shulardan biri hadislarga ko'ra, Alloh taolo qandayiga buyuk va mangu qolajak mo'jiza bo'lmish Qur'oni Karimni «*alifbo*»ning oddiy harflaridan yuzaga keltirganini barchaga namoyon etgan. Axir Allohning mo'jizali buyuk kalomi qanday qilib sodda «*alifbo*» harflaridan tashkil topgani chindan ham ajablanarlidir. Nimaga deganda «*alifbo*»ning bunday oddiy harflarini hatto kichkina bola ham ayta olganda, Allohning kalomi ulardan yuzaga kelgani haqiqatan eng yuksak mo'jiza ekani yaqqol ayon bo'ladi.

Endi shunday savol tug'ilishi mumkin: Qur'oni Karim qaysi jihatdan mo'jiza hisoblanadi? Faqat tilning mukammalligi hisoblanmish fasohat va balog'at jihatidanmi? Boshqa ta'bir bilan aytganda: Qur'oni Karim iboralarining tushunarli va jozibadorligi va uning favqulodda ta'siri jihatidanmi yoki boshqa jihatlar ham bormi?

Aslida Qur'onga qaysi tomondan nazar solmaylik, uning mo'jizaviy qirralarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan:

1. Fasohat va balog'at; (adabiy nuqtai nazardan barkamolligi) Qur'on iborolari va uning ma'nolarining g'oyat darajada etukligi va jozibadorligi.

2. Qur'onning har jihatdan yuqori va yuksak ma'no va

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

mazmunga ega bo‘lishi; ayniqsa har qanday xurofotlardan pok bo‘lgan e’tiqodga asoslanganligi.

3. Ilmiy mo‘jizalari; ya’ni o‘sha paytgacha insonlarga noma’lum bo‘lgan ilmiy masalalarni fosh etishi.

4. G‘aybiy ilmlardan xabardorligi; ya’ni kelajakda ro‘y beradigan hodisalarni oldindan aniq va ravshan shaklda aytib berganligi

5. Qur‘on oyatlarida o‘zaro ziddiyat va ixtilofning yo‘qligi; boshqacha aytganda; Qur‘onning yaxlitligi... va boshqa mo‘jizaviy tomonlari.

Bu besh jihatlar xususida so‘z yuritish uzoq davom etadi, ammo biz keyingi darslarda ularning qiziqarli tomonlarini ko‘zdan kechiramiz:

1 – Fasohat va balog‘at

Ma’lumki, har kalomning ikki jihati bo‘ladi; biri-«*so‘zlar*» bo‘lsa, ikkinchisi - uning «*ma’no-mazmunlari*»dir.

Har vaqt sodir etiladigan kalomning so‘zlari go‘zal va munosib shaklda uyg‘un va tarovatli bo‘lib, murakkablik holatidan xoli bo‘lsa va shuningdek, jummalarning tuzulishi ma’no va maqsadni to‘liq va mukammal etkazadigan jozibali bo‘lib, eshituvchini o‘ziga rom etadigan bo‘lsa, bunday kalomga; «*fasohatli va balog‘atli kalom*» deyiladi.

Qur‘on ushbu ikki xususiyatga eng yuqori darajadaega bo‘lgan kalom bo‘lib, hozirgacha hech kim xuddi Qur‘on oyatlari va suralari kabi o‘ziga jalb qiladigan tarovatli, go‘zal va o‘ziga xos yoqimli ohangga ega bo‘lgan bir kalomni keltira olmagan.

Oldingi darsda ko‘rib o‘tganimizdek, mushrik arablarning tanlagan vakili «*Valid bin Mug‘ayra*» Qur‘on oyatlarini eshitishi bilanoq, hayajonlangan holda qattiq ta’sirlanib ketadi va

ma'lum bir muddat qanday qilib Qur'onga qarshi kurashish kerakligi to'g'risida fikrga boradi va axir-oqibat, Qur'onni «*sehr*» va hazrati Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ni esa «*sehrgar*» deb, atashni hamma Quraysh rahbarlariga buyuradi!

Shundan so'ng, juda ko'p martaba ul zotni sehrgarlikda ayblashadi. Garchi mushriklar payg'ambarimizni shu yo'l bilan koyimoqchi bo'lsalar-da, lekin aslida ul zot qarshilarida ojiz ekanliklarini tan olib, bu bilan hazratga katta xizmat qildilar.

Darhaqiqat, mushriklarning bunday ayblashi Qur'onning favqulodda ta'siri barobarida ojiz qolganliklarini tan olish edi. Negaki, oddiy ravishda bu yuksak kalomni tahlil qilish mumkin emas edi va uni «*jumboqli va noma'lum joziba*» deb, nomlashdan o'zga chora yo'q edi.

Biroq ular ushbu haqiqatni qabul qilib, Allohning kalomi mo'jiza ekanligini e'tirof etib iymon keltirgilari kelmasdi. Uning o'rniga «*sehr*» deb, turib oldilar-da, gumrohlik yo'lini tutdilar va islom payg'ambariga «*sehrgar*» deb, nom qo'ydilar!

Islom tarixda bu haqiqat ko'plab yuz bergan; badjahl, qo'pol va johil odamlar hazrati Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning huzurlariga sharafyob bo'lib, Qur'on oyatlarining tilovatini eshitishlari bilanoq, qalblari yumshab, islom nuri qalblariga yo'l topgan va shu bilan yashash tarzlarini ham o'zgartirganlar. Buning o'zi Qur'onning jozibador ekanligi, uning fasohat va balog'ati «*yorqin mo'jiza*» ekanidan dalolat beradi.

Uzoqqa bormaylik, hozirgi kunda ham arab tili va uning adabiyotini o'rganganlar; Qur'oni Karimning hayratga soluvchi adabiy kamoloti haqida aytadilar va Qur'oni Karimni qayta-qayta o'qib, undan lazzatlanadilar va uni o'qishdan tuymay, toliqib ham qolmaydilar.

Qur'on iboralari juda aniq, ma'lum o'lchov va hisobga ega

bo‘lib, bir vaqtning o‘zida hayo bilan, vazmin va matonatli bayon etilib, ochiq-oydin, shaffof va aniq holda bo‘lib, kerakli o‘rinda esa qat’iy va kesuvchandır.

Shuni ham qo‘shimcha qilmoq lozimki, johiliyat davrida arab tili adabiyot nuqtai nazaridan juda rivojlangan edi, hattoki hozirgi kunda ham johiliyat davridagi arab she‘rlari etukligi jihatidan mashhur bo‘lib, ular arab tili she‘rlarining eng yaxshi namunalari sanaladilar.

Qur‘on nozil bo‘lishidan oldin har yili arablarning eng buyuk va mashhur shoirlari yig‘ilishib, o‘zlarining eng oliy darajali she‘rlarini «*Adabiy tijorat markazi*» deb nomlangan Ukkoz bozorida o‘qib berishar edi va ularning eng yaxshi asarlari «*yilning eng yaxshi she‘ri*» unvonini olar edi, keyin ana shu tanlangan she‘rlarni yozib Ka‘baga ilib qo‘yishar edi. Hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) payg‘ambar etib tanlangan davrda namuna sifatida ettita shunday she‘r mavjud edi, ularni «*Muallaqotus -sab‘a*» deb, atashar edi.

Ammo Qur‘on nozil bo‘lgach, bu she‘rlar Qur‘on fasohati va balog‘ati qarshisida o‘z jozibasini qo‘ldan boy berdi. Shuning uchun, mushrik arablar, bu she‘rlarni birin-ketin Ka‘badan olib tashlashdi va axir-oqibat, ularning ongidan mutlaqo unutilib ketdi.

Islomning buyuk tafsirchi ulamolari qo‘llaridan kelgancha Qur‘on oyatlarining ajoyib ingichka tomonlari haqida ko‘plab kitoblar bitganlar. Agar istasangiz bu kitoblarga murojaat qilib, biz yuqorida aytib o‘tgan Qur‘oni Karimga oid bo‘lgan ma‘lumotlar haqida o‘z bilim saviyangizni oshirishingiz mumkin.

Qur‘oni Karim bilan tanishsak, Payg‘ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning Qur‘on haqida juda aniq ta‘rif bilan buyurgan quyidagi so‘zlari mubolag‘a emasligiga ishonch hosil qilamiz:

«ظاهره أنيقٌ و باطنه عميقٌ لا تُحصَى عجائبه و لا تبلى غرائبه»

«Qur'onning tashqi ko'rinishi orasta va go'zaldir, ichki olami esa chuqur, teran bo'lib, fikru andishaga to'liqdir va Qur'onning ajablanarli tomonlarini hisoblab bo'lmas va Qur'onning g'aroyibliigi hargiz eskirmas.»

Qur'oni Karim maktabining buyuk shogirdi bo'lmish hazrati Ali *(alayhis salom)* ham, o'zlarining «*Nahjul balog'a*» nomli kitoblarida Qur'oni Karim haqida shunday deydilar:

«وفيه ربيع القلب، وينايع العلم، وما للقلب جلاء غيره»

«Qalblar bahori Qur'ondadir, ilm buloqlari uning bag'ridan qaynab chiqadi, odamzot qalbu jonining sayqallanishi uchun Qur'ondan yuksakroq narsa yo'qdir!» (*Nahjul balog'a*; 175 – Xutba).

O'ylab javob bering:

1. Qur'ondagi muqatta'a harflarining hikmati haqida nima bilasiz?
2. Qur'onning mo'jizaligi faqat bir taraflamami yoki bir necha jihatdanmi?
3. Nima uchun dushmanlar islom payg'ambari *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* ga «*Sehrgar*» deb nom qo'ygandilar?
4. Fasohat va balog'at o'rtasidagi farq nimadadir?
5. «*Muallaqotus-sab'a*» nima ma'noni anglatadi? U qaysi zamonga tegishlidir?

7-DARS: Qur'on g'oyasi

Bu darsni yaxshi tushunish uchun avvalo Qur'oni Karim nozil bo'lgan davrdagi muhitning fikriy va madaniy vaziyatini ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Barcha tarixchi olimlarining fikricha, Hijoz sarzamini (Arabiston yarim oroli) o'sha davrda dunyoning eng qoloq va johil mintaqasi bo'lib, boshqa mintaqada odamari o'sha johiliyat asrida yashagan arablarni vahshiy yoki yarim vahshiy xalq deb atashar edi.

Johiliyat asrning arablari aqida va g'oya jihatidan shiddatli darajada butparastlikka ko'ngil bog'lagan edilar. Shu bois, ular tosh va yog'ochdan turli shakldagi but-sanamlarni yasab, ularga sig'inishar va bu butparastlik e'tiqodi ularning butun madaniyatiga va turmush tarzidagi xulq-atvorlariga keng ko'lamda o'zining manfiy ta'sirini o'tkazgan edi. Hatto ba'zan xurmo mevalaridan butlar yasab, uning barobarida tiz cho'kib unga sajda qilar edilar. Biroq qahatchilik bo'lganda, bu «butlarini» eb qo'yishar edi!

Ular qiz bolalardan o'ta ketgan darajada nafratlanib, ularni tiriklayin go'rga ko'msalar-da, ammo farishtalarni Xudoning qizlari deb hisoblab, Allohni inson darajasigacha tushirib qo'ygan edilar!

Mushrik arablar tavhid va yakkaxudolikdan qattiq taajublanar edilar. Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ularni yagona Allohga sig'inishga da'vat qilganlarida nihoyatda hayratlanib shunday derydilar:

﴿أَجْعَلِ الْآلِهَةَ إِلَهًا وَاحِدًا إِنَّ هَذَا لَشَيْءٌ عَجَابٌ﴾

«(Shuncha) ilohlarni bitta iloh qilib olibdimi?! Haqiqatan, bu juda qiziq narsa!» (Sod surasi; 5 – oyat)

Kimki, ularning xurofotga asoslangan afsonaviy va xayoliy e’tiqodlariga qarshilik qiladigan bo‘lsa, albatta uni yomon qoralab, devonaga chiqarishar edi.

Ular qabila-qabila bo‘lib yashaganlari sabab, qabilalar o‘rtasida paydo bo‘ladigan nizo va kelishmovchiliklar hamisha ular orasida urush olovini yoqib qon to‘kish darajasigacha olib kelar edi va bir necha marta yer yuzini bir-birlarining qoni bilan alvon qilib, ko‘p qon to‘kardilar. Birovning molini g‘orat qilish ularning har kunlik oddiy ishlaridan bo‘lib, ular o‘z qilmishlaridan faxrlanardilar ham.

Arablarning eng muhim markazi bo‘lmish Makka shahri bo‘ylab o‘qish va yozishni biladigan savodli odamlar barmoq bilan sanarli darajada kam edi, olim va donishmand insonlar esa ular orasida juda ham kam hollarda topilar edilar.

Mana shunday qoloq bir muhitdan chiqqan, ustoz va maktab ko‘rmagan, o‘qish va yozishni bilmaydigan bir odam hikmatga to‘lib toshgan buyuk bir kitobni insonlarga keltirdi va bu ulug‘ kitob o‘n to‘rt asrdan buyon o‘zining jozibasini zarrachalik yo‘qotgani yo‘q, balki donishmandlar hozirgacha uni tafsir qilish bilan shug‘ullanib kelmoqdalar va ilm taraqqiy etgan sari bu kitobning yangi qirralari bashariyat uchun ochilmoqda.

Qur‘onning yaratilish olami va uning tuzilmasi haqidagi tasviri hayratlanarli darajada aniq va hisob-kitoblidir. Qur‘oni Karim tavhid va yakkaxudolik g‘oyasini eng mukammal va eng yuqori darajada tasvirlaydi. Qur‘oni Karim yer va osmonlar yaratilishining sir-asrorlarini, kecha-kunduz va quyosh, oy va o‘simliklar olami va inson yaratilishining sir-asrorlarini turli oyatlarda va xilma-xil uslublar bilan bayon etib, ular yagona Allohning mavjudligiga dalolat qiluvchi yorqin belgi-nishonalar ekanligini uqtiradi.

Gohida esa inson qalbining tubidagi ichki hissiyotlardan soʻz ochib odamzot fitratidagi yakkaxudolik tuygʻusi haqida xabar beradi:

﴿فَإِذَا رَكِبُوا فِي الْفُلِكِ دَعَوْا اللَّهَ مُخْلِصِينَ لَهُ الدِّينَ فَلَمَّا نَجَّاهُمْ إِلَى الْبَرِّ إِذَا هُمْ يُشْرِكُونَ﴾

«Qachonki, ular kemaga minsalar (hayqirayotgan toshqin dengiz toʻlqinlariga duch kelib gʻaraq boʻlishdan qoʻrqqanlaridan) Allohga chin ixlos bilan iltijo qilurlar. Demak, qachonki, (Alloh ularni quruqlikka chiqarib,) najot bergach, banogoh ular (Allohga yana) shirk keltirurlar.» (Ankabut surasi; 65 – oyat)

Baʼzan esa aql yurgizishga undab, yakkaxudolikni dalil bilan isbotlashga kirishadi va shu asnoda olamning yaratilishi va inson jonining yaratilishiga tayanib: Yeru osmonlar, hayvonlar va togʻu dengizlar yaratilishining sir-asrorlarini va yomgʻir yogʻishi va shamol esishining sir-asrorlarini va shuningdek, inson jismi va ruhining ingichka qirralini aytib beradi.

Allohning sifatlarini bayon qilayotganda, eng chuqur va jozibali uslubni tanlaydi. Bir oyatda shunday marhamat qiladi:

﴿فَاطِرُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ جَعَلَ لَكُمْ مِنْ أَنْفُسِكُمْ أَزْوَاجًا وَمِنَ الْأَنْعَامِ أَزْوَاجًا يَذُرُّكُمْ فِيهِ لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ وَهُوَ السَّمِيعُ الْبَصِيرُ﴾

«(Alloh) osmonlar va yerning ilk yaratuvchisidir. U sizlar uchun oʻzlaringizdan boʻlmish juftlarni yaratdi va chorva hayvonlaridan ham juft-juft (yaratdi). U sizlarni oʻshanda (juftlikda) koʻpaytirur. Hech bir narsa Unga oʻxshash emasdir. U eshituvchi va koʻruvchidir.» (Shoʻro surasi; 11 – oyat)

Qurʻoni Karim Allohning sifatlarini bayon qilib shunday buyuradi:

﴿هُوَ اللَّهُ الَّذِي لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ عَالِمُ الْغَيْبِ وَالشَّهَادَةِ هُوَ الرَّحْمَنُ الرَّحِيمُ ﴿١﴾ هُوَ اللَّهُ الَّذِي لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ الْمَلِكُ الْقُدُّوسُ السَّلَامُ الْمُؤْمِنُ الْمُهَيْمِنُ الْعَزِيزُ الْجَبَّارُ الْمُتَكَبِّرُ سُبْحَانَ اللَّهِ عَمَّا يُشْرِكُونَ﴾

يَشْرِكُونَ ﴿﴾ هُوَ اللَّهُ الْخَالِقُ الْبَارِئُ الْمُصَوِّرُ لَهُ الْأَسْمَاءُ الْحُسْنَىٰ يُسَبِّحُ لَهُ مَا فِي السَّمَاوَاتِ
وَالْأَرْضِ وَهُوَ الْعَزِيزُ الْحَكِيمُ ﴿﴾

«U - Alloh, shunday zotdirki, Undan o'zga ilohyo'qdir. (U) yashirin va oshkora sir-asrorlarni biluvchidir. U mehribon va rahmlidir.»

«U - Alloh, shunday zotdirki, Undan o'zga iloh yo'qdir. (U) Malik – haqiqiy podshoh va hukmdordir. (U) Quddus – (barcha ayb-nuqsonlardan) xoli va noloyiq sifatlardan pokdir. (U) Salom – nuqsonlardan salomat, va O'z (bandalariga) tinchlik-xotirjamlik, rohat va omonlikberuvchidir. (U) Mo'min – iymon va omonlik beruvchidir. (U) Muhaymin-(bandalarini kuzatib turuvchi va hamma narsalarni qamrab oluvchi)dir. (U) Aziz-qudrat sohibi va barchaning ustidan g'olibdir. (U) Jabbor- bo'yin sundiruvchidir. (U) Mutakabbir - bag'oyat kibriyoli va ulug' martabali Zotdir. Alloh ularning (mushriklarining) keltiradigan shirkalaridan poku munazzahdir.»

«U - Alloh, yaratuvchi, yo'qdan bor qiluvchi, (barcha narsaga) surat va shakl beruvchidir. Barcha go'zal ismlar Unikidir. Osmonlar va Yerdagi (bor) narsalar Unga tasbeh ayturlar. U engilmas va hikmat sohibidir.» (Hashr surasi; 22-oyatdan 24-oyatlargacha.)

Qur'oni Karim Alloh taoloning cheksiz ilm sohibi ekanligini aytib bu haqiqatni juda chiroyli ibora bilan tasvirlaydi:

﴿وَلَوْ أَنَّمَا فِي الْأَرْضِ مِنْ شَجَرَةٍ أَقْلَامٌ وَالْبَحْرُ يَمُدُّهُ مِنْ بَعْدِهِ سَبْعَةُ أَبْحُرٍ مَّا نَفِدَتْ كَلِمَاتُ
اللَّهِ إِنَّ اللَّهَ عَزِيزٌ حَكِيمٌ﴾

«Agar yer yuzidagi daraxtning barchasi qalamlar bo'lib, dengiz (siyoh bo'lsa va) undan so'ng yana etti dengiz unga yordam berib tursa, Allohning kalimalari tugab bitmas. Albatta, Alloh qudrat va hikmat egasidir.» (Luqmon surasi; 27-oyat)

Qur'oni Karim Allohning hamma narsalarni ihota qilganini¹ va U olamning hamma yerida hozir va nozir ekanligini oliy darajali ta'birlar bilan bayon etadi va bunday bayon uslubi Qur'ongagina xosdir:

﴿وَلِلَّهِ الْمَشْرِقُ وَالْمَغْرِبُ فَأَيْنَمَا تُوَلُّوا فَئِمَّ وَجْهَ اللَّهِ إِنَّ اللَّهَ وَاسِعٌ عَلِيمٌ﴾

«Mashriq ham, Mag'rib ham yolg'iz Allohnikidir. Demak, qaysi tomonga yuzlansangiz, o'sha joy Allohning tarafidir. Albatta, Alloh (hamma tomonni) qamrab oluvchi, dono zotdir.» (Baqara surasi; 115 – oyat)

Bandalariga qarata: Alloh har yerda hozir va nozir ekanligini ta'kidlaydi:

﴿وَهُوَ مَعَكُمْ أَيْنَ مَا كُنْتُمْ وَاللَّهُ بِمَا تَعْمَلُونَ بَصِيرٌ﴾

«Sizlar qayerda bo'lsangizlar, U sizlar bilan birgadir. Alloh qilayotgan amallaringizni ko'rib turuvchidir.» (Hadid surasi; 4-oyat).

Qur'oni Karim qayta tirilish va Qiyomat kunidan so'z ochganda, mushriklarning taajjublanishi va ularning inkor etishi barobarida shunday deydi:

﴿وَضَرَبَ لَنَا مَثَلًا وَنَسِيَ خَلْقَهُ قَالَ مَنْ يُحْيِي الْعِظَامَ وَهِيَ رَمِيمٌ ﴿۱﴾ قُلْ يُحْيِيهَا الَّذِي أَنشَأَهَا أَوَّلَ مَرَّةٍ وَهُوَ بِكُلِّ خَلْقٍ عَلِيمٌ ﴿۲﴾ الَّذِي جَعَلَ لَكُم مِّنَ الشَّجَرِ الْأَخْضَرِ نَارًا فَإِذَا أَنتُم مِّنْهُ تُوقَدُونَ ﴿۳﴾ أَوَلَيْسَ الَّذِي خَلَقَ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَ بِقَادِرٍ عَلَىٰ أَنْ يَخْلُقَ مِثْلَهُمْ بَلَىٰ وَهُوَ الْخَلَّاقُ الْعَلِيمُ ﴿۴﴾ إِنَّمَا أَمْرُهُ إِذَا أَرَادَ شَيْئًا أَنْ يَقُولَ لَهُ كُنْ فَيَكُونُ﴾

«U (mushrik shaxs) Bizga: «Chirib ketgan suyaklarni kim ham tirlirtira olur?» - deb, misol keltirdi-yu, (ammo) o'zining (bir tomchi suvdan) yaralganini unutib qo'ydi!

1. Ihota qilmoqning ma'nosi, «qamrab olmoq» va «qurshab olmoq», demakdir.

(Ey Bizning Rasulimiz ularga) ayting: «Ularni ilk marta yo‘qdan bor qilgan zotning O‘zi qayta tiriltirur va U har bir yaratilgan narsani bilguvchidir»

«U zot sizlarga yam-yashil daraxtdan olov paydo qilib qo‘ygandir. Endi esa, siz undan olov yoqmoqdasiz.» (Suvning yonida olov shu‘lasini paydo qilgan Alloh taolo o‘limdan so‘ng qayta hayot yaratishga qodir ekani shubhasizdir.)

«Osmonlaru yer (kabi o‘ta buyuk sayyoralar)ni yaratgan zot ularga o‘xshashini yaratishga qodir emasmi?! Yo‘q, (albatta qodirdir) U o‘ta yaratguvchi, o‘ta bilguvchi zotdir.»

«Qachon biror narsani (yaratishni) iroda qilsa, Uning ishi faqat: «Bo‘l» - demoqlikdir, xolos. Shunda, u esa vujudga kelur.» (Shunday buyuk qudrat uchun insonlarni qaytadan hayotga qaytarish oson ishdir.) (Yosin surasi; 78 – oyatdan 82 – oyatlargacha).

Rasmga tushirish va tovush va so‘zlarni yozib olish imkoni bo‘lmagan davrda Qur‘oni Karim insonlarning amallari borasida shunday degan:

﴿يَوْمَئِذٍ تُحَدِّثُ أَخْبَارَهَا ﴿﴾ بِأَنَّ رَبَّكَ أَوْحِي لَهَا ﴿﴾

«Ana o‘sha kunda Parvardigoringiz yerga vahiy (ilhom) qilgani sababli yer o‘z xabarlarini so‘zlagay.» (Zilzila surasi; 4 va 5 – oyatlar).

Qur‘oni Karim insonlarning qilgan amallariga uning badan a‘zolari shahodat berib tilga kirishi haqida shunday deydi:

﴿الْيَوْمَ نَخْتُمُ عَلَىٰ أَفْوَاهِهِمْ وَتُكَلِّمُنَا أَيْدِيهِمْ وَنَشْهَدُ أَرْجُلُهُمْ بِمَا كَانُوا يَكْسِبُونَ ﴿﴾

«Bu Kunda Biz ularning og‘izlarini muhrlab qo‘yurmiz. Bizga ularning qilib o‘tgan ishlari haqida ularning qo‘llari so‘zlagay va oyoqlari esa guvohlik bergay.» (Yosin surasi; 65 – oyat).

﴿وَقَالُوا لَجُلُودِهِمْ لَمْ شَهِدْتُمْ عَلَيْنَا قَالُوا أَنْطَقَنَا اللَّهُ الَّذِي أَنْطَقَ كُلَّ شَيْءٍ وَهُوَ خَلَقَكُمْ أَوَّلَ مَرَّةٍ وَإِلَيْهِ تُرْجَعُونَ﴾

«Ular terilariga: «Nima uchun bizga qarshi guvohlik berdinglar?» - dyerlar, U (teri)lar: «Barcha narsani so'zlatgan zot - Alloh bizlarni ham so'zlatdi. Sizlarni ilk bor U yaratgan va sizlar yana Uning O'zigagina qaytarilmoqdasizlar» - degaylar.» (Fussilat surasi; 21 - oyat.)

Qur'onning chuqur mazmunga ega ekanligi va uning beradigan ilm-ma'rifatining qadr-qimmatini ma'lum bo'lishi uchun va shuningdek, Qur'oni Karim har qanday o'zgartirilishlardan pok saqlanib qolganligini bilishimiz uchun, Qur'ondan ilgari nozil bo'lgan «hozirgi kunda o'zgartirilgan Tavrot va Injil kitoblari» bilan taqqoslaganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lum mavzularni mazkur kitoblardan olib, o'zaro qiyoslash mumkin, masalan: Odamning yaratilishi haqida Tavrotta nima deyilgani bilan Qur'onda nima deyilganini taqqoslashimiz mumkin.

Tavrot payg'ambarlar hayoti haqida qanday voqealarni naql qilgan va Qur'on ushbu mavzuga qanday yondashganini muqoyasa qilishimiz mumkin. Yoki Tavrot va Injil Allohni qanday tavsif etgan va Qur'onning bu xususidagi tavsifini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Shunda bu ikkala kitobning o'rtasidagi farqi yaqqol namoyon bo'ladi.

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Qur‘on nozil bo‘lgan paytda Arabiston yarim oroli qanday ahvolda edi?
2. Butparastlik arab mushriklarining hayotlariga qanchalik ta‘sir qilgan edi?
3. Fitratdagi yakkaxudolik bilan, dalillar asosida isbotlangan yakkaxudolikning o‘rtasidagi farq nimada?
4. Qur‘onning Alloh va Uning sifatlarini tanittirish uslubi va mantig‘i qandaydir? Bir necha misollar keltiring.
5. Qay yo‘sinda Qur‘oni Karimning ma‘no-mazmunini chuqurroq anglash mumkin?

8-DARS:

Qur'on va bugungi ilmiy kashfiyotlar!

Shubhasiz, Qur'oni Karim – bu tabiiyot, tibbiyot, ruhshunoslik yoki riyoziyot (matematika) kitobi emas. Qur'oni Karim – bu insoniyatni hidoyatga boshlaydigan va uni kamolotga etaklaydigan kitobdir va shu yo'lda kerakli bo'ladigan zaruriy ilmlardan ko'z yumagan.

Biz Qur'onni faqatgina turli xil ilmlarni o'z ichiga olgan va hamma fanlarni bayon etgan qomus kitobi sifatida qabul qilsak, to'g'ri bo'lmaydi. Balki biz Qur'ondan iymon va hidoyat nurini, taqvo va parhezkorlikni, insoniyatni kamolotga etaklovchi odob va axloq tuzumini hamda hayot uchun zarur bo'lgan kerakli qonun-qoidalarni bayon qilishni talab qilishimiz darkor va Qur'on bularning barchasini o'z ichiga olgan.

Biroq Qur'on ba'zan mazkur maqsadga erishish uchun tabiiyotga oid ilmlarni, yaratilish sir-asrorlarini va borliq olamning hayratlanarli tomonlarini qisman yoritib beradi. Alalxusus, tavhid (yakkaxudolik)ni isbotlash uchun jahondagi o'zaro bog'liqlik va nazmu tartibga asoslanib, yaratilish olamining sir-asrorlarini yaqqol yoritib bergan. Qur'onda bayon etilgan bunday masalalar o'sha davrning hatto donishmandlariga ham noma'lum edi.

Qur'oni Karimning bayon etgan mazkur masalalari to'plamiga «*Qur'onning ilmiy mo'jizalari*» deb, nomlaymiz.

Bu yerda ushbu mo'jizalarning bir nechasini ko'rib chiqamiz:

Qur'on va Tortishish qonuni

Mashhur fizika olimi «*Nyuton*»dan oldin hech kim butun

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

olam tortishish qonunini yoki umumiy nisbiylik nazariyasini kashf etmagan edi.

Aytilishicha, Nyuton olma daraxtining tagida o‘tirgan chog‘ida daraxtdagi olma uzilib yerga tushadi. Bu bir qarashda kichik va oddiy bo‘lgan hodisa, Nyutonning fikrini bir necha yil o‘ziga jalb etib: «*Nima uchun olma aynan yerga tushishi kerak ekan? Qanday kuch olmani o‘zi tomon tortdi ekan? Nimaga olma daraxtdan uzilgach, osmon tomonga ko‘tarilmadi?*» – degan savollar qamrovida qoladi. Keyinchalik esa Tortishish qonunini (Gravitatsiya qonunini) kashf etadi: «*Har ikkala jism bir-birini moddalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lgan o‘zaro aloqadorligi va ular o‘rtasidagi oraliqlarning qarama-qarshi itarish kuchiga asosan jazb etadi.*»

Ushbu qonun kashf etilish natijasida, Koinotdagi sayyoralar sistemasining yaxlitligi va bu sayyoralar ham ana shu qonunga bo‘ysunishi kashf etildi. Nima uchun ushbu sayyoralar Quyosh atrofida aylanishadi? Nima uchun ular bir-biri o‘rtasida ma’lum masofani saqlab turadilar, urilib ham ketmaydilar, yoki bir-biridan qochib, har yoqqa tarqalib ham ketmaydilar? Qanday kuch ularni bunday cheksiz fazoda aniq tartib va madorda aylantirgan holda saqlab turadi va zarrachalik undan chetga chiqishmaydi?

Ha, Nyutonning kashfiyotiga binoan; bir jismning doiraviy va aylana shakldagi harakati uning markazdan qochishiga sabab bo‘ladi va tortishish qonuni esa uni markaz tomon jazb qiladi. Qachonki, bu ikki kuch (tortishish va itarish kuchi) muvozanatga kelsa, ya’ni «*moddalar*» va «*masofalar*» tomonidan yuzaga kelgan «*tortishish kuchi*» va doiraviy harakat tezligi natijasida paydo bo‘lgan «*markazdan qochish*» va «*itarish kuchi*» o‘zaro tenglashsa, ikki kuchning muvozanati sayyoralarning bir-biriga urilib ajralib ketishlarining oldini oladi, ularni doim o‘z o‘qi va madorida saqlab qoladi.

Biroq ushbu tortishish qonuni kashf etilishidan ming yil oldin Qur'oni Karim bu haqda bunday degan edi:

﴿اللَّهُ الَّذِي رَفَعَ السَّمَاوَاتِ بِغَيْرِ عَمَدٍ تَرَوْنَهَا ثُمَّ اسْتَوَىٰ عَلَى الْعَرْشِ وَسَحَّرَ الشَّمْسَ وَالْقَمَرَ كُلٌّ يَجْرِي لِأَجَلٍ مُّسَمًّى يُدَبِّرُ الْأَمْرَ يُفَصِّلُ الْآيَاتِ لَعَلَّكُمْ بَلَاءًا لِّبِقَوْمٍ تُوَفَّقُونَ﴾

«Alloh osmonlar (samoviy sayyoralar)ni siz ko'rmaydigan ustunlar bilan ko'tarib qo'ygan, so'ngra Arshni (borliq olam majmui)ni egallagan hamda quyosh va oyni (O'z amriga) bo'yin sundirgan Zotdir. Har biri muayyan muddatgacha (ya'ni, qiyomat qoyim bo'lgunicha) jarayonda bo'lur. (Alloh jahonning barcha) ishlarini boshqaradi, shoyad sizlar (qiyomat kunidagi) Rabbingiz muloqotiga ishonch hosil qilsangiz, deb oyatlarni mufassal bayon qiladi.» (Ra'd surasi; 2-oyat)

Ushbu oyatning tafsirida imom Rizo (*alayhis salom*)dan rivoyat qilingan hadisda shunday bayon etilgan:

«أليس الله يقول: ﴿بِغَيْرِ عَمَدٍ تَرَوْنَهَا﴾؟ قلت: بلي، قال: ثُمَّ عَمَدٌ لَكِن لا تَرَوْنَهَا!«

«Alloh Qur'onda (ko'rinmas) ustunlar bilan ko'tarib qo'ygan, demaydimi? - deb so'radilar, roviy dedi:

-Ha, deb javob berdim.

-Shunda imom dedilar: Binobarin, uning ustuni bor. Lekin sizlar uni ko'ra olmaysizlar.»

Butun olam tortishish qonunini umumxalqqa bayon qilish uchun, o'sha davrdagi arab tilida; «Ko'rinmas ustunlar»dan ko'ra yaxshiroq va ravshanroq ibora topish mumkin bo'lmas edi. Zeroki, o'sha davrda insoniyatning aqli shunga yarasha edi.

Boshqa bir hadisda hazrati Ali (*alayhis salom*) shunday degan edilar:

«هذا النجوم التي في السماءِ مدائن مثل المدائن التي في الأرض مبروطة كلُّ مدينةٍ إلى عمودٍ

من نور»

«Osmondagi bu yulduzlar yer yuzidagi shaharlar kabi shaharlardir, zero, har bir shahar boshqa shahar bilan (har bir yulduz boshqa yulduz bilan) nurdan bo‘lgan ustun bilan o‘zaro bog‘liq va aloqadadirlar.»

Bugungi kunga kelib donishmandlar biz ko‘rayotgan osmondagi yulduzlar orasida millionlab boshqa yulduzlar ham mavjudligi va shuningdek, u yerda tirik va aql-idrokli mavjudotlar borligini aytyaptilar. Harchand bu haqiqatning tafsiloti haqida batafsil ma‘lumot qo‘lga kiritilmagan.

Yerning o‘z o‘qi va quyosh atrofida aylanishi

Ma‘lumki, yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishini mashhur italyalik olim Galiley taxminan bundan to‘rt asr oldin kashf etgan edi. Bundan oldin dunyoning butun olimlari Misrlik falakiyot (astronomiya) olimi Ptolomey qonuniga va uning farziasiga ishonar edilar. Uning nazariyasiga ko‘ra; yer koinot markazi bo‘lib, hamma sayyoralar uning atrofida aylanadi.

Biroq Galiley yer koinotlar markazi emas, balki u «o‘z o‘qi atrofida va shuningdek, quyosh atrofida aylanadi» – degan nazariyani ilgari surdi. Uning bu ilmiy kashfiyoti uchun cherkov homiylari va nasroniy ruhoniylari uni kofirga chiqarishadi. Shuning uchun, nochor holda qolgan Galiley o‘z hayotini saqlab qolish uchun, «*izhor qilgan ilmiy kashfiyoti*» uchun tavba qiladi. Lekin axir-oqibat, keyinchalik boshqa olimlar uning nazariyasi ustida tadqiqot qila boshladilar. Hozirgi kunda esa Galileyning ushbu nazariyasi shubhasiz va aniq bo‘lgan bir ilmiy masalaga aylangan. Hatto hissiy ravishda qilingan tajribalar orqali ham yer o‘z o‘qi atrofida aylanishi isbotlangan. Fazoda qilingan parvozlardan so‘ng, ushbu masala

yaqqol namoyon bo'ldi.

Muxtasar qilib aytganda; yerning boshqa sayyoralar uchun markaz ekanligi inkor qilindi va ma'lum bo'ldiki, yerning markazligi faqatgina biz insonlarning hissiy xatomiz bo'lib, yer harakatini sayyoralar majmui harakati bilan qorishtirib xatoga yo'l qo'yganmiz.

Har holda Ptolomey nazariyasi qariyb bir ming besh yuz yil o'z kuchini saqlab turgan va olimlar ongiga singgan edi. Qur'on nozil bo'lgan vaqtda hech kim bu nazariyaga xilof biror bir so'zni aytishga jur'at qilolmas edi.

Biroq Qur'oni Karimga diqqat qiladigan bo'lsak, Naml surasining 88-oyatida bunday deyiladi:

﴿وَتَرَى الْجِبَالَ تَحْسِبُهَا جَمِدَةً وَهِيَ ثَمْرٌ مَّرَّ السَّحَابِ صُنِعَ اللَّهُ الْذِي أَنْتَقْنَ كُلَّ شَيْءٍ إِنَّهُ خَبِيرٌ بِمَا تَفْعَلُونَ﴾

«Siz tog'larni ko'rib qimirlamay qotib turuvchi, deb o'ylarsiz. Holbuki, ular xuddi bulutlar harakatlanayotgani-dek harakatdadir. (Bu) har bir narsani mustahkam qilgan Allohning yaratishidir. Albatta, U zot sizlar nima qilayotganingizdan ogohdir!» (Naml surasi; 88 – oyat).

Yuqoridagi oyatda tog'larning harakatiga ishora qilinib, bu harakat bulutlar harakatiga o'xshatilgan. Holbuki, biz tog'larni qimirlamay sokin turibdi, deb o'ylaymiz. Negaki, tog'lar harakati bulutlar harakatiga o'xshatilishi tezlik, muloyimlik, ohista va sokinlik jihatidan nazarga olingan.

Boshqa tarafdin; «yerning harakati» o'rniga «tog'lar harakati», deb aytilishi esa, ushbu muhim masala (yer harakat)ning nihoyatda chuqur va teran ekanini bildirish uchundir. Ma'lumki, tog'lar faqat yer harakatlansagina harakatlana oladilar va ularning harakati Yerning harakatisiz amalga oshmaydi. «Yerning harakati» deganda, uning o'z o'qi

atrofida yoki quyosh atrofida yoxud har ikkisi nazarda tutiladi.

Endi o‘zingiz bir o‘ylab ko‘ringizchi, axir jahonning hamma ilmiy dargohlarida yer har qanday harakatdan xoli, tinch va sokindir, aksincha, quyosh va koinotdagi barcha sayyoralar yer atrofida aylanadi, degan tushuncha rasmiy ravishda qabul qilingan bir davrda, Qur’onda yerning harakat qilishi haqida ochiq-oydin xabar berilishi ilmiy mo‘jiza emasmi?!

Ustiga ustak, bu xabar yozish va o‘qishni bilmaydigan va asosan ilm va madaniyatdan yiroq va johiliyat botqog‘iga botib, orqada qolib ketgan bir muhitdan chiqqan bir odam tomonidan berilgan bo‘lsa-chi? Mana shularning barisi Qur’oni Karim haqiqatdan ham, Alloh tomonidan nozil bo‘lgan ilohiy va mo‘jizaviy kitob ekanligiga dalolat qilmaydimi?!

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Quronning ilmiy mo‘jizalari deganda nima nazarda tutiladi?
2. Yerning tortishish qonunini birinchi bo‘lib qaysi olim kashf etgan va qaysi asrda yashab o‘tgan?
3. Qur’onning qaysi oyati va qanday ta’bir bilan tortishish qonuni haqida xabar beradi?
4. Yerning harakatsiz turishi haqidagi nazariya kimga tegishli edi? Bu nazariya necha yil olimlar orasida o‘z e’tiborini yo‘qotmay davom etdi? Shuningdek, ilk marta yer harakatini kashf etgan olim kim edi?
5. Qur’oni Karimning qaysi oyatida va qay tarzda yerning harakati haqida xabar berilgan?

9- DARS:

Payg‘ambarimizning haq ekanliklariga yana bir hujjat

Payg‘ambarlikni da’vo qiladigan insonning haqqoniyligini yoki yolg‘onchiligini bilib olish uchun, mo‘jiza keltirishni talab qilishdan tashqari, yana bir yo‘l mavjud va u yo‘l ham, bizni maqsadga erishishimiz uchun qo‘l kelib, jonli dalil hisoblanadi. Ushbu yo‘l; quyidagi belgi va nishonalarni o‘rganib chiqib, ularni bir joyda to‘plashimiz bilan amalga oshadi:

1. Payg‘ambarlik da’vosini qiluvchi shaxsning axloqiy xususiyatlari va uning jamiyat orasidagi o‘rni;
2. Da’vat qiladigan insonning yashash muhiti;
3. Da’vat qiladigan insonning yashash zamoni vaziyati;
4. Qiladigan da’vatining ma’nosi va mohiyati;
5. Maqsadga etish uchun qo‘llaydigan ijroiylar dasturlari va amaliy vositalari;
6. Qilgan da’vatining yashayotgan muhitiga ko‘rsatgan ta’sirining miqdori;
7. Da’vat qiluvchi odamning ko‘zlagan maqsadiga nisbatan bo‘lgan iymoni va fidokorligi;
8. Da’vat yo‘lida haqdan og‘diruvchi omillardan ta’sirlanmay, ular bilan murosa qilmaslik;
9. Da’vatining jamoatchilik fikriga tez ta’sir ko‘rsatishi;
10. Unga iymon keltirgan odamlarning qaysi toifaga mansub ekanligini aniqlash;

Agar biz yuqorida aytib o‘tilgan o‘nta masalani alohida va birma-bir diqqat bilan o‘rganib chiqsak hamda ularni

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

payg‘ambarlikni iddao qiluvchi har bir shaxs xususida ko‘rib chiqsak va ushbu o‘n masalani o‘zimiz uchun me‘yor qilib olib, ular asosida xulosa chiqaridagan bo‘lsak, har bir da‘vogarning rostgo‘y yoki yolg‘onchi ekanligini osonlik bilan anglab olishimiz mumkin.

* * *

Yuqoridagi hamma masalalarni qisqartirilgan va ixcham shaklda islom payg‘ambariga nisbatan tatbiq etib ularni ko‘zdan kechirib chiqamiz. Nega deganda, ular borasida mufassal so‘z yuritadigan bo‘lsak, ko‘plab kitoblarni ta‘lif etishga zarurat tug‘iladi.

1. Islom payg‘ambarining axloqiy xususiyatlari haqida ul zotning ijtimoiy faoliyatlari asnosida qo‘lga kiritilgan, do‘st va dushman yozib qoldirgan aniq va qat‘iy ma‘lumotlarga qaraganda, ul hazrat pok va to‘g‘riso‘z inson bo‘lganlar. SHuning uchun, hatto johiliyat davrida ham Payg‘ambarimizga «*Muhammad amin*»¹ unvonini berishgan edi. Tarixda aytilishicha, ul zot Madinaga hijrat qilmoqchi bo‘lganlarida hazrati Aliga hamma omonatlarni o‘z egalariga qaytarib berishni buyurib ketgan edilar.

Ul zotning shijoat, dovyuraklik, go‘zal xulqlik, bag‘ri kenglik, mardlik va kechirimli bo‘lish kabi oliy sifatlarini jangda bo‘ladilarmi yo tinchlikda mushohada qilishimiz mumkin. Ayniqsa Makkani fath etganlaridan va qonxo‘r dushmanlarning islom barobarida taslim bo‘lganidan so‘ng ul hazratning Makka aholisiga nisbatan ommaviy afv va kechirim e‘lon qilganlari aytganlarimizning yaqqol misolidir.

* * *

1. «*Ishonchli va omonatdor*» demakdir.

2. Hammamizga yaxshi ma'lumki, har qanday odam hatto jamiyatning iste'dodli, etuk va daho shaxslari ham yashayotgan muhitidan istar-istamas ozmi yoki ko'pmi ta'sirlanmay iloj yo'q. Albatta ta'sirlanishda insonlar o'rtasida farq bor, ayrimlar ko'proq va ba'zilar kamroq ta'sirlanadilar.

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, qirq yil butparastlar orasida johiliyat zulmati ichra kun kechirib o'sha vaziyatda unib o'sgan hazrati payg'ambarimiz qandayiga xolis tavhid (yakkaxudolik)dan so'z ochib, butparastlikning butun ko'rinishiga qarshi oyoqqa tura olishlari mumkin?! Negaki, o'sha zamon shirk, butparastlik va xurofotlarga ishonish Makka shahri xalqining qon va joniga singib, ularning madaniyatiga aylangan edi.

Qanday qilib johillar orasidan taraqqiy etgan ilmiy g'oyalar olamga taralishi mumkin?! Axir Yaratuvchining yordamisiz va Uning qo'llab-quvvatlashi bo'lmay turib, shunday g'aroyib hodisa ro'y berishiga ishonish mumkinmi?

* * *

3. Endi esa Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) qaysi zamon va makonda yuzaga kelganlarini ko'rib chiqmog'imiz lozim. Bu asrda jahon o'rta asr tarixi davrini boshidan kechirayotgan edi. Zulm va istibdod, millatlar o'rtasida farq qo'yib, ularni bir-biridan ajratish, ba'zi irqnlarni boshqalardan ustun qo'yib, ularga yuqori darajali imtiyozlarni belgilash va oqibat, insonlar orasida tabaqalanish kabi keskin johiliyat zulmati davri edi. Islom yuzaga kelishidan oldingi va undan keyingi davrlarning shohidi bo'lgan hazrati Ali (*alayhis salom*)dan ushbu johiliyat davri haqida aytgan so'zlarini eshitish juda munosibdir. Ul hazrat o'zlarining Nahjul balog'a kitoblarida bu davrni tasvirlab shunday deganlar:

«أُرْسِلُهُ عَلَيَّ حِينَ فَتْرَةِ مِنَ الرُّسُلِ، وَطُولِ هَجْعَةِ مِنَ الْأُمَمِ، وَاعْتِزَامِ مِنَ الْفِتَنِ، وَأَنْتِشَارِ مِنَ

«الْأُمُورِ، وَتَلَطَّ مِنَ الْحُرُوبِ، وَالذَّنْبِ كَاسْفَةِ النَّوْرِ، ظَاهِرَةُ الْغُرُورِ»

«Alloh ul hazratni shunday davrda payg'ambarlikka tanladiki, oldingi payg'ambarlardan ancha vaqt o'tgan edi, xaloyiq jaholat va gumrohligi vodiysida hayron, aqllar shahvatga taslim bo'lgan zamon edi. Kibr va o'zini katta tutish odamlarni halokatga yo'liqtirgan edi, johiliyat zulmati ularni yo'ldan ozdirgan va nodonlik va iztirob orasida sargardon edilar.» (Nahjul balog'a; 91 – Xutba)

Endi o'ylab ko'ring-chi, shunday ayanchli davrda payg'ambarimiz insonlar teng huquqli ekani haqida so'zlab, millatlar o'rtasida farq qo'yishga, ularni bir-biridan ajratishga va ularning tabaqalanishiga barham berib, mo'`min mo'`minga birodardir, degan shiorni o'rtaga keltirishlari o'sha zamonning vaziyatiga qanday mos kela oladi?

4. Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) da'vatining ma'no va mohiyati; inson hayotining barcha tarmoqlarida tavhid (yakkaxudolik)ga chaqirish, zoliymona imtiyoz va ustunliklarni yo'q qilish, butun jahon insonlarini birlashtirish, zulm va istibdodga qarshi kurashish, olamda adolatli hokimiyat yaratish, zaif va kuchsiz sanalgan insonlarni himoya etish va taqvodorlik, poklik, to'g'rilik va omonatdorlik xususiyatlarini insoniyatning qadr-qiyamatini belgilovchi eng muhim me'yor sifatida yoyish edi.

* * *

5. Islom payg'ambari o'zlari ko'zlagan dasturlarni ijro etish uchun, «*maqsadga erishish yo'lida har qanday vositadan foydalanish mumkin*» degan g'oyaga amal qilishga ruxsat bermaganlar. Ul zotning ta'limoti bo'yicha, muqaddas maqsadga etish uchun faqat muqaddas vositalardan foydalanish kerakligini ta'kidlab, amalda ham o'zlari shunday ish tutganlar. Moida surasining 8 – oyatida bu xususida shunday aytilgan:

﴿وَلَا يَجْرِمَنَّكُمْ شَنَاٰنُ قَوْمٍ عَلٰٓيْ اَلَّا تَعْدِلُوْا﴾

«Biror qavmni yomon ko'rishingiz sizlarni ularga nisbatan adolatsizlik qilishga olib bormasin.»

Payg'ambarimiz o'z sahoba va yoronlariga hatto jang maydonida ham axloqiy fazilatlariga rioya qilib, harbiysizlarga hujum qilmaslikka, jang payti daraxtlarni yo'q qilmaslikka, dushman suvlarini ifloslantirmaslikka, qo'lga tushgan harbiy asirlar bilan yaxshi muomalada bo'lishga va shunga o'xshash o'nlab dasturlarga bo'yin sunishni buyurdilar va ul hazratning o'zlari birinchi bo'lib ushbu yo'l-yo'riqlarga amal qilar edilar.

* * *

6. Hazratning qilgan da'vatlari muhitga shu darajada kuchli ta'sir o'tkazgan ediki, dushmanlar insonlarning u zotga yaqinlashishidan qattiq qo'rqishar va boshqalarga ham yaqinlashmanglar, deb aytishar edi. Negaki, ul hazratning jozibalari favqulodda va o'ta ta'sirli edi. Shu bois, ul zot ma'ruza qilganlarida, mabodo odamlar hazratning so'zlarini eshitib, undan ta'sirlanib qolishmasin va ul zotning jozibador nutqlari tashna qalblarda taassurot qoldirmasin, deb dushmanlar ataylab baqirib shovqin-suron ko'tarishar edi. Shuning uchun, dushmanlar islom payg'ambarining mo'jizaomuz nufuzining oldini olib, da'vatlariga to'g'anoq solish maqsadida u hazratni sehrigar va so'zlarini sehr, deb aytishar edi. Ularning bunday xatti-harakatlari sarvari olamning da'vatlari hayratlanarli darajada kuch va ta'sirga ega ekanini shunchaki e'tirof etish edi.

* * *

7. Islom payg'ambarining tutgan yo'llari va qilgan fidokorliklaridan ma'lum bo'ladiki, ul zot hammadan ko'ra, o'zlari keltirgan dinga ishonuvchan, sodiq va vafodorroq edilar.

Ba’zi jang maydonlarida yangitdan islomga kirgan ayrim sahobalar qochib ketganlarida u hazrat ustivor turardilar, dushmanlar turli yo‘llar bilan, ba’zan tamagir qilmoq, gohida tahdid etmoq va ba’zida hiyla-nayrang kabi har qanday uslublardan foydalanishmasin, ul zot ularning qarshisida aslo ortga chekinmay, ikkilanmagan holda o‘z iymon va e’tiqodlarida mustahkam va ustivor bo‘ldilar va hargiz zarrachalik kuchsizlanib qolmadilar.

* * *

8. Bir necha martaba ul hazratni dushmanlar murosa yo‘lini tutishga va haq yo‘ldan og‘diruvchilar bilan o‘zaro kelishuvli munosabatda bo‘lishga undab, ko‘p harakat qilishdi, biroq Payg‘ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ularning taklifini rad etib, taslim bo‘lmagan holda: «*Agar bir qo‘limga quyoshni va boshqa qo‘limga oyni qo‘ysangiz ham, hargiz bu yo‘ldan qaytmayman¹*» – deb javob berdilar.

* * *

9. Payg‘ambarimiz da’vatlari nafaqat jamoatchilik fikriga taajjublanarli holda ta’sir qilgan edi, balki ushbu ta’sirning tezlik bilan yoyilishi ham favqulodda va g‘ayritabiiy edi. G‘arblik sharqshunos olimlarning bu haqda bitgan asarlarini mutolaa qilib chiqsak, ular islomning paydo bo‘lishi va tezlik bilan butun jahonga yoyilishidan hayron qolganliklarining shohidi bo‘lamiz. Misol tariqasida; taniqli bo‘lgan ushbu g‘arblik olimlardan uch nafari «*Arab dunyosi tamadduni va*

1. Ushbu hadis sharifning ma’nosi; agar butun koinot va borliqni menga bo‘yin sundirib, ularni mening ixtiyorimga topshirsangiz va buning evaziga meni tutgan yo‘limdan va ko‘zlagan maqsadimdan ortga chekinishimni suraydigan bo‘lsangiz, shuni bilingizkim, men hargiz bu yo‘ldan qaytmayman.

uning sharqdagi asoslari» nomli kitoblarida ushbu haqiqatni ochiq-oydin tan olib, shunday deydilar:

«Biz islomni tezlik bilan butun olamga yoyilganining sababini o'rganish uchun qilgan barcha sa'yu harakatimizga qaramasdan islom qandayiga bir asrdan ozroq vaqt ichida dunyoning tamaddun sohibi bo'lgan katta qismiga nufuz qilib, ularni egallab olganining sababini bila olmadik. Bu masala biz uchun hanuzgacha muammo bo'lib qolgan.»

Chindan ham qanday qilib, islom o'sha zamondagi aloqa vositalari orqali hayratlanarli sur'atda millionlab insonlar qalbining tubidan chuqur o'rin egallab, jahondagi mavjud tamaddunlarni emirib o'rniga yangi tamaddun yaratgan ekan? degan savolga javob berish bugungi kunga qadar muammo bo'lib kelmoqda.

* * *

10. Oxiri shunday xulosaga kelamizki, payg'ambarimiz Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) bilan dushmanlik qilgan shaxslar, kofirlar va mushriklarning boshliqlari, kibr-havoga berilgan zolim va mustabid, xudbin boylar toifasidan bo'lishgan edi. Holbuki, ul zotga iymon keltirganlar esa ko'pincha qalbi pok yoshlar, haqiqatni izlovchi faqir-muhtoj va mahrum insonlar bo'lishgan, hatto ular orasida qullar ham bor edi. Ularning qalbida poklik, soflik, oq ko'ngillilik va haqiqatga tashnalikdan boshqa sarmoyalari bo'lmagan insonlar edi.

Qilingan qisqa tahlillardan ko'rinib turganidek, Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning da'vatlari ilohiy da'vat bo'lgan bo'lib, ul hazratning da'vatlari g'ayb olamidan kelayotgan hidoyat nuri edi. Sarvari olam butun bashariyatni shirk, fasod, buzg'unlik, zulm va adolatsizlik hamda jaholat zulmatidan chiqarib, yorug' olamga va abadiy baxt-saodatga etaklash uchun koinotlarni yaratuvchi zot bo'lmish Alloh taolo

tomonidan yuborilgan edilar.

O‘ylab javob bering:

1. Payg‘ambarimizning haqqoniyliklarini isbot qilish uchun mo‘‘jiza keltirishdan boshqa yo‘li ham bormidi? Va u qanday yo‘ldir?
2. Belgi va nishonalarni ko‘zdan kechirib ularni bir joyda to‘plash kerak, deganda qanday belgi va nishonalar nazarda tutiladi? qanday masalalar ustida ko‘proq fikr yuritmoq darkor?
3. Arablarning islomdan oldingi va keyingi vaziyatlarini muqoyasa etish bilan bu borada biror narsani anglay olamizmi?
4. Arablarga yoki butun jahonga doir johiliyat davri haqida nimalarni bilasiz? qisqacha bayon qilib bering.
5. Nima uchun islom dushmanlari Payg‘ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ni sehrgarlikda ayblashar edi?

10- DARS:

Islom payg‘ambari - Alloh yuborgan payg‘ambarlarning so‘nggisi

Xotamiyat (so‘nggi yuborilganlik)ning aniq manosi;

Islom payg‘ambari hazrati Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) Alloh yo‘llagan payg‘ambarlarning so‘nggisi bo‘lib, payg‘ambarlik sulolasi ul zot bilan yakunlanadi. Ushbu masala islom dinining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Zaruriy shartlardan biri deganimizning ma‘nosi o‘zini musulmon, deb bilgan har bir inson istisnosiz islom payg‘ambari «*payg‘ambarlarning oxirgisi*» ekaniga e‘tiqod qilib, ushbu haqiqatga to‘la ishonadi va bu ularning nazarida oydin va qat’iy masaladir. Musulmonlar bilan aloqada bo‘lgan har bir shaxs ularning diniy e‘tiqodiga ko‘ra, «*tavhid (yakkaxudolik)*» asl va asos ekanini bilganidek, shuningdek, «*Islom payg‘ambari Alloh yuborgan payg‘ambarlarning so‘nggisi*» ekanligiga barcha musulmonlar yakkilik bilan ishonishlarini va musulmonlarning hech bir guruhi yangi payg‘ambar kelishining intizorida bo‘lmaganini yaxshi biladi.

Darhaqiqat, bashariyatning takomillashishi uchun, hidoyatchi qilib yo‘llangan payg‘ambarlar orqali insoniyat o‘zining takomil topish yo‘lida turli bosqichlarni bosib o‘tib, o‘zini tutib ololadigan darajada taraqqiyot va kamolot pog‘onasiga etishgan va islom dinining keng qamrovli ta‘limoti va dasturlaridan foydalanib, o‘z muammo va mushkullarini hal eta oladi.

Boshqa so‘z bilan aytganda: Hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning nabiylilik davrlariga kelib, umuman bashariyatning nisbatan rivojlangan davri bo‘lgani uchun, islom dinining o‘zi

oxirgi marra, ya’ni kamolotgacha insonni etaklash qudratiga ega va boshqa yangi dinga ehtiyoj yo‘q edi. Zeroki, islom har tarafлама barkamol va etuk din bo‘lib, uning qonun-qoida va dasturlari hayotning butun qirralarini nazarga olgan va bashariyatning ulg‘ayishi va barkamol bo‘lishi uchun keng ko‘lamli yo‘l-yo‘riqlarni bayon etgan yuksak bir dindir. E’tiqodiy va mafkuraviy nuqtai nazardan bag‘oyat teran mazmunga ega bo‘lgan eng mukammal ta’limotlarni, amal jihatidan esa insoniyatning hamma davr va asrda hayot kechirishi uchun munosib keladigan va uning barcha ehtiyojini qondira oladigan ko‘rsatmalarni ko‘rsatgan. Shuning uchun, islom dini inson taraqqiyotining hamma jihatlarini nazarda tutgan komil din sanaladi.

Payg‘ambarimiz (s.a.o) Allohning so‘nggi payg‘ambari ekanligiga dalillar;

Bu mavzuni isbotlash uchun ko‘p dalillarimiz mavjud. Shular orasidan eng yorqin bo‘lgan uch dalilni keltiramiz:

1. Xotamiyat, ya’ni oxirgi payg‘ambarlik yoki so‘nggi yuborilganlik masalasi islom dinida zarur hisoblangan masalalardan biridir. Aytib o‘tganimizdek, jahondagi hamma musulmonlar bu aqidaga hamfikir va hamjihat bo‘lib yondashadilar. Shunga binoan, kimki islom dinini aql va mantiqqa tayangan holda etarli dalillar bilan qabul qilgan bo‘lsa, xotamiyatni ham qabul qilishidan o‘zga iloji yo‘qdir. Negaki, o‘tgan darslarda islom dinining haqqoniyligini etarli dalillar bilan isbotlagan edik. Shu bois, xotamiyatni ham islom dinining ajralmas zarur bir bo‘lagi kabi qabul qilishimiz shart.

2. Qur’oni Karimning oyatlari ham xotamiyatga dalolat qiladigan ravshan dalillardandir:

﴿مَا كَانَ مُحَمَّدٌ أَبَا أَحَدٍ مِّن رِّجَالِكُمْ وَلَكِن رَّسُولَ اللَّهِ وَخَاتَمَ النَّبِيِّينَ وَكَانَ اللَّهُ بِكُلِّ شَيْءٍ عَلِيمًا﴾

«Muhammad sizlarning erkaklaringizdan birortasining otasi emasdir, balki u Allohning elchisi va payg'ambarlarning so'nggisidir. Alloh har bir narsani o'ta bilguvchidir.» (Ahzob surasi; 40 – oyat).

Qur'oni Karimning ushbu ta'biri shunday bir zamonda aytilgan ediki, arablar orasida o'gay o'g'il masalasi keng rivojlangan bo'lib, birovning bolasini o'zining o'g'li sifatida tanlab uni qabul qilib olishar edi. Bunday «o'g'illar» oilaning haqiqiy farzandi kabi bemalol o'sha oilaga kirib kelar va oila azosi uchun mahram hisoblanar va hatto ularning merosxo'ri ham bo'lar edilar.

Biroq, islom dini kelib, bu johiliyat urf-odatini bekor qilib dedi: «O'g'il qilib olinganlar hargiz shariat qonuniga binoan, haqiqiy farzand huquqiga ega emasdir.» Jumladan Zayd Payg'ambarimizning o'g'illari o'rnida qabul qilingan edi va hamma uni Zayd bin Muhammad deb chaqirishar edi. Ammo nozil bo'lgan yuqoridagi oyati karimalar Zaydni Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning o'g'li emasligini uqtirib, bizlarga ikki muhim xabarni etkazdi: «Biri- birovning bolasini haqiqiy farzand o'rnida qabul qilib olmay, islom payg'ambarini o'zingizdan bo'lgan biror kishining otasi, deb bilmangiz. Ikkinchisi esa ul zotni unga xos bo'lgan ikki haqiqiy sifat bilan tilga olingiz; Biri «Allohning elchisi» bo'lsa, boshqasi «Alloh yo'llagan payg'ambarlarning so'nggisi»dir.»

Qur'onning ushbu ta'biridan ma'lum bo'ladiki, islom payg'ambari Alloh yuborgan payg'ambarlarning so'nggisi ekanliklari ul hazratning nabiyluk va rasulliklari kabi hammaga ayon va so'zsiz bir masala bo'lgan.

Bu yerda yuzaga keladigan birgina savol shundan iboratki, «xotam» so'zining haqiqiy ma'no-mazmuni nimadir?

Arab tilida «xotam» so'zi «xatm» o'zagidan olingan bo'lib, tugatuvchi yoki yakunlovchi ma'nosini ifodalaydi va shuning

uchun «*xotam*»ni muhr, deb ham tarjima qilish mumkin. Nega deganda, yozib bitilgan maktub so‘nggida bosiladigan asbobga «*muhr*» deb, aytishgan. Qadimda biror noma yoki muhim bir hujjat yoziladigan bo‘lsa, uning oxirida yozgan odam imzo o‘rniga uzugining ko‘ziga bitilgan naqshlar bilan muhr bosgan va bu bilan maktub tugallanganini bildirgan. Shuning uchun, arab tilida uzukka «*xotam*» deyilgan. Asosan har bir shaxs uzugining qoshiga o‘ziga xos bo‘lgan naqsh va tasvirlar yoki o‘z ismini o‘yib tushirgan bo‘lib, yozgan maktubining so‘nggida uzugining qoshi bilan muhr bosar edi.

Rivoyatlarda keltirilishicha, Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) o‘sha zamon podshohlari va hukmdorlariga maktub yozib, ularni islomga chaqirmoqchi bo‘lganlarida, sahobalar ul hazratga dedilar: Ajam toifasidan bo‘lgan podshohlar odatda muhr bosilmagan maktubni qabul qilishmaydi. O‘sha vaqtgacha yozgan nomalari muhrsiz va sodda bo‘lgan Payg‘ambarimiz uzuklarining qoshiga LO ILOHA ILLALLOH MUHAMMADUR RASULULLOH iborasini o‘yib tushurishga buyurdilar. Shundan so‘ng, ul janob o‘z maktublarining ostiga ushbu ibora bitilgan uzuklari bilan muhr bosar edilar.

Ushbu tahlilga binoan, «*xotam*» so‘zining asl ma‘nosi ishni poyoniga etkazuvchi yoki tugatuvchi deganidir.

3. Ko‘pgina rivoyat qilingan hadislarda Payg‘ambarimiz Allohning so‘nggi elchisi va nabiyysi ekanligi ochiq-oydin isbotlangan. Jumladan quyidagi hadislarini e‘tiboringizga havola etamiz:

Jobir bin Abdulloh Ansoriy Payg‘ambarimizdan rivoyat qilgan mo‘‘tabar hadisda, ul zot shunday deb, marhamat qildilar: «*Men payg‘ambarlar ichida xuddi qurilayotgan binoning so‘nggi g‘ishti kabidirman. Har kim bu binoga boqqanda; «qanday go‘zal bino ekan, lekin bir dona tirqishi ochiq qolib, bu yerning*

ko'rinishini buzib turgandek» – deydi. Men esa ana shu ulkan binoni to'liq va komil qilish uchun qo'yilgan oxirgi g'isht bo'lib, barcha payg'ambarlar menga kelib tugashgan.» (Majma'ul Bayon tafsiridan naql qilindi)

Imom Sodiq (*alayhis salom*) aytadilar:

«حَلَالٌ مُحَمَّدٌ ﷺ حَلَالٌ أَبَدًا إِلَى يَوْمِ الْقِيَامَةِ وَحَرَامُهُ حَرَامٌ أَبَدًا إِلَى يَوْمِ الْقِيَامَةِ»

«Hazrati Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning haloli to qiyomatgacha halol va uning haromi to qiyomatgacha haromdir.»¹

Shia va sunniylarning mo'ʼtabar kitoblarida hazrati Ali (*alayhis salom*) haqlarida rivoyat qilingan mashhur hadisda Payg'ambarimiz Aliga qarab:

«أَنْتَ مِنِّي بِمَنْزِلَةِ هَارُونَ مِنْ مُوسَى إِلَّا أَنَّهُ لَا نَبِيَّ بَعْدِي»

«Sening menim nazdimdagi martabang Horunning Muso nazdidagi manzilati singaridir, faqat farqi shundaki, mendan so'ng, hech bir payg'ambar kelmas», deb marhamat qiladilar va boshqa o'nlab hadislar da'vomizga dalil bo'la oladi.

Islom payg'ambari Allohning so'nggi payg'ambari ekani haqida ko'plab savollar tug'ilgan; ularning ayrimlariga tavajjuh (diqqat) qilmoq lozimdir:

1. Agar payg'ambarlarning Alloh tomonidan yo'llanishi ulkan ilohiy bir fayz bo'lib, bashariyatning rushdu hidoyati uchun bo'ladigan bo'lsa, nimaga bizning zamonimiz bunday buyuk fayzu ne'matdan mahrum va bebahra bo'lishi kerak ekan? Nega biz yashayotgan asr xalqining hidoyati uchun yana boshqa bir yangi payg'ambar kelmas ekan?

Bu savolni ilgari surganlar darhaqiqat, bir masalani nazarga

1. Usuli kofi, 1-jild, 58-bet.

olmaganlar. U ham bo'lsa, bu zamon odamlarining ularga payg'ambar kelishidan bebahra va mahrumliklari, ularning layoqatsizliklari tufayli emas, balki buning dalili shundan iboratki, bashariyat karvoni ma'rifat va ogohlik yo'lida taraqqiyotning yuksak darajasiga etishgan bo'lib, islom payg'ambarining hayotbaxsh ta'limotlariga amal qilsalar, rushdu hidoyat yo'lini topa oladilar. Shuning uchun, insonlar yangi payg'ambar kelishi va yangi shariat keltirishiga aslo ehtiyoj sezishmaydi.

Shu o'rinda bir misol keltirmoqchimiz: Alloh taolo insonlar hidoyati uchun yuborgan «*Ulul azm*» payg'ambarlar, ya'ni yangi samoviy va ilohiy kitobga ega, yangi shariat va ko'rsatmalar keltiruvchi payg'ambarlar degani, ular besh nafardan iborat. Ular hazrati Nuh (*alayhis salom*), hazrati Ibrohim (*alayhis salom*), hazrati Muso (*alayhis salom*), hazrati Iso (*alayhis salom*) va hazrati Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)lar bo'lib, birin-ketin hidoyat bayrog'ini qo'lga olib, tarixning xos bir bosqichida insonlarning hidoyat va takomil topishi uchun sa'y-harakat qilganlar va bashariyat to'dasini bir bosqichdan olib o'tib, keyingi bosqichda ularni so'nggi «*Ulul azm*» payg'ambarga topshirganlar. Oxirgi payg'ambarga kelganda, bu davr insoniyat karvoni ma'rifat nuqtai nazardan maqsadga ancha yaqinlashib qolgan edi va shuningdek, yo'lni davom ettirishga qodir edi, shu bois, Payg'ambarimiz keltirgan so'nggi shariatdan boshqa bir yangi shariatning kelishiga ehtiyoji yo'q edi. Masalan; bashariyatni tahsil oluvchi bir shaxsga o'xshatadigan bo'lsak, o'qish va tahsil olishning besh bosqichini bosib o'tib, bitiruvchilik pog'onasiga etishadi.

Avval o'rta maktab ta'limi, so'ngra o'rta maxsus ta'lim, keyin magistrlik, undan so'ng aspirantlik va so'nggi bosqich esa doktorlikdir. (Ta'kidlamoq lozimki, o'qish va tahsil olishdan forig' bo'lib, bitiruvchilik darajasiga noil bo'lishning

ma'no-mafhumi yo'qdir, balki bundan ko'zlangan maqsad o'zi mustaqil ravishda yo'lni davom ettira olishidir.)

Agar biror shaxs doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, professorlik darajasigacha eta olsa, bundan keyin bu olim tahsil olish uchun oliy o'quv yurtlariga bormaydi va buning ma'nosi tahsil olishga layoqatsiz va yaroqsiz degani emas, balki bunday shaxs etarli ma'lumotga ega bo'lib, qo'lga kiritgan ma'lumotlar yordamida ilmiy muammo va masalalarni echishga qurbi etadi va mustaqil ravishda mutolaa va tadqiqot ishlarini davom ettirib, bilimni kundan kunga yuksaltira oladi degani.

Islom dini kelishi bilan odamlar ana shunday etuklik darajasiga erishganlar va ular hidoyat yo'lida bo'lishlari uchun faqat keltirilgan so'nggi din, ya'ni islom ta'limotlariga amal qilsalar, kifoyadir. Haqiqatga noil bo'ladilar.

2. Agar insoniyat jamiyati kun sayin taraqqiy etayotgan bo'lsa, qandayiga islom dinining o'zgarimas, turg'un qonun-qoidalar va ta'limotlariga tayanib, yangi muammolar va o'zgarishlarga javob bera olish mumkin?! degan savol tug'iladi.

Mazkur savolga javoban shuni aytishimiz lozimki, islom dinida ikki xil qonun-qoidalar majmui mavjuddir. Biri insonning xos xislatlari singari o'zgarimas va qat'iy qonunlar bo'lib, tavhid va yakkaxudolikka e'tiqod qilishning lozimligi, adolat asosida ish ko'rish, zulm-sitam va insonlar huquqini oyoq osti qilishga qarshi kurashmoq va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchisi esa keng qamrovli va umumlashma qonun-qoidalar tizmasi bo'lib, kishilik hayotiga oid mavzularning o'zgarishiga qarab yangi tus oladi va o'zining umumiy nazariyasiga asoslanib, har bir zamonning o'zgaruvchan masalalarini hal qilib, o'sha davrga xos ehtiyojlarni bartaraf qila oladi.

Misol tariqasida; **أَوْفُوا بِالْعُقُودِ** «*Ahdingizga vafo qiling*» degan ma’nodagi qonun, Islomdagi keng qamrovli va umumiy qonunlar jumlasidandir.

SHubhasiz, zamon o‘tishi bilan ijtimoiy, tijoriy va siyosiy sohalarida yangi turdagi foydali bitim va shartnomalar yuzaga kela boshlaydi va yuqoridagi umumlashma va keng qamrovli qonunni nazarga olib ushbu yangi masalalarga javob bera olamiz.

Va shuningdek, islomda yana shunday umumiy va keng qamrovli qonunlardan biri **قاعدة لا ضرر** «*Islomda zarar yo‘qdir*» qonunidir. Ushbu qonunga ko‘ra, biror insonga yoki jamiyatga zarar etkazadigan hukm va qonun cheklanmog‘i va taqiqlanmog‘i lozim.

Ko‘rib turganimizdek, islomdagi bunday umumlashma va keng ko‘lamli qonunlar qanchalik ishni hal qiluvchi va mushkullarni bartaraf etuvchidir. Bu turdagi qonun-qoidalar islom dinida juda ko‘p bo‘lib, mana shunday umumlashma va keng ko‘lamli qonun va ahkomlardan foydalanib, islom hukumatidagi murakkab muammo va mushkullarni hal qila olamiz.

* * *

3. Shubhasiz, biz musulmonlar islom olamida ro‘y beradigan turli masalalarga duch kelganimizda ilohiy rahbar va yo‘lboshchiga muhtojdirmiz. Payg‘ambarimizning yo‘qliklari va ul zot vorislarining g‘oyibliigi chog‘ida musulmonlar rahbarsiz va yo‘lboshchisiz qolishadi. Xotamiyat (so‘nggi payg‘ambarlik) masalasini nazarga oladigan bo‘lsak, demak, boshqa payg‘ambar kelishini kutmoqlik ma’nosizdir. Shunga binoan, islom ummati-ning rahbarsiz qolishi masalasini qanday hal qilish mumkin?

Ushbu savolning yechimi islom dinida oldindan nazarda
www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

tutilgan bo'lib, payg'ambar va uning vorisi bo'lmagan vaqtda ham islom ummati rahbarsiz qolmasligi uchun «*Viloyati faqih*» degan nazariya ilgari surilgan. «*Viloyati faqih*» deb, belgilangan barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan, ilm va taqvo hamda siyosiy ogohlik darajasi juda ham yuqori bo'lgan faqih va mujtahid olimning musulmonlar jamiyatiga rahbarlik va yo'l boshchilik qilishiga aytiladi. Bunday shaxsni tanib olish uchun islomda ochiq-oydin yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan. Binobarin, eng munosib va loyiq faqih va mujtahid olim islom ummati uchun rahbar etib saylanadi. Shuning uchun, bu masala borasida, ya'ni musulmonlar jamiyatiga diniy rahbar tanlashda havotirlanishga o'rin yo'qdir.

Demak, «*Viloyati faqih*» bu – payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) va ul zotning vorislari bo'lmish imomlarning yo'lini davom ettiruvchi chuqur asosga ega bo'lgan buyuk tuzim bo'lib, musulmonlarni g'aybat asrida¹ rahbarsiz qolish musibatidan najot beradi. Shuning uchun, butun shart-sharoitlarga molik bo'lgan etukli faqih va mujtahidning islom ummatiga rahbarlik qilishi musulmonlar jamiyatining rahbarsiz va yo'l boshchisiz o'z holiga tashlab qo'yilmaganidan darak beradi².

* * *

1. Islom ummatining o'n ikkinchi imomi va yo'l boshchisi bo'lmish hazrat Mahdiy (*ajjalallohu farajahu*)ning ko'zlardan g'oyib bo'lgan davrga «*g'aybat asri*» deyiladi.

2. Batafsil ma'lumot uchun ushbu muallifning «*Islom hukumati nazariyasi*» nomli kitobiga murojaat qila olasiz.

O‘ylab javob bering:

1. Xotamiyatning aniq ma’nosi nimadir?
2. Qur’on oyatlaridan xotamiyatni qanday qo‘lga kiritish mumkin?
3. Nimaga bizning zamonimiz xalqi Alloh tomonidan payg‘ambar yuborilishidan mahrumdirlar?
4. Islom qonunlari necha qismdan iborat? Qandayiga islom dini bizning zamonimiz ehtiyojlariga ham javob bera olish qudratiga egadir?
5. Islom jamiyati diniy rahbarsiz hayot kechira oladimi? Bizning zamonimizda rahbarlik masalasini qanday qilib hal qila olish mumkin?

▪
▪

IMOMSHUNOSLIK HAQIDA O'N DARS

1- DARS:

Imomat mavzusida bahslashish qachondan boshlangan?

Hazrati payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan so'ng, musulmonlar ikki guruhga bo'linib ketganini bilamiz:

Bir guruh Payg'ambarimiz o'zlaridan keyin o'rinbosar va voris tayinlamay, bu ishni ummatning zimmasiga topshirganlar va ular o'z oralaridan o'zlari uchun rahbar saylab olishlari lozim deb, e'tiqod qiladilar. Ushbu guruhga «*ahli sunnat*» deb, aytiladi.

Ikkinchi guruh esa Payg'ambarimizning xalifa va vorislari ul zotning o'zlaridek, gunoh va sahv-xatolardan ma'sum va pok, ummatga «*ma'naviy va moddiy*» jihatdan rahbarlik qila oladigan hamda islomning poydevorini saqlab qolib, uni davom ettira oladigan darajada teran ilmga ega bo'lmog'i zarur deb, e'tiqod qiladilar.

Ularning e'tiqodicha, bunday xususiyatlarga ega bo'lgan shaxsni rahbar va yo'l boshchi etib tayinlash faqat Alloh tarafidan va Payg'ambarimizning tillaridagina amalga oshishi mumkindir, xolos. Payg'ambarimiz bu o'ta muhim ishni amalga oshirib, hazrati Ali (*alayhis salom*)ni o'zlarining o'rinbosar va vorislari etib tayinlaganlar. Bu guruh esa «*imomiya*» yoki «*shia*» deb, nom olgan.

Bizning ushbu mavzuda ko'zlagan maqsadimiz – imomat masalasini aqliy, tarixiy va Qur'oniylariga tayanib hamda

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

Payg‘ambarimizning sunnatlariga asoslanib isbotlashdan iborat. Ushbu masalaga kirishishdan oldin bir necha nuqtalarni¹ aytib o‘tishni zarur topdik:

1. Imomat masalasi ixtilof keltirib chiqaradimi?

Ba’zilar imomat mavzusida so‘z ochilishi bilanoq, darhol bugungi kunda bu haqda bahslashadigan zamon emas deb aytadilar! Ular *«bugungi kun musulmonlarning birlashish kunidir va biz shu haqda so‘z yuritishimiz kerak, Payg‘ambarimizning vorislari va o‘rinbosarlaridan so‘z ochmoq ixtilof va parokandalik keltirib chiqaradi. Islom dushmanlari bo‘lmish bizning mushtarak dushmanimiz, sionistlar, sharq va g‘arb mustamlakachi-laridan iborat. Ular endilikda bizga har taraflama tahdid qilayotganda imomat masalasini chekaga chiqarib, ular haqida so‘zlamasligimiz lozim»* - deb aytishadi. Biroq bu tarzda fikr yuritmoq noto‘g‘ri va xatodir, zero:

Birinchi; Ixtilof va tarqoqlikni keltirib chiqaruvchi omillar; taassubomuz va g‘ayrimantiqiy tortishuv, nizolar hamda dushmanlik va adovat yuzasidan qilinadigan qo‘pol muomalalardir. Ammo agar mantiqiy ravishda fikrlab ilmiy dalillar keltirib, mutaassiblik, o‘jarlik va qo‘pollikdan yiroqlashib, xolisona va samimiy holda suhbat qilinsa, imomat masalasi nafaqat ixtilof va tafriqa keltiruvchi emas, balki qaytanga musulmonlarning o‘rtasidagi masofani ozaytirib, ularning birlashuvini kuchaytirishda xizmat qiladi.

Men ham Hijozga qilgan ko‘plab safarlarimda ahli sunnat ulamolari bilan imomat haqida bahslashganman. Shunda ham

1. Nozik va ingichka masalalar.

sunniy olimlari va bizlar ham bu masala nafaqat bizning o'zaro aloqa saqlashimizga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, balki o'zaro tushunishga va bir-birimizga yaxshi fikrda bo'lishga olib kelib, o'rtamizdagi oraliqlarni ozaytirib, noto'g'ri tushunchadan hosil bo'ladigan gina-kuduratlariga barham beradi, degan xulosaga kelganmiz.

Muhim narsa shundan iboratki, imomat masalasini ko'proq yoritish bilan biz va ahli sunnatning o'rtasida ko'plab mushtarak nuqtai nazarlar borligi oydinlashadi va shuning bilan birga, biz islomning mushtarak dushmanlari qarshisida birlashishimizga yordam beradi.

Ahli sunnatning o'zi ham to'rt mazhabga bo'lingan (hanafiy, shofei, hanbaliy, molikiy). Ammo bu to'rt mazhabning borligi ularning o'rtasiga ixtilof va tafriqa tushishiga sabab bo'lmagan. Agar ular hech bo'lmaganda shialarni ham fiqhiy jihatdan beshinchisi mazhab o'rnida ko'rib uni qabul qilishsa edi, ko'pgina tafriqa, ixtilof va ajratishlarning oldi olingan bo'lar edi. SHuningdek, bu oxirgi yillarda ahli sunnatning buyuk muftisi va Misrning «*Al-azhar*» nomli oliy o'quv yurti raisi «*Shayx Shaltut*» hazratlari ulkan bir ishga asos solib, shia mazhabining fiqhini islomiy bir mazhab deb rasmiy ravishda tan oldi va shu orqali islomiy guruhlarining o'zaro bir-birlarini tushunishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu o'rinda marhum oyatuloh «*Burujerdiy*» (shialarning yirik ulamolari va mujtahidlaridan biri)ning hissasi ham juda kattadir. Bu ikki buyuk shia va sunniy olimlari orasida esa do'stona aloqa tuzildi.

Ikkinchidan; Bizning e'tiqodimizcha, shia mazhabi islomning asl to'g'ri yo'li bo'lib, boshqa mazhablarga qaraganda islomni yaxshiroq namoyon eta oladi. Ayni paytda biz barcha islom mazhablariga ehtirom ko'zi bilan qaraymiz, biroq shia mazhabi haqiqiy islomning butun qirralarini to'laqonli va barkamol shaklda tanittira oladi va islomiy

hukumat qurishga oid masalalarni yaxshi echa oladi, deb e'tiqod qilamiz.

Nega endi biz o'z farzandlarimizga shia mazhabi mohiyatini mantiq va dalilga asoslanib, ta'lim bermas ekanmiz?! Agar bu ishni qilmasak, shak-shubhasiz, ularga xiyonat qilgan bo'lamiz.

Biz qat'iyat bilan aytamizki, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) o'zlaridan so'ng o'rinbosar, xalifa va voris tayinlab ketganlar va shuning uchun, bu haqda mantiqiy ravishda dalillar keltirish bilan bahs yuritadigan bo'lsak, buning nima aybi bor?

Lekin bu suhbatlarda ehtiyot bilan ish ko'rishimiz kerak bo'ladi, toki boshqa mazhabdagilarning hissiyotiga to'qinib, ularning qalbini jarohatlantirib qo'ymaylik.

Uchinchidan; Islom dushmanlari musulmonlar birligi-ning asosiga barham berish uchun shialar haqida sunniylarga va shuningdek, sunniylar haqida shialarga shunchalik yolg'on-yashiq so'zlar, tuhmatlar va uydirma gaplar to'qiganlarki, ayrim islom o'lkalarida ularni butkul bir-biridan uzoqlashtirib qo'yanlar.

Agar bu ikki guruh o'tirib imomat kabi masalalar ustida birgalikda ochiq-oydin so'z yuritsalar va shia e'tiqod qiladigan masalalarni Qur'on va sunnatdan dalillar keltirib, yoritib bersak, shunda dushmanning targ'iboti yolg'on ekani va mushtarak dushmanimiz zahar sochayotgani ma'lum bo'ladi.

Misol tariqasida; Arabistonga qilgan safarlarimdan birida Saudiya mamlakatining birinchi darajali diniy olimi bilan muloqotda bo'lib, uning bilan ilmiy bahs yuritganimda menga qarab: «*Eshitishimcha, siz shialarning Qur'oningiz biznikidan farq qilib, boshqacha Qur'onin-giz bor ekan*» – deb aytsa bo'ladimi?!

Men uning bu so'zidan juda ajablanib, unga shunday dedim:

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

Birodar, bu masalani aniqlay olish juda ham oson!

Birinchidan; biz foydalanadigan Qur'onlarning ko'pi Hijoz, Misr va boshqa Islom o'lkalarida chop etilgan. Ikkinchidan esa, siz shialar istiqomat qiladigan xonadonlarga va ularning masjidlariga borsangiz, shunga guvoh bo'lasizki, u yerdagi Qur'oni Karimlar bilan sizning o'lkangizdagi Qur'onlar o'rtasida hech qanday farq yo'qdir. Balki bunday uydirmalar, shialar va sunniylarning o'rtasiga raxna soladigan Islom dushmanlarining hiyla-nayrangidir, xolos.

Shubhasiz, bu do'stona suhbatimiz taniqli buyuk olimning ongida bo'lgan ana shunday katta tuhmat va shubhaning oldini olib, haqiqatni oydinlashtirdi. Shuning uchun bizning fikrimizcha, yuqorida aytib o'tganimizdek, imomatga oid xolis ilmiy bahslar yuritmoqlik, musulmonlar o'rtasidagi birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi hamda haqiqat ma'lum bo'lishiga va o'rtadagi masofalar ozayishiga ko'maklashadi.

* * *

2. Imomat nima?

«Imom» so'zi musulmonlar peshvosi va rahbari ma'nosini anglatadi. Shialar aqidining asosida esa, «*ma'sum imom*» deb, har jihatdan va hamma narsada Payg'ambarimizning o'rinbosari va vorisiga aytiladi. Faqat farqi shundaki, Payg'ambar yangi ta'limotning asoschisi bo'lsa, imom ushbu ta'limotni asrovchi va davom ettiruvchidir. Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)*ga vahiy nozil bo'ladi, ammo imomga esa vahiy nozil bo'lmaydi hamda imom ilmini Payg'ambar *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)*dan o'rganib oladi va shuning uchun, imom favqulodda chuqur va teran ilm sohibidir.

Shialarning e'tiqodicha, ma'sum imom faqat islom hukumatining rahbari bo'lmay, balki islom jamiyatining ma'naviy va moddiy, zohiriy va botiniy hamda siyosiy va

iqtisodiy, xullas har taraf lama etakchisi va yo‘lboshchisidir va islom ummatini har tomonlama boshqarish va ularga rahnamolik qilish imomning zimmasiga yuklangan. Aqoid ta’limotlarini va shariati islomiya hukmlarini – hech bir sahv-xato va og‘ishlarga yo‘l qo‘ymay – muhofazat etish vazifasi imomning zimmasiga yuklangan bo‘lib, u Alloh tarafidan tanlangan, Uning xolis va pok bandasidir.

Biroq ahli sunnat imomatni bunday ta’rif va tafsir qilmaydilar. Ular imomni faqat islom ummatiga hukmronlik qiluvchi hukumatning raisi deb, biladilar, xolos. Boshqacha ta’bir bilan aytganda; sunniylar har bir asr va zamondagi hukmdorlarni Payg‘ambarimiz *(sallallohu alayhi va otihi vasallam)*ning xalifa va o‘rinbosarlari hamda musulmonlarning imomi va rahbari deb, hisoblaydilar!

Biz kelgusi bahslarimizda har bir asr va zamonda haq dinni saqlab qoluvchi va haqiqatni izlovchilarga rahnamolik qiluvchi Allohning namoyandasi bo‘lmish payg‘ambar yoki ma’sum imom yer yuzida mavjud bo‘lishi zarur ekanini isbotlagaymiz, insho Alloh. Agar bir kuni har qanday sabablarga ko‘ra, bunday ilohiy inson xaloyiq ko‘zidan g‘oyib bo‘lsa, uning tomonidan tayin etilgan vakillar (faqih va mujtahid olimlar) islom ahkomini targ‘ib etish va islom hukumatini qurish ishlarini ko‘radilar.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Bugungi kunda imomat haqida bahs yuritmaslik kerak deydiganolarning bu haqdagi mantiq va dalillari nima?
2. Bu mantiq va fikrga zid o'laroq, ushbu masalaning zarurligini isbotlash uchun dalillarga asoslangan necha javob bera olishimiz mumkin?
3. Islom dushmanlari qanday yo'llar bilan musulmonlar orasiga tafriqa va ixtilof soladilar? Bunga javoban musulmonlar nima qilishlari kerak?
4. Siz ham dushmanlarning yovuz qilmishlaridan birini ayta olasizmi?
5. Shia va sunniylar «imomat» masalasida qanday tafovutga egadirlar?

2- DARS:

Imom mavjudligining hikmati

Paygʻambarlarning yuborilishi zarurligi xususida qilgan suhbatlarimizdan imomga boʻlgan ehtiyojimizni ham tushunishimiz mumkin. Chunki, aynan oʻsha suhbatimizdagi dalillarni imomat masalasida ham keltirishimiz mumkin. Negaki, koʻp oʻrinlarda ularning koʻrsatadigan yoʻl-yoʻriqlari va dasturilamallari aynan bir xil boʻladi. Biroq imomat masalasida boshqa suhbatlar ham bor boʻlib, ular borasida soʻz yuritishni lozim deb bilamiz:



1. Ilohiy rahbarlar etakchiligida maʼnaviy kamolotga erishish

Avvalo; borliq olamning gavhari boʻlmish insonning yaratilishidan maqsad nima ekanligi haqida soʻz yuritamiz.

Inson cheksiz kamolot boʻlmish yagona Alloh sari va maʼnaviy kamol tomon past-baland va uzoq yoʻlni bosib oʻtishi kerak.

Shubhasiz, bu yoʻlni maʼsum rahbar va yoʻlboshchining rahnamoligisiz amalga oshirib, samoviy va ilohiy muallimning peshvoligisiz bu bosqichni bosib oʻtish hamda koʻzlangan maqsadga etib borish mumkin emas. Negaki, *«dunyo qorongʻilikdir, yoʻldan ozish xataridan qoʻrqish kerak.»*

Toʻgʻri Alloh taolo insonni aql va idrok qudrati bilan jihozlantirgan, unga kuchli va mustahkam vijdon bergan hamda uning hidoyati uchun samoviy kitoblar yoʻllagan. Ammo inson

ushbu takviniy¹ va tashriiy² imkoniyatlarga ega bo'lishga qaramay, to'g'ri yo'lni aniqlab olishda ikkilanib, qaysi tomonga yo'l olishini bilmay, sahv-xatoga yo'l qo'yadi. Shubhasiz, ilohiy va ma'sum rahbarning bo'lishi yo'ldan og'ish va gumrohlik xatarini bartaraf etadi. Shunga binoan, «*imomning mavjudligini insonning yaratilishidan ko'zlangan maqsadni takomillashtirib, o'sha maqsadga yaqinlashtiruvchi va adashishlardan saqlovchi*», deb bilmoq lozim.

Aqoid kitoblarida hidoyatchi imomlar bilan ta'min-lash qoidasiga, «*Qoidai lutf*» deyiladi. «*Qoidai lutf*» -ning ma'nosi shundan iboratki, hikmatli Alloh insonning yaratilishdan ko'zlangan maqsadga erishishi uchun kerakli bo'lgan barcha imkoniyatlarni uning ixtiyorida qo'ygan, jumladan payg'ambarlarni yo'llamoq, ma'sum imomni tayin etmoqlik lutf qoidasi asosidadir. Aks holda maqsadga xilof ish ko'rgan bo'ladi.



2. Samoviy shariatni saqlash vazifasi

Ilohiy dinlar, anbiyolar (payg'ambarlar) qalbiga nozil bo'lgan vaqtda, yomg'irning qatralari kabi tiniq, shaffof, zilol, hayotbaxsh va ruhni parvarishlovchi bo'ladi. Ammo bulg'angan qalblarga, kuchsiz yoki nopok onglarga kirib borgach, tadrijan³

1. «*Takviniy iroda*» deganda, borliq olamning yaratilishiga oid bo'lgan Allohning iroda-istagi tushuniladi.

2. Ammo Allohning namoz, ro'za, zakot, xums, haj va ... lar kabi bizlardan istagan vojib ko'rsatmalari va shuningdek, gunoh va haromdan saqlanishga oid bo'lgan bo'yruqlari, Allohning «*Tashriiy irodasi*» deb, aytiladi.

3. Asta-sekinlik bilan, izchillik bilan, daraja-badaraja, tadrijiy ravishda.

vaqt o'tishi bilan o'zgarib xurofot va bid'atlar bilan aralashib ketadi. Shuning uchun, o'zining avvalgi jozibasi va ta'sir kuchini qo'ldan boy beradi va oqibat, na tarbiyaviy ta'siri bo'ladi, na haqiqatga intiluvchilarning tashnaligini qondiradi, na insoniy fazilat urug'ini undira oladi.

Shunga binoan, bu o'rinda ma'sum rahnamo va yo'l boshchining tutgan yo'li beqiyos bo'lib, u hamisha din ta'limotlarining qo'riqlovchisi sifatida din dasturilamallarining xolis va musaffoligini saqlab qolishda xizmat qiladi hamda yo'ldan og'ishlar, adashishlar, yot va noo'rin qarashlar, asossiz va xurofot aqiydalarining oldini oladi. Agar din mana shunday rahbar va peshvoga ega bo'lmasa, qisqa muddat ichida o'zining asl mohiyati va xolisligini qo'ldan berib qo'yadi.

Hazrati Ali (*alayhis salom*) o'zlarining Nahjul Balog'a nomli kitoblarida bu haqda quyidagicha aytganlar:

«اللَّهُمَّ بَلِي لَا تَخْلُو الْأَرْضُ مِنْ قَائِمٍ لِلَّهِ بِحُجَّةٍ - إِمَّا ظَاهِرًا مَشْهُورًا وَ إِمَّا خَائِفًا مَعْمُورًا - لِنَآلَا تَنْظُلَ حُجَّجَ اللَّهِ وَ بَيِّنَاتُهُ»

«Ha shubhasiz, Allohning hujjatlari va ochiq-oydin belgilari puchga chiqmasin uchun hech vaqt yer yuzi Allohning hujjatini barpo etuvchi shaxsdan; xoh oshkor va zohir holda ko'zga ko'rinadimi yoki xavfli holda (Alloh izni ila) pinhon bo'ladimi, xoli bo'lmaydi.»
(Nahjul Balog'a; 147 – Hikmat).

Darhaqiqat, bu jihatdan imomning qalbi qimmatli hujjatlarni saqlovchi ishonchli sandiqqa o'xshash bo'lib, uning ichidagi qimmatli ashyolar o'g'rilarning hujumidan va turli hodisalardan saqlab qolinadi. Va bu esa imom mavjudligining hikmatlaridan biri hisoblanadi.

* * *

3. Ummatga siyosiy va ijtimoiy rahbarlik qilmoq

Shak-shubhasiz, hech bir jamiyat va hech bir guruh ijtimoiy tuzimsiz va uni boshqaradigan rahbarsiz va yo‘lboshchisiz yashay olmaydi. Shuning uchun, qadim zamonlardan barcha qavm-qabilalar, millat va elatlar o‘zlariga biror shaxsni rahbar va boshliq qilib tayinlashar edi. Gohida ushbu rahbarlar solih insonlar bo‘lsalar, aksari hollarda esa nosolih odamlar bo‘lishgan. Ko‘pincha insonlarning rahbar va yo‘lboshchiga bo‘lgan ehtiyojlaridan foydalanib, amalparast hukmdorlar zo‘ravonlik va makr-hiyla yo‘li bilan o‘z hokimiyatlarini odamlarga majburan singdirishar va hukumatni qo‘lga kiritish va saltanatga erishish uchun turli xil zulm-zo‘ravonlik qilishdan ham qaytmas edilar... Bu bir tomondan.

Boshqa tomondan esa inson ma’naviy kamolotga etishi uchun yolg‘iz emas, balki jamiyat bilan birga harakat qilmog‘i lozim, chunki, har bir shaxsning kuchi tanholikda fikriy, jismoniy, moddiy va ma’naviy nuqtai nazardan juda oz va ojizdir, biroq jamiyatning kuchi esa yuqori darajadadir.

Shunday ekan, butun jamiyat birgalikda kamolot sari yo‘nalishi kerak va bu yo‘lda to‘g‘ri tuzim va qonunchilikka asoslangan jamiyat qurilmog‘i lozim. Mazkur jamiyatda insonlarning iste’dodi gullab-yashnamog‘i, buzg‘unchilik va og‘ishlarga qarshi kurash olib borilmog‘i, hammaning haq-huquqi himoya qilinmog‘i va ulkan maqsadlarga erishish uchun rejalar va dasturilamallar tuzilmog‘i hamda harakatlanish va taraqqiylashishni ozod va erkin muhitda hamma odamlarga singdirilmog‘i lozim.

Biroq xatokor odamzot bunday buyuk vazifani amalga oshirish qudratiga ega bo‘lmagani uchun – o‘z ko‘zimiz bilan doimo dunyoning siyosiy rahbarlari va hukmdorlarining to‘g‘ri yo‘ldan og‘ib, katta xatolarga yo‘l qo‘yganlarining shohidi bo‘lganimizdek – Alloh tarafidan vakil qilib tanlangan ma’sum

va begunoh rahnamo va yo'lboshchining bu muhim ishlarga nazorat qilmog'i darkordir va u insonlar kuchidan va donishmandlarning ilmu fikridan foydalanish bilan birga, buzg'unliklar va adashishlarning oldini olmog'i lozim bo'ladi.

Bu esa imom mavjudligining hikmatlaridan biri bo'lib, «*Qoidai lutf*»ning hissalaridan biri hisoblanadi. Yana bir bora aytib o'tamizki, ma'lum bir sabablarga ko'ra, ma'sum imom ko'zdan g'oyib bo'lgan maxsus zamonlarda insonlarning vazifasi ma'lum bo'lib, biz Allohning irodasi va madadi bilan islom hukumatiga doir masalalarda bu borada mufassal so'z yuritgaymiz.

* * *

4. Hujjatni yakunlash (etkazib qo'yish) zarurligi haqida

Nafaqat to'g'ri yo'lga intiluvchi va hidoyat bo'lishga tayyor insonlar imom vujudining yog'dusida, hidoyat yo'lini topib cheksiz kamolot sari harakatlanishlari kerak, balki to'g'ri yo'ldan adashgan va qasddan hidoyat yo'lidan bo'yin tovlaydiganlarga ham etkazib qo'yib, hujjat o'z nihoyasiga etkazilishi lozim bo'ladi. Shunga asosan, agar ularga jazolash va'dasi berilsa dalil va hujjatsiz bo'lmay, ulardan biror kimsa qiyomatda: «*Agar qo'limizdan tutib, bizni haq yo'lga boshlovchi ilohiy rahbar va yo'lboshchi bo'lganida edi, hargiz biz yo'ldan ozmagan bo'lur edik*» – degan uzr-bahona keltira olmasinlar.

Xulosa qilib aytganda; uzr-bahona keltirishga yo'l qolmaslik uchun hammaga haq yo'l dalillari aniq va etarli miqdorda ko'rsatilishi va bayon etilishi kerak bo'ladi. Biluvchilarning iroda va iymonlari komilroq bo'lishi uchun va bilmaganlar bilib qo'yishlari uchun hujjat bo'lmish imomning o'rni beqiyosdir.

* * *

5. Imom- Allohning buyuk fayzi vositasi

Ulamolarning aksari – islomiy hadislarga tobe o‘laroq, – payg‘ambar va imomning mavjudligini insonlar jamiyatida yoki butun borliq olamda inson organizmdagi yurakka o‘xshatadilar.

Bilamizki, agar yurak ursa butun badanga qon etkazib beradi va badanning butun hujayralarini oziqlantiradi. Ma’sum rahbar insoniyat karvonining boshida ketayotgan komil inson bo‘lib, Alloh tarafidan fayz-rahmat nozil bo‘lishiga sabab bo‘ladi va har bir shaxs naqadar payg‘ambar yoki imom bo‘lmish ilohiy yo‘lboshchi bilan yaqin aloqada bo‘lsa, bu fayzdan ham ko‘proq bahramand bo‘ladi. Aytganimizdek, inson uchun yurak zarur bo‘lgani kabi insoniyat olamining tanida ham bu ilohiy fayz vositasi bo‘lmish ma’sum rahbar va yo‘lboshchining mavjud bo‘lishi zarurdir. (diqqat qiling!)

Albatta, shuni bilib qo‘yish kerakki, imom va payg‘ambarlar boshqalarga biror nima ato etish uchun o‘zlaridan emas, balki har nimani odamlarga bersalar, yolg‘iz Tangri taolo tarafidagina ularga ato etiladi. Inson yuragi uning badani uchun ilohiy fayz vositasi bo‘lganidek, payg‘ambar va imom ham insoniyatning har bir guruhi, tabaqasi va qatlami uchun Allohning fayz vositasi bo‘lib, suv va havodek zarur hisoblanadilar.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Imomning insoniyat ma'naviy kamolot topishidagi o'rni haqida aytib bering.
2. Imom shariatni muhofaza etishda qanday o'ringa ega?
3. Imomning hokimiyat qurib, jamiyatga rahbarlik qilishdagi ahamiyati va o'rni qay darajada?
4. Hujjatni yakunlash yoki etkazib qo'yish zarurligi nima ma'noni anglatadi va imomning bu boradagi vazifasi nima?
5. Fayz vositasi nima degani? Olimlar payg'ambar va imomning jamiyatdagi tutgan mavqeini nimaga o'xshatishadi?

3- DARS:

Imomning maxsus sharoit va sifatлари

Eng avvalo ushbu masalada o‘ta muhim nuqtaga tavajjuh (diqqat) qilmoqlik zarurdir, u esa quyidagidan iborat:

Qur’oni Karim ta’limoti bo‘yicha, «*imomlik martabasi*» bir inson eta olishi mumkin bo‘lgan eng yuqori va ulug‘ maqomdir. Hattoki, «*imomlik martabasi*» «*rasullik*» va «*nabiylik*» maqomidan ham yuksakroqdir. Zero, hazrati Ibrohim *(alayhis salom)* haqlarida nozil bo‘lgan oyatda ushbu haqiqat yaqqol namoyondir:

﴿وَإِذِ ابْتَلَىٰ إِبْرَاهِيمَ رَبُّهُ بِكَلِمَاتٍ فَأَتَمَّهُنَّ قَالَ إِنِّي جَاعِلُكَ لِلنَّاسِ إِمَامًا قَالَ وَمِنْ ذُرِّيَّتِي قَالَ لَا يَبْنَاءُ عَهْدِي الظَّالِمِينَ﴾

«Ibrohimni Parvardigori bir necha so‘zlar bilan imtihon qilgan va u ularni mukammal va batamom ado etgan zamonni eslang. Shunda [Alloh]: «Men albatta, seni odamlarga imom [peshvo va yo‘lboshchi] qilguvchidirman» - dedi. [Ibrohim] «Zurriyotimdan hammi? [Mening zurriyotimdan ham bunday ulug‘ va yuksak maqomga erishadiganlar bo‘ladimi?]]» - deb so‘radi. [Alloh]: «Mening bu ahdim zolimlarga etmaydi» - dedi. [Sening zurriyoting orasidagi zolim kimsalar Mening imomat ahdimga erisha olmaslar.] (Baqara surasi, 124 – oyat).

Shirk va gunohga yo‘l qo‘ygan shaxslar zolim sanalib, bunday yuksak va oliy maqomga hech qachon erisha olmaydilar. Shunga binoan, oyati karimaning ma’no – mazmunidan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: Imomlik mansabi yuqori lavozimlardan bo‘lib, hazrati Ibrohim *(alayhis salom)* nubuvvat va risolat martabasiga erishgach, og‘ir va mushkul imtihon va sinovlardan a‘lo darajada muvaffaqiyatli o‘tgandan

so'ng, ushbu sharafli, ardoqli va yuksak maqomga, ya'ni xalqqa zohiriy va botiniy hamda moddiy va ma'naviy rahbarlik va peshvolik qilish martabasiga ko'tarilganlar.

Demak, hazrati Ibrohim (*alayhis salom*) nabiy va rasul bo'lgan hollarida og'ir va mushkul imtihonlar bilan sinalganlar. Bu sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tgan hazrat Ibrohimga Alloh taolo inoyat qilib «*imomlik mansabi*»ni ato etdi.

Bizning aziz va sevikli payg'ambarimiz hazrati Muhammad Mustafu (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) nabiy va rasul bo'lish bilan birga «*imomlik va peshvolik martabasi*»ga ham ega edilar. Ba'zi payg'ambarlar ham shunday yuksak maqom sohibi bo'lganlar, bu masala bir tomondan.

Boshqa tomondan esa ma'lumki, biror shaxs har bir maqom va mansabni qabul qilib olishi uchun kerakli shart-sharoit va xususiyatlarga ega bo'lib, o'sha mansabga oid vazifalar va mas'uliyatlarga munosib va loyiq bo'lmog'i lozim va o'sha shaxs mazkur mansabni o'z zimmasiga olgach, vazifa va mas'uliyatlarni amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan sharoit va xususiyatlarga ega bo'lmog'i darkor. Demak, maqom va mansab yuqorilashgan sari mas'uliyat va vazifa ham og'irroq bo'ladi va o'shanga qarab kerakli bo'lgan sharoit va xususiyatlar shiddatlashadi.

Masalan; Islom ta'limotida qozilik va muhokama qilish mansabini zimmasiga olgan shaxs yoki namozga imomlik qiluvchi odam, hatto mahkamada shahodat beruvchi oddiy shaxs ham, odil bo'lishi shart qilingan. Shunday ekan, shahodat berish uchun yoki hamd va sura o'qib namozga imomlik qilish uchun odillik shart bo'ladigan bo'lsa, ma'lumki, o'ta muhim va favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan imom va peshvo bo'lishdek yuqori martabaga ega bo'lmoq uchun ham ma'lum shart-sharoitlar kerakligi shubhasizdir.

Quyidagi sharoitlar tamomila imomda mavjud bo'lmog'i zarur:

* * *

1. Sahv-xato va gunohdan pok va ma'sum bo'lmoq

Imom ham payg'ambar kabi ma'sumlik darajasiga ega bo'lishi shart, ya'ni sahv-xato va gunohlardan yiroq va pok bo'lmog'i lozim. Aks holda ummatga rahbar, yo'l boshchi, namuna va o'rnak bo'la olmay, xalqning ishonchi va e'timodini qozona olmaydi.

Imom insonlarning butun vujudini, ruh va qalbini zabt etgan bo'lishi kerak va odamlar uning har bir farmoniga so'zsiz bo'yin sunishlari lozimdir. Agar imomning o'zi sahv-xato va gunohga yo'l qo'yadigan bo'lsa, hech qachon odamlarning ishonchi va e'timodini har jihatdan qo'lga kirita olmay, ularni hidoyat sari boshlay olmayajak.

O'zining kundalik hayotida sahv-xato va adashishlarga duchor bo'ladigan shaxsni qandayiga boshliq va yo'l boshchi qilib olib, jamiyatga nazorat qilish va uni boshqarishni unga topshirib, uning buyruqlarini so'zsiz bajarish mumkin?

Shubhasiz, payg'ambarlar ma'sum bo'lishlari shart va shuningdek, imomlar ham yuqorida keltirgan dalilimizga ko'ra, ma'sum (barcha xato va gunohlardan pok va yiroq) bo'lishlari lozim.

Ushbu masalani boshqa yo'l bilan ham isbotlash mumkin, u esa «*Lutf qoidasi*» bo'lib, payg'ambar va imom mavjud bo'lishining zarurligi ushbu qoidaga asoslanganidek, imomning ma'sumligi ham mazkur qoidaga binoan, isbotlanadi. Negaki, payg'ambar va imomning mavjud bo'lishidan ko'zlangan maqsadlar ma'sumlik darajasiga erishmay turib, amalga

oshmaydi. Oldingi darsda aytganimiz hikmatlar ma'sumlik xususiyatisiz tugallan-may noqis va chala bo'lib qoladi.

* * *

2. Ulkan ilmu ma'rifatga ega bo'lmoq

Imom ham payg'ambar singari ummatning ilmiy panohgohidir. U aqoid va ahkomdan iborat dinning barcha ta'limotidan, Qur'onning zohir va botinidan va payg'ambar sunnatlari hamda islom dini bilan bog'liq hamma masalalardan xabardor bo'lmog'i lozim. Chunki, u ham shariatni muhofaza qiluvchi va ham ummatga rahnamolik qiluvchidir.

Hayotda uchraydigan murakkab masalalarga duch kelganda sarosimaga tushadigan yoki boshqalarga muhtojlik qo'lini uzatadigan va islom jamiyatining talablariga javob bera oladigan ilm va bilimga ega bo'lmagan shaxslar hech qachon ummatga yo'l boshchilik va rahnamolik qilish mas'uliyati-ni zimmalariga qabul qilib ololmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, imom – Allohning dinini bilishda ummatning eng bilimdoni va eng donosi bo'lmog'i lozim va bu ilmiy etukligi bilan Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)*ning bo'sh qolgan o'rinlarini darhol to'ldirib, har qanday og'ish va sahv-xatodan yiroq bo'lgan haqiqiy islomni ildam olib borib, ummatni zalolatga uchrashdan saqlab qolishi kerak.

* * *

3. Shijoat

Imom islom jamiyatida eng qo'rqmas va shijoatli shaxs bo'lishi kerak. Zero, hayotning turli qiyinchiliklarida va og'ir hodisalar ro'y berganda, ummatni olg'a sari etaklovchi rahbar shijoatli bo'lmay iloji yo'q. Zolim va zo'ravonlar, bo'yin tovlovchi qaysarlar hamda islom ummatining ichki va tashqi

dushmanlari qarshisida qo'rqmay jasurlik va shijoat bilan javob qaytara olish imomning xususiyat-laridan biridir.

* * *

4. Zohidlik va dunyoga rag'batsizlik

Bizga ma'lumki, dunyoga va uning zebu ziynatiga o'ch va asir odamlar dunyoga tez aldanib, haq va adolat yo'lidan og'ib ketishlarining ehtimoli juda kattadir. Gohida tamagirlik yo'li bilan va ba'zan esa tahdid orqali bu dunyo asirlarini asl to'g'ri yo'ldan og'dirish mumkin.

Lekin imom dunyo va uning ne'matlari va imkoniyatlari qarshisida «asir» emas, balki «amir» bo'lishi kerak.

U moddiy jahonning turli xil jilvalaridan qutilgan hamda havoyi nafsga tobe bo'lmay, molu davlat va mansab-amalga bog'lanmagan ozod inson bo'lmog'i lozim. Toki, hech kim uni bu narsalar bilan alday olmasin, unga o'z nufuzini o'tkazib, taslim va murosachilik holatiga keltirolmasin.

* * *

5. Jozibadorlik va yuksak axloq sohibi bo'lmoqlik

Quroni Karim hazrati Payg'ambarimizning yuksak axloqlari haqida bunday deydi:

﴿فِيمَا رَحْمَةٍ مِّنَ اللَّهِ لِنْتَ لَهُمْ وَلَوْ كُنْتَ فَظًّا غَلِيظَ الْقَلْبِ لَانفَضُّوا مِنْ حَوْلِكَ فَاعْفُ عَنْهُمْ
وَاسْتَغْفِرْ لَهُمْ وَشَاوِرْهُمْ فِي الْأَمْرِ فَإِذَا عَزَمْتَ فَتَوَكَّلْ عَلَى اللَّهِ إِنَّ اللَّهَ يُحِبُّ الْمُتَوَكِّلِينَ﴾

«Allohning rahmati sababli (Siz, ey, Muhammad,) ularga (sahobalarga) muloyim bo'ldingiz. Agar dag'al, toshbag'ir bo'lganingizda edi, albatta, (ular) atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lur edilar. Demak, ularni afv eting, (gunohlari sababli) ular uchun Allohdan mag'firat so'rang va ular bilan maslahatlashib ish qiling!

(Biror ishga) azmu qaror qilsangiz, Allohga tavakkul qiling! Alloh tavakkul qiluvchilarni sevar.» (Oli Imron surasi; 159 – oyat)

Yuksak axloqqa ega bo'lish nafaqat Payg'ambarimiz uchun, balki imom uchun ham, zarurdir. Zero, imom ham ummatning rahbari sifatida odamlarni o'zi tomon jalb eta olish qudratiga ega bo'lmog'i lozim. Odamlarni esa yaxshi xulq-atvordan o'zga hech bir narsa bunchalik o'ziga jalb qilish qudratiga ega emasdir.

Shubhasiz, insonlarni tarqoqlikka duchor etib, ularni nafratlantiradigan odobsizlik, qo'ppollik va serjahllik xususiyatlari payg'ambar va imom uchun buyuk ayb-nuqson hisoblanadi va ular bunday nuqson va kamchilikdan munazzah (pok)dirlar. Aks holda ular mavjudligining ko'pgina hikmatlari natijasiz va ma'nosiz bo'lib qoladi.

Imom uchun aytib o'tilgan shart-sharoit va sifatlar buyuk ulamolar tarafidan eng muhim va zaruriy deb, uqtilgan.

Albatta yuqorida bayon etilgan besh sifatdan tashqari boshqa sifatlar ham imomda mavjud bo'lishi shart, ammo aytib o'tganlarimiz asosiy shartlardan edi.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Qaysi dalilga asoslanib, «*imomlik martabasi*» insonning eng yuqori maqomlaridan hisoblanadi?
2. Islom payg'ambari va boshqa payg'ambarlar ham «*imomlik maqomi*»ga molik bo'lishgan edimi?
3. Agar ma'sum imom bo'lmasa, qanday mushkul yaraladi?
4. Nimaga imom ulkan ilm va ma'rifat sohibi bo'lmog'i lozim?
5. Qaysi dalilga ko'ra, imom eng shijoatli, eng zohid va odob-axloq nuqtai nazaridan eng xush muomalali inson bo'lishi kerak?

4- DARS:

Imom kim tomonidan tayinlanadi?

Ahli sunnat deb, atalmish bir guruh musulmonlarning e'tiqodicha, islom payg'ambari *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* dunyodan rihlat qilayotganlarida hech kimni o'zlaridan so'ng xalifa, voris va rahbar etib tayinlamaganlar. Ularning aytishlaricha, bu vazifa, ya'ni ummatga xalifa va rahbar tayin qilmoq musulmonlarning zimmasiga yuklangan va ummatning o'zi rahbar va yo'l boshchini saylab olishi kerak. Buning uchun ular shariat dalillaridan biri bo'lmish «**musulmonlar ijmosi**¹» degan g'oyani ilgari surishdi.

Sunniylar e'tiqodicha, xuddi shu tarzda amal qilinib, birinchi xalifa «*ummatning ijmosi*» bilan xalifalik mansabiga saylandi. O'z navbatida birinchi xalifa ham, shaxsan o'zi ikkinchi xalifani ushbu mansabga tayinladi. Va ikkinchi xalifa esa uchinchi xalifani saylash uchun olti kishidan iborat sho'ro (kengash) tayinladi.

Ushbu sho'ro (kengash) quyidagi sahobalardan tashkil topgan edi: Ali *(alayhis salom)*, Usmon ibn Affon, Abdurahmon bin Avf, Talha ibn Ubaydulloh, Zubayr ibn Avom, Sa'd bin Abi Vaqqos.

Bu sho'roning uch nafari – Sa'd bin Abi Vaqqos, Abdurahmon va Talha Usmonga ovoz berishdi. Zero, ikkinchi xalifaning buyrug'iga ko'ra, ushbu olti kishi ikki guruhga bo'linib, uch kishi bir tarafda va qolgan uch nafar boshqa

1. «Musulmonlar ijmosi» deb, musulmonlar o'zaro hamjihatlik va yakdillik bilan qilgan qarori va tanloviga aytiladi.

tomonda bo'lsa, Usmonning kuyovi bo'lmish Abdurahmon tarafidagi uchlikning ra'yi inobatga olinib, shunga binoan, xalifa saylanashi kerak edi!

Usmon xalifalik davrining oxiriga kelib, ma'lum sabablarga ko'ra, musulmonlar xalifaga qarshi bosh ko'tarishdi va Usmon o'zidan keyingi xalifani shaxsan o'zi yoki sho'ro (kengash) tashkil etish orqali tayinla olmay o'ldirildi.

Shundan so'ng, musulmonlarning aksari hazrati Ali (*alayhis salom*)ning yoniga borib ul zotga xalifa va rahbar bo'lishni taklif etib, Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning xalifasi va vorisi sifatida ul hazratga bay'at etishdi. Ammo Shom diyoring hukmdori bo'lmish Muoviya ibn Abu Sufyon esa hazrati Ali (*alayhis salom*)ga bay'at qilishdan bo'yin tovladi. Zero, u yaxshi bilar ediki, agar Ali (*alayhis salom*) hukumat tepasiga kelsa, Muoviyani o'z lavozimidan chetlashtiradi.

Shuning uchun, Muoviya xalifaga qarshi chiqib, ochiqdan ochiq muxolifat qildi va islom tarixida og'ir va o'limli hodisalarni keltirib chiqarib, minglab begunoh inson-larning qoni nohaq to'kilishiga sabab bo'ldi.

Bu o'rinda ko'plab ilmiy va tarixiy masalalar mavjud bo'lib, ularni yoritish maqsadida, ayrim muhim savollarni ilgari surib, ularga javoblarimizni beramiz:

* * *

1. Ummat Payg'ambarning o'rinbosari va vorisini tayinlashga qodirmi?

Bu savolga javob bermoq unchalik qiyin emas. Agar «*imom*» va «*xalifa*» deganda islom ummatiga zohiriy va tashqi tomondan rahbarlik va yo'lboshchilik qilishni nazarda tutsak, u holda xalqning bergan ovoziga tayanib, biror shaxsni xalifa va rahbar qilib tayinlash mumkin va bu uslub dunyoda keng tarqalgan.

Ammo imomat va xilofatga oldingi darsda Qur'oni Karim oyatiga asoslanib, izohlaganimiz ma'noda qaraydi-gan bo'lsak, u holda shak-shubhasiz, Allohdan boshqa hech kim «*imom*» va «*xalifa*»ni tayinlashga qodir emas, hatto Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ham Allohning yo'llagan vahiy asosidagina o'zlaridan keyingi «*imom*» va «*xalifa*»ni e'lon qila oladilar.

Zero, mazkur ma'noga binoan, «*imom*» va «*xalifa*» aqid va ahkomdan iborat barcha islom ta'limotini chuqur va yuksak darajada bilishi shart. Uning ilmi samoviy va ilohiy manbadan ilhom olib, Payg'ambar (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning ilmlariga tayangan bo'lmog'i lozim, to shariati islomiyani qo'riqlay olish quvvatiga ega bo'lsin.

Yana boshqa sharti shundan iboratki, «*imom*» va «*xalifa*» Allohning madadi bilan barcha gunoh va sahv-xatolardan pok va ma'sum bo'lmog'i darkor. To ummatga moddiy va ma'naviy, zohiriy va botiniy jihatdan rahbarlik va yo'l boshchilik qilish vazifasini oliy darajada sharafli o'tay olsin. Va shuningdek, rahbarlik va yo'l boshchilik mas'uliyati uchun zarur bo'lgan zohidlik (dunyoga rag'batsizlik), taqvodorlik, parhizkorlik, shijoat va dovyuraklik xususiyatlariga ega bo'lmog'i lozim.

Ushbu sharoit va xususiyatlar kimda bor yoki yo'qligini aniqlay olish faqat Alloh va Payg'ambarning vositasi bilangina mumkindir va bu haqiqat ulardan boshqasiga ayon emas. Shunga binoan, Allohning O'zigina kimning botinida ma'sumlik nuri va haqiqati borligini biladi va Uning O'zigina rahbarlik va imomlik mansabini egallash uchun zarur bo'lgan ulkan ilm, zohidlik, taqvodorlik, shijoat va jasurlik xususiyatlari kimda mavjudligini va kim bu maqomni egallashga loyiq ekanini biladi va bunday insonni O'zi yo'llagan so'nggi payg'ambari Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) orqali boshqalarga e'lon qiladi.

«Imom» va paygʻambarning «*xalifa va voris*»ini ummatning oʻzi tayinlashi kerak deydi, aslida Qurʻoni Karimda kelgan «*imom*» tushunchasini oʻzgartirishgan. Ular «*imom*» va «*xalifalik*» maqomini odatdagi dunyoviy ishlar boʻyicha, hukmronlik qilib, xalqning dunyoviy ishlarini boshqarish darajasiga tushurib, shu miqdorga cheklab qoʻyishgan. Aks holda, imom va xalifalikning shart-sharoiti va xususiyatlari toʻla-toʻkis holda faqat Alloh taolo vositasi bilangina aniqlay olish mumkinligi shubhasizdir.

Paygʻambarni insonlarning ovoz berishi orqali tanlash mumkin boʻlmay, balki Alloh taolo tomonidan tanlanishi zarur boʻlgani kabi imomni ham odamlarning nazariga tayanib, tanlash mumkin boʻlmagan ishdir. Zero, ham paygʻambarda ham imomda kerakli boʻlgan sifatlarni Allohdan boshqa hech kim belgila olmaydi.

* * *

2. Nahotki, Paygʻambarimiz oʻzlaridan keyin hech kimni xalifa va peshvo etib tayinlamagan boʻlsalar?

Shubhasiz, Islom dini «*jahoniy*» va «*mangu*» dindir, Qurʻoni Karim oyatlarining ochiq-oydin taʼlimotiga koʻra, islom dini maʼlum bir makon va zamonga yoki biror bir millatga xos emas. Shu narsa ham maʼlumki, Paygʻambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) vafot etgan chogʻlarida islom dini Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqmagan edi.

Boshqa tarafdin esa Paygʻambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) muborak umrlarining 13 yili Makkada mushriklar eʼtiqodiga qarshi kurash olib borish bilan oʻtgan boʻlsa, ul zotning qolgan 10 yil umrlari esa hijratdan keyin Madinada Islom hukumatini barpo etish hamda mushriklarga qarshi «*gʻazotlar*» va janglar tashkil qilish bilan sarf boʻlgan edi. Shu bois, Madinada koʻpincha dushmanlarga qarshi janglar roʻy berar va shuning

www.najotkemas.com & www.najotkemas.net

uchun, ko'p vaqtlar dinni mudofaa qilish uchun sarflanar edi.

Garchi Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* kecha-yu kunduz ummatga islom dini ta'limotlarini o'rgatish va targ'ib etish bilan mashg'ul bo'lib, endigina yuzaga kelgan islomni keng qamrovli tanishtirgan bo'lsalar-da, biroq u paytda islomning ko'pgina masalalarini tahlil qilib yoritib berish uchun, ko'proq vaqt lozim edi. Mana shuning uchun ham, payg'ambardan keyin ul zotning o'zlari singari bu og'ir mas'uliyatni o'z zimmasiga ololadigan, payg'ambarning ilmlarini mukammal o'zlashtirgan va ummatning kelajakda yuzaga keladigan savol va masalalarini echa oladigan inson bo'lmog'i lozim.

Bulardan tashqari, kelajakda yuz beradigan holat va vaziyatlarni oldindan ko'ra olish qobiliyati hamda o'z mafkura va g'oyasi davom etishi uchun sharoit va zamin yaratish ham rahbar va etakchi uchun zarur va muhim hisoblanadi. Har bir rahbar va yo'lboshchi ushbu masala xususida fikr yuritadi va bu o'ta muhim va asosiy masala unutilishiga yo'l qo'ymaydi.

Bulardan ko'z yumadigan bo'lsak, hayotning har bir oddiy va sodda masalalarga ahamiyat berib, ularga xos hukmlarni bayon etgan Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* nahotki, musulmonlarga xalifa, rahbar, yo'lboshchi tayinlash masalasiga kelganda hech qanday yo'l-yo'riq va dasturilamal ko'rsatmagan bo'lsalar-a?!

Yuqorida aytilgan muhim masalalar ushbu haqiqatga, ya'ni Payg'ambarimiz o'zlarining o'rinbosarlari va vorislarini tayinlash masalasida, chora-tadbir ko'rganliklari, shubhasiz ekanligiga yorqin dalil bo'ladi. Bu haqda vorid bo'lgan qat'iy hadislarni Xudo xohlasa, kelgusi darslarda ko'rib chiqamiz. Shunda ma'lum bo'ladiki, hargiz Payg'ambarimiz butun umrlari davomida xalifalik va rahbarlik masalasiga nisbatan g'aflatda bo'lmaganlar va hamisha bu hayotiy masalaga chuqur

ahamiyat berganlar. Biroq afsuski, ul zotning vafotlaridan so'ng, siyosiy muxolif jarayon bu haqiqatni berkitib, Payg'ambar (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) o'zlaridan keyingi xalifa va rahbarni tayin etmaganlar, degan tushunchani islom ummatining ongiga singdirishga harakat qilishgan.

Tabuk g'azoti¹ kabi bir necha kunlik «g'azotlar»ga borgan Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) shu qisqa muddat uchun Madina rahbarsiz va yo'l boshchisiz qolmasin, deb o'rinbosar va rahbar tayin qilgan bo'lsalar-u, ammo rihlatlari yaqinlashganida yirik ummatni turli ixtilof va kelishmovchiliklar orasida rahbarsiz va yo'l boshchisiz o'z holiga tashlab qo'yib, islom dini yo'li kelajakda davom etishini ta'minlash uchun xalifa, voris va yo'l boshchi tayinlamay ketishlari mumkinmi?! Shu narsaga qanday qilib ishona olamiz? Qandayiga Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) o'z ummatlarining baxt-saodatini kafolatlamay, tark etib ketishlari mumkin?!

Shubhasiz, islom ummatiga rahbar va yo'l boshchi tayin qilmaslik, endigina oyoqqa turgan islom uchun buyuk xatar va tahdid hisoblanar edi, shuning uchun, Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) bunday xatoga yo'l qo'yishlari mumkin emasligini aql va mantiqqa asoslanib aytishimiz mumkin.

Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) hech kimni xalifa va voris etib tayinlamaganlar va bu ishni ummatning o'ziga tashlab qo'rganlar, deb aytadiganlar hech bo'lmasa gaplariga dalil va hujjat keltirsinlar. Vaholanki, ularning iddaolarini tasdiqlovchi hech qanday dalil va hujjat yo'qdir.

* * *

1. Payg'ambarimizning o'zlari qatnashgan urushga «g'azot» deb aytiladi.

3. Ijmo va sho'ro (kengash)

Faraz qilaylik, Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) xalifa va o'rinbosar tayinlash masalasi xususida hech narsa demay va bu hayotiy masalani e'tiborga olmay, ummatning o'ziga havola qilganlar va «*ijmo*»¹ yo'li bilan xalifa va rahbar tanlamoq musulmonlarning zimmasidagi vazifadir deb bilgan bo'lsinlar. Ammo shunday bo'lgan taqdirda ham birinchi xalifaning saylanishida musulmonlar ijmosiga muvofiq ish ko'rilmadi. Zero, musulmonlar ijmosining ma'nosi ularning qilgan ittifoqi, hamjihatlik va yakdillik bilan qilgan qarori va tanlovi demakdir. Birinchi xalifaning saylanishida faqat Madinada hozir bo'lgan bir guruh sahobalargina bu «*saylovda*» qatnashishdi va ularning qilgan qaroriga ko'ra, Abu Bakr birinchi xalifa etib saylandi. Ammo boshqa shahardagi musulmonlar bu «*saylovda*» qatnashmadilar. Boshqa shaharlarni qo'yavering, hatto Madinada bo'lgan hazrati Ali (*alayhis salom*) va ul hazratning boshchiligidagi bir toifa buyuk sahobalar hamda bani Hoshim toifasi bu «*saylovda*» aslo qatnashmaganlar. Shunday ekan, qanday qilib bunday saylovni «*musulmonlar ijmosi*», deb ayta olamiz?

Agar «*saylov*» yo'li bilan xalifa, o'rinbosar va rahbar tanlash sahiih va to'g'ri bo'lsa, nimaga birinchi xalifa o'zidan keyingi xalifani tayinlash uchun, bu uslubdan foydalanmay, o'zi shaxsan ikkinchi xalifani tayinlab ketdi? Agar xalifa tanlash bir odamning xohishi va istagiga ko'ra amalga oshadigan hamda uning tanlovi xalifani tayinlash uchun kifoya qiladigan bo'lsa, Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) bu ishga (xalifa va voris tayin etishga) hammadan ko'ra haqliroq va ustunroq emasmidilar? Agar maboda xalifa tayinlanishidan so'ng,

1. «*Musulmonlar ijmosi*» deb, musulmonlar o'zaro hamjihatlik va yakdillik bilan qilgan qarori va tanloviga aytiladi.

musulmonlarning unga qilgan bay'at-qasamyodlari, bu muammo va mushkulni hal qiladi, deydi bo'lsalar, Payg'ambarimiz haqlarida bu mushkul va muammo yaxshiroq hal bo'lardi-ku! Ya'ni G'adiyri Xumda sarvari olam hazrati Ali (*alayhis salom*)ni o'zlaridan so'ng xalifa va voris etib tanlashlari bilan u yerda to'plangan barcha musulmonlar ul zotga bay'at etishgach, hazrati Ali (*alayhis salom*)ni xalifa va peshvo deb tan olish hammaga vojib edi. Ammo afsuski, sarvari koinotning vafotlaridan so'ng ayrim nopok rejalar asosida ko'pchilik sahobalar g'aflatda qolib, hazrati Ali (*alayhis salom*)ga qilgan bay'atlarini unutadilar.

Bundan tashqari uchinchi xalifani tanlashda yana bir muammo va mushkul yuzaga keladi. U ham bo'lsa, nega ikkinchi xalifa Umar ibn Xattob o'zidan keyingi xalifa va rahbarni tanlashda na birinchi xalifa saylangan yo'ldan, ya'ni musulmonlar saylovi va ijmosi yo'lidan va na o'zi saylangan yo'ldan, ya'ni bir shaxsning xohishi va tanlovi yo'lidan foydalanmay, olti kishilik sho'ro (kengash) tuzishni ixtiyor qildi, oldingi ikki yo'l va uslubni chetga surib qo'ydi?

Asosan, agar sho'ro yo'li bilan xalifa va rahbar tanlash to'g'ri bo'lsa, nima uchun bu sho'ro faqat olti kishidan iborat bo'lishi kerak ekan? Va nimaga endi bu olti kishidan uch kishining bergan ovozi etarli bo'lar ekan?

Bu savollar, islom tarixini mutolaa qilib, ro'y bergan voqealarni ko'zdan kechiradigan har bir tadqiqotchi uchun tug'iladi. Bu savollarning javobsiz qolganligi esa imom va xalifani tayinlash ummatning qo'lida emasligini, hamda qo'llanilgan yo'llar va uslublarning hammasi noto'g'ri va nodurust ekanligini anglatadi.

* * *

4. Ali (*alayhis salom*) hammadan ko'ra loyiqroq edi

Faraz qilaylik, Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) o'zlaridan keyin hech kimni xalifa, o'rinbosar va rahbar etib tayinlamaganlar va bu o'ta mushkul ish islom ummatining zimmasiga yuklangan, u holda ummat o'zi uchun rahbar va yo'l boshchi tanlayotganda ilm, taqvo va boshqa ustunliklarda hammadan yuqoriroq martabada bo'lgan insonni chetlab o'tib, undan ancha quyiroyq martabada bo'lgan shaxslarni etakchi va rahnamo etib tayinlashi to'g'ri ish hisoblanadimi?!

Ulamolarning aksariyati hatto ahli sunnatdan bo'lganlari ham hazrati Ali (*alayhis salom*)ning islom dini ilmlari va ta'limotlarini bilishda sahobalar orasida eng bilimdon va hammadan ko'ra olimroq, deb e'tirof etishadi. Ul zotdan qolgan ilmiy rivoyatlar va tarixiy voqealarning guvohlik berishicha, Ali (*alayhis salom*) ilmda hammadan ko'ra afzal va ustun edi. Islom tarixida aytilishicha; qachonki, islom ummati va sahobalar ilmiy mushkullar va muammolarga duchor bo'lishsa, ul hazrat ularning panohgohi bo'lib, mazkur muammolarni ularga hal qilib beruvchi edi. Hatto xalifalardan ilmiy murakkab masalalar so'ralganda, ular Ali (*alayhis salom*)ga yuzlanar edilar.

Ali (*alayhis salom*)ning shijoati, dovyurakligi, taqvosi, zohidligi va qolgan yuksak sifatleri uni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlar bo'lib, mazkur sifatlarga ega bo'lishda hammadan ustun edi. Shuning uchun, ummat o'ziga xalifa, rahnamo va etakchi tanlab olishi kerak bo'lgan taqdirda ham Ali (*alayhis salom*)ni tanlash zarur bo'lar edi. Negaki, ul zot bu maqomga hammadan ko'ra, loyiqroq va sazovorroq edi. Albatta, bu da'vomizga juda ko'plab dalil va hujjatlar mavjud bo'lib, bu muxtasar bayon etilayotgan o'rinda ularning hammasini keltira olmaymiz.

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Nima uchun odamlarning o‘zi payg‘ambarning xalifasi va imomni tanlashga qodir emaslar?
2. Aql va mantiqning aytishicha, Payg‘ambarimiz o‘zlaridan keyin ummatga xalifa va rahbar tayin qilganlarmi yoki yo‘qmi?
3. Avvalgi uch xalifaning saylanish yo‘llarini aytib bering.
4. Xalifalarning saylanish yo‘llari ilmiy va islomiy me‘yorlarga muvofiq holda bo‘lgan edimi?
5. Qaysi dalillarga ko‘ra, Ali (*alayhis salom*) hammadan ham rahbarlikka loyiqroq va haqliroq edi?

5- DARS: Qur'on va imomat

Qur'on bu biz musulmonlarning buyuk samoviy va ilohiy kitobimiz bo'lib, har taraflama hidoyatga boshlovchi va har qanday mushkul va muammoni hal qiladigan bebaho manbadir. Qur'oni Karim imomat masalasida ham chuqur ma'no-mafhumni bayon aylab, imomatning turli qirralarini izohlagan. Biz bu buyuk kitobga murojaat qilib, imomatga oid turli-tuman shubhalarni hal qila olamiz.

* * *

1. Qur'on imomatni Alloh tarafidan deb biladi:

Oldingi bahslarda but sindiruvchi va qahramon bo'lmish hazrati Ibrohim *(alayhis salom)* qissalarini ko'rib chiqqan edik. Qur'oni Karim hazrati Ibrohim *(alayhis salom)*ning imomat va peshvolik martabasiga erishishlarini rasul va nabiylk maqomiga noil bo'lgach, og'ir va qiyin imtihon va sinovlardan yaxshi o'tganlaridan so'ng, deb uqtiradi, ya'ni ul zot rasul va nabiyl bo'lganlaridan so'ng, buyuk va og'ir imtihon va sinovlardan oliyl va sharafli o'tganlaridan keyin, imomlik martabasiga ko'tarilgan edilar. Alloh taolo Qur'oni Karimda bu haqda shunday marhamat qiladi:

﴿وَإِذِ ابْتَلَىٰ إِبْرَاهِيمَ رَبُّهُ بِكَلِمَاتٍ فَأَتَمَّهُنَّ قَالَ إِنِّي جَاعِلُكَ لِلنَّاسِ إِمَامًا قَالَ وَمِنْ ذُرِّيَّتِي قَالَ لَا يَنَالُ عَهْدِي الظَّالِمِينَ﴾

«Eslang: Ibrohimni Parvardigori bir necha so'zlar bilan imtihon qilganida, u ularni mukammal va batamom ado etdi. Shunda (Alloh): «Men albatta, seni odamlarga imom (peshvo) qilguvchidirman» -

dedi. (Ibrohim) «Zurriyotimdan hammi? (Mening zurriyotimdan ham bunday ulug' va yuksak maqomga erishadiganlar bo'ladimi?)» - deb so'radi. (Alloh) aytdi: «Zolimlar Mening ahdimga hargiz erisha olmaslar. (sening zurriyoting orasidagi zolim kimsalar Mening imomat ahdimga erisha olmaslar.)» (Baqara surasi; 124 – oyat)

Turli Qur'oniylar va tarixiy xujjatlarning guvohlik berishicha, hazrati Ibrohim *(alayhis salom)* Bobul butparastlariga qarshi kurashish, Shom diyoriga hijrat qilish, Ka'ba uyini qurmoq hamda o'z o'g'illari hazrati Ismoil *(alayhis salom)*ni qurbongohga eltib, qurbon qilish ishlarini o'ta mukammal va sharafli bajarganlaridan so'ng ushbu imomat va peshvolik martabasiga erishdilar.

Nabiylik va rasullik maqomi Xudo tarafidan tayinlanadigan bo'lsa, xalqni har tomonlama boshqarish va rahnamolik qilish bo'lgan rahbarlikning eng takomil topgan cho'qqisi hisoblanmish imomlik va peshvolik martabasi ham, Alloh tarafidan tayinlanishga sazovorroqdir va bu yuksak mas'uliyat odamlar saylashi bilan aniqlanishi mumkin emasdir.

Qur'on imomat maqomi tayin etilishi borasida shunday deydi: *إِنِّي جَاعِلُكَ لِلنَّاسِ إِمَامًا* «Men seni odamlarga imom (peshvo) qiluvchiman», ya'ni Allohning o'zi hazrati Ibrohim *(alayhis salom)*ni imom va peshvo etib tanladi.

Va shuningdek, Qur'oni Karimning Anbiyo surasida Allohning buyuk payg'ambarlari haqida ularning imom va peshvo qilinganliklari aytiladi:

﴿وَوَهَبْنَا لَهُ إِسْحَاقَ وَيَعْقُوبَ نَافِلَةً وَكُلًّا جَعَلْنَا صَالِحِينَ ﴿١٠١﴾ وَجَعَلْنَاهُمْ أَئِمَّةً يَهْتَدُونَ بِأَمْرِنَا وَأَوْحَيْنَا إِلَيْهِمْ فِعْلَ الْخَيْرَاتِ وَإِقَامَ الصَّلَاةِ وَإِيتَاءَ الزَّكَاةِ وَكَانُوا لَنَا عَابِدِينَ ﴿١٠٢﴾﴾

«Biz (Ibrohimga) Ishoqni hadya etdik va Ya'qubni ham (nabira qilib) qo'shib berdik hamda barchalarini solih kishilar qildik.» (Anbiyo surasi; 72 – oyat.)

«Va ularni Bizning amrimiz bilan (odamlarni) hidoyat etadigan imomlar va peshvolar qildik va ularga yaxshi amallar qilishni, namozni to'la ado etishni va zakot berishni vahiy qildik. Ular Bizgagina ibodat qiluvchi bo'ldilar.» (Anbiyo surasi; 73 – oyat).

Yuqorida keltirilganimiz oyatlardan va shu oyatlarga o'xshashlardan ma'lum bo'lishicha, imomlik va peshvolik martabasi faqat Alloh taolo tarafidan tayin etilishi lozim.

Bundan tashqari, hazrati Ibrohim (*alayhis salom*) imom va peshvo bo'lganliklari haqidagi oyati karimaning davomida ul zot o'z nasllari va zurriyotlaridan bo'lgan ayrim insonlarning ham ushbu yuksak martabaga noil bo'lishlarini Tangri taolodan so'raydilar. Alloh taolo hazrati Ibrohim (*alayhis salom*)ga javoban shunday buyuradi: لَا يَنَالُ عَهْدِي الظَّالِمِينَ «Zolimlar Mening ahdimga hargiz erisha olmaslar», ya'ni sening duo va tilaging Allohning dargohiga mustajob bo'ldi. Ammo sening zurriyoting orasidagi gunoh va zulmga yo'l qo'ygan kimsalar, Mening imomat ahdimga (bu yuksak va yuqori maqomga) erisha olmaslar. Demak, bu martaba va maqom zulm qilmaganlarga ato etilishi aytiladi. Bu yerda zulm deyilganda, turli xil gunoh nazarda tutilib, imom har qanday gunohlardan pok va ma'sum ekanligiga ishora etiladi.

Ushbu oyati karimaning ma'no-mazmunini chuqurroq tushunib etish uchun asrimizning buyuk tafsirchi olimi Alloma Tabotaboyning ushbu oyat tafsiriga doir fikrlarini o'rganib chiqamiz. U kishining bayoniga ko'ra, hazrati Ibrohim (*alayhis salom*)ning zurriyotlarini to'rt toifaga bo'lish mumkin:

1. Hayotining avvalidan oxiriga qadar gunohkor bo'lganlar, ya'ni Qur'on ta'biri bo'yicha, butun umri davomida zolim bo'lib o'tganlar.

2. Butun umri bo'yilab pok va ma'sum holda yashagan va hech qachon biror gunohga qo'l urmagan kishilar.

3. Hayotining avvalida gunohkor va zolim bo'lgan, lekin umrining oxirida tavba qilib pok bo'lgan kishilar.

4. Hayotining avvalida pok bo'lgan, biroq umrining oxirlarida gunohga yo'l qo'ygan kishilar, ya'ni avvalida solih kishilar bo'lib, keyinchalik zolim va gunohkor bo'lganlar.

Shubhasiz, hazrati Ibrohim (*alayhis salom*) Alloh taolodan imomat maqomini birinchi va to'rtinchi toifadagi zurriyotlariga ato etishni so'ramaganlar. Zero, bunday narsani Alloh taolodan so'rash ul zotning nabiyluk sha'nlariga to'g'ri kelmaydi va asosan ul hazratning sha'n va manzilatlariga bunday narsani so'rashdan pok va yuksakdir. Demak, qat'iyon hazrati Ibrohim (*alayhis salom*)ning Allohdan so'ragan xohishlari bu ikki toifani o'z ichiga qamrab olmaydi.

Shuning uchun, faqat ul hazratning ikkinchi va uchinchi toifadagi nasllarigina imomat maqomiga eta oladiganlar sirasiga kiradi; yo butun umri davomida pok yashab, hech bir zulm va gunohga yo'l qo'ymagan kishilar yoki umrining avvalida zulm va gunoh qilgan, ammo oxiriga kelib tavba qilish bilan pok bo'lgan kishilar. Hazrati Ibrohim (*alayhis salom*) Alloh taolodan bu ikki toifa nasllariga imomat maqomini ato etishini so'radilar va Alloh taolo esa faqat ularning bir toifasigagina imomat maqomini ato etishni ijobat qildi. Bu toifa butun umri bo'ylab hech bir gunoh va ma'siyatga yo'l qo'ymagan ma'sum zotlardir. Ammo Alloh taolo yuqoridagi oyati karimada: «Zolimlar Mening ahdimga hargiz erisha olmaslar» deb hayotining avvalida gunohkor va zolim bo'lgan va so'ngra tavba qilib pok bo'lgan kishilarning imomat maqomiga etishini rad etgan.¹

1. Alloma Sayyid Muhammad Husayn At-Tabotabo'iy, Al-Miyzon fiy tafsirril Qur'on, 1 – jild, 270 – bet, nashr markazi: Bayrut, Muassasatul a'lamiy lil-matbuot nashriyoti.

Lug'atda va shuningdek, Qur'on mantig'ida zolim so'zining ma'nosi keng qamrovli bo'lib, butun gunohlarni xoh oshkor shirk bo'lsin, xoh maxfiy va yashirin shirk bo'lsin yoki o'ziga yo boshqalarga ravo ko'radigan har qanday zulm-sitam bo'lishidan qat'iy nazar, hammasini o'z ichiga oladi va bu haqiqatni Allohdan o'zga hech kim to'liq bila olmasligini nazarda tutgan holda shu xulosaga kelamizki, imomlik va xalifalik martabasini faqat Alloh taoloning O'zigina tayinla oladi. Negaki, faqat Uning O'zigina insonlarning niyatidan va ularning botinidan xabardordir.

* * *

2. Tablig' oyati

Moida surasining quyidagi oyatiga e'tiboringizni jalb etamiz:

﴿بَا أَيُّهَا الرَّسُولُ بَلِّغْ مَا أُنزِلَ إِلَيْكَ مِنْ رَبِّكَ وَإِنْ لَمْ تَفْعَلْ فَمَا بَلَغْتَ رِسَالَتَهُ وَاللَّهُ يَعْصِمُكَ مِنَ النَّاسِ إِنَّ اللَّهَ لَا يَهْدِي الْقَوْمَ الْكَافِرِينَ﴾

«Ey, Rasul! Rabbingizdan Sizga nozil qilingan narsani (odamlarga) etkazing! Agar (bu ishni) qilmasangiz, Uning risolatini (payg'ambarlik vazifasini) oxiriga etkazmagan bo'lursiz. Alloh Sizni odamlar(ning muhtamal xatari va zarari)dan saqlagay. Albatta, Alloh kofirlar qavmini hidoyat sari yo'llamagay.» (Odamlarning dushmanliklaridan qo'rqmang, Alloh o'zi himoya qiluvchidir. Bordi-yu, e'lon qilmasangiz, risolatni, ya'ni payg'ambarlik vazifasini oxiriga etkazmagan bo'lursiz.) (Moida surasi; 67 – oyat)

Oyatning tahdid ohangidan muhim va og'ir bir ish va ma'muriyat haqida suhbat ketayotganligini hamda bu og'ir ma'muriyat Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam)ning zimmalariga yuklanganligini tushunish mumkin. Zero, agar bu ma'muriyat amalga oshirilmasa, Payg'ambarimiz shuncha yillik chekkan azoblari va mashaqqatlari befoyda bo'lib qolar edi.

Shu bois, ma'lum bir xavotirlanishlar ul hazratni har tomondan qamrab olgan bir paytda, bu shunday xabar ediki, uni odamlarga etkazish oson ish emas edi. Negaki, bir toifa musulmonlar ushbu xabarni eshitishlari bilanoq, oshkora qarshilik ko'rsatishlari mumkin edi. Shuning uchun, Alloh taolo mazkur oyati karimada, Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* ga ushbu ma'muriyatni etkazishlarini ta'kidlagan holda buyuradi va ul hazratga muhtamal xavf-xatarlar va xavotirlanishlar barobarida ishonch bag'ishlaydi.

Aniqki, bu muhim masala shirk va tavhid yoki yahud va munofiqlar kabi dushmanlarga qarshi kurashish haqida emas edi, negaki, o'sha vaqtga qadar, ya'ni Moida surasi nozil bo'lgan paytda bu masala butunlay hal bo'lgan edi.

Islom dinining oddiy va sodda ahkomini etkazish esa, bu qadar xavotirlanish va ahamiyatga ega emas edi. Zeroki, yuqoridagi oyatning ma'nosiga qaraganda, ushbu masalaning ahamiyati risolat va payg'ambarlikka teng va barobar keladigan bo'lib, uni etkazmaslik payg'ambarlik vazifasi va haqqini ado etmaslik bilan barobar bo'lar edi. Aytgan so'zlarimizni inobatga olgan holda mana shu o'ta muhim masala, Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* ning xalifa va vorislarini tayin etishdan boshqa narsa bo'la oladimi? Alalxusus, ushbu oyati karima Rasululloh *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* hayotlarining oxirlarida nozil bo'lganini va xalifalik masalasi payg'ambarlikka monand va uyg'un ekanligini nazarga olsak, Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* ning nabiyluk va rasullik martabalarining davomi bo'lmish xalifalik va o'rinbosarlikdan o'zga masala bo'lishi mumkinmi?

Bunga ilova, yana bu haqda ko'plab hadislar Payg'ambarimiz *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* ning ko'pgina sahobalari tarafidan rivoyat qilinganini hisobga olsak, hech bir shakshubhaga o'rin qolmaydi. Jumladan; Zayd bin Arqam, Abu Said

Xudriy, Ibn Abbos, Jobir ibn Abdulloh Ansoriy, Abu Hurayra, Huzayfa va Abdulloh ibn Mas'udlarni sanab o'tishimiz mumkin. Ushbu hadislardan ba'zilar o'n bir sanad va uslubda bizga etib kelgan bo'lib tafsirchi, hadischi va tarixchi olimlardan iborat ahli sunnat ulamolaridan buyuk bir guruh mazkur hadislarni rivoyat qilib, yuqoridagi oyati karima G'adiyr kunida hazrati Ali (*alayhis salom*)ning xalifa va peshvoliklari haqida nozil bo'lganini ta'kidlashgan.¹

Demak, juda ko'p sondagi hadislarga asosan, yuqoridagi oyati karima hajjatul vido (so'nggi vidolashuv haji)dan qaytib kelayotganda, Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ga «G'adiyri Xum»² nomli makonda hazrati Ali (*alayhis salom*)ning xilofat va imomatlari haqida nozil bo'lgan.

Biz «G'adiyr» haqidagi voqeani Allohning iznu irodasi bilan, «hadislar va sunnat» haqida bahs yuritganimizda, aytib o'tamiz. Bu yerda faqat shu narsani eslatib o'tamizki, yuqoridagi oyati karima sarvari olam Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) muborak umrlarining oxirida so'nggi hajdan qaytib, kelayotganlarida, hammaga Ali (*alayhis salom*)ni rasmiy ravishda o'zlaridan keyingi xalifa va rahbar sifatida tanishtirib, tayinlashga ma'mur etilganliklariga ochiq dalildir.



1. Bu borada chuqurroq ma'lumot olish uchun «Ihqoqul Haq», «Al-G'adiyr», «Al-Murojaot» va «Daloilus- sidq» kitoblariga murojaat qilishingiz mumkin.

2. «G'adiyr» so'zi arabchada «ko'l» ma'nosini anglatadi. «G'adiyri Xum»ning ma'nosi Xum nomli ko'l bo'lib, hojilar haj safaridan qaytayotganlarida o'sha erda to'xtab dam olganlar.

3. «Boshliqlarga itoat qiling» oyati

Niso surasining 59-oyatida bunday deyiladi:

﴿يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا أَطِيعُوا اللَّهَ وَأَطِيعُوا الرَّسُولَ وَأُولِي الْأَمْرِ مِنْكُمْ فَإِن تَنَازَعْتُمْ فِي شَيْءٍ فَرُدُّوهُ إِلَى اللَّهِ وَالرَّسُولِ إِن كُنتُمْ تُؤْمِنُونَ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ ذَلِكَ خَيْرٌ وَأَحْسَنُ تَأْوِيلًا﴾

«Ey, mo'minlar! Allohga itoat etingiz, Payg'ambarga va o'zlaringizdan bo'lmish ish egalari (rahbarlar va boshliqlar)ga itoat etingiz! Bordi-yu, biror narsada kelisha olmay qolsangiz, uni Allohga va Rasulga havola qilingiz, agar Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz. Mana shu yaxshiroq va yechimi chiroyliroq (ish)dir.» (Niso surasi, 59 – oyat)

Ushbu oyati karimada ish egalari bo'lmish boshliqlarga itoat qilmoq, mutlaq va hech bir qayd-shartsiz, Alloh va Uning Rasuliga itoat qilish bilan yonma-yon kelgan.

Bu oyatda aytilgan boshliqlar va rahbarlar kimlardir? Ya'ni har bir zamon va sharoitda hukumat tepasiga kelgan har qanday hukmdor va rahbarlar nazarda tutilganmi? Unday bo'lsa, bugungi kunda bizning asrimizdagi har bir o'lkaning musulmonlari o'z yurtlaridagi barcha hokimlarga so'zsiz itoat qilib, ularga bo'yin egishlari kerak ekanligi kelib chiqmaydimi? (Bunday tushunchani Ahli sunnatning bir toifa tafsirchi ulamolari bildirganlar.)

Ammo bu tushuncha hech bir aql va mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Zero, bu haqiqat hech kimga sir emaski, turli makon va zamonlarda hukmronlik qilganlarning aksari fosiq, buzg'unchi, yo'ldan og'gan, qaram va zolim bo'lib o'tishgan.

Yoki yuqoridagi oyati karimadan ko'zlangan ma'no-mafhum; shariati islomiya hukmlariga qarshi va xilof ish ko'rmaydigan hukmdorlarga bo'yin egib itoat qilmoqlikmi? Bu tushuncha ham oyatning qayd-shartsiz va mutlaq kelganiga uyg'un va munosib emas.

Yoxud ushbu oyati karimada maxsusdan, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning sahobalariga itoat qilmoqlik nazarda tutilganmi? Bu ehtimol ham oyatning butun asr va zamonlarni qamrab oluvchi keng ko'lamli ma'no-mahfumiga munosib va uyg'un emas.

Binobarin, oshkora tushunib etamizki, yuqoridagi oyati karimadan har bir asr va zamonda mavjud bo'lgan ma'sum imom va peshvolarga ergashib, ularga bo'yin sunish nazarda tutilgan. Ma'sum imom va peshvolarga itoat qilmoq qayd-shartsiz vojib bo'lib, ularning farmoni Alloh va Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning farmoni singari itoat qilinishi farz va lozimdir.

Islom manbalarida bu xususda vorid bo'lgan ko'plab hadislarda oyatdagi «boshliqlar» va «rahbarlar» hazrati Ali (*alayhis salom*) va ul zotning zurriyotidan bo'lgan ma'sum imomlar ekanligi oshkora aytilgan.¹ Demak, ko'pgina hadislarga va aqliy dalillarga tayangan holda oyatdagi itoat qilinishi farz va vojib bo'lgan boshliqlar – bu ma'sum imomlar ekanligi yaqqol ma'lum bo'ladi.

* * *

4. Rahnamo va yo'l boshchi haqidagi oyat

Moida surasining 55 – oyatida bunday deyilgan:

﴿إِنَّمَا وَلِيُّكُمُ اللَّهُ وَرَسُولُهُ وَالَّذِينَ آمَنُوا الَّذِينَ يُقِيمُونَ الصَّلَاةَ وَيُؤْتُونَ الزَّكَاةَ وَهُمْ رَاكِعُونَ﴾

«Darvoqe, sizlarning valiyingiz (rahbar va yo'l boshchingiz) faqatgina Alloh, Uning Rasuli va iymon keltirganlardir, ular namozni to'kis ado etadigan va ruku' qilgan hollarida zakot beradigan

1. Turli tafsir kitoblarida ushbu oyati karima ostida keltirilgan hadislarni ko'rib chiqishingiz mumkin.

zotlardir.» (Moida surasi; 55 – oyat).

Alloh taolo Qur’oni Karimda arab tilida ta’kidlash va cheklab qo’yish ma’nosini ifodalovchi *إِنَّمَا* «*faqatgina*» so’zini keltirish bilan musulmonlarning valiyisi, rahnamosi va yo’lboshchisi faqat uch shaxsdan iborat ekanligini uqtiradi. Ular: Tangri taolo, Uning yo’llagan elchisi (Payg’ambarimiz) va imon keltirganlardir. Bu uchunchi guruh ruku’ qilgan hollarida zakot berurlar.

Yuqoridagi oyati karimaning hazrati Ali (*alayhis salom*) sha’niga nozil bo’lganligi haqida hech qanday shak-shubha yo’qdir va Qur’on mufasssirlarining aksari bu haqiqatni tan olishgan. Va shuningdek, hech bir shak-shubhaga o’rin yo’qki, mazkur oyatdagi «*valiy*» so’zining ma’nosi musulmonlarning o’zaro «*do’st*» ekanliklari emas. Ba’zilar oyatdagi «*valiy*» so’zini «*do’st*» deb, tarjima qilishlari to’g’ri ish bo’lmagan. Negaki, hamma musulmonlar bir-birlariga do’ctdirlar va ularning ommaviy do’stliklarini bayon etish uchun, ta’kidlash va hasr (cheklab qo’yish) kalimasidan foydalanishga va ruku’ qilgan holda, zakot berishni aytishga hech qanday hojat yo’qdir. Chunki, musulmonlar, agarchi ruku’ qilgan hollarida zakot bermasalar-da, bir-birlari bilan do’stdirlar.

Bundan tashqari, mazkur oyatni hazrati Ali (*alayhis salom*) sha’nlariga nozil bo’lganini nazarga olsak, qandayiga oyati karimada «*faqatgina*» Alloh, Uning Payg’ambari va imom Ali sizlarning «*do’stingiz*», deb aytilgan, deya olamiz?¹ Demak, bundan ayon bo’ladiki, bu oyati karimadagi «*valiy*» so’zi «*yo’lboshchi*», «*peshvo*» va «*rahnamo*» ma’nosida kelgan.

1. Mo’min va musulmonlar bir-birlari bilan do’st ekanliklariga ushbu oyati karima dalolat qiladi: ﴿وَالْمُؤْمِنُونَ وَالْمُؤْمِنَاتُ بَعْضُهُمْ أَوْلِيَاءُ بَعْضٍ﴾ «*Mo’min erkaklar va mo’mina ayollar bir-birlariga do’stdirlar.*» (Tavba surasi, 71 – oyat)

Ayniqsa, Xudo va Uning Rasulining valiyliklari bilan bir qatorda hazrati Ali *(alayhis salom)* ning valiyligi kelganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Yana bir masala bu haqda yaqqol ma'lumki, ushbu oyati karimada zikr etilgan xususiyatlar ruku' qiluvchi holda zakot bergan muayyan shaxsga ishora qilmoqda. Aks holda inson namozning rukusida zakot berishi zarur va vojib emas. Darhaqiqat, bu yerda rahbarning sifati va xususiyati emas, balki rahbarning alomati va belgisi zikr qilingan. Ya'ni «*valiy va yo 'lboshchingiz ruku' qilayotganda ham zakot to'laydilar*» emas, balki «*ruku' qilayotib, zakotini bergan inson (hazrati Ali (alayhis salom)) sizning valiy va yo 'lboshchingiz*» deganidir.

Aytilgan belgi-nishonalar to'plamining ko'rsatishicha, mazkur oyati karima hazrati Ali *(alayhis salom)* haqlarida nozil qilingan bo'lib, ul zotning to'g'rilarida ro'y bergan voqeaga ma'noli ishoradir. Hazrati Ali *(alayhis salom)* va musulmonlar masjidida namoz o'qiyotganlarida, bir yo'qsil tilanchi kelib: «*ey musulmonlar, men muhtoj va miskinman, menga yordam beringlar*» – dedi. Hech kim unga yordam qo'lini cho'zmad. Shunda hazrati Ali *(alayhis salom)* ruku'da turgan hollarida, kichik barmoqlaridagi uzuklariga ishora qildilar va tilanchi yaqin kelib, barmoqlaridagi qimmatli uzukni olib chiqib ketdi. Namozda turgan Rasululloh *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* voqeaning qay tarzda yuz berganini payqadilar. Namozdan so'ng, ul hazrat muborak yuzlarini samoga tutib, shunday dedilar:

«*Allohim, hazrati Muso (alayhis salom) Sendan qalbini kengaytirishingni, ishlari o'ngidan kelib osonlashishini, tilidagi tugunini ketkazishingni va birodari Horunni unga vazir va yordamchi qilib berishingni so'radi... Ey Tangrim, Men Muhammad payg'ambaring va Sening tanlagan bandangman, mening ham qalbimni kengaytir, ishlarimni oson qil va xonadonim ahlidan bo'lgan*

Alini menga vazir qilgin, toki, u bilan belimni quvvatlantirib mahkamlantirgin...»

Hali ul hazratning duolari tugamasdan hazrati Jabroil (*alayhis salom*) tushib, yuqoridagi oyati karimani Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ga keltirdilar.

Qizig'i shundaki, ahli sunnatning yirik mufassirlari, buyuk tarixchi va muhaddis olimlarining aksariyati, ushbu oyatning hazrati Ali (*alayhis salom*) haqlarida nozil bo'lganligini aytganlar va sonlari o'n nafardan ortiq sahobalardan bir toifa shaxsan o'zlari ushbu hadisni Payg'ambarimizdan rivoyat qilganlar.¹

Imomat va viloyat (peshvolik) haqida ko'plab oyatlar mavjud, ammo biz bu muxtasar bayonimizda faqat yuqoridagi to'rt oyatga kifoyalandik.

* * *

1. Ko'proq ma'lumot olish uchun qimmatli Al-Murojaot kitobiga murojaat qiling.

O'ylab javob bering:

1. Qur'on nuqtai nazaridan imomni tayinlash kimning qo'lidadir?
2. Tablig' oyati qanday sharoitda nozil bo'lgan va uning mazmuni nima haqidadir?
3. Kimning buyrug'iga hech bir qayd-shartsiz va so'zsiz bo'ysunish ma'qul va to'g'ridir?
4. Qaysi dalilga ko'ra, ﴿إِنَّمَا وَلِيُّكُمُ اللَّهُ...﴾ oyati imomat va peshvolik haqidadir?
5. Qur'ondagi hamma imomat va viloyat (peshvolik) haqidagi oyatlardan qanday natijaga kelish mumkin?

6- DARS:

Imomat Payg'ambarimiz sunnatlarida

Hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning muborak hadislariga oid kitoblarni xususan, «*Ahli sunnat*» birodarlarimizning hadis manbalarini ko'zdan kechirib, mutolaa qilsak, ul hazratning Ali (*alayhis salom*) xalifa va peshvo ekanligi haqidagi hadislarining naqadar ko'pligini oshkora ko'ramiz.

Ayniqsa, «*Ahli sunnat*»ning hadis kitoblarida bu mavzuning juda ko'p hadislar bilan keng yoritilganini va bu borada hech bir shak-shubhaga o'rin yo'qligini ko'rib, shuncha narsalarni o'qib turib, hazrati Ali (*alayhis salom*)ning xalifa, imom va peshvo ekanliklarini qabul qilmasliklariga hayron bo'lmay, ilojimiz yo'q. Axir shuncha hadislarini yozib bitgan «*Ahli sunnat*» birodarlarimiz nima uchun «*Ahli-Bayt*»ning yo'ldan emas, boshqa yo'ldan ketganlariga nima deyish mumkin?!

G'adiyr hadisi singari ba'zi hadislar yuzlab sanadga ega, ba'zi hadislar o'nlab sanad bilan, ba'zilar esa o'nlab mashhur kitoblarda rivoyat qilingan. Agar u yoki bu shaxslarning so'zlarini e'tiborga olmay, ko'r-ko'rona taqlid va ergashishlarni chetga surib qo'ysak, imomat va xilofat masalasi shu qadar oydin va oshkorki, boshqa dalillarga sira hojat qolmaydi.

Biz bu o'rinda bu masalaning naqadar ochiq bayon qilinganligini isbotlash uchun jo'da ko'p hadislar orasidan ayrim mashhur hadislarini namuna sifatida keltiramiz. Bu mavzuda chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishni istaganlar uchun, batafsil so'z yuritgan manbalarni tanishtirib o'tamiz.¹

1. Mufassal ma'lumot olish uchun Al-Murojaot, Al-G'adiyr, Daloilus- sidq kitoblariga murojaat qiling.



1. G'adiyr hadisi

Ko'plab islom tarixchi olimlarning yozishlaricha, hazrati Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) muborak umrlarining oxirida, o'z sahobalari bilan birgalikda so'nggi haj marosimini bajaradilar. Ul hazrat haj marosimidan so'ng, juda ko'p sonli qadimgi va yangi sahobalar hamda haj amallarini bajarish uchun butun Hijoz mintaqasidan kelgan oshiq musulmonlar bilan birga qaytayotganlarida, Makka va Madina shaharlari orasida joylashgan «*Juhfa*» diyori yaqinidagi quruq va jazirama issiq biyobondagi «*G'adiyri Xum*» nomli yerga etib keladilar.

Ushbu makon hajdan qaytayotgan musulmonlarning turli tarafga bo'linib ketadigan ayriliq yo'li hisoblanardi. Bu yerga etib kelgan Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) hamma musulmonlarga to'xtashni buyurdilar. Oldinga o'tib ketgan karvonlar orqaga qaytishga chaqirildi va orqada qolib ketganlari esa etib kelishdi. Kun juda issiq edi va sahroda hech bir soyabon ko'zga ko'rinmasdi. Musulmonlar Payg'ambarimizga iqtido qilib zuhr (peshin) namozini o'qishdi, ular issiqdan toqatsizlanib, chodirlarining ichiga kirib, ketmoqchi bo'lganlarida Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) yangi va o'ta muhim bir xabarni mufassal ma'ruza qilish bilan etkazmoqchi ekanliklarini bildirdilar.

Tuyalarning jihozi va to'qimidan darhol bir minbar yasab oldilar. Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ushbu minbarga chiqib, xutba o'qiy boshladilar.¹ Avvalo, yaratuvchi Tangriga hamdu sanolar aytib, so'ngra esa xaloyiqqa qarab shunday marhamat qildilar:

1. Bu xutba juda mukammal va mufassal bo'lib, turli kitoblarda «*Hajjatul vido xutbasi*» nomi bilan mashhurdir.

«Men tez orada Robbimning da'vatini ijobat qilib, sizlarning orangizdan ketajakman. Men mas'uldirman va sizlarning har biringiz ham mas'uldirsizlar. Men haqimda qanday shahodat bergaysizlar?»

Shunda xaloyiq baland ovoz bilan:

«شَهَدُ أَنْكَ قَدْ بَلَّغْتَ وَ نَصَحْتَ وَ جَهَدْتَ فَجَزَاكَ اللَّهُ خَيْرًا»

«Shahodat beramizki, siz Allohning risolatini (Alohning yo'llagan vahyini) bizga etkazdingiz, xayrxohlarcha nasihat qildingiz va bizlarni Alloh sari hidoyat qilishda tirishdingiz. Alloh O'zi ajringizni bersin» – deb javob berishdi.»

Shunda Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) so'radilar: «Sizlar Allohning yagonaligiga, Mening payg'ambarligimga, qiyomat kunining haq ekanligiga va o'sha kunda o'lganlarning qayta tirilishiga guvohlik berasizlarmi?» Hamma xaloyiq bir so'z bilan: «Ha, guvohlik beramiz» – deyishdi. Shu payt Payg'ambarimiz: «Allohim! O'zing guvoh bo'l...» – dedilar.

So'ngra sarvari olam: «Ey xaloyiq! Ovozimni eshityap-sizlarmi?» deb, marhamat qildilar. Ular: «Ha, eshitayapmiz» – deb javob berishdi. Shundan so'ng, butun biyobonni jimjitlik va sokinlik qamrab oldi va elning esishidan o'zga tovush quloqqa eshitilmas edi. Hazrat xutbalarini davom ettirib buyurdilar: «Endi aytinglarchi, Men sizlarga qo'yib ketayotgan bu ikki arzigulik va qimmatbaho narsa bilan qanday munosabatda bo'lasizlar?»

Shunda odamlar orasidan bir kishi baland tovush bilan: «Qaysi qimmatbaho ikki narsa, yo Rasululloh?» – deb so'radi. Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) javob berdilar: «Birinchisi – og'irroq va qimmatroq bo'lib, Allohning kitobi – Qur'ondir. Undan uzoqlashmang. Aks holda, zalolatga uchragaysiz. Ikkinchi qimmatbaho narsa- bu, Mening xonadonim ahlidir.

Mehribon va ogoh zot bo'lmish Alloh Menga bergan xabarga ko'ra, bu ikki qimmatbaho narsa jannatda, Mening huzurimga kirib kelgunga qadar bir-biridan ajralmaslar. Bu ikkisidan oldinga oshib o'tmangizkim, oqibat halok bo'lgaysiz va bu ikkisidan orqada ham qolib ketmangiz, u holda ham halok bo'lgaysiz.»

Shunda Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) atrof-tevaraklariga nazar solib, kimnidir qidirardilar va ko'zlari Ali (alayhis salom)ga tushishi bilanoq, egilib uning qo'lidan tutib, yuqoriga ko'tardilar. Hattoki, har ikkalalarining qo'ltiq osti oqligi ko'rindi va barcha xaloyiq uni ko'rib tanidilar.

Shu o'rinda, Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) balandroq ovoz bilan:

«أَيُّهَا النَّاسُ! مَنْ أَوْلَى النَّاسِ بِالْمُؤْمِنِينَ مِنْ أَنْفُسِهِمْ؟»

«Ey xaloyiq! Mo'minlar uchun o'zlaridan ham, kim haqliroq va sazovorroqdir?» – deb so'radilar.

Ular: «Alloh va Uning Rasuli bilguvchiroqdir» – deb, javob berishdi.

Shunda Sarvari olam buyurdilar: «Alloh mening mavloim va rahbarimdir. Men esa mo'minlarning mavlosi va rahbariman va ularga o'zlaridan ham, haqliroq va sazovorroqdirman.» So'ngra ul hazrat shunday marhamat qildilar:

«فَمَنْ كُنْتُ مَوْلَاهُ فَعَلَيْ مَوْلَاهُ»

«Men kimning mavlosi va rahbari bo'lsam, demak, bu Ali uning mavlosi va rahbaridir.» Bu jumlaning, Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) uch marta va ba'zi roviylarning aytishicha, to'rt marotaba takrorladilar. So'ngra ko'kka yuzlanib:

«اللَّهُمَّ وَالِ مَنْ وَالَاهُ، وَ عَادِ مَنْ عَادَاهُ، وَ أَحِبَّ مَنْ أَحَبَّهُ، وَ أَبْغِضْ مَنْ أَبْغَضَهُ، وَ انصُرْ مَنْ نصرَهُ، وَ اخذلْ مَنْ خذَلَهُ، وَ أدرِ الْحَقَّ مَعَهُ حَيْثُ دَارَ»

«Allohim, har kim Alini yaxshi ko'rsa, Sen ham uni yaxshi ko'r, har kim unga adovatli bo'lsa, Sen ham unga dushman bo'l! Uni sevganlarni Sen sevgin, kimki, undan arazlab, qalbida gina-kudurat saqlasa, undan arazlab g'azab qilgin, unga yordam berganlarga, O'zing madadkor bo'lgin, undan madadini darig' tutib uni tark etganlarni Sen ham tark ayla! Ali qayerda bo'lsa, Haqni uning bilan birga hamroh qilgin!» – deb duo qildilar.

Keyin odamlarga yuzlanib: «Bu yerda hozir bo'lganlar, g'oyiblargacha mening aytgan so'zlarimni etkazsinlar» – deb, buyurdilar.

Shu payt yig'ilgan xaloyiq hanuz tarqalib ketmasdan Allohning amin va ishonchli vahiy elchisi bo'lmish hazrati Jabroil *(alayhis salom)* Rasululloh *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)*ning huzurlariga kelib, ushbu oyati karimani tushirdi:

﴿... أَلْيَوْمَ أَكْمَلْتُ لَكُمْ دِينَكُمْ وَأَتْمَمْتُ عَلَيْكُمْ نِعْمَتِي وَرَضِيتُ لَكُمُ الْإِسْلَامَ دِينًا...﴾

«Bugun men sizlar uchun diningizni komil qildim va sizlarga ne'matimni to'la-to'kis qilib berdim va sizlar uchun islom din bo'lishiga rozi bo'ldim.» (Moida surasi, 3 – oyat).

Ushbu oyati sharifa nozil bo'lgach, Rasululloh *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* buyurdilar:

﴿اللَّهُ أَكْبَرُ عَلَيَّ إِكْمَالِ الدِّينِ وَ إِتْمَامِ التَّعْمَةِ وَرِضَا الرَّبِّ بِرِسَالَتِي وَالْوَلَايَةَ لِعَلِيِّ مِنْ بَعْدِي﴾

«Alloh dinni komil qilishda va ne'matni to'kis qilib berishda hamda Parvardigor mening payg'ambarligimga va mendan so'ng, Alining valiy, rahnamo va peshvoligiga rozi-xushnud bo'lishda buyuk Zotdir.»

Shu vaqt odamlar orasida shov-shuv ko'tarildi. Hamma sahobalar, jumladan Abu Bakr va Umar, hazrati Ali (*alayhis salom*)ning oldiga borib, xalifalik va rahbarlik maqomi bilan uni tabriklashdi. Umar to'plangan xaloyiq huzurida imom Alini ushbu ibora bilan tabrikladi:

«يَخِّبُ لَكَ، يَا بَنَ أَبِي طَالِبٍ أَصْحَبَتَ وَأَمْسَيْتَ مُؤَلَّيٍّ وَمَوْلَايَ كُلِّ مُؤْمِنٍ وَمُؤْمِنَةٍ»

«Ey Abu Tolib o'g'li xilofat va peshvolik mansabi sizga muborak bo'lsin! Siz mening mavloim va rahbarim hamda har bir mo'min va mo'minaning mavlosi va rahbari bo'ldingiz!»¹

* * *

Yuqorida keltirilgan G'adiyr hadisini turli iboralar bilan ba'zan mufassal va ba'zan esa qisqartirib muxtasar shaklda buyuk toifadagi islom ulamolarining ko'pchiligi o'z kitoblarida keltirib, rivoyat qilishgan. Bu hadis mutavotir² hadislar qatoridan joy olgan bo'lib, hech kim bu hadisning Payg'ambarimizdan sodir etilgani haqida shak-shubhaga bora olmagan. Alloma Aminiy o'zining «G'adiyr» nomli kitoblarida

1. Mazkur so'zning manbai:

1. Ahmad ibn Hanbal, «*Musnadu Ahmad ibn Hanbal*», 2 – jild, 281 – bet.
2. Hofiz Haskoniy, «*Shavohiddut tanzil*», 1 – jild, 157 va 158 – betlar.

2. Agar biror hadis butun asrlar davomida ishonchli roviylar tarafidan shu darajada ko'p rivoyat qilingan bo'lsaki, o'sha hadis Payg'ambarimiz (s.a.o) tomonlaridan aytilganiga hech qanday shak-shubha qolmasa, hadischi olimlar bunday hadisni «*mutavotir*» deb atashadi. (Tarjimon izohi)

bu hadisni bir yuz o'n sahoba rivoyat qilganligini va shuningdek, ushbu hadis uch yuz oltmish nafar islom ulamolari (ularning aksariyati Ahli sunnatga mansub bo'lgan ulamolar) tarafidan turli kitoblarda keltirilganligini bayon qilganlar. Ushbu hadis Ahli sunnat olimlarining tafsir, tarix va hadis kitoblarining ko'plarida keltirilgan. Hatto buyuk bir guruhdan iborat islom ulamolari mazkur «*G'adiyr hadisi*» haqida mustaqil kitob bitganlar. Jumladan qimmatli, arzirli va nodir kitobning muallifi bo'lmish alloma Aminiy ushbu kitobida «*G'adiyr hadisi*» haqida alohida kitob yozgan islom ulamolaridan yigirma olti nafarning nomini keltirgan.

* * *

Hadisning sanadini inkor qilib bo'lmasligini ko'rgan ba'zilar mazkur «*G'adiyr hadisi*»ning imom Ali (*alayhis salom*) xalifa, peshvo va rahbar ekanliklariga dalolat qilishida shak-shubha tug'dirib, hadisdagi «*mavlo*» so'zining ma'nosini o'zgartirib, «*rahbar*» va «*yo'l boshchi*» emas, balki «*do'st*» degan ma'noni anglatishini aytib, o'zlaricha sa'y-harakat qilganlar. Holbuki, hadisning ma'no-mazmuniga, aytilgan vaqti va makoniga, sodir etilgan holat va sharoitiga hamda qolgan belgi va nishonalarga diqqat bilan nazar tashlasak, ushbu xutba va hadisdan ko'zlangan maqsad; imomat va viloyat (peshvolik) masalasi ekanligi va butun musulmonlarga Sarvari olamdan so'ng har tomonlama rahnamolik qilish mavzusi ekanligi yaqqol oshkor va namoyon bo'ladi:

1. Oldingi darsda ko'rib chiqqanimiz Tablig' oyatining G'adiyr voqeasidan oldin nozil bo'lishi, ushbu oyatdagi tahdid ohangi va boshqa belgi-nishonalar oddiy bir do'stlik masalasi emas, balki muhimroq masala haqida suhbat ketayotganligini bildiradi. Negaki, do'stlik masalasida Payg'ambarimizning xavotirlanishlariga o'rin bo'lmay, bu darajada ahamiyat berib,

ta'kidlashlariga hojat yo'q edi. Shuningdek, buning ustiga, dinning komil bo'lishi haqidagi oyati karimaning G'adiyr voqeasidan so'ng nozil bo'lishi Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan keyingi xalifalik va rahbarlik masalasi kabi o'ta muhim va favqulodda bir xabar etkazilganligidan dalolat beradi.

2. Hadisning odamlarga etkazilish uslubi; cho'l va biyobonning jazirama issiq havosida turli chora-tadbirlar bilan uzun va mufassal xutba o'qib, xalifalik va rahnamolik xabari yuqori darajali ahamiyat bilan aytilgani hamda zamon va makon jihatidan o'ta qaltis sharoitda xaloyiqdan iqror va e'tirof olinishining hammasi, bizning fikrimiz to'g'ri va haqligiga ochiq-oydin va qat'iy dalildir.

3. Turli shaxslar va guruhlarining hazrati Ali (*alayhis salom*)ga «*mo'min va musulmonlarning mavlosi va peshvosi*» sifatida bildirgan tabriklari va shuningdek, o'sha kuni G'adiyr voqeasidan so'ng hazrati Ali (*alayhis salom*)ning xalifa va peshvo bo'lishlari munosabati bilan shoirlarning aytgan she'rlari va shunga o'xshash hodisalarning barchasi Ali (*alayhis salom*)ning yuksak imomlik va rahbarlik maqomiga tayin etilganligidan oshkora dalolat beradi.

* * *

O'ylab javob bering:

1. G'adiyr voqeasini aytib bering.
2. G'adiyr hadisi necha sanad bilan Payg'ambarimizdan rivoyat qilingan? Va bu voqea necha sonli mashhur islomiy kitoblarda keltirilgan?
3. Nima uchun G'adiyr hadisidagi «*mavlo*» so'zining ma'nosi «*rahbar*» va «*imom*» deganidir? Nega «*do'st*» ma'nosida emas?
4. Hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) xutbalarini tugatgandan so'ng, Ali (*alayhis salom*)ning haqqiga nima deb, duo qildilar?
5. «*G'adiyr*» va «*Juhfa*» qayerda joylashgan?

7- DARS:

2. Manzilat va yavmud-dor hadisleri

«*Manzilat*» hadisini shia va sunniy olimlari A'rof surasining 142 – oyati tafsirida rivoyat qilishgan. Bu oyati karimada hazrati Muso (*alayhis salom*) qirq kun davomida Parvardigori karim muloqotiga borgani va Horunning bani Isroil qavmi orasida Muso tarafidan o'rinbosar etilishi haqida so'z yuritilgan. Hadis quyidagicha rivoyat qilingan:

Hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ga sharqiy rum imperiyasi katta qo'shin to'plab, Hijoz, Makka va Madinaga hamla qilish niyati borligining xabari etib keldi. Rum imperatori islom dini o'zining maxsus insonparvar dasturilamallarini va erk talablik ta'limotlarini ushbu mintaqaga yoyishdan oldin, uni ilk damlaridayoq, yo'q qilib yuborish niyatida edi. Shu bois, sarvari olam yirik qo'shin bilan «*Tabuk*»¹ nomli jang maydoni tomon otlandilar va o'zlarining o'rinlariga hazrati Ali (*alayhis salom*)ni Madinaga hokim va boshliq qilib qo'ydilar.

Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) bilan birga jangga borishni istagan Ali (*alayhis salom*) ranjigan holda ul zotga: «*Yo Rasululloh, meni rumliklarga qarshi bo'ladigan jihadga olib bormasdan ayollar va bolalar orasiga qo'yib ketayapsizmi?*» – dedilar.

Shunda sarvari olam buyurdilar:

أَلَا تَرْضَىٰ أَنْ تَكُونَ مِنِّي بِمَنْزِلَةِ هَارُونَ مِنْ مُوسَىٰ إِلَّا أَنَّهُ لَيْسَ نَبِيًّا بَعْدِي؟

1. Tabuk mintaqasi Arabiston yarim orolining shimoliy tomonida joylashgan bo'lib, sharqiy rum imperiyasi bilan chegaradosh edi.

«Mening nazdimdagi manzilating (o'rning) Horunning Muso nazdidagi manzilati kabi bo'lishidan rozi emasmisan? Faqat farqi shundaki, mendan so'ng payg'ambar bo'lmas.»

Yuqoridagi hadis Ahli sunnatning eng mashhur hadis kitoblarida, ya'ni Sahihul Buxoriy va Sahihul Muslimda rivoyat qilingan. Faqat Buxoriyning kitobida hadis to'liq keltirilgan bo'lsa, Sahihul Muslimda esa bir marta to'liq va bir marta esa bir qismigina:

«أَنْتَ مَنِّي بِمَنْزِلَةِ هَارُونَ مِنْ مُوسَى إِلَّا أَنَّهُ لَا نَبِيَّ بَعْدِي»

«Sen menga xuddi Horun Musoga bo'lganidek. Illo mendan keyin payg'ambar bo'lmas» umumiy shaklda rivoyat qilingan¹.

1. Ushbu hadis Ahli sunnatning juda ko'p manbalarida zikr etilgan bo'lib, bu erda ularning ba'zilarini keltiramiz:

1. «Sahihul Buxoriy», 6 – jild, 3 – bet, Misr chopi, «G'azvatu Tabuk» bobi.
2. Muslim, «Sahihul Muslim», kitaabu fazoilus sahaaba, min fazoili Aliy ibn Abi Tolib (*raziyallohu anhu*) bobi, 2404 – raqamli hadis.
3. Ali ibn Bulbulon ibn Hibbon Al-Forsiy, «Sahihul ibn Hibbon», 60 – kitob: Ixbaaruhu `an manaaqibis – sahaaba, 73 – bob, hadis raqami: 1/6927 hamda 72 – bob, hadis raqami: 1/6926.
4. «Sunani Ibn Moja», 1 – jild, 55 – bet, birinchi chop, Misr chopi, «Fazoilu as`hobin- Nabiy (s. a.o)» bobi.
5. «Mustadraki Hokim Nishoburiy», 3 – jild, 109 – bet, Bayrut chopi.
6. «Musnadi Ahmad ibn Hanbal», 1 – jild, 170, 177, 179, 182, 184 va 185 – betlar hamda 3 – jild, 32 – bet.
7. «Sunani Termiziy», 5 – jild, 21 – bet, Bayrut nashri, «Manoqibu Ali ibn Abu Tolib» bobi.
8. Abul Ulo` Al-Muborakfuriy, «Tuhfatul ahvaziy bisharhi jaami`it-Tirmiziy», 10 – jild, 178 – bet, abvaabul manaaqib, 20 – bob, hadis raqami: 3740 va 3739.
9. Ibn Abdul Barr Al-Qurtubiy, «Al-istiy`ob fiy ma`rifatil as`hob», 3 – jild, 1097 va 1098 – betlar, dorul jayl nashrida, ammo dorul kutubil ilmiyyah nashrida esa 3 – jild, 201 va 202 – betlar.

«Manzilat» hadisi Ahli sunnatning ko'plab hadis kitoblarida jumladan, «Sunani ibn Moja», «Sunani Termiziy», «Musnadi Ahmad ibn Hanbal» va boshqa ko'pgina kitoblarda rivoyat qilingan. Ushbu hadisni yigirmadan ortiq sahobalar, jumladan: Jobir ibn Abdulloh Ansoriy, Abu Said Xudriy, Abdulloh bin Mas'ud, Muoviya ibn Abu Sufyon va boshqalar rivoyat qilishgan.

Abu Bakr Bag'dodiy o'zining «Bag'dod tarixi» kitobida Umar bin Xattobdan rivoyat qiladi: Bir kishini ko'rdimki, Ali haqida noravo va haqoratli so'zlarni aytar edi. Umar unga qarab shunday dedi: Menimcha sen munofiqlardan bo'lsang kerak. Zero, Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) Ali borasida shunday marhamat qilgandilar:

«إِنَّمَا عَلَيَّ مِنِّي بِمَنْزِلَةِ هَارُونَ مِنْ مُوسَى إِلَّا أَنَّهُ لَا نَبِيَّ بَعْدِي»

«Alining mening yonimdagi o'rni va manzilati Horunning Musoga bo'lgan manzilati kabidir. Illo farqi shundaki, mendan so'ng nabiy bo'lmas!»

* * *

Muhimi shundaki, mo'`tabar hadis manbalaridan ma'lum

-
10. «Manoqibu ibn Mag'oziliy», 27 – bet, Bayrut chopi, 1403 – hijriy sana.
 11. «Kanzul favoid», 2 – jild, 168 – bet, Bayrut nashri, 1405 – hijriy sana.
 12. Muttaqiy Al-Hindiy, «Kanzul ummol», 11 – jild, 599 – bet, hadis raqami: 32880 va 32882.
 13. SHayx Sulaymon Qunduziy Hanafiy, «Yanobiy'ul mavoddah», 56 – bob, 2 – jild, 242 – bet.
 14. Ahmad ibn Hanbal, «Fazoilus sahaaba», Axbaaru amiyiril mo`minin Ali ibn Abu Tolib (alayhimas salom) 2 – jild, 699, 700 va 701 – betlar, 954, 956 va 957 – raqamli hadislar.
1. «Bag'dod tarixi», 7 – jild, 452 – bet.

bo'lishicha, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) «*Manzilat*» hadisini faqat Tabuk g'azotidagina¹ marhamat qilmay, balki boshqa turli munosabatlar bilan etti o'rinda buyurgan edilar. Bu esa ushbu hadisning umumlashma va keng qamrovli ma'no-mafhumga ega ekaniga yorqin dalildir. Bu yerda ushbu hadis bayon etilgan o'rinlar va zamonlarni sanab o'tamiz:

Payg'ambarimiz sarvari olam (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) Makkada ilk daf'a «*birodarlik ahd-paymoni*»ni ansorlar va muhojirlar orasida bog'laganlarida, ushbu ahdlashuvda Ali (*alayhis salom*)ni o'zlari uchun tanlab, yuqoridagi «*Manzilat*» hadisini marhamat qilgan edilar.

Rasululloh ikkinchi marotaba «*birodarlik ahd-paymoni*»ni ansorlar va muhojirlar o'rtasida joriy qilganlarida ham «*Manzilat*» hadisini yana bir bora takrorlagan edilar.

Hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning buyuk masjidlari tomon ochiladigan sahobalarning barcha eshiklarini ularga yoqtirib, faqat Ali (*alayhis salom*)ning eshigi masjid tomon ochiq qolishini buyurib, bu borada ushbu «*Manzilat*» hadisini marhamat qildilar.

Shuningdek, sarvari olam «*Tabuk*» g'azoti (jangi)da va boshqa yana uch o'rinda mazkur «*Manzilat*» hadisini buyurganlar. Barcha o'rinlarda aytilgan ushbu hadis ahli sunnatning ko'pgina muhim manbalarida keltirilgan. Binobarin, sanad jihatidan «*Manzilat*» hadisida hech bir shak-shubhaga o'rin qolmay, ma'no-mafhum nuqtai nazaridan ham ushbu hadis keng qamrovli xususiyatga egadir.

1. Payg'ambarimizning o'zlari qatnashgan urushga «g'azot» deb aytiladi.

Manzilat hadisidan kelib chiqadigan xulosalar:

Agar «*Manzilat*» hadisini o'z fikr-mulohazalarimizni chetga surib, betarafona va xolislik bilan ko'rib chiqadigan bo'lsak, shu xulosaga kelamizki, Bani Isroil qavmida Horun Muso (*alayhis salom*)ga nisbatan qanaqa o'rin, martaba va maqomga ega bo'lsalar, hazrati Ali (*alayhis salom*) ham, o'sha martaba va maqomlarning hammasiga egadirlar, illo Horun (*alayhis salom*) kabi nabi emaslar. Chunki, hadisda faqat «*nabiylik*» istisno qilingan, xolos. Ushbu hadisda hech bir qayd-shart (shart-sharoit) zikr qilinmay, mutlaq holda kelganligi fikrimizning dalilidir.

Demak, hadisdan quyidagi xulosalarni chiqara olamiz:

1. Ali (*alayhis salom*) Payg'ambarimizdan so'ng ummatning eng afzali edi. Zero, Horun ham ummatning eng afzali edi.
2. Ali (*alayhis salom*) payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning vazir, voris va o'rinbosarlari hamda rahbarlik va yo'l boshchilik qilishda Sarvari olamning xos sheriklari edi. Chunki, Qur'oni Karimda ushbu mansab va maqomlarning hammasi Horun (*alayhis salom*)ga nisbatan aytilgan. (Toho surasi; 29 – oyatdan 32 – oyatlargacha)
3. Ali (*alayhis salom*) payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning xalifa, voris va o'rinbosarlari edi. Hazrati Ali (*alayhis salom*) borligida undan boshqa hech kim xalifalik va rahnamolik mansabini egallashga haqqi yo'q edi. Zero, Horun ham Muso (*alayhis salom*)ga nisbatan xuddi shunday maqom va mansabga ega edi.

* * *

3. Yavmud-dor hadisi

Islom tarixining guvohlik berishicha, payg'ambarimiz

Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) da'vatlarining uchinchi yili Allohning amri bilan xufyona da'vatlarini oshkor etishga buyurildilar. Shuaro surasining 214 – oyatiga binoan; ﴿وَأَنْذِرْ عَشِيرَتَكَ الْأَقْرَبِينَ﴾ «O'z yaqin qarindosh-urug'laringni (islomga da'vat qilib, Allohning azobidan) ogohlantirgin» deb Payg'ambarimiz oshkora da'vat qilishga amr qilindilar.

Shunda Sarvari olam o'z yaqin qarindoshlarini amakilari hazrati Abu Tolibning uylariga taklif etdilar. Taomlanib bo'lishgach, shunday deb, marhamat qildilar: «*Ey Abdul Mutallib avlodlari! Allohga qasamyod etib aytamanki, arablar orasida o'z qavmi uchun men sizlarga keltirgan narsadan yaxshiroq'ini keltirgan biror bir shaxsni tanimayman. Men sizlar uchun dunyo va oxiratning xayr-saodatini keltirdim. Alloh menga sizlarni bu dinga da'vat etishimni buyurdi. Demak, qaysi biringiz menga bu ishda yordam bergaysiz, toki, mening birodarim, vorisim va o'rinbosarim bo'lingiz?*»

Hech kim bu da'vatga javob bermadi, shu yerda faqat hammadan yoshi kichik bo'lgan Ali o'rnidan turib: «*Yo Rasulalloh! Men bu ishingizda sizga yordamchi va yoru yovaringizdirman*» – dedi. Shunda payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) muborak qo'llarini Alining bo'yniga qo'yib:

«إِنَّ هَذَا أَخِي وَوَصِيِّي وَخَلِيفَتِي فِيكُمْ، فَاسْمَعُوا لَهُ وَأَطِيعُوهُ»

«*Bu (Ali) sizlarning orangizda mening birodarim, vorisim va o'rinbosarimdir. Uning aytganlarini eshitingiz va farmoniga bo'yin suningiz*» – deb buyurdilar. Ammo nodon va gumroh odamlar nafaqat sarvari olamning so'zlarini qabul qilishmadi, balki ul zotni masxara ham qilishdi.

Yuqoridagi «*Yavmud-dor*» (uyda qilingan da'vat kuni) nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu hadis ma'no-mafhum nuqtai

nazaridan etarli miqdorda tushunarli va aniq bo'lib, sanad jihatidan ham, bu hadisni Ahli sunnatning ko'pgina ulamolari, jumladan Ibn Abu Jariyr, Ibn Abu Xotam, Ibn Mardavayh, Abu Naim, Bayhaqiy, Sa'labiy, Tabariy, Ibn Asir, Abul Fido va boshqalar rivoyat qilishgan.¹

Qachonki, yuqoridagi hadisni ham betarafona va xolislik bilan ko'zdan kechirsak, imom Ali (*alayhis salom*)ning xilofati va viloyati (peshvoligi)ga oid haqqoniyat bizga oshkora ayon bo'ladi. Negaki, ushbu hadisda Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan so'ng imom Ali (*alayhis salom*)ning bevosita xalifa, voris va o'rinbosar ekanliklari yorqin tarzda bayon etilgan.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Manzilat hadisini aytib bering. Necha o'rinda bu hadis Payg'ambarimiz taraflaridan aytilgan edi?
2. Manzilat hadisining ma'no-mazmuniga binoan, qanaqa mansab va maqomlar Ali (*alayhis salom*) uchun isbotlanadi.
3. Qur'onning aytishiga ko'ra, Horun Muso (*alayhis salom*)ga nisbatan qanday mansab va maqomga ega edi?
4. Manzilat hadisini qaysi olimlar rivoyat qilishgan?
5. «*Yavmud-dor*» hadisining ma'no-mazmuni, sanadi va undan kelib chiqadigan xulosa haqida aytib bering.

1. Batafsil ma'lumot olish uchun Al-Murojaot kitobining 130-betidan u yoniga va Ihqoql haq kitobining 4-jildi, 62-betidan u yoniga murojaat qiling.

8- DARS: **Saqalayn va Nuh ^(a s) ning kemasi hadisleri**

Saqalayn hadisining sanadi;

Shia va sunniy ulamolari o'rtasidagi yana bir mashhur va taniqli hadislardan biri «*Saqalayn hadisi*»dir. Ko'plab sahobalar bu hadisni bevosita hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan rivoyat qilishgan bo'lib, ayrim buyuk ulamolarning aytishicha, ushbu hadisni rivoyat qilgan sahobalarning soni o'ttizdan ortiqdir.¹

«*Saqalayn hadisi*»ni buyuk bir toifa mufassir, muhaddis va tarixchi olimlar o'z kitoblarida keltirganlar va ushbu hadisning mutavotir² darajasiga etganligida shak-shubha yo'qdir.

Yirik olim Sayyid Hoshim Bahroniy o'zining «*G'oyatul marom*» nomli kitobida mazkur hadisni 39 sanad bilan Ahli sunnat ulamolaridan va 80 sanad bilan shia olimlaridan rivoyat qilgan. Alloma Mir Homid Husayn Hindiy esa «*Saqalayn hadisi*» xususida chuqurroq izlanib tadqiqot olib borib, qariyb Ahli sunnatning 200 nafar olimlaridan bu hadis rivoyat qilganligini bayon etib, ushbu hadisga doir ilmiy tatabbusini³ keng ko'lamda amalga oshirib, o'zining olti jildlik ulkan kitobini mazkur mavzuga bag'ishlagan.

Ushbu hadisni rivoyat qilgan mashhur sahobalardan ayrimlari quyidagilardan iborat: Abu Said Xudriy, Abu Zar

1. Siyrai Halabiy, 33 – jild, 308 – bet.

2. Ushbu so'zga kitobning 269 – betida izoh berilgan.

3. Tatabbusning ma'nosi; tekshirish, o'rganish, tadqiqot va tahlil demakdir.

G'iforiy, Zayd bin Arqam, Zayd bin Sobit, Abu Rofe', Jubayr bin Mut'am, Xuzayfa, Zamra Aslamiy, Jobir bin Abdulloh Ansoriy va Ummu Salama.

Abu Zar Al-G'iforiyning aytishi bo'yicha, asl hadis quyidagicha bayon qilingan: U Ka'baning eshigini tutgan holda xaloyiqqa yuzlanib, shunday dedi: Men Payg'ambarimizdan ushbu hadisni marhamat qilayotgan-larini eshitdim:

«إِنِّي تَارِكٌ فِيكُمْ الثَّقَلَيْنِ كِتَابَ اللَّهِ وَعِثْرَتِي وَإِنَّهُمَا لَنْ يَفْتَرَقَا حَتَّىٰ يَرِدَا عَلَيَّ الْحَوْضَ»

«Men sizlarning orangizga ikki arzirli va qimmatbaho narsani qo'yib ketayapman. Biri – Allohning kitobi va ikkinchisi esa – mening Ahli-Baytimdir. Bu ikkisi havzi kavsarda mening huzurimga kirib kelgunga qadar hargiz bir-biridan ajralmas.!»

«*Saqalayn hadisi*» Ahli sunnatning mo'tabar va mo'tamad manbalarida jumladan, «*Sunani Termiziy*», «*Sunani Nisoiy*», «*Musnadi Ahmad ibn Hanbal*», «*Kanzul ummol*», «*Mustadraki Hokim*» va boshqalarda rivoyat qilingan.

Mazkur hadis ko'pgina manbalarda «*Saqalayn*» (ikki qimmatbaho narsa) ta'biri bilan, ayrim matnlarda esa «*xalifatayn*» (ikki voris va o'rinbosar) so'zi bilan rivoyat qilingan. Ammo bu bilan hadisning ma'no-mazmuni o'zgarmaydi.

Shuni aytish lozimki, turli islomiy hadislardan ma'lum bo'lishicha, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) «*Saqalayn hadisi*»ni bir necha o'rinlarda, turli munosabatlar bilan marhamat qilganlar va musulmonlarni bu borada ogohlantirib kelganlar.

1. Jome' Termiziydan naql qilinib, Yanobiy'ul Mavaddah kitobiga muvofiq keltirildi, 37 – bet.

Masalan, «*Jobir bin Abdulloh Ansoriy*» Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) bu hadisni Haj marosimida Arafa kuni buyurganliklarini rivoyat qilgan.

«*Abdulloh bin Xantab*» esa ushbu hadisni Payg'ambarimizdan Makka va Madina orasida joylashgan Juhfa (hojilar ehrom bog'laydigan joyda) rivoyat qilgan.

Onamiz «*Ummu Salama*» rivoyatlariga binoan, sarvari olam «*Saqalayn hadisi*»ni G'adiyr Xumda buyurganlar.

Ba'zi hadislarda aytilishicha, hazrati Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) muborak umrlarining oxirgi kunlarida bemorlik chog'larida, ushbu hadisni marhamat qilganlar.

Ba'zi hadislarga ko'ra, Madinada minbar ustida aytganlar.¹

Ahli sunnatning mashhur va taniqli olimi bo'lmish «*Ibn Hajar*»ning «*Savo`iql muhriqa*» nomli kitobida Payg'ambarimizdan rivoyat qilishicha, Payg'ambarimiz «*Saqalayn hadisi*»ni marhamat qilganlaridan so'ng, Alining qo'lini yuqoriga ko'tarib: «*Bu Ali Qur'on bilan birgadir va Qur'on ham Ali bilan birgadir, bu ikkalasi Havzi Kavsar yonida menga kirib kelguncha hargiz bir-biridan ajralmas²*», deb buyurdilar.

Shunday qilib, aytilgan hadislardan ma'lum bo'ladiki, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) turli yerlarda va turli xil munosabatlarda har doim hazrati Ali (*alayhis salom*)ning xalifalik, vorislik va rahbarlik masalasini o'z sahobalariga uqtirib, bu g'oyat muhim masalaga ahamiyat berganlar, ushbu taqdirni belgilovchi haqiqatni bayon etish uchun har bir fursatdan foydalanib, ummatni ushbu masalaga

1. Al-Murojaot, 42 – bet.

2. Savo`iql muhriqa, 75 – bet.

e'tibor berishiga chaqirganlar. Toki, hech qachon unutilmay, onglarda saqlab qolinsin deb.

Saqalayn hadisidan kelib chiqadigan xulosalar

Hadisidan kelib chiqadigan bir necha nuktalar¹ mavjud:

1. Qur'on va itrat (Ahli-Bayt)ni «*ikki xalifa*» yoki «*ikki qimmatbaho narsa*» sifatida tanishtirish musulmonlarga bu ikkisidan zinhor ajralmaslik kerakligini oshkora anglatadi. Xususan, hadisning ko'plab o'rinlarida aytilgan ushbu iborasi: «*Agar bu ikkisini mahkam tutsangiz, hargiz zalolatga uchramaysizlar*» fikrimizni tasdiqlaydi.

2. «*Saqalayn hadisi*»da Qur'on va itrat (Ahli-Bayt)ning bir-biri bilan yonma-yon kelishi; Qur'on har qanday xato va kamchiliklardan yiroq va mahfuz bo'lgani kabi, Payg'ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning Ahli-Baytlari ham har qanday sahv-xato va adashishlardan pok va ma'sum ekanliklariga yorqin dalildir.

3. Ba'zi hadislarda Payg'ambarimiz ochiq – oydin «*Men qiyomat kunida bu ikkalasi bilan qanday munosabatda bo'lganlaringiz haqida sizlardan so'ragayman*», deb marhamat qilganlar.

4. Shak-shubhasiz, «***Itrat va Ahli-Bayt***»ni har qanday tafsir va bayon qilsak ham, Ali (*alayhis salom*) «***Ahli-Bayt***»ning yorqin namunasidirlar. Islom tarixining va ko'plab rivoyatlarning guvohlik berishicha, hazrati Ali (*alayhis salom*) hech vaqt Qur'ondan ajralmadilar va Qur'on ham ul zotdan ajralmadi.

Qo'shimcha qilib aytamizki, ko'pgina hadislarda

1. O'ta ingichka va nozik masalalar.

aytilishicha, «*Mubohala*» oyati nozil bo'lganida, Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) Ali, Fotima, Hasan va Husaynlarni huzurlariga chaqirib, «*Bular mening Ahli-Baytimdirlar*», deb marhamat qildilar.¹

5. Garchi oxirat haqidagi ma'lumotlarimiz moddiy dunyo bizni qurshab olganligi sababli chegaralangan bo'lsa-da, biroq hadislardan ma'lum bo'lishicha, «*Havzi Kavsar*» nomli juda ko'p imtiyoz va ustunlikga ega bir hovuz jannatda mavjud bo'lib, Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam), ul zotning Ahli-Baytlari va ularga ergashuvchi haqiqiy mo'aminlar bu hovuzdan bahramand bo'lgaylar.

Yuritgan suhbatlarimizdan yaqqol ma'lum bo'ladiki, payg'ambarimiz Muhammad Mustafó (sallallohu alayhi va olihi vasallam)dan so'ng musulmonlarning rahnamosi, yo'lboshchisi va peshvosi hazrati Ali (alayhis salom) bo'lib, ul zotdan so'ng esa, Ahli-Baytdan bo'lgan ma'sum imomlar Islom ummatining rahnamosi va yo'lboshchisidirlar.

* * *

Nuh (alayhis salom)ning kemasi hadisi

Hazrati Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam)dan Ahli sunnat va shialarning kitoblarida rivoyat qilingan maroqli ta'birlardan biri, «*Nuh kemasi*»ga o'xshatilgan hadislaridir.

Ushbu hadis sunniy va shialarning mashhur kitoblarida zikr qilingan bo'lib, Abu Zar (raziyallohu anhu) hadisning matnini Payg'ambarimizdan quyidagicha rivoyat qiladi: Sarvari olam o'z Ahli-Baytlari borasida shunday deb marhamat qiladilar:

1. Mishkotul masobih, Dahli chopi, 568 – bet va Riyozun nazira, 2 – jild, 248 – bet (Muslim va Termiziy rivoyatiga binoan.)

«أَلَا إِنَّ مَثَلَ أَهْلِ بَيْتِي فِيكُمْ كَمَثَلِ سَفِينَةِ نُوحٍ، مَنْ رَكِبَهَا نَجِيَ وَ مَنْ تَخَلَّفَ عَنْهَا غَرِقَ»

«Mening xonadonim va Ahli-Baytim misoli sizlarning orangizda Nuhning kemasiga o'xshaydi. Kimki, unga minsa, najot topur va kimki, undan ajralsa g'arq bo'lur.¹»

Yuqoridagi «Nuh kemasi» hadisi mashhur hadislardan sanalib, insonlar Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) ning vafotlaridan so'ng, hazrati Ali (*alayhis salom*)ga va Payg'ambarimiz xonadonlaridan bo'lgan o'n bir ma'sum imomlarga ergashishlari zarur ekanligini yorqin tarzda bayon qiladi.

Agar hazrati Nuh (*alayhis salom*)ning kemasi butun olamni qamrab olgan ulkan to'fon ro'y berganda, mo'minlarning yagona panohgohi va najot topuvchi vositasi bo'lganligini nazarda tutsak, ushbu haqiqat yaqqol ma'lum bo'ladiki, islom ummati payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan so'ng, xilofat va rahbarlik masalasi ustida yuzaga kelgan fitnalar to'fonida, faqat ul zotning Ahli-Baytlariga ergashish va ularga bo'yin sunish bilan-gina najot topa oladilar.

1. Mustadraki Hokim, 3 – jild, 151 – bet.

O'ylab javob bering:

1. «*Saqalayn hadisi*»ning ma'no-mazmuni haqida so'zlab bering. Bu hadisda Ahli-Baytning qanday imtiyoz va ustunliklari zikr qilingan?
2. «*Saqalayn hadisi*»ni kimlar rivoyat qilishgan?
3. «*Saqalayn*» so'zining ma'nosi nimadir? Hadisda uning o'rniga boshqacha ta'bir ham aytilganmi?
4. Payg'ambarimiz saqalayn hadisini qaysi o'rinlarda marhamat qilganlar?
5. «*Nuhning kemasi*» hadisining sanadi va ma'no-mazmuni haqida aytib bering.

9- DARS: O‘n ikki imom

O‘n ikki imom haqidagi hadislar

Mo‘minlar amiri Ali (*alayhis salom*)ning payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan so‘ng, bevosita xalifa, voris va rahnamoligini hamda boshqalardan afzalligini isbotlaganimizdan keyin, qolgan imomlarning imomati va viloyati (peshvoligi va rahnamoligi) xususida so‘z yuritishni lozim topdik.

Bu borada qisqa va lo‘nda qilib, quyidagi bahsga diqqatingizni qaratamiz:

Birinchidan; hozirgi kunda Ahli sunnat va shialarning kitoblarida ko‘plab hadislar mavjud bo‘lib, ularda Payg‘ambarimizdan so‘ng, «o‘n ikki imom» yoki «o‘n ikki xalifa» peshvoligi va rahnamoligi borasida umumiy shaklda so‘z yuritilgan.

Bunday hadislar Ahli sunnatning mashhur va taniqli manbalari bo‘lmish Sahihul Buxoriy, Sahihul Muslim, Sunani Termiziy, Sunani Abi Dovud, Musnad Ahmad va boshqalarda rivoyat qilingan.

«*Muntaxabul asar*» kitobida ikki yuz etmish bir hadis shu mazmunda rivoyat qilingan bo‘lib, ularning aksariyati Ahli sunnat ulamolari tarafidan va ozgina qismi shia manbalaridan rivoyat qilingan.

Misol tariqasida Ahli sunnatning eng mashhur kitobi bo‘lmish «*Sahihul Buxoriy*»da keltirilgan hadisni ko‘zdan kechiramiz:

حدثني محمد بن المثنى حدثنا غندر حدثنا شعبة عن عبد الملك سمعت جابر بن سمرة قال سمعتُ النَّبِيَّ - صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ [وآله] وَسَلَّمَ - يَقُولُ: «يَكُونُ إِثْنَا عَشَرَ أَمِيرًا - فَقَالَ كَلِمَةً لَمْ أَسْمَعْهَا - فَقَالَ أَبِي إِنَّهُ قَالَ كُلُّهُمْ مِنْ قُرَيْشٍ»

Jobir bin Samura (*raziyallohu anhumo*) aytadi: Payg‘ambarimiz (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) «Mendan keyin o‘n ikki amir bo‘lajak.» So‘ngra yana bir so‘z dedilar, men uni eshitolmadim. Shunda otam dedi: Ul zot: «Ularning hammasi Qurayshdandir¹», deb marhamat qildilar.

«Sahihi Muslim»da ushbu hadis quyidagicha rivoyat qilingan: Jobir aytadi: Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan shunday deb marhamat qilganlarini eshitdim:

سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ - صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ [وآله] وَسَلَّمَ - يَقُولُ: «لَا يَزَالُ الْإِسْلَامُ عَزِيْرًا إِلَيَّ
إِنَّا عَشْرَ خَلِيفَةٍ ثُمَّ قَالَ كَلِمَةً لَمْ أَفْهَمَهَا، فَقُلْتُ لِأَبِي: مَا قَالَ؟ فَقَالَ كُلُّهُمْ مِنْ قُرَيْشٍ»

«Modomiki, o‘n ikki xalifa va voris bor ekan, islom aziz va yuksak qolajak.» So‘ngra yana bir so‘z dedilar, men uni anglay olmadim. Bu haqda otamdan so‘raganimda, otam: Ul hazrat: «Ularning hammasi Qurayshdandir²», deb marhamat qildilar, dedi.

Shuningdek, Muslim ibn Hajjoj Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan mazkur hadisni quyidagicha ham rivoyat qiladi:

«لَا يَزَالُ أَمْرُ النَّاسِ مَا ضِيَاءَ مَا وَلِيَهُمْ إِنَّا عَشْرَ رَجُلًا».

1. Buxoriy, «Sahihi Buxoriy», Kitobul ahkom, bobul istixlof, 6796 – raqamli hadis.

2. Muslim, «Sahihi Muslim», kitobul umaro, *An-nosu tabaun liQuraysh val-xilofatu fiy Quraysh* bobi, hadis raqami: 1821/4598.

«Modomiki, o'n ikki kishi (xalifa) odamlarga rahnamolik qilar ekan, ularning ishi o'ngidan keladi.»¹

Musnadi Ahmad ibn Hanbal kitobida mashhur sahoba Abdulloh ibn Mas'uddan ushbu hadis quyidagicha rivoyat qilingan: Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan ul zotning xalifalari va vorislari haqida so'ralganda, ul hazrat:

«إِنَّا عَشْرَ كَعِدَّةٍ نُّقَبَاءَ نَبِيِّ إِسْرَائِيلَ»

«Ularning soni bani Isroil naqiblari (boshliqlari)ning soni singari o'n ikkitadir¹», deb marhamat qildilar.

Ushbu hadislarining ma'no-mazmuni haqida

Islomning izzat va yuksakligini ta'minlovchi o'n ikki xalifa va yo'l boshchi haqidagi hadislar va ayrim ta'birlarda islom dinining hayoti bu o'n ikki xalifa va rahnamoga bog'liq hamda «ularning hammasi Qurayshdan» yoki ayrim ta'birlarda «ularning hammasi bani Hoshimdan» deb, kelgan hadislar islomdagi mazhablardan faqatgina shia mazhabi e'tiqodiga muvofiqdir, xolos. Negaki, shia mazhabi e'tiqodiga binoan, ushbu hadislarining ma'no-mazmuni tamomila oshkor va ayondir. Holbuki, ahli sunnat ulamolari mazkur hadislar kimga tegishli ekanligini aniqlab olishda boshi berk ko'chaga kirib qolishgan.

Zero, agar dastlabki to'rt xalifani va ularga bani Ummayya va bani Abbos xalifalarini qo'shib, hisoblaydigan bo'lsalar, ularning soni o'n ikkitadan oshib ketadi. Agar bani Abbos

1. Oldingi manba.

xalifalarini nazarda tutadigan bo'lsalar ham ularning soni o'n ikkiga to'g'ri kelmaydi.

Demak, na dastlabki xalifalarning soni o'n ikki nafar bo'lgan, na bani Umayya va bani Abbos xalifalarini qo'shib hisoblasak, o'n ikki nafarga to'g'ri keladi hamda har qaysi alohida hisobga olinsa-da, o'n ikki adadga muvofiq emasdir va bu o'n ikki adad hech bir hisob-kitobga to'g'ri kelmaydi.

Ustiga ustak, bani Umayya xalifalari orasida *Yazid bin Muoviya* kabi va Bani Abbos xalifalari orasida *Mansur Davoniqiy* va *Horun Ar-Rashid* singari qonxo'r va zolim xalifalar bo'lgan. Ularning sodir etgan bag'oyat og'ir zulm va jinoyatlari borasida hech bir shak-shubhaga o'rin yo'qdir. Shuning uchun, ularni qandayiga Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning xalifalari, vorislari va islomga izzat va yuksaklik bag'ishlovchi rahnamolar deb hisoblash mumkin?! Har qancha xalifa, voris va yo'l boshchi bo'lish me'yorlarini oddiy va sodda shaklda bayon qilsak ham, bunday shaxslar doiradan tashqaridadirlar.

Shunday qilib, o'n ikki sonini faqat shialar e'tiqod qiladigan o'n ikki imomga tatbiq etishdan boshqa to'g'ri yechim topib bo'lmaydi.

So'zimizning tasdig'i o'laroq, Ahli sunnatning ikki nafar buyuk allomalari nazarini ko'zdan kechiramiz:

Sahihi Muslimga sharh yozgan imom Navaviy mazkur hadislarning ma'no-mazmuni haqida aytadi:

ويحتمل أوجهًا آخر والله أعلم بمراد نبيِّه صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ [وآله] وَسَلَّمَ

1. Ahmad ibn Hanbal, «Musnad Ahmad», 1 – jild, 398 – bet.

«*Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam) (ushbu hadisdan) boshqa ma'nolarni nazarda tutgandirlar. Alloh taolo O'z Payg'ambarining ko'zlagan maqsadidan ogohdir.*»¹

Sahihi Buxoriyga sharh yozgan Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy bu borada yozadi:

والعلم عند الله تعالى بعد ذكر أقوالٍ مختلفةٍ حولَ عدد الخلفاء والأئمة الذين لا بُدَّ أن يكونوا من قريش ولم ينته إلي النتيجة.

«*Quraysh qabilasidan bo'lishi shart bo'lgan xalifalar va imomlar soni xususida turli qavollarni (nazarlarni) zikr qilib (muayyan) natijaga erisha olmagach, uning ilmi Alloh taolo nazdidadir, deymiz*»²

1. Imom Navaviy, «*Sahihi Muslim bisharhin-Navaviy*», Bayrut-Livan chopi, dorul kitobil-arabiy nashriyoti, 12-jild, 201-betdan 203-betlargacha va shuningdek, imom Navaviy, «*Sharhi Sahihi Muslim*» Bayrut-Livan chopi, dorul qalam nashriyoti, 33-kitobul imaarah, 12-jild, 443-betdan 445-betlargacha.

2. Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy, «*Fathul-Boriy sharhi Sahihi Buxoriy*», Bayrut-Livan chopi, dorul kutubil ilmiyya nashriyoti, Kitobul ahkom, 2-bobul umaroh min Quraysh, 13-jild, 147-betdan 150-betlargacha.

Bu haqda Ahli sunnatning buyuk va mashhur olimi fikrlarini diqqat ila mutolaa qilsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shayx Sulaymon ibn Ibrohim Qunduziy Hanafiy (hanafiy mazhabi ulamolaridan) o'zining «Yanobi'ul mavaddah» nomli kitobida shunday yozadi:

«Ayrim tadqiqotchilarning aytishicha, Payg'ambardan keyingi xalifa va vorislarning soni o'n ikki nafar ekanligi xususidagi hadislar mashhur bo'lib, ko'p sanadlar bilan rivoyat qilingan. Biroq vaqt o'tishi bilan ushbu haqiqat ayon bo'lmoqdaki, Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam)ning bu hadislardan ko'zlagan maqsadlari o'z xonadonlari va Ahli-Baytlaridan bo'lgan o'n ikki xalifa va imomlardir. Zero, mazkur hadislarni dastlabki xalifalarga tegishli, deb ayta olmaymiz, negaki, ularning soni to'rt nafardan ortiq emas edi. Bani Umayyaga ham tegishli, deya olmaymiz, zero, ularning soni o'n ikki nafardan ziyod edi va Umar bin Abdulazizdan tashqari ularning hammasi zolim va sitamkor edilar. Ustiga ustak, ular bani Hoshimdan emas edilar, holbuki, «Abdulmalik bin Umar» «Jobir bin Sahara»dan qilgan rivoyatiga ko'ra, Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam): «Xalifalarning hammasi bani Hoshimdan bo'ladi», deb marhamat qilganlar. Payg'ambarimizning bu o'n ikki nafar qaysi toifadanligini sekin va ohista aytganlari, ushbu fikrimizning dalilidir. Zero, ko'pchilik bani Hoshim xalifa bo'lishiga muvofiq emas edi. Va shuningdek, mazkur hadisidagi o'n ikki xalifani Bani Abbos toifasidagi hukmdorlarga ham tatbiq eta olmaymiz. Zero, ularning soni ham o'n ikki nafardan ortiq edi va bundan tashqari, ular quyidagi:

﴿قُلْ لَا أَسْأَلُكُمْ عَلَيْهِ أَجْرًا إِلَّا الْمَوَدَّةَ فِي الْقُرْبَىٰ﴾

(Ey, Muhammad,) ayting: «Men sizlardan bu (chekkan zahmatim) evaziga ajr-mukofot emas, faqat qarindoshlik mehrinigina so'rayman, xolos» (Sho'ro surasi, 23 – oyat). «Mavaddat oyati»ga va «Kaso» hadisiga nibatan beparvo bo'lib, unga amal qilmadilar.

Shu bois, ushbu hadisni faqat payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (sallallohu alayhi va olihi vasallam)ning Ahli-Baytlaridan bo'lgan o'n ikki imomgagina tatbiq etishimiz mumkin. Zeroki, ular ilm va ma'rifatda o'z zamonalaridagi shaxslarning hammasidan ko'ra, dono, zuhd va taqvoda barchadan afzal, asl va nasabda esa hammadan yuqoridadirlar. Ularning bilimlari, Alloh tamonidan ato etilgan ilmi ladunniy bo'lib, uni o'z bobolari Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam)dan meros qilib olganlar.

Ushbu fikr-mulohazamizni Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam)dan Ahli-Bayt borasida rivoyat qilingan Saqalayn va shu kabi ko'plab hadislar tasdiqlaydi.»

Qizig'i shundaki, men (kitob muallifi) Makkaga qilgan safarimda Hijozlik Ahli sunnat ulamolari bilan bu hadis borasida suhbatlashganimizda, ular «ajoyib» bir yechim topibdilar. Ular yuqoridagi o'n ikki amir va xalifa haqidagi hadisni boshqacha tafsir va tahlil qilish choralarini ko'rib, quyidagi fikr-mulohazani bildirishgan:

1. Shayx Sulaymon ibn Ibrohim Qunduziy Hanafiy, «Yanobi`ul mavaddah», 3 – jild, 77 – bob, 504 – bet.

«O'n ikki xalifa va vorisdan nazarda tutilgan shaxslar, guyo islomning ilk davridagi dastlabki to'rt xalifa (xulafoi roshidin) bo'lib, qolgan sakkiz xalifa esa haligacha vujudga kelmagan va kelajakda kelar emish!»

Ularning yuqoridagi qilgan tafsir va tahlillari asosida topgan ushbu yechimlaridan boshi berk ko'chaga kirib qolganliklari yaqqol ma'lum bo'ladi.

Ular hadisda o'n ikki xalifa va amir bir-biridan uzilmay ketma-ket kelishlarini hisobga olmagan holda, o'zlariga yuzaki va sathiy bir yechimni topib olgandek ko'rinadilar.

Ammo bizning ochiq-oydin so'zimiz shundan iboratki, ushbu hadisdan faqat shialarning o'n ikki imomigina nazarda tutilgani xususidagi yorqin tafsir va tahlil hamda aniq dalil va isbotlar bo'la turib, nima uchun boshqa yechimlar ketidan izlanib, boshi berk ko'chaga kirib qolgan shaxs kabi o'zimizni qiynab qo'yishimiz kerak ekan?!

Imomlarning ismlari bilan tayin etilganliklari

Diqqatga sazovor bo'lgan narsa shundan iboratki, Ahli sunnat ulamolarining qilgan rivoyatlari orqali aziz payg'ambarimiz Muhammad Mustafo *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* dan bizga etib kelgan ba'zi hadislarda o'n ikki imomning ismlari ochiq-oydin zikr qilinib, ularga xos xususiyatlar va belgilar ham aytib o'tilgan!

Ahli sunnatning taniqli olimi bo'lmish Shayx Sulaymon

Qunduziy Hanafiy hazratlari yuqorida aytganimiz «*Yanobi'ul mavaddah*» nomli kitobda shunday rivoyat qilib aytadilar:

Na'sal ismli bir yahudiy Payg'ambarimning huzurlariga kelib, ul zotga bir necha savollar bergach, ul hazratdan keyingi xalifa va vorislar borasida so'raydi. Shunda Sarvari olam ularni tanishtirish uchun shunday marhamat qiladilar:

إِنَّ وَصِيَّ عَلِيٍّ بْنِ أَبِي طَالِبٍ، وَ بَعْدَهُ سِبْطَايِ الْحَسَنِ وَ الْحُسَيْنِ، تَتَلَوُهُ تِسْعَةُ أَيْمَةٍ مِنْ صَلْبِ الْحُسَيْنِ. قَالَ: يَا مُحَمَّدُ فَسَمِّهُمْ لِي. قَالَ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَآلِهِ وَسَلَّمَ: إِذَا مَضَى الْحُسَيْنُ فَأَبْنُهُ عَلِيٌّ، فَإِذَا مَضَى عَلِيٌّ فَأَبْنُهُ مُحَمَّدٌ، فَإِذَا مَضَى مُحَمَّدٌ فَأَبْنُهُ جَعْفَرٌ، فَإِذَا مَضَى جَعْفَرٌ فَأَبْنُهُ مُوسَى، فَإِذَا مَضَى مُوسَى فَأَبْنُهُ عَلِيٌّ، فَإِذَا مَضَى عَلِيٌّ فَأَبْنُهُ مُحَمَّدٌ، فَإِذَا مَضَى مُحَمَّدٌ فَأَبْنُهُ عَلِيٌّ، فَإِذَا مَضَى عَلِيٌّ فَأَبْنُهُ الْحُسَيْنُ، فَإِذَا مَضَى الْحُسَيْنُ فَأَبْنُهُ الْحُجَّةُ مُحَمَّدٌ خ مَّ دَّ الْمَهْدِي فَهَوْلَاءِ إِنْسِي عَشْرَ ...

«*Mening vorisim va o'rinbosarim (xalifam) Ali ibn Abi Tolib va undan so'ng ikki nabiram Hasan va Husayndir va (imom) Husayndan so'ng, Husaynning zurriyotidan bo'lgan to'qqiz imom kelurlar.*

Yahudiy kishi yana dedi: Ana o'sha to'qqiz imomning nomlarini menga aytib bering! Shunda Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam) marhamat qildilar:

Husaynning (peshvo, rahbar, va boshliqlik) zamoni tugagach, uning o'g'li Ali (imom Zaynul obidiyn)dir, Ali (ibn Husayn, Zaynul obidiyn)ning peshvolik va boshliqlik zamoni tugagach, uning o'g'li Muhammad (ibn Ali, imom Boqir)dir, imom Muhammadning peshvolik zamoni tugagach, uning o'g'li Ja'far (ibn Muhammad,

imom Sodiq)dir, imom Ja'far Sodiqning peshvolik zamoni tugagach, uning o'g'li Muso (imom Kozim)dir, imom Musoi Kozimning peshvolik zamoni tugagach, uning o'g'li Ali (imom Rizo)dir, imom Ali Rizoning peshvolik zamoni poyoniga etgach, uning o'g'li Muhammad (imom Javod)dir, imom Muhammadning peshvolik zamoni nihoyasiga etgach, uning o'g'li Ali (imom Hodiy yoki imom Naqiy)dir, imom Alining peshvolik zamoni yakuniga etgach, uning o'g'li Hasan (imom Hasan Askariy)dir, imom Hasan Askariyning peshvolik zamoni tugagach, uning o'g'li Hujjat Muhammad Mahdiy peshvo, rahbar, boshliq va yo'l boshchi bo'lur. Bular, o'n ikki xalifa bo'lib, mendan so'ng mening vorislarimdir.»¹

Va shuningdek, yuqoridagi «*Yanobi'ul mavaddah*» kitobida «*Manoqib*» nomli kitobdan boshqa bir hadis rivoyat qilgan. Ushbu hadisda o'n ikki imom va peshvolar ism va xususiyatlar bilan bayon qilinib, oxirgi imom va xalifa hazrati Mahdiy (*alayhis salom*)ning ko'zlardan g'oyib bo'lishlari, so'ngra zuhur va inqilob qilishlari va yer yuzini zulm va zo'rvonlik, fasod-buzg'unlikka to'lib toshgach, adolat va yaxshilikka to'ldirishlari aytilgan.²

Aytib o'tish lozimki, shialar tarafidan ushbu mavzu haqida rivoyat qilingan hadislarining soni juda ko'p bo'lib, mutavotir³ darajasidan ham oshadi.

1. Shayx Sulaymon ibn Ibrohim Qunduziy Hanafiy, «Yanobiy`ul mavaddah», 3 – jild, 76 – bob, 499 – bet.

2. Yuqoridagi manba, 3 – jild, 76 – bob, 500 – bet.

3. Ushbu so'zga kitobning 269 – betida izoh berilgan.



Kimki bu dunyodan ko'z yumsa-yu, o'z zamonasining imomini tanimasa...

Qiziqarlisi shundaki, Ahli sunnatning mo'ʻtabar kitoblarida ham, Paygʻambarimizdan quyidagi hadis rivoyat qilingan:

مَنْ مَاتَ بِغَيْرِ إِمَامٍ مَاتَ مِيتَةً جَاهِلِيَّةً

«Kimda kim o'z zamonasining imomisiz (ya'ni uni tanimay) dunyodan o'tsa, jaholat o'limi bilan o'lgan bo'ladi.»¹

Xuddi shu hadis shia manbalarida quyidagicha rivoyat qilingan:

مَنْ مَاتَ وَلَا يَعْرِفُ إِمَامَهُ مَاتَ مِيتَةً جَاهِلِيَّةً

«Kimda kim o'lsa-yu, o'z zamonasining imomi va peshvosini tanimay o'tsa, jaholat o'limi bilan o'lgan bo'ladi.»²

Ushbu hadisning yorqin tarzda guvohlik berishicha, har bir asr va zamonda barcha gunoh va xatolardan pok va yiroq bo'lgan ma'sum imom mavjud bo'lib, ushbu imomni tanish vojib va zarurdir. Uni tanimaslik esa shu darajada zarar va ziyon hisoblanganki, johiliyat davridagi kofirlik holatiga muhtalo bo'lgan holda, olamdan o'tish bilan barobar ekani aytilgan.

Bu hadisda nazarda tutilgan imom va peshvo Chingizxon, Horun Ar-Rashid va o'zgalarga qaram bo'lgan zolim shaxslar

1. Al-Mu`jamul mufahris lialfozil ahodisin-nabaviy, 6 – jild, 302 – bet.

2. Bihorul anvor, 6 – jild, 16 – bet (eski chop).

kabi hukumat tepasiga kelgan hukmdorlarmikan?

Shak-shubhasiz, ushbu savolga salbiy javob bergaymiz. Negaki, ko‘pincha hukmdorlar va yurtboshilar noloyiq, zolim, zo‘ravon, gunohkor va ba‘zan SHarq yoki G‘arb davlatlariga tobe va qaram bo‘lib, ajnabiy va yotlarning siyosatini amalga oshiruvchi shaxslardir. Shubhasiz, bundaylarni «*imom*» va «*peshvo*» deb bilib, qabul qiladigan bo‘lsak, ular odamni halokat sari olib borib, jahannamga jo‘natishlari aniqdir.

Demak, har bir asr va zamonda ma‘sum imom va peshvo bor bo‘lib, uni topib tanimoq, uning peshvolik va rahbarligini qabul etmoq lozim va zarurdir.

Shuni ta’kidlash ham lozimki, ma‘sum imomlarning peshvoliklarini birma-bir isbotlash yo‘li yuqoridagi uslubdan tashqari, oldingi har bir imomdan keyingi imom va peshvo haqida rivoyat qilingan hadislar yordamida va shuningdek, imomlarning ko‘rsatgan mo‘‘jizalari orqali amalga oshadi.

* * *

O‘ylab javob bering:

1. O‘n ikki imom va xalifa haqidagi hadislar qaysi kitoblarda keltirilgan?
2. Ushbu hadislarining ma‘no-mazmunini aytib bering.
3. Ahli sunnatning bu hadisni to‘g‘ri tafsirlab, uni tatbiq etishdagi qiyinchiliklarini izohlang.
4. Ahli sunnat hadislarida ham imomlarning ismlari zikr qilinganmi?
5. O‘n ikki imomlarning imomat va peshvoliklarini isbotlash uchun qanday yo‘llar mavjud?

10- DARS:

Imom Mahdiy – o‘n ikkinchi imom va olamning buyuk islohotchisi

Qora tunning yakuni;

Hozirgi kundagi jahonning vaziyatiga, jinoyat, qonxo‘rliklar, qirg‘inlar, nohaq qon to‘kishlar, xalqaro sahnalardagi tortishuvlar, kelishmovchiliklar va siyosiy zo‘ravonliklarning kundan kunga ortib borishiga hamda axloqsizliklar, fasod va buzg‘unliklarning ko‘payishiga nazar solib, kuzatadigan bo‘lsak, beixtiyor o‘zimizdan; «*Qachongacha bu vaziyat davom etadi? Nahotki, bunday jinoyat va buzg‘unliklarning chegarasi bo‘lmay, ularning doirasining qamrovi kengayib boradi va oqibat, butun insoniyat jamiyati doimiy bir jang va urushga sho‘ng‘ib ketib, nobud bo‘lisha-ya? Yoki mafkuraviy va e‘tiqodiy og‘ishlar va axloqiy buzg‘unliklar botqog‘i bashariyatni o‘ziga tortib cho‘ktirib yuboradimi?*»

«*Va yoxud najot topish va tuzalib ketishga umid bormi?*» deb so‘raymiz.

Bu kabi savollarga ikki javob mavjud:

Birinchi javob: Badbin moddiyunchi¹lar tomonidan berilgan javob shundan iboratki, jahonning kelajagi qorong‘i bo‘lib, har on va zamonda xavfli hodisa yuz berishining ehtimoli bor.

Ikkinchi javob: Ammo samoviy dinlarning ta‘limotiga e‘tiqod qiladiganlar, ayniqsa musulmonlar, maxsus shialarning ushbu savollarga beradigan javobi va dunyoqarashi

1. Ushbu so‘zga kitobning 21 – betida izoh berilgan.

esa o'zgachadir.

Ularning e'tiqodicha, bu qorong'i va butkul fasodga to'la kunlarning ketidan yorug' va umidbaxsh kelajak bordir. Bu qora bulutlar, balo va o'lim keltiruvchi to'fonlar va vayron qiluvchi sellar axir-oqibat, barham topajak va uning o'rniga musaffo osmon, yorug' quyosh va orombaxsh kunlar kelajak.

Bu dahshatli girdoblar ko'z o'ngimizda nihoyasiz bo'lmay, balki olis bo'lmagan ufqda najot sohilining belgilari ko'zga ko'rina boshlanajak.

Butun olam buyuk bir islohotchining intizoridadir, u o'zining ulkan inqilobi bilan butun yer yuzini haq-haqiqat va adolatga to'ldirajak. Albatta turli dinlarda bu buyuk islohotchini turli-tuman nomlar bilan keltirganlar. Arab shoirining aytishicha;

عباراتنا شئى و حُسْنُكَ وَاجِدٌ وَكُلُّ إِلَى ذَاكَ الْجَمَالِ يُشِيرُ

«So'z va iboralarimiz har xil, ammo sening go'zalliging bir va yagonadir. Va aytadigan barcha so'z-iboralarimiz o'sha go'zallikka ishora qilur!»

Ilohiy fitrat va buyuk islohotchining zohir bo'lishi

Insonning ichki hissiyoti va botiniy ilhomlari gohida aql-idrokning muhokamasidan ko'ra, kuchliroq bo'lib, nafaqat Allohni tanishda, balki barcha e'tiqodiy masalalarda, bizga yo'l ko'rsatadi va ushbu masalada ham, bizni etaklab o'z ta'siriga egadir.

Ushbu ichki hissiyotning belgilari:

Birinchi; Hamma insonlarning jahon miqyosidagi keng qamrovli adolatga nisbatan muhabbati bordir. Zero, butun xaloyiq har qanday xulq-atvor va qarashlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar, adolat va sulhni sevadilar va butun vujudlari bilan jahon miqyosidagi adolat va sulhni talab qiladilar. Butun insonlarning jahoniy adolat va sulhni istashlari, buyuk

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

islohotchi zohir bo'lishi fitriy ekanligiga eng yaxshi dalildir. Negaki, qaysi masalada hamma odamlarning umumiy istak va muhabbatlari bor bo'lsa, o'sha masala fitriy ekanligiga eng yaxshi dalil bo'la oladi (diqqat qiling!).

Har bir haqiqiy va fitriy ishq-muhabbat tashqi olamda bir ma'shuq va mahbub borligidan va uning jozibasidan darak beradi. Shunday ekan, qandayiga Alloh inson qalbida bu ishq-muhabbatni yaratib qo'ygan bo'lsa-yu, ammo uning amalga oshishini esa ta'minlamasa?

Shu yerda adolatni talab qiluvchi insoniyatning vijdoni va fitratiga muvofiq o'laroq, dunyo bir kuni kelib, adolat va sulh-tinchlikka to'lib, adolat butun jahonni qamrab olajak, zulmsitam va zo'ravonlik tag-tomiri bilan yo'qotilajak. Bu ishni amalga oshiradigan buyuk islohotchi esa, butun bashariyatni yagona bir o'lka va hokimiyatga aylantirib, adolat asosida ularga hukmronlik qilajak va ular bir bayroq va bir davlatning ostida birlashib, bir-birlarini tushungan holda sulh, safo va samimiyat bilan hayot kechirajaklar.

Ikkinchidan; Jahondagi butun dinlar va mazhablar umumiy shaklda buyuk islohotchining kelishini intizorlik bilan kutmoqdalar. Taqriban hamma dinlarda bu xususida e'tiqod mavjudligi ko'zga tashlanadi va ularning hammasi buyuk xaloskor kelib, bashariyatni og'ir ahvoldan qutqarishiga ishonishadi. Mavjud bo'lgan sanad va hujjatlarning ko'rsatishicha, ushbu e'tiqod umumiy va qadimdan bor bo'lib, sharq va g'arbdagi barcha millat-elatlar va dinlar kelajakda, odil hukmron va podshoh kelishiga e'tiqod qiladilar. Ammo islom dini komil o'laroq, bu masala unda to'la-to'kis va mufassalroq bayon etilgan.

* * *

Zardushtiylarning mashhur kitobi bo‘lmish **«Zand»**da Izadon (yaxshilik va adolat xudosi) va Ahrimanon (zulm va yomonlik xudosi)ning o‘zaro doimiy kurashuvi bayon qilingach, shunday deyiladi: *«U vaqt Izadon Ahrimanon ustidan g‘alaba qozonadi va uni yer yuzidan yo‘qotadi... Butun olam haqiqiy saodatga erishajak va odamizot yaxshilik va saodat taxtiga o‘tirajak!»*

Zardushtiylarning boshqa bir kitobi bo‘lmish **«Jomosbnoma»**da esa Zardushtning tarafidan bunday naql qilinadi: *«Arablarning sarzaminidan katta boshli, yirik tanali va baquvvat bir kishi chiqib, o‘zining bobokalonining dinini qayta jonlantirish uchun ko‘p sonli sipohlari bilan butun yer yuzini egallaydi va unda adolat bilan hukmronlik qilajak.»*

Hindularning **«Vashen javak»** nomli kitobida shunday yozilgan: *«Axir-oqibat, butun yer yuzi Xudoning sevikli bandasining qo‘liga o‘tajakdir va u Xudoning xos bandalari -dandir.»*

Hindularning **«Bosak»** nomli kitobida esa shunday yozilgan: *«Dunyoning hozirgi davri tugab, oxir zamonda bir odil podshoh yer yuzini egallaydi. Va u farishtalarning, parilarning va odamlarning peshvosi va rahbari bo‘lajakdir. SHubhasiz, haq uning tarafida bo‘lg‘usidir. U dengizlar, tog‘lar va yer ostidagi pinhon bo‘lgan narsalarni qo‘lga kiritajak. Ko‘k va yerdagi barcha narsalardan xabar berajak va undan buyukroq hech kim dunyoga kelmas!»*

Ahdi qadim (Tavrot va uning ilovalari)dan bo‘lgan hazrati Dovud payg‘ambarning **«Mazomir»** nomli kitobida yozilishicha: *«Yomonlarning ildizi quriydi, ammo Xudoga tavakkul qiluvchi solih bandalar esa yerning vorisi bo‘lajaklar.»* Xuddi shu kitobda yozilishicha: *«Siddiq va rostgo‘ylar yer yuzini egallaydilar va hamisha yer yuzida qolajaklar.»* Tavrotning **«Ash‘iyoi nabiy»** nomli kitobida shunga o‘xshash iboralar bitilgan. **«Matto»** Injilining yigirma to‘rtinchi faslida esa bunday deyilgan:

«Yashin sharqda paydo bo'lib, to g'arbga qadar ko'ringanidek, bir kun kelib inson bolasi ham xuddi shunday haybat bilan hukumatga kelajak...»

«**Luqo**» Injilining o'n ikkinchi faslida bunday yozilgan: «Bellaringizni mahkam bog'lab, o'z chiroqlaringizni yondirgan holda saqlanglar. O'z sarvari va peshvosini intizorlik bilan kutayotgan kimsadek bo'linglar. Qachonki, kelib eshigingizni taqillatsa, darrov uning oldiga tayyor holda peshvoz chiqinglar!»

«**Aloim zuhur**» (zuhurning belgilari) nomli kitobda yozilishicha; «Xitoyliklarning qadimgi kitoblarida, hindularning aqidalarida, Skandinaviya orollari aholisi o'rtasida, hatto qadimgi misrliklarning orasida va Meksikaning mahalliy qabilalari ichida ham butun yer yuzida adolat yaratuvchi odil va islohotchi hukmdor kelishiga e'tiqod qilinganligini mushohada qilish mumkin.»

* * *

Aqliy dalillar

1. Dunyoning yaratilishi bizga beradigan saboqqa ko'ra, bashariyat o'zining hayotining oxirida adolatli qonunga bo'yin egib, adolat asosida qurilgan tuzumga va ustuvor sulh-tinchlikka taslim bo'lishi kerak.

Batafsilroq izohlaydigan bo'lsak, bizga ma'lum bo'lishicha, borliq olamning qurilmasi va undagi hamma narsalar muayyan qonun-qoidalar asosida yaxlit bir nazmu tartibga ega bo'lishi o'zaro bog'liq va yagona tuzum mavjudligidan dalolat beradi.

Tartib va intizom, qonun va qoida, hisob va kitob hamda dasturilamal asosida ish yuritilishi ushbu jahonning eng asosiy va muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Buyuk sayyoralardan boshlab, to ignaning uchiga bir necha million sonda sig'dirsa bo'ladigan atom zarrachasigacha

bo'lgan butun mavjudot aniq va muayyan nazmu tartibga tobedir. Inson organizmidagi turli a'zolar, ajoyib tuzilgan kichik bir hujayradan boshlab, to inson miyasini ishlash tarzi, asab tizmasi, yurak va o'pkaning tuzilmasigacha bo'lgan a'zolarining hammasi o'ta ingichka, aniq va muayyan nazm-tartibga egadir. Ushbu soha donishmandlarining aytishicha, inson organizmidagi a'zolarining har biri juda ham aniq va to'ppa-to'g'ri ishlaydigan soat singari inson badanida ishlaydi va o'ta aniq va muayyan tartibda qurilgan kompyuter tuzumi ularning qarshisida ahamiyatsiz va arziyasiz ko'rinadi. Bundan tashqari, daryolar ortidagi tirik jonzorlar va osmonlardagi sayyoralar va xullas butun mavjudot, yagona bir sistemani tashkil etishi va o'zaro tartib va bog'liqlikka ega ekanini kuzatishimiz mumkin.

Shunday ekan, qandayiga ana shu ulkan tizimning bir bo'lagi hisoblangan inson ushbu tuzum va nazmu tartibga zid o'laroq, tartibsiz ravishda jang olovini yoqib, zulm-sitam bilan qon to'kib, hayot kechiraveradi?! Tartibsizlikning bir turi bo'lmish adolatsizliklar, axloqsizliklar va ijtimoiy buzg'unliklar doim bashariyat ustidan hukmronlik qila oladimi?!

Suhbatimizdan quyidagi xulosaga kelamiz:

Yaratilish tuzumini kuzatish bizni ushbu haqiqatdan ogoh etadiki, axir-oqibat bashariyat ham, o'zining asl yaratilish maqsadi tarafiga qaytib, zulm-sitam va adolatsizliklarga barham berib, tartib-intizomli qonun-qoidaga va adolatli tuzumga bo'yin egib tinch-totuv hayot kechirajak.

* * *

2. Jamiyatning kamolot sari harakatlanayotganligi; bashariyat ravshan va porloq kelajak sari borayotganligiga yana bir dalil uning hamisha takomil topish yo'lida oldinga siljishidir. Ushbu haqiqat hammaga ayondirki, insoniyat vujudga kelib, o'zini tanigan kundan buyon hech qachon bir

pog'ona va bosqichda to'xtab qolmay, doimo oldinga siljib taraqqiyot yo'lida qadam tashlagan.

Moddiy jihatdan olib qarasaq, turar joy, kiyim-kechak, oziqlanish turi, naqliyot vositalari, ishlab chiqarish sanoati bir kuni o'ta ibtidoiy shaklda bo'lib, insonlar juda ham sodda va oddiy yashaganlar. Endilikda esa rivojlanish jarayoni shunday bir bosqichga etib borganki, inson aqlini hayratga solib, ko'zlarni qamashtiradi va shubhasiz, bu taraqqiyot sari ilgariamoq rivoji hanuz ham davom etmoqda.

Ilm-fan taraqqiyoti jihatidan qaraydigan bo'lsak, bashariyatning bu jihatdagi harakati ham yuqori sur'atda oldinga qarab davom etmoqda va insonlar har kuni yangi kashfiyot, yangi ilmiy tadqiqot va allaqanday mavzularda ilmiy ixtirolarni qo'lga kiritmoqdalar.

Ushbu «*takomillashish qonuni*» axir-oqibat, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy tomonlarni ham qamrab olib, bu jihatdan ham ro'y berishi tabiiydir. Ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy tomonlarda takomil topish insoniyatni adolatga asoslangan yagona qonunchilik, ustuvor adolat va sulh hamda axloqiy va ma'naviy fazilatlar sari etaklaydi. Garchi bugungi kunda fasod-buzg'unlik va axloqsizlik kundan kunga kuchayib borayotgan bo'lsa-da, biroq buning o'zi kuchli bir takomillashish inqilobining asta-sekinlik bilan ro'y berishiga xizmat qilajak.

Albatta biz fasod-buzg'unlik va axloqsizliklarni insonlar orasida kuchaytirib, bunday nopok ishlarni keng targ'ibot qilish kerak, demoqchi emasmiz. Ammo bu ma'naviy tubanliklar, inqirozlar va fasod-buzg'unliklar haddidan oshgach, unga zid va teskari o'laroq, axloqiy bir inqilob ro'y bergay demoqchimiz, xolos. Odamlar gunohlarga g'arq bo'lib, boshi berk ko'chaga kirib qolib, boshlari toshga tegib, jonlari og'izlariga kelganda, ilohiy bir yo'l boshchiga muhtoj ekanliklarini va uning ko'rsatadigan yo'l-yo'riqlarini qabul

qilish lozimligini ko‘proq his qila boshlaydilar.

* * *

Qur‘on va hazrati Mahdiyning zuhurlari

Buyuk samoviy kitob bo‘lmish Qur‘oni Karimda o‘n ikkinchi imom Mahdiy hazratlarining ulkan zuhurlari (kelishlari)ni bashorat bergan ko‘plab oyatlar mavjud. Biz bu oyatlar orasidan faqat birini keltirish bilangina kifoyatlanamiz:

﴿وَعَدَ اللَّهُ الَّذِينَ آمَنُوا مِنكُمْ وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ لَيَسْتَخْلِفَنَّهُمْ فِي الْأَرْضِ كَمَا اسْتَخْلَفَ الَّذِينَ مِن قَبْلِهِمْ وَلَيُمَكِّنَنَّ لَهُمْ دِينَهُمُ الَّذِي ارْتَضَىٰ لَهُمْ وَلَيُبَدِّلَنَّهُم مِّن بَعْدِ خَوْفِهِمْ أَمْنًا يَعْبُدُونَنِي لَا يُشْرِكُونَ بِي شَيْئًا وَمَن كَفَرَ بَعْدَ ذَلِكَ فَأُولَٰئِكَ هُمُ الْفَاسِقُونَ﴾

«Alloh sizlardan iymon keltirgan va ezgu amallarni qilgan zotlarga xuddi ilgari o‘tgan (iymonli) zotlarni (yer yuziga) xalifa (hukmron) qilganidek, ularni ham yer yuzida xalifa qilishni va ular uchun shak-shubhasiz, o‘zi rozi bo‘lgan dinni (Islom)ni mustahkam qilishni hamda ularni xavf-xatarlaridan so‘ng, tinchlik-osudalik holatiga aylantirib qo‘yishni va‘da qildi. Ular Menga ibodat qilurlar va Menga biror narsani sherik qilmaslar. Kimki, mana shu (va‘da)dan keyin, kufr keltirsa, demak, o‘shalargina itoatsiz-fosiqlardir.» (Nur surasi; 55 – oyat.)

Oyati karimadan ko‘rinib turganidek, axir-oqibat, yer yuzidagi hukumatlarning hammasi, bir kun kelib zolim – sitamkor, fosiq va jabborlarning qo‘lidan chiqib, iymonli solih bandalarning qo‘liga o‘tajak va ular butun yer yuzida hukmronlik qilajaklar.

Mazkur oyatda yuqoridagi va‘dadan tashqari yana uchta va‘da berilgan; Birinchisi – dillarning islom diniga moyil bo‘lib, islom dinining mustahkamlanishi va Alloh hokimiyatining qalblarga ma‘naviy nufuz qilishi:

﴿وَلِيَمَكِّنْ لَهُمْ دِينَهُمُ الَّذِي ارْتَضَىٰ لَهُمْ﴾

«Shak-shubhasiz, ular uchun o'zi rozi bo'lgan dinni (islom)ni mustahkam qilgay.»

Ikkinchisi – har qanday notinchlik va xavotirlikning o'rnini tinchlik, osudalik va xotirjamlik egallashi:

﴿وَلِيَدَّبَّكُنَّ لَهُمْ مِّنْ بَعْدِ خَوْفِهِمْ أَمْنًا﴾

«Shak-shubhasiz, ularni xavf-xatarlaridan so'ng tinchlik-osudalik holatiga aylantirib qo'yajak.»

Uchinchisi – shirk va butparastlikning tag-tomiri bilan yo'q qilinishi:

﴿يَعْبُدُونَنِي لَا يُشْرِكُونَ بِي شَيْئًا﴾

«Ular Menga ibodat qilurlar, Menga biror narsani sherik qilmaslar.»

Yuqoridagi oyatning tafsirida hazrati imom Zaynul Obidin (alayhis salom) shunday buyurganlar:

﴿هُمْ وَاللَّهِ شِيعَتُنَا يَفْعَلُ اللَّهُ ذَلِكَ بِهِمْ عَلَىٰ يَدَيْ رَجُلٍ مِنَّا وَهُوَ مَهْدِيُّ هَذِهِ الْأُمَّةِ﴾

«Allohga qasamyod etib aytamanki, oyatda aytilgan solih bandalar bu bizning izdoshlarimiz va shialarimiz bo'lib, Alloh o'z va'dasini bizning xonadonimizdan bo'lgan solih banda vositasi bilan amalga oshiradi va u – bu ummatning Mahdiysidir.»¹

* * *

1. Majma`ul bayon tafsiri, nur surasining 55 – oyati tafsirida keltirilgan.

Hazrati Mahdiy hadis manbalarida

Payg‘ambarimiz xonadonlari ahlidan bo‘lgan «**Mahdiy**» ismli bir odil va solih shaxs orqali butun yer yuzida adolat va tinch-sulhga asoslangan jahoniy hukumat qurilishi haqida ko‘plab hadislar ham Ahli sunnatning va ham shialarning hadis manbalarida rivoyat qilingan. Ushbu hadislarining soni ko‘pligi jihatidan mutavotir¹ darajasidan ham o‘tib ketgan.

Hazrati Mahdiyning o‘n ikkinchi imom va payg‘ambarimiz Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ning xalifa va vorislari ekanligi, ul zot hazrati imom Husayn (*alayhis salom*)ning to‘qqizinchi avlodi va naslidan bo‘lganligi va imom Hasan Askariy (*alayhis salom*)ning bevosita farzandi ekanligi haqidagi hadislar esa shialarning hadis manbalarida mutavotir darajasiga etgan.

Imom Mahdiy zuhur qilishi (kelishi) haqidagi hadislar Ahli sunnatning hadis manbalarida mutavotir darajasiga etganini isbotlash uchun Ahli sunnat ulamolari bu haqda o‘z kitoblarida yorqin tarzda yozib qoldirganliklari biz uchun kifoyadir. Hattoki, oxirgi kunlarda Hijozdagi eng buyuk diniy markaz bo‘lmish «*Robitatul olamil islomiy*» (Islom olamining robotasi) tashkiloti tomonidan chop etilgan risolada imom Mahdiy borasida shunday yozilgan:

«U o‘n ikkita xulafoi roshidinning oxirgisi bo‘lib, Payg‘ambarimiz sahih hadislarida u haqda xabar berganlar. Mahdiy haqidagi hadislar Payg‘ambarimizning ko‘p sahobalaridan rivoyat qilingan.»

So‘ngra ushbu risolada bunday hadislarini rivoyat qilgan «*yigirmata sahoba*»ning nomini zikr qilib, shunday deb, davom

1. Ushbu so‘zga kitobning 269 – betida izoh berilgan.

ettirilgan:

«Aytib o'tilgan sahobalardan tashqari yana ko'plab sahobalar Mahdiy borasidagi hadislarni rivoyat qilganlar... Ahli sunnatning ba'zi buyuk ulamolari hazrati Mahdiga oid hadis va rivoyatlar haqida maxsus kitoblar bitganlar. Jumladan; Abu Naim Isfahoniy, Ibn Hajar Haysamiy, Shavkoniy, Idris Mag'ribiy va Abul Abbos ibn Abdul Mo'minlarning nomlarini keltirishimiz mumkin.» So'ngra qo'shimcha qilib aytadi: «O'tmishdagi va hozirgi kundagi ahli sunnatning buyuk ulamolaridan ayrimlari -ning oshkora aytishlaricha, Mahdiy haqidagi hadislar mutavotir¹ darajasiga etgan.»

Keyin mazkur ulamolarning nomini sanab o'tib, ushbu ibora bilan o'z suhbatiga yakun yasaydi:

«Bir toifa hofiz va muhaddislarning oshkora aytishlaricha, Mahdiga oid hadislar ham sahih hadislar turidan va ham hasan hadislar turidan bo'lib, ularning majmui qat'iy mutavotir darajasidadir. Mahdiyning inqilobiga e'tiqod qilish vojibdir va bu masala ahli sunna val jamoaning qat'iy va inkor etib bo'lmas aqididan sanaladi, johil va bid'atchi kishilardan tashqari hech kim buni inkor eta olmaydi!»

* * *

Imom Mahdiy shia hadislarida

Shu narsani bilishimiz kifoyadirki, asrimiz egasi va sohibi bo'lmish imom Mahdiy hazratlariga oid shialarning hadis manbalarida, payg'ambarimiz Muhammad (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)dan va hidoyat yo'lga boshlovchi imomlarimizdan turli xil roviylar tomonidan rivoyat qilingan hadislarning soni

1. Ushbu so'zga kitobning 269 – betida izoh berilgan.

shunchalik ko'pki, mutavotirlik haddidan ham oshib ketgan. Shu bois, imom Mahdining zuhur qilishlariga e'tiqod qilmoq shialar nazdida dinning zaruriy masalalaridan sanaladi. Kimki, shialar orasiga kirib, ular bilan aloqada bo'lsa, ularning imom Mahdiyga, ul zotning xususiyatlariga, zuhur qilishlarining belgi-alomatlariga va ul hazrat hukumatlarining ma'nomohiyati qandayligiga hamda uning hokimiyat qurishdagi turli dasturlariga nisbatan bo'lgan e'tiqodlaridan xabardor bo'lishi shubhasizdir.

Shialarning yirik ulamolari daslabki asrlardan boshlab, bugungi kungacha bu borada juda ko'plab kitoblar bitib, unda ushbu mavzuga doir turli hadislarni rivoyat qilganlar. Bu borada ko'proq ma'lumot olishni istovchilar *«Mahdiy buyuk bir inqilob»*, *«tinchlik va osudalik bashorati»* va *«Al-Mahdiy»* (muallif: sayyid Sadriddin Sadr) kitoblariga murojaat qila oladilar.

Biz faqat namuna sifatida ba'zilarini bu yerda keltirmoqchimiz: Payg'ambarimiz Muhammad *(sallallohu alayhi va olihi vasallam)* bunday deb marhamat qildilar:

«لَوْ لَمْ يَبِقَ مِنَ الدَّهْرِ إِلَّا يَوْمٌ لَطَوَّلَ اللَّهُ ذَلِكَ الْيَوْمَ حَتَّى يَبْعَثَ رَجُلًا مِنْ أَهْلِ بَيْتِي يَمْلَأُهَا قِسْطًا وَعَدْلًا كَمَا مِلْتُمْ ظُلْمًا وَجَوْرًا»

*«Dunyo tugashiga faqat bir kun qolgan bo'lsa-da, Alloh o'sha kunni uzoq muddatga cho'zadi. Toki, U yer yuziga, mening xonadonim ahlidan bo'lgan bir kishini tanlaydi. U yer yuzini zulm va sitanga to'lganidek, adolat va haqqoniyatga to'ldirajak.»*¹

Boshqa bir hadisda imom Sodiq *(alayhis salom)* dan bunday rivoyat qilinadi:

1. Ushbu hadis shia va ahli sunnatning ko'pgina kitoblarida naql qilingan.

«إِذَا قَامَ الْقَائِمُ حَكَمَ بِالْعَدْلِ وَارْتَفَعَ الْجَوْرُ فِي أَيَّامِهِ وَأَمِنَتْ بِهِ السُّبُلُ وَ أخرجت الأرض بركاتها، و رُدَّ كُلُّ حَقٍّ إِلَى أَهْلِهِ،... وَحَكَمَ بَيْنَ النَّاسِ بِحُكْمِ دَاوُدَ عَلَيْهِ السَّلَامُ وَحَكَمَ مُحَمَّدٌ ﷺ فَحِينَئِذٍ تُظْهَرُ الْأَرْضُ كُنُوزَهَا، وَ تُبْدِي بَرَكَاتِهَا، وَلَا يَجِدُ الرَّجُلُ مِنْكُمْ يَوْمَئِذٍ مَوْضِعًا لِمِصَدَّقَتِهِ وَ لِبِرِّهِ، لَشُمُولِ الْغَنِيِّ جَمِيعِ الْمُؤْمِنِينَ...!»

«Oyoqqa turuvchi inqilob qilganida (o'n ikkinchi imom zuhur qilganida) adolat asosida hukumat quradi. Uning hokimiyati davrida zulm va jabr o'rtadan ko'tariladi, butun yo'llar uning sharofati bilan xotirjam, xatarsiz va osuda bo'ladi, yer o'z barakatini chiqarib to'kadi, har bir haq-huquq o'z egasiga qaytariladi, ul zot odamlar o'rtasida hazrat Dovud va hazrati Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam) singari muhokama va qozilik qiladi. O'sha davrda yer o'zidagi yashirin boyliklar va xazinalarni oshkor etadi va o'zining barakatini namoyon qiladi va biror kimsa xayr-ehson qilishi va sadaqa berishi uchun sadaqa oladigan muhtoj shaxsni topa olmaydi, zero, hamma mo'minlar boy-badavlat yashaydilar.»¹

Imom Mahdiy (Alloh ul zotning zuhurlarini tezlashtirsin) ko'zdan g'oyib bo'lgan paytlarida islom ummatiga rahbarlik va peshvolik qilish mas'uliyati ul zotning umumiy noiblari bo'lmish faqih va mujtahid olimlar tarafidan amalga oshirilib davom etadi.

1. Bihorul anvor, 13 – jild, eski nashri.

O‘ylab javob bering:

1. Xudoparastlar bilan moddiyunlarning kelajakka nisbatan qarashlarining farqi nimada?
2. Fitrat yo‘li bilan hazrati Mahdining zuhur qilishlariga ishonch hosil qilish mumkinmi? Qandayiga?
3. Zuhurga aqliy dalil keltirish mumkinmi? Qaysi dalillar?
4. Qur’onda imom Mahdi haqida nima deyilgan?
5. Imom Mahdiga oid hadislar haqida va ularning darajalari qanday ekanligi borasida aytib bering.

MAOD – QAYTA TIRILISH HAQIDA O‘N DARS

1- DARS:

O‘lim tugashmi yo boshlanish?

Nima uchun insonlarning ko‘pchiligi o‘limdan qo‘rqadilar?

O‘lim hamisha odamlar uchun qo‘rqinchli bir hodisa sifatida ko‘z o‘nglarida gavdalanib, uning borasida fikr yuritmoq ko‘plar uchun hayotning lazzatini yo‘qotish singari ko‘ngilsiz holatga aylanib qolgan.

Ba‘zilar nafaqat o‘limning nomini eshitishdan qo‘rqadilar, balki qabriston nomidan ham nafratlanadilar. Ular qabr va maqbaralarni hashamatli qilib, zebu ziynatlar berish bilan o‘limning asl mohiyatini unutishga harakat qiladilar.

Turli millatlarning urf-odati va adabiyotida bu qo‘rquvning belgilari batamom namoyon bo‘lib, doim «*o‘lim dahshati*», «*o‘lim changali*», «*ajal qahri*» kabi iboralar bilan o‘limni yodga olishadi!

Odamlar o‘zaro bir-birlari bilan o‘lim va shuningdek, dunyodan o‘tgan shaxs haqida suhbatlashayotganlarida, tinglovchini qo‘rquvga solmaslik uchun; «*Xudo ko‘rsatmasin!*», «*tilim lol bo‘lsin*», «*Sizning joningizdan yiroq bo‘lsin*» «*o‘lganning qolgan umrini sizga bergan bo‘lsin*» singari iboralarni qo‘shib, aytish bilan eshituvchi bilan o‘lim xotirasi o‘rtasida devor yaratmoqchi bo‘lishadi.

Endi tahlil qilib ko‘raylikchi, odamlarning har doimgi o‘limdan bunchalik qo‘rqishlarining sababi nima? Nima uchun ba‘zilar esa bu umumiy tasavvurga muxolif (qarshi) o‘laroq, o‘limdan qo‘rqish u yoqda tursin, balki o‘limga tabassum bilan

boqadilar va iftixorli o'lim istiqboliga oshiqadilar?

Tarixdan ma'lumki, ba'zi toifa odamlar o'limga qarshi darmon topish va yosh holda qolish sir-asrorini izlab yurgan bo'lsalar, ayrim insonlar esa oshiqona holda jihad maydoniga shoshilar va o'lim chehrasiga tabassum bilan boqar edilar. Ba'zan ular hayotlarining uzoq davom etganidan shikoyat qilib, haqiqiy mahublari bo'lmish Allohning diydoriga noil bo'lish va Uning roziligini qo'lga kiritish orzusida bo'lurlar. Bugungi kunda ham haq va botil orasida davom etayotgan kurash maydonida shunday insonlar o'z jonlarini ikkilanmay, haqqoniyat yo'lida taqdim etmoqdalar.

* * *

O'limdan qo'rqishning asosiy sababi

Agar diqqat bilan tahlil qilib qaraydigan bo'lsak, o'limdan qo'rqishning asosiy omili faqat ikki narsadan iborat:

1. O'limga «nobud bo'lmoq» deb qarash

Odamlar hamisha nobud bo'lishdan qochadilar. Masalan; kasallikdan qochadilar, chunki, kasallik bu salomatlikning yo'q bo'lishidir, qorong'ilikdan qochadilar, zero, unda nur va yorug'likning yo'q bo'lishidir, kambag'allik va yo'qsizlikdan qo'rqadilar, chunki, u boylik va to'qlikning yo'q bo'lishidir.

Hatto gohida hech kim bo'lmagan bo'sh uyda yolg'iz qolishdan qo'rqadilar va ba'zan ochiq bir cho'lda qo'rquvga duchor bo'ladilar, negaki, u yerda hech kim yo'qdir!

Ajablanarlisi shundaki, ayrimlar o'likdan ham qo'rqishadi va o'lik yotgan xonaga kirib, o'sha yerda bir kecha tunashdan qo'rqishadi. Holbuki, xuddi shu murda tirikligida undan hech qo'rqmas edi!

Endi ko'rib chiqaylik-chi, nimaga odam nobud bo'lib ketishdan bunchalik qo'rqar ekan? Javobi ma'lumdir. Zero, www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

inson vujud va borliqdan iborat bo'lib, vujud va borliqqa chambarchas bog'liqdir va shu bois, faqat vujud va mavjudotlar bilan tanish va oshnodir. U hargiz yo'qlik va mavjudsizlik bilan tanish emasdir. Demak, biz insonlarning yo'qlik va mavjudsizlik bilan yot va begona bo'lishimiz tamomila tabiiy holdir.

Endi agar o'limni hamma narsaning nihoyasi va tugallanishi deb, bilsak va shuningdek, o'lmoq bilan barcha narsalar yakun topadi, deb o'ylasak, o'limdan qo'rqishga haqqimiz bor, hatto uning nomidan va xayoldan o'tkazishdan ham, cho'chimoqqa haqqimiz bor. Negaki, ushbu tasavvur bo'yicha, o'lim hamma narsani bizdan olib qo'yadi.

Ammo agar o'limni yangi bir hayotning boshlanishi va bu hayot mangu va abadiy deb, qaraydigan bo'lsak va o'limni buyuk bir jahon tomon daricha, deb bilsak, nafaqat o'lim va o'lishdan hadiksiramaymiz, balki o'lim bilan bu yangi hayot sari pokiza va izzatli holda solih amallar bilan yo'l olganlarga, hatto tabrik aytamiz.

* * *

2. Nomai amallari qora bo'lganlar

Bir guruh insonlar esa o'limni foniy va yo'q bo'lish deb, bilmaydilar va zinhor o'limdan keyingi hayotni ham inkor etmaydilar. Ammo shunga qaramay, yana o'limdan juda qo'rqadilar.

Nega deganda ularning nomai amallari shunchalik qora bo'lib ketganki, qilgan gunohlari bilan to'lib toshgani uchun o'limdan keyingi dardli azoblardan qo'rqadilar. Ular o'limdan qo'rqishga haqlidirlar. Ular zindondagi og'ir jinoyatga qo'l urgan xavfli mahbuslarga o'xshab, qamoqdan ozod bo'lishdan xavfsiraydilar, zero, ular biladilarki, ularni qamoqdan chiqarishlari bilanoq, o'lim jazosiga tortiladilar.

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

Ular qamoqning temir panjaralariga qattiq yopishib oladilar. Buning sababi, ozodlikni yomon ko'rishlari emas, balki ozodlikning ortidan kutilayotgan o'lim jazosiga mahkum bo'lishlaridir. Xuddi shunday yomon va qabih amallarni bajargan shaxslar ham, ularning ruhlari bu tor qafasdan ozod bo'lishi bilanoq, qilgan zulm va sitam, fasod-buzg'unlik va yovuz amallari tufayli toqat qilib bo'lmaydigan azob-uqubatlarga duchor bo'lishlarini yaxshi biladilar va shuning uchun o'limdan qo'rqadilar.

Ammo o'limni «yo'q» va «nobud» bo'lish deb, hisoblamaydiganlar hamda «nomai amallari qora» bo'lmaganlar, nima uchun o'limdan qo'rqishlari kerak?

Shak-shubhasiz, ular ham yashashni butun vujudlari bilan istaydilar. Ammo o'limdan keyingi narigi dunyoda o'zlarining yangi hayotlari uchun, ko'proq oziqa olib, hozir bo'lishlari uchungina yashashni istaydilar, xolos. Shu bois, Parvardigori karimning rizoligi bo'lgan haq yo'ldagi o'limni qarshilab oladilar.

* * *

Ikki xil dunyoqarash

Aytib o'tganimizdek, insonlar ikki guruhga bo'linadilar. Ko'pchilikni tashkil etadigan guruh o'limdan nafratlanib, undan bezor bo'lsalar, ikkinchi guruh esa Allohning yo'lida shahid bo'lish kabi yuksak maqsad yo'lida yuz beradigan o'limning istiqboliga chiqadilar yoki hech bo'lmasa, umrlari oxiriga etganini sezganda aslo xafa va g'amgin bo'lmaydilar.

Bu ikki xil qarashning sababi, har ikki guruh vakillarining dunyoqarashi farqlanishidir.

Birinchi guruh; bu guruh odamlar o'limdan keyingi oxirat diyorida hayotga ishonmaydilar yoki ishonadigan bo'lsalar-

da, iymonlari zaif bo'lgani uchun, o'lim lahzasini hamma narsa bilan vidolashish deb, biladilar. Albatta hamma narsaga alvido deb, tark etish g'oyat muhdish holat bo'lib, yorug'lik va nurdan butunlay zulmat va qorog'ilik sari qadam tashlamoq singari o'ta dardli va ayanchlidir.

Shuningdek, ular zindondan ozod qilinib, o'limga hukm qilingan jinoyatkor kabi qo'rquv va dahshatda bo'ladilar. Zero, katta jinoyatga yo'l qo'ygan va uning jinoyatini isbotlash uchun etarli va oshkor hujjatlar mavjud bo'lgan shaxs uchun, qamoqdan ozod qilinib, muhokama qilish uchun mahkamaga yuborilishi o'ta xavfli va dahshatli holatdir.

Ammo ikkinchi guruh vakillari esa o'limni yangi tug'ilish deb, biladilar. Ularning e'tiqodicha, odam o'lgandan so'ng qorong'i, tor va chegaralangan dunyodan keng va yorug' olamga ko'chib o'tadi.

Ushbu guruh vakillari bu dunyoni zulm va adolatsizliklarga, jang va qon to'kishlarga va gina-kuduratlarga to'lib toshgan tor va kichik qafas, deb bilib, o'limga esa bunday qafasdan va undagi buzg'unlik va nopokliklardan qutulib, bepoyon, pok va musaffo osmonga qilinadigan parvoz kabi boqadilar. Shu bois, ularning o'limdan qo'rqmasliklari tabiiy holdir. Hazrati Ali (*alayhis salom*) ham shu guruhga mansub bo'lgan zot bo'lib, o'lim haqida shunday deb, marhamat qilganlar:

«وَاللَّهِ لَا يُنُّ أَبِي طَالِبٍ آتَسُّ بِالْمَوْتِ مِنَ الطُّغْلِ بِتُدِّيِ أُمَّهِ»

«Allohga qasam ichib aytamanki, Abu Tolib o'g'lining (o'zlarini nazarda tutganlar) o'limga bo'lgan ishtiyog'i - emadigan bolaning onasi ko'kragiga bo'lgan ishtiyog'idan ham kuchliroqdir.»¹

Islom tarixida imom Husayn (*alayhis salom*) va ul zotning fidokor

1. Nahjul balog'a, 5 – xutba.

yoronlari kabi o'lim va shahid bo'lish lahzasi yaqinlashgan sayin ularning yuzlari quvnoq va shodon holda yorug'lashib, o'z yorlari Allohning diydoriga noil bo'lish ishtiyoqida o'zlariga sig'magan pok insonlarni uchratishimiz bejiz emasdir.

Shuning uchun, hazrati Ali (*alayhis salom*)ning iftixorli hayotlari tarixida aytilishicha, o'sha jinoyatkorning qilich zarbasi ul zotning boshlariga kelib tushganida: «فُرْتُ وَرَبَّ الْكَعْبَةِ» «Ka'baning Rabbiga ont bo'lsinki, rohat bo'ldim (dunyodan qutuldim!)» – dedilar.

Ma'lumki, bu so'zimizning ma'nosi; inson o'zini xatarga solib, Allohning buyuk ne'mati bo'lmish hayotni mensimay va undan ulkan maqsadlarga erishish uchun foydalanmay, o'limini tezlashtirishi kerak degani emas. Balki inson hayotidan to'g'ri foydalanishi kerak va umrining tugashidan, ayniqsa umrini oliy va yuksak maqsad sari sarflagan bo'lsa, qo'rqishi kerak emas, demoqchimiz, xolos.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Nima uchun odamlar o'limdan qo'rqadilar? Buning sabablari nima?
2. Nima uchun ba'zilar o'lim yuziga tabassum bilan qarab, Alloh yo'lida shahid bo'lishni orzu qiladilar?
3. O'lim lahzasini nimaga o'xshatish mumkin? Iymonli pok insonlar bu lahzada nimani his qiladilar? Iymonsiz nopoklar nimani?
4. Siz ham umringizda o'limdan qo'rqmaydigan odamlarni o'z ko'zingiz bilan ko'rganmisiz? Ular haqida qanday xotirangiz bor?
5. Hazrati Ali (*alayhis salom*)ning o'lim haqidagi so'zlari nimadir?

2- DARS:

Maodga ishonmoq hayotga ma'no bag'ishlaydi

Agar bu dunyodagi hayotni boshqa olamsiz nazarga oladigan bo'lsak, u holda hayot ma'nosiz va puch bo'ladi. Bu xuddi ona qornidagi bola (embrion)ning hayotini bu dunyoning hayotisiz tasavvur qilganimizga o'xshab ko'rinadi.

Agar bu tor va qorong'i zindonda bir necha oy qamalgan ona qornidagi embrion aql yuritish qudratiga ega bo'lib, ona qornidagi hayot borasida fikr yuritish qobiliyatiga molik bo'lganida edi, haqiqatan ham taajjublanib, quyidagi savollarni bergan bo'lar edi:

- ❖ Nimaga men bu tor va qorong'i zindonda mahbus bo'lganman?
- ❖ Nega endi qon va suv ichida qo'l-oyoqlarimni qimirlatib yotishim kerak ekan?
- ❖ Umrimning oxirida nima natija hosil bo'ladi?
- ❖ Qayerdan va nima maqsadda kelganman?

Ammo agar ona qornidagi bolaga: *«Sen katta hayot oldidan tayyorgarlik ko'rishing hamda qo'l-oyoqlaring mustahkam va kuchli rivojlanishi va o'sishi uchun ma'lum muddat bu yerda yashashing kerak, bu muddat to'qqiz oydan iborat, undan keyin bog'u-rog'larga, gul-daraxtlarga to'lgan va charaqlovchi quyosh va yarqiroq oy mavjud bo'lgan keng va yorug' dunyoga chiqishing uchun ruxsat berilajak»*, deb tushuntirilsa, u rohatlangan holda nafas olib: *«Nima uchun bu tor va qorong'i dunyoda yashayotganimni endi tushundim»* – deb aytadi.

Ammo agar bolaning ona qornidagi hayotining bu keng olam hayoti bilan bo'lgan aloqasi uzilgan holda nazarga olinsa, u

holda hamma narsa qorong'i va bema'nodek tuyuladi va o'sha yer qorong'i, maqsadsiz va ozor beruvchi zindonga o'xshab ko'rinadi.

* * *

Bizning bu dunyodagi hayotimiz bilan o'limdan keyingi olamning orasidagi aloqa ham xuddi shundaydir. Nima uchun bu dunyoda etmish yil (ko'proq yoki ozroq) qiyinchiliklar ko'rib, u yoq yoki bu yoqqa yugurib yurishimiz kerak?

Avvallari bu dunyoda xom va tajribasiz yashaymiz-u, tajribani qo'lga kiritib, pishiq bo'lgan paytimizda esa umrimiz tugab qolgan bo'ladi. Tahsil olmog'imiz lozim, ammo ilm va ma'rifatda etukli bo'lganimizda qariyalik-ning oppoq qor uchqunlari boshimizga qo'nadi!

Tag'in o'zi nima maqsadda yashaymiz? Biz eb-ichish, kiyim kiyish va uxlash uchun yashaymizmi? Yoki bu takroriy hayotni o'nlab yil davom ettirishimiz uchunmi?

Chindan ham, tepamizdagi musaffo osmon, keng yer, bunchalik ilm o'rganib, tajriba kasb etishlar, bu qadar ustozlar, murabbiylar va olimlar hamma-hammasi faqat bizning eb-ichishimiz va kiyim kiyishimizni ta'minlash uchun va bu takroriy arzimas hayot uchun kerakmi? Olgan ilmlarimiz ham ushbu narsalarni bilish va qo'lga kiritish uchun kerakmi?

Mana shuning uchun maod va qayta tirilishni qabul qilmay unga ishonmaydiganlar uchun darhaqiqat, bu dunyoning hayoti puch va bema'no bo'lib ko'rinadi. Negaki, ular yuqorida aytilgan arzimas narsalarni hayotning maqsadi deb, hisobla olmaydilar va buning ustiga, o'limdan keyingi jahonga ham iymon va ishonchlari yo'qdir.

Shuning uchun, bunday odamlar orasida bu puch va bema'no hayotdan qutulish maqsadida o'z joniga suiqasd qilish hollari

ham tez-tez uchrab turadi. Biroq agar bu dunyoga oxiratning «*ekinzori*» deb qarasak, bu ekinzorga eng yaxshi urug'larni ekish kerakligini va mangu va abadiy hayot bo'lmish oxirat kunida uning hosilini ko'rish zarurligini tushunamiz.

Dunyo oxiratdagi hayotni o'rganish uchun o'quv yurti bo'lib, unda ilm va ma'rifat kasb qilib, o'zimizni mangu bir diyorda yashamoq uchun tayyorlashimiz darkor. Dunyo «*o'tish yo'li*» va maqsadga eltuvchi bir «*ko'prik*»dir, uning ustidan o'tishimiz kerak. Agar dunyoga «*o'tish yo'li*» va «*ko'prik*», deb qarasak, hayot bema'no va puch tuyulmaydi, aksincha unga oxiratdagi mangu va abadiy hayotni obod qilish uchun kurashadigan maydon deb, qaraladi va unda har qancha tirishib olg'a borsak ham, yanada kam sanaladi.

Demak, maod va oxiratga ishonish va iymon keltirish inson hayotiga ma'no va mafhum bag'ishlaydi va insonni «*iztirob*», «*xavotirlanish*», «*ruhiy bezovtalanish*» «*noumidlik*» va «*puchlik*» holatlaridan qutqazib qoladi.

* * *

Oxiratga iymon – tarbiyalanishning muhim omili

Oxiratda ulkan hisob-kitob va muhokama borligiga e'tiqod qilish, ayniqsa bugungi kunda insonlar hayotiga kuchli va favqulodda ta'sirga ega.

Faraz qiling, biror davlatda yangi qonun chiqarilib, yilning ma'lum kunidan boshlab, har kim istagan ishini qilishi mumkin, hech kim jinoiy ish uchun jazoga tortilmaydi, jinoiy ishlar uchun qidiruv olib borilmaydi va xalq jazolanmaslikka ishonch hosil qilgan holda bemalol kun kechira oladilar, harbiy kuchlar va mirshablar iste'foga chiqadilar, sud va adliya organlari butunlay ta'tilga chiqishadi va ertadan boshlangan hayotda yuz bergan jinoyatlar sudda muhokama qilinmaydi deb e'lon

qilinsa, bunday jamiyat qanday ahvolga tushishi mumkinligini ko'z oldiga keltirish bilan vahimaga tushasan kishi.

Qayta tirilish va qiyomat kuniga bo'lgan iymon buyuk bir sud hay'atiga inonmoq demakdir. Ammo qiyomat kunidagi sudlovni bu dunyoning sud hay'ati bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Bunday sudlovning quyidagi xususiyatlari bordir:

1. Bu sud muhokamasida na tanish – bilish qonundan ustun turadi va na tavsiyalar qabul qilinadi va na undagi qozilarning fikrini yolg'on-yashin va soxta hujjatlar bilan o'zgartirib bo'ladi.

2. Bu sud muhokamasida dunyoning sudi kabi ortiqcha dabdaba yo'qdir, shuning uchun hukm qilish cho'zilmasdan har kimning ishi tezlik, osonlik va aniqlik bilan ko'rib chiqiladi va aniq hukm qilinadi.

3. Bu shunday bir sud muhokamasiki, insonlarning ayblov hujjatlari ularning amallari bo'lib, shohidlikka boshqa biror kimsani chaqirmasdan har kimning qilgan amali to'g'ridan-to'g'ri guvohlik beradi va o'zi bilan bajaruvchisining bog'liqligini aniq holda bayon qiladi. Shuning uchun sudlanuvchi kishi sodir etgan ishini inkor qilishining hech iloji yo'q.

Shuningdek, bu sud muhokamasining shohidlari insonning badan a'zolari bo'lmish; qo'l, oyoq, ko'z, til va badan terisi hamda gunoh yoki savob qilgan makoni, ya'ni yer, eshik va uyning devorlaridan iborat. Ushbu shohidlarni inson amalining tabiiy ta'siri singari inkor etib bo'lmas.

4. Bu sudlovning raisi har narsadan ogoh, hech kimga muhtoj bo'lmagan va hammadan ko'ra adolatliroq zot bo'lmish Allohning O'zidir.

5. Beriladigan jazolar va mukofotlar shartlashuv asosida emas, balki har kimning qilgan amali ma'lum bir shakl va

tusga kirib, insonning yonida turadi. Yo insonga aziyat-ozor etkazadi yoki uni osudalik va turli ne'matlarga g'arq qiladi.

Shunday sud muhokamasiga ishonib iymon keltirish esa insonni yuqori darajalarga ko'tarib, hazrati Ali (*alayhis salom*) singari ushbu so'zlarni aytishga undaydi:

«وَاللَّهِ لَأَنَّ آيَاتِ عَلِيٍّ حَسَبَ السُّعْدَانِ مُسَهَّدًا، أَوْ أُجْرَى فِي الْأَغْلَالِ مُصَفَّدًا، أَحَبُّ إِلَيَّ مِنْ أَنْ أَلْقَى اللَّهَ وَرَسُولَهُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ ظَالِمًا لِبَعْضِ الْعِبَادِ، وَغَاصِبًا لِشَيْءٍ مِنَ الْحَطَامِ»

«Allohga qasam ichib aytamanki, kechalari tongga qadar muloyim joy o'rniga botuvchi tikanning ustida uxlab, kunduzlari esa qo'l-oyog'im zanjirband holda meni ko'cha va bozorlarda sudrab yursalar ham, men uchun Qiyomatdagi buyuk sud muhokamasida, parvardigorim huzurida, Uning biror bir bandasiga zulm qilganim holda yoki biror kimsaning haqqini tortib olganim holda (qora yuzli bo'lib) hozir bo'lishdan ko'ra, yaxshiroq va sevimliroqdir.»¹

Oxirat kunidagi sud muhokamasiga bo'lgan iymon va ishonch insonni, hatto o'z birodarining qo'liga qizigan va issiq temirni yaqinlashtirib, uni qo'rqitib, istagidan qaytarishga majbur qiladi. Hazrati Ali (*alayhis salom*)ning huzurlariga akalari Aqil kelib, boshqa musulmonlardan farqli ravishda baytulmoldan bir oz ko'proq mol-mulk berishlarini talab qildi. Shunda hazrati Ali (*alayhis salom*) qizib yotgan temirni Aqilning qo'liga tutdilar. Aqil qizigan temirning issiqligiga chida olmay, faryod etib yubordi. Shu payt, mo'minlar amiri Ali (*alayhis salom*) unga pand va nasihat berib:

«يَا عَقِيلُ! أَتَيْتُ مِنْ حَدِيدَةٍ أَحْمَاهَا إِنْسَانُهَا لِلْعَبِيهِ، وَتَجُرَّنِي إِلَى نَارٍ سَجَرَهَا جَبَّارُهَا لِعَضْبِهِ»

«Ey Aqil sen inson qo'lida oddiy holga aylangan o'yinchoq bo'lmish bu olovning shu'lasida qo'ling kuyishidan qo'rqib faryod

1. Nahjul balog'a, 215 – xutba.

qilasan, ammo o'z birodaringni, Allohning qahru g'azabidan alangalanadigan xavfli olov va o't sari yo'llaysanmi?!» – deb marhamat qilgan edilar.

- Shunday iymon egasi bo'lgan insonni aldash mumkinmi?
- Pora berish yo'li bilan bunday insonlarni sotib olish mumkinmi?
- Qo'rqitish va tahdid qilish yo'li bilan, bunday insonlarni haq yo'ldan og'dirib, zulm va zo'ravonlik tomon yo'naltirish mumkinmi?!

Qur'oni Karimda aytilishicha: Qiyomat kuni gunohkor-lar va jinoyatkorlar o'zlarining nomai amallarini ko'rganlarida faryod etib deydilar:

﴿ يَا وَيْلَتَنَا مَا لِ هَذَا الْكِتَابِ لَا يَغَادِرُ صَغِيرَةً وَلَا كَبِيرَةً إِلَّا أَحْصَاهَا ﴾

«Holimizga voy! Bu qandoq kitobki, na kichik va na katta (gunohni) qoldirmay, barchasini hisoblab qo'yibdi.» (Kahf surasi; 49 – oyat).

Shunday qilib, qayta tirilish va oxirat kuniga bo'lgan iymon va ishonch inson ruhining tubida har bir ish barobarida chuqur mas'uliyat va javobgarlik his qila olish imkonini yaratadi va uni turli og'ish va adashishlar, zulm va zo'ravonliklar qarshisida nazorat qilib turadi.

* * *

1. Nahjul balog'a, 215 – xutba.

O'ylab javob bering:

1. Agar biz yashayotgan muvaqqat va cheklangan dunyodan o'zga olam bo'lmaganda edi, hayot qanday bo'lar edi?
2. Nima uchun oxiratni inkor qiluvchilar orasida o'zini o'ldirish holari ko'p uchraydi?
3. Bu dunyodagi sud muhokamalari bilan oxiratdagi sud muhokamasining orasida nima farq va tafovut bor?
4. Oxirat va qayta tirilish kuniga iymon va ishonch insonning raftoriga qanday ta'sir qiladi?
5. Hazrati Ali (*alayhis salom*) o'z birodarlari Aqilga nima dedilar? Aqilning istagi nima edi va imom unga nima deb, javob berdilar?

3- DARS:

Qiyomat mahkamasining bir namunasi vujudimizda mavjuddir

O'limdan keyingi qayta tirilish va qiyomat kunidagi ulkan sud muhokamasining tashkil etilishi bu dunyoning chamberagida tutqunlikka uchragan biz odamlar uchun yangi bir masala bo'lib ko'ringani bois, Alloh taolo vijdon muhokamasi deb, atalmish bunday sud muhokamasining kichik bir namunasi shu dunyoda bizga ko'rsatib qo'ygan. Biroq unutmashimiz kerakki, bu birgina kichik namunadir, xolos.

Endi bu haqda bir oz mufassalroq so'z yuritsak, yaxshi bo'lardi:

Inson qiladigan amallari uchun bir necha mahkamalarda muhokama qilinadi;

Birinchi mahkama o'zimiz bilgan oddiy va insoniy sudlov organlari bo'lib, kamchilik va za'f-nuqsonlarga to'ladir. Bu organlar tuzumida kamchilik va nuqsonlar bo'lganligi bilan inson hayotida bag'oyat muhim sanalib, jinoyat ishlari ozayishida diqqatga sazovor ta'sirga egadir. Ammo shunga qaramay, bunday organlarning asos va poydevorining tuzilmasiga binoan, ularda adolatning komil va to'liq shaklda ijro etila olmasligi hech kimga sir emas. Zero, agar qonunlar yaxshi bo'lmay, qozilar ham nosolih bo'ladigan bo'lsa, tanish-bilishchilik, poraxo'rlik, noxolislik va nohaqsizliklar ro'y beradi va uning jamiyatdagi ta'siri chippakka chiqadi. Xullas, bunday mahkamalarning bo'lganidan bo'lmagani yaxshiroq. Negaki, ularning bo'lishi xudbin zo'ravonlarning maqsadi amalga oshishiga yordam beradi.

Bordi-yu, qonunlar nisbatan yaxshi va odilona bo'lib, qozilar

ham dono, solih va taqvodor bo'ladigan bo'lishsa, yanada ayrim mohir jinoyatkorlar borki, o'zlarining jinoyat izlarini ustalik bilan yo'qotadilar va tergov organlari ularni topishdan o'jiz qoladilar yoki shunday chora-tadbirlarni ko'rib, rejalar uyushtiradilarki, qozining qo'l-oyog'ini bog'lab qo'yib, mahkama qonunlari-ning kuch va ta'sirini yo'qqa chiqaradilar.

Ikkinchi mahkama hisob-kitobi aniqroq bo'lib, «*amallarning jazosi*» deb, nomlanadi. Bizning qilgan amallarimiz o'zidan asar va taassurot qoldirib, ertami yoki kechmi bizni qamrab olajak. Garchi bu mahkama umumiy bo'lmasa-da, biroq ko'pchilikni o'z ichiga oladi.

Zulm-sitam va zo'ravonlikka asoslangan hukumatlar-ning ko'pini ko'rganmiz. Ular qo'llaridan kelgan jabru jafoni o'z xalqiga ravo ko'rganlar va oxir-oqibat, o'zlari to'qigan tuzoqqa o'zlari ilinib, ularning amallarining in'ikosi¹ va aks sadosi namoyon bo'lib, inqiroz va halokatga uchraganlar. Ulardan qolgan asar faqat ularni nafrat va la'nat bilan eslashdir, xolos. Qaytar dunyo deb, shunga aytadilar. Amallarning jazosi o'zaro chambarchas bog'liq aloqaga ega bo'lgani bois, sahnalashtirish yo'li bilan uning changalidan qochib, qutulganlarning soni juda ozdir.

Bunday mahkamaning ayb-nuqsoni, umumiy bo'lmasligida va aniqlik darajasida hammaga bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra, bizni qiyomat kunining ulkan mahkamasidan behojat qila olmaydi.

* * *

Uchinchi mahkama yuqorida aytilganlardan ham aniqroq va hisob-kitobi chuqurroq bo'lib, bu mahkamaning nomi –

1. «*In'ikos*», «*aks sado*», «*aksilharakat*» va «*reaktsiya*» kabi so'zlar bir ma'noni anglatadi.

«*viydon*»dir.

Darhaqiqat, quyosh sayyorasi o'zining hayratlanarli tuzilmasi bilan g'oyat kichik bir shaklda bir atomning ichida sig'dirilgani singari ichki olamimizdagi viydonni ham, qiyomatdagi sud mahkamasining kichiklash-tirilgan muketidir, deb aytishimiz mumkin.

Zero, har bir insonning ichki olamida jumboqli bir kuch mavjud bo'lib, musulmon faylasuflar uni «*amaliy aql*» deb atasalar, Qur'oni Karimda esa, «*nafsul lavvoma*» deb nomlangan. Endilikda uni «*viydon*» deb, aytadilar.

Inson yaxshi yoki yomon ishga qo'l urishi bilanoq, bu mahkama zudlik bilan shovqin-suronsiz, ammo jiddiy suratda o'z ishini boshlaydi. Yaxshi amal bajargan bo'lsa, insonning ruhini ko'taradi, ammo biror yomon amal qilgan bo'lsa viydon azobi bilan qiynaydi.

Gohida bu viydon qiynoqlari shunday kuchli va shiddatli bo'ladiki, jinoyatkorni ichidan shalloq urib, ruhiy qiynoqqa soladi va oqibat o'limni ochiq og'ush bilan qarshilab olib, yashashdan ko'ra o'lishni afzal ko'radi va o'zining vasiyatnomasida: «*Agar men o'z jonimga suiqasd qilgan bo'lsam, buning sababi viydon azobidan qutulish edi*», deb yozadi.

Ba'zan yaxshi va ezgu amal qilgan insonni esa viydon shunday ruhlantirib, zavq-shavq va quvnoq holatga keltiradiki, inson qalbi chuqur orom va osudalik topib, xotirjamlikka erishadi. Bu osudalik va xotirjamlik bag'oyat g'ayratlantiruvchi bo'lib, uning lazzati va shukuhi tavsiflab bo'lmaydigan va hech bayonga sig'maydigan bo'ladi.

Viydon mahkamasining o'ziga xos xususiyatlari va g'aroyib nishonalari bor:

1. Bu mahkamada qozi, hukm qiluvchi va shohid ham bir

yerda jamlangan. Ya'ni qozi ham, shohid ham, hukm qiluvchi ham vijdonning o'zidir. Vijdonning o'zi shahodat beradi va muhokama qiladi, so'ngra eng shimarib, o'z hukmini ijro qiladi.

2. Bu mahkamaning muhokamasi boshqa sudlov organlariga o'xshab, shov-shuv bilan ma'lum muddat va ba'zan hatto yillar davom etmasdan, balki yashin tezligida o'z ishini ko'radi. Albatta gohida jinoyat ishi hujjatlarini isbotlash va g'afolat pardasi ko'z oldidan chetga surilishi uchun bir oz vaqt kerak bo'lishi mumkin, ammo kerakli hujjatlar to'plangach, darhol keskinlik bilan hukm sodir etiladi.

3. Bu mahkamada hukm bir bosqichda amalga oshirilib, qayta ko'rib chiqish va yangitdan muhokama qilish kabi bosqichlar yo'qdir.

4. Bu mahkamada faqat jazo berilmaydi, balki o'z vazifasini sharaflil o'taganlarga mukofot ham beriladi. Boshqacha aytganda; bu mahkamada ham solih amallar va ham jinoyatlar ko'rib chiqilib, har biriga mutanosib ravishda ajr-mukofot yoki jazo beriladi.

5. Bu mahkamaning jazolari boshqa mahkamaning jazolariga o'xshamay qamoqqa hibsga olinish, shalloq urish, dorga osish kabi jazolar yo'qdir, ammo insonning ichki olamini shunday kuydirib, zindonga tashlaydiki, dunyo butun kengligi bilan inson uchun tor bir qamoqdagi bir kishilik kAmera misoli va undanda vahimaliroq holga solib qo'yadi.

Xullas, bu mahkama bu dunyoning sudlovi turidan emas, balki oxiratda tashkil etiladigan mahkamaning bir ko'rinishidir.

Vijdon qanchalik muhim mahkama ekanligini Qur'oni Karimda unga qasam ichilganidan va qiyomatning mahkamasi yonida zikr qilinganidan ham bilib olish mumkin. Bu borada Qur'oni Karimda shunday deyilgan:

﴿لَا أُقْسِمُ بِيَوْمِ الْقِيَامَةِ ﴿۱﴾ وَلَا أُقْسِمُ بِالنَّفْسِ اللَّوَّامَةِ ﴿۲﴾ أَيَحْسَبُ الْإِنْسَانُ أَلَّن نَجْمَعَهُ عِظَامَهُ ﴿۳﴾ بَلَىٰ قَادِرِينَ عَلَيَّ أَنْ نُسَوِّيَ بَنَانَهُ ﴿۴﴾﴾

1. «Qiyomat kuniga qasamyod eturman.
2. Shuningdek, uyg'oq vijdon va malomatchi nafsga qasamyod eturmanki, (qayta tirilib, hisob-kitob qilinursizlar!)
3. Inson uning (chirib ketgan) suyaklarini sira to'play (tiklay) olmasligimizni Bizdan gumon qilurmi?!
4. Yo'q, Bizuning barmoqlarini (har bir shaxsga xos bo'lgan uning barmoq izlarini ham) tiklab qo'yishga qodirmiz!» (Qiyomat surasi; 1-4 oyatlar).

Albatta vijdon mahkamasi yuqorida aytilgan hamma yaxshi xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, dunyoviy bo'lgani uchun, bizni qiyomatning mahkamasidan behojat qila olmay, quyidagi nuqson va kamchiliklarga ham egadir:

1. Vijdonning hududi va doirasi hamma narsani o'z ichiga olmay, insonning aql-idroki va fikrlashiga bog'liqdir.
2. Gohida mohir va firibgar inson hatto o'z vijdonini ham aldab qo'yishi mumkin. Boshqacha ta'birda; o'z vijdoniga firib bera oladi.
3. Ba'zi gunohkorlarda vijdon nidosi shunchalik zaiflashib qoladiki, hatto egasi bu sadoni eshitmaydi ham.

Shuning uchun **to'rtinchi mahkama**, ya'ni qiyomat kunida butun olamning buyuk mahkamasi tashkil etilishiga so'zsiz ehtiyoj borligi yorqin tarzda ayon bo'ladi.

O‘ylab javob bering:

1. Inson o‘z hayotida nechta mahkamalarda muhokama qilinadi?
2. Birinchi turdagi mahkamaning qanday xususiyatlari bor va uning nomi nima?
3. Ikkinchi mahkamaning xususiyatlari qaysilardir?
4. Uchinchi xil mahkama nima xususiyatlarga ega?
5. Vijdon mahkamasining afzalliklari va kamchiliklari haqida aytib bering.

4- DARS:

Qayta tirilishning fitratdagi o‘rni

O‘tgan darslarda aytib o‘tganimizdek, xudoshunoslik insonning fitrati va tabiatida joy olgan. Agar insonning ichki dunyosidagi ogoh va noogoh qismini tintib ko‘rsak, bu jahonni maqsad, reja-dastur va ilm uzra yaratgan Tangri taologa nisbatan uning iymoni, ishonchi va muhabbatini fahmlab olamiz.

Biroq faqat tavhid, xudoshunoslik va xudoga sig‘inish tuyg‘usi fitriy bo‘libgina qolmay, balki usuliddin (dinning asosi) va furuiddin (dinning ta‘limoti va ahkomi) insonning fitratida bo‘lmog‘i darkor. Aks holda shariat qonunlari bilan xilqat va borliq qonunlari orasida hech vaqt uyg‘unlik va mutanosiblik hosil bo‘lmagan bo‘lur edi. (diqqat qiling!)

Agar biz qalbimizga quloq solsak va ruh va jonimizning tubini titkilab ko‘rsak, u holda qalbimizning: *«O‘lim inson hayotining nihoyasi va tugashi emas, balki o‘lim bu dunyodan boshqa bir boqiy olamga o‘tiladigan darichadir!»* deyishini eshitamiz.

Bu haqiqatni fahmlash uchun esa quyidagi masalalarga e‘tibor qaratishimiz kerak:

1. Mangulikka bo‘lgan ishtiyoq

Agar chindan ham inson foniy va yo‘q bo‘lish uchun yaratilganida edi, umrining oxirida o‘limdan lazzatlanib, hech vaqt foniy va yo‘q bo‘lishdan hayiqmagan bo‘lar edi. Holbuki, nobud bo‘lish ma‘nosidagi o‘limning qiyofasi inson uchun hech vaqt yoqimli bo‘lmagan, balki inson bor imkoniyati va butun vujudi bilan o‘limdan qochib kelgan.

Umrni uzaytirishga bo'lgan intilishlar va yoshlikni saqlab qoladigan dori-darmonlar ketidan qilinadigan yugurishlar fikrimizni tasdiqlaydi. Mangulikka bo'lgan ishtiyiq shu narsani isbotlaydiki, biz insonlar mangu va abadiy hayot uchun yaratilganmiz. Agar biz foniy va nobud bo'lish uchun yaratilganimizda edi, abadiyatni bunchalik yaxshi ko'rib, sevishimizning ma'nosi bo'lmas edi.

Qalbimizda mavjud bo'lgan barcha asosiy va haqiqiy ishq-muhabbatlar bizning vujudimizni barkamol etish uchun xizmat qiladi, shu jumladan abadiyat va mangu hayotga bo'lgan ishq-muhabbatimiz bizni takomillashtiradi.

Shu narsani unutmaslik kerakki, biz qiyomat va oxirat haqida hikmatli va dono zot bo'lmish Allohning borligini qabul qilgandan keyingina bahslar yuritamiz. Bizning e'tiqodimizcha, Alloh taolo bizning vujudimiz va fitratimizda nimaniki yaratgan bo'lsa, hikmat va hisob-kitob asosidadir. Shunga ko'ra, insonning abadiyat va mangulikka bo'lgan ishtiyog'i va muhabbati ma'lum bir hisob-kitob va hikmat uzra bo'lmo'g'i darkor, u ham bo'lsa bu dunyodan keyingi narigi olamda mangu va abadiy hayot kechirishdan o'zga narsa bo'la olmas.

* * *

2. Qayta tirilish va qiyomat tushunchasi oldingi qavmlar orasida

Insoniyat tarixining guvohlik berishicha, qadim zamonlardan beri odamlar orasida dinga e'tiqod qilmoq mavjud bo'lgan. Bu esa ular ham «*o'limdan keyingi oxirat hayoti*»ga chuqur ishonganliklariga ochiq guvohdir.

Qadimgi insonlardan hatto eramizdan ilgarigi insonlardan qolgan tarixiy asarlar va obidalardan, ayniqsa qabrlarni qurish usullaridan va murdalarning qay tarzda dafn etilishidan ushbu haqiqat ma'lum bo'ladi, ular ham o'limdan keyingi hayotga

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

iymon va e'tiqodlari bo'lgan.

Bashariyat orasida hamisha bo'lib, kelgan chuqur ildizli bunday e'tiqodni oddiy bir narsa deb o'ylab, yoki talqin qilish va uqtirishlar natijasida vujudga kelgan deb, hisoblab bo'lmaydi. Zero, har vaqt bir e'tiqodni ildizli shaklda va insonlar jamiyatining tarixi bo'ylab davom etib kelayotganini ko'rsak, bu holat o'sha e'tiqod insoniyatning fitratida joy olganidan darak beradi, deb bilmog'imiz lozim. Zero, faqat fitrat va tabiatgina zamon o'tishi va ijtimoiy va fikriy o'zgarishlar qarshisida bardosh berib, xuddi shunday mustahkam va bukilmas holda qolaveradi. Demak, uzoq-uzoq muddatlardan beri davom etib kelayotgan o'ta teran (chuqur) va negizli e'tiqodni oddiy urf-odat, talqin qilinishlar va uqtirishlardan kelib chiqqan, deya olmaymiz. Negaki, urfu odatlar va talqin qilinishlar vaqt o'tishi va zamon o'zgarishi bilan o'zgaradi va insonlar yodidan ko'tariladi.

Misol qilib aytganda, falon xil kiyimni kiyish, bir odat yoki rasm-rusumning bo'lagi hisoblanadi, shu bois, muhit o'zgarishi va zamon o'tishi bilan, u ham o'zgaradi.

Ammo onaning farzandiga bo'lgan ishq va muhabbati g'ariziy, fitriy va tabiiy his-tuyg'u bo'lgani uchun, na muhitning o'zgarishi uning shu'lasini so'ndira oladi, na vaqt o'tishi uning unutilishi va yo'qolishiga olib keladi. Har qanday botiniy «*His-tuyg'u, tabiiy mayl va intilish*» mana shunday holatda bo'lsa, insonning fitrati va tabiatida joy olganidan yorqin dalolat beradi.

Tadqiqotchi olimlarning qilgan izlanishlaridan qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga ko'ra, «*insonlarning dastlabki toifalarida ham dinga va oxiratga iymon va ishonch mavjud bo'lgan... Shuning uchun ular jasadlarni maxsus usullar bilan dafn qilishgan va jasadlarga tegishli bo'lgan asbob-anjomlarini ularning yoniga qo'yishgan. Shu yo'sinda narigi*

olamga bo'lgan o'z e'tiqodlarini isbotlaganlar.»¹

Biz ushbu ilmiy tatabbudan² kelib chiqib, bu ibtidoiy insonlar harchand ular xatoga yo'l qo'yib, oxiratdagi hayot ham xuddi bu dunyoning hayotiga o'xshash bo'lib, dunyoviy asbob-uskunalar kerak bo'ladi deb o'ylagan bo'lsalar-da, o'limdan keyingi hayotni qabul qilganliklarini yaqqol tushunib olamiz.

* * *

3. Vijdon deb, nomlangan qalbdagi mahkamaning borligi oxiratning fitriy ekanligiga guvohdir.

Bundan avval ham aytib o'tganimizdek, hammamiz yaxshi his qilamizki, ichki dunyomizda vijdon deb, nomlangan kuchli bir hisob – kitob qiluvchi mahkama mavjud bo'lib, bizning amallarimizni nazorat qilib turadi va qiladigan yaxshi amallarimiz uchun bizni mukofotlaydi, oqibat shunday botiniy osudalik va xotirjamlikni his qilib, ruhimiz shodlik va quvonchga to'lib toshadiki, uning lazzatini hech qanday bayon va qalam bilan tasvirlab bo'lmaydi. Qabih va yovuz amallar, xususan buyuk gunohlar tufayli shunday jazolaydiki, yashashni insonga achchiq va azob-uqubatli qilib qo'yadi.

Ko'p vaqtlar odam o'ldirish kabi og'ir jinoyatga qo'l urib, tergovdan qochib ketgan ba'zi jinoyatchilar ma'lum muddat o'tgach, o'z ixtiyori bilan kelib qonuniy mahkamalarga o'zlarini tanishtirib, o'lim jazosiga taslim bo'lganlar. Ulardan nima uchun o'zlarini qonun barobarida taslim qilganliklari haqida so'ralganda, ular vijdon azobidan qutulmoqchi ekanliklarini aytganlar.

1. «Kinig» jamiyatshunoslik kitobi, 192 – bet.

2. Tatabbuning ma'nosi; tekshirish, o'rganish, tadqiqot va tahlil demakdir.

Inson o'zining ichki dunyosidagi mahkamani mushohada qilib, o'zidan suraydi: «*Qandayiga mendek, kichik bir insonning zamirida shunday kuchli mahkama bo'lsa-yu, ammo buyuk va keng borliq olamning o'ziga xos va munosib mahkamasi bo'lmasa-ya?*»

Shu tartibda uch xil yo'l bilan maodga va o'limdan keyingi oxirat hayotiga bo'lgan ishonch va e'tiqodning fitriy ekanligini isbotlay olamiz:

- Mangulikka bo'lgan muhabbat yo'li;
- Bashariyat tarixining hamma davrida oxiratga ishonch va e'tiqod bor bo'lganligi yo'li;
- Inson qalbidagi oxiratning kichik namunasi bo'lmish vijdon deb nomlangan mahkamaning mavjudligi.

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Qaysi yo‘l bilan fitriy va fitriy bo‘lmagan masalalarni bir-biridan ajratishimiz mumkin?
2. Qaysi dalilga ko‘ra, inson mangukni yaxshi ko‘radi? Qanday qilib bu mangukka bo‘lgan ishtiyok, oxiratga e‘tiqod qilmoq fitriy ekanligiga dalil bo‘la oladi?
3. Qadimgi qavmlar ham oxiratga ishonganlarmi?
4. Qandayiga vijdonimiz mahkamasi bizlarni yaxshi ishlarga ruhlantirib, yomon ishlar uchun jazolaydi? Qaysi dalilga ko‘ra? Undan bir necha namunalarni aytib bering.
5. Qiyomatdagi savol-javob mahkamasi bilan vijdon mahkamasi o‘rtasida qanday aloqa va robita bor?

5- DARS:

Qiyomat adolat tarozisida

Agar borliq olamning tuzilmasiga va yaratilish qonun-qoidalariga bir oz diqqat bilan nazar solsak, u holda jahondagi har bir narsa o'z o'rnida tartib-intizom bilan qo'yilganligini va har yerda qonun-qoida hukm surayotganini yaqqol ko'ramiz.

Inson organizmida ham odilona tuzum va tartib – intizom shu qadar nozik va orasta tarzda yaratilganki, agar bu tartib va tuzum bir oz o'zgaradigan yoki buziladigan bo'lsa, insonning xastalikka chalinishiga yoki o'lishiga olib keladi.

Chunonchi, ko'z, yurak, miya va va boshqalarning tuzilishlarida yuqori aniqlikda adolat o'rnatilgan bo'lib, har bir narsa o'z o'rnida joylashgan va kerakli miqdorda bu adolatli tuzum nafaqat inson badanining tuzilmasida, balki xuddi shunday adolatli tartib-intizom butun yaratilish olamining ustidan hukmronidir. Negaki:

«بِالْعَدْلِ قَامَتِ السَّمَوَاتُ وَالْأَرْضُ»

«Yer va osmonlar adolat asosida barpo etilgan.»

Hatto juda mayda zarracha bo'lmish atomning tuzilishida ham yuqori aniqlikda tartib-intizom mavjud bo'lib, millionlab atomlarni ignaning uchiga sig'dirish mumkin. Endi aytingchi, atomning tuzilmasi qanchalik aniq tartibda shakllantirilgan bo'lmog'i lozimki, millionlab yillar davomida o'z hayotini davom ettira olsin.

Bu esa elektron va protonlar orasida o'ta aniq va favqulodda tuzum va adolatli muvozanat barqarorligi tufaylidir va hech bir katta va kichik narsa bunday hayratlanarli tuzumdan tashqarida emas.

Chindan ham inson g'oyat keng adolatli muvozanatga asoslangan dunyoning bir qismi bo'la turib, ushbu adolatli

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

tuzumdan bebahra va mustasno mavjudot hisoblanadimi? Inson bu ulkan olamdan farqlanuvchi bo‘lib, ozod va erkin holda istagan zulm va jinoyatini qilib, adolatsizlik va nohaqsizliklarga g‘arq bo‘lib yuraveradimi? Yoki bu o‘rinda yashirin bir nukta¹ bormi?

Ixtiyor va tanlash erkinligi

Haqiqat shundan iboratki, inson jahondagi butun mavjudotlardan farqli o‘laroq, «*ixtiyor va tanlov*» sohibidir. Nimaga Alloh taolo insonni erkin va ozod yaratib, unga tanlash va qaror qilish huquqini bergan, toki, istagan narsasini qila olsin?

Buning dalili shundan iboratki, agar inson ozod va erkin bo‘lib, ixtiyor sohibi bo‘lmaganida edi, hech vaqt kamolotga erisha olmas edi. Uning bu erki buyuk imtiyoz va ustunlik hisoblanib, ma’naviy va axloqiy kamolotga etish uchun kafildir. Masalan, agar biror shaxsni qurol-yaroq kuchi bilan qo‘rqitib, muhtoj va yo‘qsillarga madad berish kabi jamiyatga xayrli ish qilishga majburlashsa, shubhasiz, u bunday xayrli ishlarni bajarsa-da, lekin o‘sha inson uchun, axloqiy va insoniy fazilat va kamolotni yuzaga keltirmaydi. Zero, xayrli ishni o‘z ixtiyori va irodasi bilan qilmadi. Ammo agar kimda kim o‘zining istagi va ixtiyori bilan o‘sha xayrli va yaxshi ishning yuzdan birini bajarsa, o‘sha miqdorda ma’naviy-axloqiy takomillashish sari qadam qo‘ygan bo‘lib, uning uchun fazilat va kamolot hisoblanadi.

Binobarin, ma’naviy va axloqiy takomil topishning birinchi sharti ixtiyor va ozod irodaga molik bo‘lmoqdir. Toki inson tabiat olamining majburiy omillar kuchi bilan emas, balki o‘z

1. Ingichka va nozik masala

ixtiyori va irodasining ozodligi bilan kamolot yo'lidan borsin. Alloh taolo insonni kamolotga etkazish maqsadida unga ana shunday buyuk ne'mat bo'lmish ixtiyor va iroda ozodligini ato etgan.

Bu buyuk ne'mat xuddi tikanlari bor gulga o'xshaydi, zero, ozodligi va ixtiyorini suiiste'mol qilib, zulm, gunoh va fasod-buzg'unliklarga botgan shaxslar o'sha gulning tikanlari kabidir.

Albatta agar inson zulm va sitamga qo'l urishi bilanoq, Alloh o'sha zahoti qilgan zulmi uchun uning boshiga balo va azob yog'dirib, qo'lini falaj va shol, ko'zini ko'rmaydigan va tilini so'zlolmaydigan qilib qo'yishi mumkin. Toki shuning bilan, bunday yovuz ishlar uning fikriga kelmaydigan bo'lsin. Zeroki, Alloh yaratuvchi zotdir va Uning oldini to'sadigan hech bir mone va to'g'on bo'lmas.

Lekin diqqatga sazovor yeri shundaki, u holda hech kim ozodligi va ixtiyorini suiiste'mol qilmay, gunoh tarafga yo'llanmagan bo'lur hamda insonning taqvodorligi va parhizkorligi majburiy tus olar edi. Shunga binoan, gunoh qilmaslik va fasod-buzg'unliklarga qo'l urmaslik inson uchun fazilat va iftixor hisoblanmagan bo'lardi. Balki u shiddatli, sur'atli va to'xtovsiz azobdan qo'rqqani uchungina gunohni tark bo'lur edi, xolos.

Shunday ekan, inson turli imtihonlar va sinovlar qarshisida erkin va ozod bo'lib, shoshilinch jazolardan (istisno holatlardan tashqari) saqlangan bo'lmog'i darkor. Toki, to'g'ri yo'lni ixtiyoriy ravishda tanlab, o'zining qadr-qimmatli xususiyatlarini namoyon etsin.

Bu o'rinda faqat muhim bir masala haqida so'z yuritilmay qoladi, u ham bo'lsa agar hamma odamlar o'z ixtiyorlariga tashlab qo'yiladigan bo'lishsa va har kim o'zi xohlaganidek, bir yo'lni tanlab olsa, butun jahonga hukm surayotgan Parvardigori karimning adolatiga putur etadi.

Ana shu yerda odamlarning qilgan amallari ustidan hukm chiqaruvchi mahkama bo'lishi zarurligiga ishonch hosil qilib, hamma insonlar unda hozir bo'lib, o'z amallariga yarasha jazo yoki mukofot olib, yaratilish olamining umumiy adolatidan o'z ulushlarini olishlarini tushunib etamiz.

Butun umri davomida zulm-sitam va jabr-jafo qilib o'tgan Namrudlar Fir'avnlr, Chingizxonlar va Qorunlar hisob-kitob qilinmasdan jazolanmay qolishlari mumkinmi?

Axir zolim va jinoyatchilar bilan solih bandalar Parvardigorning adolatli tarozisida barobar bo'la oladilarmi?

Qur'oni Karimda aytilishicha:

﴿أَفَتَجْعَلُ الْمُسْلِمِينَ كَالْمُجْرِمِينَ * مَا لَكُمْ كَيْفَ تَحْكُمُونَ﴾

«Axir, Biz musulmonlarni jinoyatchilarga barobar qilib qo'yarmidik?! Sizlarga ne bo'ldi? Qanaqa hukm chiqarmoqda-sizlar?!» (Qalam surasi; 35 va 36 – oyatlar).

﴿أَمْ نَجْعَلُ الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ كَالْمُفْسِدِينَ فِي الْأَرْضِ أَمْ نَجْعَلُ الْمُتَّقِينَ كَالْفُجَّارِ﴾

«Biz iymon keltirgan va yaxshi amallarni qilgan zotlarni yerda buzg'unchilik qilib yuruvchi kimsalardek qilib qo'yarmidik?! Yoki taqvodor zotlarni fisqu fujur qilib yurgan kimsalar kabi qilarmidik?!» (Sod surasi; 28 – oyat).

- ❖ Darhaqiqat, yomonlarning bir toifasi shu dunyoning o'zidayoq, qilgan zulmlarining azobini yoki qilmishlarining bir hissasining uqubatini ko'radilar.
- ❖ Haqiqatan ham, vijdon nomli mahkama ham ayrim jinoyatchilarni bu dunyoda azoblaydi.
- ❖ Shuningdek, gunoh va zulmu sitamning in'ikosi va aksilharakati¹ hamda adolatsizliklarning yomon oqibati

1. In'ikos va aksilharakatning ma'nosi «aks sado» va «reaktsiya» demakdir.

odamni halokatga yo'liqtiradi.

Ammo agar diqqat bilan nazar solsak, ma'lum bo'ladiki, yuqorida aytilgan dunyodagi bu mahkamalar umumiy va keng ko'lamli bo'lmay, har bir zolim va gunohkorni qilgan zulmi va gunohiga yarasha jazolashga qodir emas. Shu bois, amaliga yarasha jazolanish va vijdon azobi changalidan hamda yovuz amallar oqibatidan qochib qutulganlarning yoki etarli miqdorda jazolanmaganlarning soni bir talay.

Shuningdek, solih bandalarning hammalari o'z ajr-mukofotlarini to'liqligicha bu dunyoda ololmaydilar. Shuning uchun, solihlarning ham, yomonlarning ham qilgan zarrachalik yaxshi yoki yomon ishlari muhokama qilinadigan yuqori aniqlikdagi o'ta adolatli mahkama oxirtda barpo etilmog'i zarurdir. Aks holda, asl adolat ta'minlanmay qoladi.

Shunga binoan, yaratuvchi «*Tangrining borligi*»ga va «*Uning adolatli Zot ekanligi*»ga iymon keltirib, qabul qilish oxirat diyoriga iymon keltirish bilan barobar va teng bo'lib, bu ikkisi bir-biridan zinhor ajralmas bir haqiqatdir.

O'ylab javob bering:

1. Yer va osmonlar nima asosida barpo qilingan?
2. Nima uchun insonga «*ixtiyor va tanlash huquqi*» berilgan?
3. Agar gunohkorlar qiladigan har bir gunohi uchun tezda shu dunyoda azoblanishsa edi, nima bo'lardi?
4. Nimaga bu dunyodagi qilmishlarning jazosi, vijdon mahkamasi va amallarning in'ikosi va aksilharakati bizni oxiratdagi mahkamaga bo'lgan ehtiyojimizni bartaraf qila olmaydi?
5. «*Allohning adolati*» bilan «*oxirat*» masalasi o'rtasida nima bog'liqlik bor?

6- DARS:

Qayta tirilishni shu dunyoning o‘zida bir necha marta ko‘rganmiz

Qur’oning ushbu haqiqatga guvohlik berishicha, butparast mushriklar va shuningdek, boshqa kofirlar nafaqat Payg‘ambarimiz (sallallohu alayhi va olihi vasallam) yashagan asrda, balki boshqa asrlarda ham, maod va o‘limdan so‘ng, qayta tirilish haqida eshitishganlarida taajjublanib, qo‘rquvga tushishar edi. Hatto ularga bu xabarni etkazgan kishini majnun va telba deb, aytishar edi:

﴿وَقَالَ الَّذِينَ كَفَرُوا هَلْ نَدُلُّكُمْ عَلَىٰ رَجُلٍ يُنْفِكُكُمْ إِذَا مُرِّقْتُمْ كُلَّ مُمَرِّقٍ إِنَّكُمْ لَفِي خَلْقٍ جَدِيدٍ ﴿١٠٠﴾﴾
﴿فَتَرَىٰ عَلَىٰ اللَّهِ كَذِبًا أَمْ بِهِ جِنَّةٌ بَلِ الَّذِينَ لَا يُؤْمِنُونَ بِالْآخِرَةِ فِي الْعَذَابِ وَالضَّلَالِ الْبَعِيدِ ﴿١٠١﴾﴾

«Kofir bo‘lgan kimsalar dyerlar: «Sizlarga (chirib) titilib bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketgan vaqtingizda, albatta, sizlar yana yangitdan yaratilursizlar!», deb xabar beradigan bir kishini ko‘rsataylikmi?! U Allohga nisbatan yolg‘on to‘qidimi yoki jinni bo‘lib qoldimi?! dedilar. Yo‘q! Oxiratga iymon keltirmaydigan kimsalarning o‘zlari azobda va yiroq zalolatdadirlar.» (Saba’ surasi; 7 va 8 – oyatlar).

Ha, mushriklar o‘sha davrda nodonlik va johillik oqibatida o‘limdan keyingi oxirat olamiga va murdalarning qayta tirilishiga e’tiqod qilib ishonishni telbalik va majnunlik yoki Allohga yolg‘on to‘qish deb, bilar va jonsiz narsaga qaytadan hayot ato etilishiga ishonishni tentaklik va telbalik deb, hisoblar edilar.

Biroq qizig‘i shundaki, Qur’oni Karim bunday tafakkur va g‘oyani rad etish uchun turli dalil-isbotlar keltirib, har kimning aqli etadigan qilib, oxirat haqida tushuncha va ta’limot bergan. Shu bois, har kim o‘z fikr yuritish qobiliyatiga qarab, oddiy insonlar ham, buyuk donishmandlar ham undan istifoda eta

oladilar.

Garchi Qur'oni Karimning bu boradagi barcha dalil-isbotlarini bayon etish uchun, mustaqil bir kitob bitmoq darkor bo'lsa-da, ammo ulardan ayrimlarini shu o'rinda zikr etamiz:

1. Qur'on ularga uqtiradi: Sizlar ko'p marotaba o'z ko'zlarinigiz bilan kundalik hayotingizda maod va qayta tirilish sahnalarini ko'rgansiz va qay tarzda mavjudotlar o'lib, qayta tirilganini kuzatgansiz, yana ham maod va qayta tirilish borasida ikkilanib, shak-shubha qilurmisiz?!

﴿وَاللَّهُ الَّذِي أَرْسَلَ الرِّيحَ فَثِيرُ سَحَابًا فَسُقْنَاهُ إِلَىٰ بَلَدٍ مَّيِّتٍ فَأَحْيَيْنَا بِهِ الْأَرْضَ بَعْدَ مَوْتِهَا كَذَلِكَ التَّشْوِيرُ﴾

«Alloh shamollarni yuborib, bulutni qo'zg'atgach, Biz uni «o'lik» shaharga haydab, u bilan «o'lgan» yerni «tiriltirdik». Qiyomatda qaytatirilish ham, shu tarzdadir.» (Fotir surasi; 9 – oyat)

Agar qish faslida tabiat chehrasiga nazar soladigan bo'lsak, atrof-muhit xuddi o'z hayotini qo'ldan berganga o'xshaydi. Daraxtlar batamom yalang'och, ularda gul-chaman, g'uncha va meva ko'rinmaydi va harakatsiz quruq bir yog'ochga aylangan, tog' va adirlar bag'rida ham, hayotning jo'shqin jarayonini ko'rib bo'lmaydi.

Lekin bahor kelishi bilanoq, havo muloyimlashadi, yomg'irning hayotbaxsh qatralari yog'adi va o'zi bilan hayot keltirgandek, banogoh butun tabiatda jo'shqinlik paydo bo'ladi. O'simlik-giyohlar una boshlaydi, daraxtlar kurtak chiqaradi, gul-g'uncha va chamanlar ko'kara boshlaydi hamda qush va parandalar daraxtlar shoxiga qo'nib, sayray boshlaydilar. Xullas, tabiat qayta tirilib, mahshar barpo bo'lgandek bo'ladi!

Agar o'limdan keyingi qayta tirilish bema'ni bo'lganda edi, biz har yili tabiatning o'lib tirilishini mushohada qilmagan bo'lar edik. Agar o'limdan so'ng, qayta tirilish g'ayrimumkin,

amri mahol va telbalik bo'lganda edi, ushbu haqiqat sezilarli suratda ko'z o'ngimizda takrorlanmagan bo'lar edi.

Odamlarning o'lgandan so'ng, qayta tirilishi bilan jonsiz yerning qayta tirilishi orasida nima farq bor?

* * *

2. Gohida Qur'oni Karim ishonmaydiganlarni ilk yaratilish haqida fikrlashga chorlab, yaratilishning dastlabki bosqichini ularga eslatadi va chirigan bir bo'lak suyakni qo'lga olib, islom payg'ambarining huzurlariga kelib baqirgan holda: «*Ey Muhammad! kim bu chirib ketgan suyakni qayta tiriltirishga qodir? Menga ayt-chi, kim bu ishni qila oladi?!*» deb aytgan, maod va qayta tirilishni rad etish uchun qat'iy dalil qo'lga kiritdim, deb o'ylagan ko'chmanchi va badaviy bir arab kishiga qarata Rasululloh (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*)ga buyuruq berib aytadi:

﴿قُلْ يُحْيِيهَا الَّذِي أَنشَأَهَا أَوَّلَ مَرَّةٍ وَهُوَ بِكُلِّ خَلْقٍ عَلِيمٌ﴾

(*Ey Bizning Rasulimiz unga*) ayting: «*Ularni ilk marta yo'qdan bor qilgan zotning O'zi qayta tiriltirur va U har bir yaratilgan narsani bilguvchidir.*» (Yosin surasi; 79 – oyat.)

Axir yo'qdan bor qilib yaratish bilan qayta tiriltirish o'rtasida nima farq bor ekan?!

Shuning uchun, boshqa oyatda qisqa va o'ta ma'noli bitta jumla bilan javob beriladi:

﴿كَمَا بَدَأْنَا أَوَّلَ خَلْقٍ نُعِيدُهُ﴾

«Boshida qanday yaratgan bo'lsak, xuddi shunday holga qaytarurmiz» (Anbiyo surasi;104 – oyat).

3. Qur'on gohida Xudoning keng osmon va yerni yaratishdagi buyuk yaratuvchilik qudratini eslatish bilan qayta tirilish va qayta hayot yaratish haqida tushuntiradi:

﴿أَوَلَيْسَ الَّذِي خَلَقَ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَ بِقَادِرٍ عَلَىٰ أَنْ يَخْلُقَ مِثْلَهُمْ بَلَىٰ وَهُوَ الْخَلَّاقُ الْعَلِيمُ
﴿إِنَّمَا أَمْرُهُ إِذَا أَرَادَ شَيْئًا أَنْ يَقُولَ لَهُ كُنْ فَيَكُونُ﴾

«Osmonlaru yer (kabi o'ta buyuk sayyoralar)ni yaratgan Zot ularga o'xshashini yaratishga qodir emasmi?! Yo'q, (albatta qodirdir) U o'ta yaratuvchi, o'ta bilguvchi Zotdir.»

«Qachon biror narsani (yaratishni) iroda qilsa, Uning ishi faqat: «Bo'l» – demoqlikdir, xolos. Shunda, u ham vujudga kelur.» (Shunday buyuk qudrat sohibi uchun insonlarni qaytadan hayotga qaytarish oson ishdir.) (Yosin surasi; 81 va 82 – oyatlar).

Maod va qayta tirilish masalasida shak-shubhaga borganlar sathiy va yuzaki fikr yurituvchi shaxslar bo'lib, ularning fikrlash doirasi o'zlari yashaydigan tor va tuban atrof-muhitlaridan chetga chiqmas edi. Aks holda, qaytadan qaytarish ilk daf'a yaratishdan ko'ra, osonroq ekanini va o'liklarni qayta tiriltirish va ularga qayta hayot berish osmonlaru yerni yaratgan Tangrining qudrati barobarida og'ir va qiyin emasligini yaxshi tushunib etardilar.



4. Qur'on ba'zida «energiya»ning almashish qonunini ularga tasvirlab, ushbu masaladan qayta tirilishni isbotlaydi:

﴿الَّذِي جَعَلَ لَكُمْ مِنَ الشَّجَرِ الْأَخْضَرِ نَارًا فَإِذَا أَنْتُمْ مِنْهُ تُوقَدُونَ﴾

«U zot sizlarga yam-yashil daraxtdan olov paydo qilib qo'yan. Endi esa, siz undan olov yoqmoqdasiz.» (Suvning yonida olov shu'lasini paydo qilgan Alloh taolo o'limdan so'ng qayta hayot yaratishga qodir ekani shubhasizdir.) (Yosin surasi; 80 – oyat)

Agar-ki, Qur'onning yuqoridagi ajoyib oyatiga diqqat bilan nazar solib, zamonamizning ilm va fanidan madad olsak, juda qiziq natijaga erishamiz: Daraxt o'sayotganida quyoshning nuri va issiqligidan foydalanib, uni o'ziga singdiradi hamda ushbu energiya va quvvat bir necha yillar davomida daraxtda zaxiralanib qoladi. Biz daraxt o'ziga olgan yorug'lik va issiqlik energiyalarini sarf qilib bo'lgan va bu quvvat yo'q bo'lib ketgan, deb o'ylaymiz. Holbuki, biz o'tinni yoqqanimizda ana shu energiya olovda issiqlik va yorug'lik bo'lib, qaytadi va yangitdan hayot libosini o'z taniga kiyadi. Qayta tirilish ham, ana shunday energiya almashishga o'xshaydi.

O'n yillab o'zida yorug'lik va issiqlikni zahira qilib qo'yan oddiy bir yog'och bir zumda olovda yonib, jamlagan hamma energiyasini tashqariga beradigan qilib yaratgan qodir Alloh nahotki, insonni qayta tiriltirishga o'z bo'lsa?!¹

1. Diqqatga sazovor bo'lgan masala shundan iboratki, ilmiy nuqtai nazardan faqat yashil daraxtlargina quyosh nuri barobarida uglevod gazlarini yutib parchalaydi va uglerodni o'zida saqlab qolib, kislorodni chiqaradi va shuningdek, quyosh energiyasini ham, uning bilan birga zaxira qilib qo'yadi. (Muallif izohi)

Har holda ko'rganimizdek, Quroni Karim naqadar mustahkam mantiq va oydin isbot-dalillar bilan maod va qayta tirilish masalasida shak-shubhaga borgan, hattoki, oxiratga ishonishni telbalik va tentaklik deb bilgan shaxslarga qat'iy javob berib, turli usullar bilan maod va qayta tirilish mumkinligini yorqin tarzda isbotlaydi. Biz bu darsda faqat shu mavzuga oid bir necha masalalarni ko'rib chiqdik, xolos.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Nimaga mushriklar maod va qayta tirilish xabaridan taajjublanardilar?
2. Qandayiga har yili tabiatda maod va qayta tirilishning sahnalarini ko'rishimiz mumkin?
3. Qur'oni Karimning ba'zi oyatlarida embrionning hayoti qayta tirilishning nishonasi deb, aytilgan, nega?
4. Energiyaning bir turdan boshqa turga almashinishi haqida aytib bering. Qay tarzda bu qonundan maod va qayta tirilishni isbotlash mumkin?
5. Nima uchun Qur'onda yashil daraxtga tayanilib, misol qilib keltirilgan?

7- DARS:

Maod-qayta tirilish va yaratilish hikmati

Ko'pchilik odamlar: «*Alloh bizni nima uchun yaratgan?*» deb so'raydilar. Gohida esa oldinroqqa siljib: «*O'zi bu keng va ulkan jahonning yaratilish hikmati nimadir?*» deyishadi. Bog'bon daraxtni meva uchun ekadi va dehqon yerni mahsulot olish uchun ag'darib, urug' sepadi. «*Buyuk jahonni yaratuvchi Bog'bon nima maqsadda bizlarni yaratgan?*»

Magar yaratuvchi Tangrining kamchiligi va nuqsoni bormikan, to yaratish bilan uni bartaraf etsin? Bu holda U muhtoj va hojatmand bo'lib qoladi, vaholanki, hojatmandlik Parvardigorning maqom va martabasiga, Uning cheksiz va bepoyon zot ekanligiga to'g'ri va uyg'un kelmaydi. Chindan ham, har narsadan behojat zot bo'lmish Alloh nima uchun maxluqotlarni yaratadi, axir Uning hech narsaga ehtiyoji yo'q-ku?

Ushbu savollar ustida juda uzoq bahslashib, javob berishimiz mumkin. Biroq biz lo'nda va muxtasar qilib o'zimizning yorqin javobimizni aytib o'tmoqchimiz:

Bizning eng birinchi aybimiz va xatomiz shuki, biz Xudoning sifatlarini o'zimiz bilan taqqoslaymiz. Biz mahdud va cheklangan mavjudot bo'lganimiz bois, har bir ishni ma'lum bir kamchilik va norasolikni bartaraf etish uchun bajaramiz. Boshqa ta'bir bilan aytganda; O'zimiz biror ish ko'rishimizdan maqsad, biror ehtiyoji-mizni bartaraf etmoqlikdir. Chunonchi, tahsil olamiz va shuning bilan ilmga bo'lgan ehtiyojimizni qondiramiz. Ishlab daromad kasb etamiz va shu orqali moliyaviy muhtojlikni bartaraf qilamiz, tozalik va gigiena

qoidalariga rioya qilamiz va bu bilan sog'lik-salomatlikka bo'lgan ehtiyojimizni ta'minlaymiz.

Ammo har jihatdan benihoyat va cheksiz zot bo'lgan Alloh taoloning bajaradigan ishidagi va yaratishdagi maqsadini esa Uning vujudidan tashqarida izlamoq lozim. U biror narsani O'zining foydasi uchun emas, balki bandalariga «*yaxshilik qilish*» va «*marhamat ko'rsatish*» maqsadida yaratadi.

Uni yolqin va bepoyon bir quyoshga o'xshatishimiz mumkinki, hech kimga hojatmand bo'lmay va nur olmay turib, hammaga nur sochadi, to butun mavjudot Uning vujudining nuridan bahramand bo'lsinlar. Uning cheksiz va fayz taratuvchi Zotining taqozosi, butun mavjudotlarni kamolot yo'lida oldinga siljitishdir. Demak, Alloh bandalarini takomil toptirish uchun yaratgan.

Bizni yo'qdan bor qilib, yaratishning o'zi kamolot sari qo'yilgan muhim bir qadamdir. Payg'ambarlarni yo'llamoq, samoviy kitoblarni nozil qilmoq hamda qonun-qoidalar va dasturilamallarni tayin etmoq, bularning hammasi, bizning takomil topishimiz uchun asos va pog'onalar hisoblanadi.

- ❖ Bu olamni buyuk bir oligoh desak, biz bu oligohning talabalari bo'lamiz;
- ❖ Bu dunyo tayyor bir ekinzor bo'lsa, biz bu ekinzorning dehqonlarimiz;
- ❖ Bu dunyo foyda keltiruvchi tijorat maskani bo'lsa, biz bu tijorat maskanining tijoratchilarimiz.¹

Biz qandayiga bashariyatni yaratishdan hech bir maqsad ko'zda tutilmagan, deb ayta olamiz? Holbuki, atrof-

1. Yuqoridagi iboralar hazrat Ali (*alayhis salom*)ning Nahjul balog'adagi qisor (qisqa) kalimalarining va ushbu mashhur hadisning «الدُّنْيَا مَرْعَى الْأَحْرَةِ» mazmunidir.

tevaragimizdagi zarra va mayda mavjudotlarga diqqat bilan nazar solsak, ularning har biri muayyan maqsad uzra yaratilganini yaqqol ko'ramiz.

Bizning hayratlanarli tanamizda hech bir a'zo yo'qki, biror muayyan maqsad uchun yaratilmagan bo'lsin, hatto ko'zimizning kipriklari va oyog'imiz kaftining chuqurligi muayyan maqsad asosida yaratilgan!

Shunday ekan, qandayiga ana shu a'zolarimizning to'plami va tanamizning tuzilishi uchun muayyan maqsad ko'zda tutilgan bo'lsa-yu, ammo butun vujudimizdan iborat o'zimiz bemaqsad yaratilgan bo'lsak?

Endi o'z vujudimizdan tashqariga chiqib, keng va ulkan olamga nazar tashlasak, har bir maxluqotning ma'lum maqsadga ega ekanini ko'ramiz. Quyoshning yoritishi va isitishidan, yomg'irning yog'ishidan, havoning maxsus birikmadan tashkil topganidan va boshqalardan muayyan maqsadlar ko'zlangan bo'lsa-yu, ammo ana shu nasalarning majmui bo'lmish bu yirik jahon maqsadsiz yaratilgan bo'la oladimi?!

Aslida bu keng olamning zamirida go'yo katta bir jadval so'nggi maqsad nima ekanligini ko'rsatish uchun yozib ilib qo'yilgandek, lekin ba'zida uning kattaligidan bir qarashda nimaligini ilg'ay olmaymiz. Unda bunday deb yozilgan: *«Tarbiyalanish va takomil topish»*

* * *

Tarbiyalanish va takomil topish

Endi nima maqsadda yaratilganimiz bilan qisqacha tanishib chiqqanimizdan so'ng, bu yerda shunday savol tug'iladi: *«Bu necha kunlik o'tkinchi dunyoda butun mashaqqat, qiyinchilik va mushkulotlar bilan umrguzaronlik qilish, bizning*

yaratilishimizdan ko'zlangan maqsad bo'la oladimi?»

Faraz qiling, bu dunyoda oltmish yil umr ko'rsam, rizq-ro'zimni topay deb ertadan kechgacha qattiq tirishsam va kechqurun toliqqan va horg'in holda uyga qaytib kelsam va buning natijasi umrim davomida bir necha ming tonna ovqat eb, suv ichsam va butun mashaqqat va qiyinchilik bilan uy-joyga ega bo'lsam-u, keyin bularning barchasini shu dunyoga qo'yib, o'zim olamdan o'tsam. Xo'sh, agar faqat shuning uchungina yaratilgan bo'lsam, aslida dard va aziyat-ozorga to'lgan umrim yaratilishga arziydimi?

Mabodo agar biror muhandis hashamatli bir binoni biyobonning o'rtasida barpo qilsa va uni qurib bitkazishda sa'y-harakat qilib, butun sharoitlarni unda yaratsa, so'ngra o'sha muhandisdan: *«Bu binoni qurishdan maqsading nima?»* deb so'ralganda: *«Bu binoni qurishdan ko'zlangan maqsadim, binoning umri davomida ma'lum bir yo'lovchi bu yo'ldan o'tayotganida unda bir soat dam olishi uchundir!»* - deb, javob bersa, hamma undan taajjublanib: *«Shuncha mashaqqat bilan faqat bir yo'lovchi bir soatga dam olishi uchun bunday dabdabali binoni qurdingmi? Bunday maqsad uchun ushbu katta ishni qilish yaramaydi-ku!»* - deb so'rashmaydimi?

* * *

Shunga ko'ra, maod-qayta tirilishga va narigi dunyoga e'tiqod qilmaydiganlar uchun, bu dunyoda yashamoq behuda va puch bo'lib ko'rinadi. Bu dunyoda hayot kechirmoq behuda va bemaqsaddir, degan gap moddiyun¹larning orasida ko'p uchraydi. Hatto ba'zan ulardan ayrim shaxslar o'z jonlariga suiqasd qilishadi, negaki, bunday moddiy, takroriy va maqsadsiz hayotdan charchashgan.

1. Ushbu so'zga kitobning 21 – betida izoh berilgan.

Hayotga ma'no-mazmun va umid baxshida etib, uni ma'noli va hikmatli qilib, ko'rsatuvchi narsa bu oxiratga va o'limdan keyingi hayotga imon va ishonchdir. Bu dunyoning hayoti esa, oxirat olami uchun muqaddima va kirish hisoblanadi, xolos. Bu holda dunyodagi hayotda yuz beradigan mashaqqat va qiyinchiliklarga bardosh berish va bu dunyoda qilinadigan sa'y-harakatlarning barchasi faqat oxiratdagi mangu hayotga erishish uchungina amalga oshiriladi, xolos.

Bu o'rinda bundan oldin ham qiziqarli bo'lmish embrion misolini keltirgan edik. Onaning qornidagi go'dakning etarli miqdorda aql-idroki bo'lganida va unga: «*Bu yerda sen boshdan kechirayotgan qisqa muddatli hayotdan so'ng, hech qanday yashash xabari yo'q*» deb aytilganida edi, shak-shubhasiz, u o'z hayotiga e'tiroz bildirib: «*Nima uchun men bu tor muhitda qamalib, qon yutib, qiynalib yashashim kerak ekan? Nimaga endi qo'l-oyog'im bog'liq holda bir burchakda hayot kechirishim kerak va bundan so'ng, hayot yo'q ekan Yaratuvchi Tangri taoloning meni bunday yaratishdan nima maqsadi bor ekan?!*» deb aytgan bo'lardi. Ammo agar uni ishontirib: «*Sen bu yerda faqat bir necha oygina yashaysan va bu necha oy o'tkinchi bo'lib, sen yashayotgan bu muhitga qaraganda uzoq muddat davom etadigan keng, yorug', shukuhli va turli tuman ne'matlarga ega bo'lgan olamga chiqishing uchun hozirlik ko'rmoqdasan, xolos*» deb unga xabar bersak, u holda embrion o'zi yashayotgan muhitiga ko'nikib, uning ona qornidagi davri muayyan maqsad va ma'no-mafhumga ega ekanligini va shu bois, sabr qilib kelajakdagi hayot umidi bilan yashashi kerakligini anglab oladi.

Qur'onda bu haqda bunday deyiladi:

﴿وَلَقَدْ عَلِمْتُمُ النَّشْأَةَ الْأُولَىٰ فَلَوْلَا تَذَكَّرُونَ﴾

«Darvoqe, sizlar dastlabki yaratilishni bildingiz-ku! Demak, (bu yaratilishdan so'ng, yana yangitdan oxirat olami borligi haqida) eslatma-ibrat olmaysizlarmi?!» (Voqea surasi; 62 – oyat).

Xullas kalom, bu dunyo butun vujudi bilan jar solib, narigi dunyo va oxirat diyori borligi haqida xabar berayotir, aks holda, bu dunyo behuda, puch va bema'ni bo'lar edi:

Ushbu xabarni Qur'oni Karimning tilidan eshitsak, maqsadga muvofiq bo'ladi:

﴿أَفَحَسِبْتُمْ أَنَّمَا خَلَقْنَاكُمْ عَبَثًا وَأَنَّكُمْ إِلَيْنَا لَا تُرْجَعُونَ﴾

«Nahotki, sizlarnin gumoningizcha, Biz sizlarni behuda yaratdik-u, sizlar Bizning huzurimizga qaytarilmassiz?!» (Mo'minun surasi; 115 – oyat). Ushbu oyati karimada: «*Qur'on tilida Allohning huzuriga qaytarilish deb, aytilgan maod va qayta tirilish bo'lmaganida edi, insonning yaratilishi behudalik va bema'nilikka teng va barobar bo'lardi*», deb uqtirilmoqda.

Yuritgan suhbatimizdan kelib chiqib, shu xulosaga kelamiz: Yaratilish hikmatining aytishiga binoan, bu dunyodan so'ng narigi dunyo va oxirat diyori mavjud bo'lmog'i darkor va asosan bu moddiy dunyoning hayotiga ma'no va mazmun bag'ishlaydigan muhim omil bu – oxirat diyori va undagi hisob-kitobning mavjudligiga inonmoqdir.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Nimaga Xudoning sifatlarini insonniki bilan chog'ishtirib bo'lmaydi?
2. Bizning yaratilishimizdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Bu dunyodagina yashamoq bu insonning yaratilishidan ko'zlangan maqsad bo'la oladimi?
4. Embriinning ona qornidagi hayotini bu dunyodagi hayotimiz bilan qiyoslasak, bu dunyo va oxirat o'rtasidagi aloqaga qaysi jihatdan o'xshaydi?
5. Qur'on qay tarzda bu dunyoning yaratilishidan oxirat diyorining borligini isbotlaydi?

8- DARS:

Ruhning boqiyliги oxirat borligidan dalolatdir

Odamzot qachondan beri ruh haqida fikr yuritishni boshlaganini hech kim bilmaydi. Faqat shuni ayta olamizki, inson avvaldan o'zi bilan boshqa jonzotlar va hayvonotlar orasida va shuningdek, o'zi bilan tosh, yog'och, tog' va sahro kabi jonsiz ashyolar o'rtasida farq borligini fahmlagan.

Inson uyqu holatini va shuningdek, o'lim holatini ham ko'rgan. U o'limdagi va uyqudagi holatlarni kuzatib, jism va modda hech bir o'zgarishga yuz tutmay uyqu va o'lim vaqtida uning holatida buyuk bir o'zgarish yuz berganini ko'rishi mumkin. Shunga binoan, jismdan tashqari qandaydir boshqa bir haqiqatga ham ega ekanligini tushunib etgan.

Shuningdek, u hayvonlar bilan o'zi orasida ham farq borligini ko'rgan. Negaki, u o'zining qiladigan qarorida ozodlik va ixtiyor egasi ekanligini, holbuki, hayvonlar esa, qiladigan harakatlarida g'ariza¹ga tayangan holda majbur ekanliklarini yaqqol anglab olgan. Ayniqsa, uyqu olamida va inson organizmi so'ngan holda bir burchakda tushib yotganda turli sahnalarni tush ko'rishi «*ruh*» deb nomlangan jumboqli bir kuch uning vujudi ustidan hukmron ekanligiga ochiq guvohlik beradi.

Bashariyatning mutafakkirlari falsafa faniga asos solganlarida «*ruh*» borasidagi bahslarga falsafaning muhim masalalari qatoridan o'rin berganlar. Undan so'ng har bir faylasuf «*ruh*» haqida o'zining nazariyasini ilgari surar edi. Hattoki, ba'zi musulmon donishmandlarning aytishiga

1. «G'ariza» so'ziga kitobning 146 – betida izoh berilgan.

qaraganda «*ruh*»ning haqiqati va nimaligi hamda unga oid boshqa masalalar xususida mingga yaqin «*fikr va nazariya*» o'rtaga tashlangan edi. Bu borada aytiladigan so'zlar juda ko'pdir, ammo bizningcha bilmoq lozim bo'lgan eng muhim masala quyidagi savolga javobdir:

Ruh moddiy yoki moddiy emasmi? Ya'ni ruhni sezgi organlari bilan sezish mumkinmi yoki yo'qmi? Boshqa ta'bir bilan aytganda, ruh mustaqilmi yoki miya va asab tizmasining fizikaviy va kimyoviy xususiyatlaridan hisoblanadimi?

Bir toifa moddiy faylasuflarning fikricha, ruh va ruhiy fenomenlar (holatlar) ham boshqa a'zolar kabi moddiy bo'lib, miya hujayralarining xususiyatlaridandir va shu bois, bir soatni bolg'a bilan yanchib tashlasak, uning ishlashi ham yo'q bo'lganidek inson o'lganida «*ruh*» ham yo'q bo'ladi.

Ulardan farqli o'laroq, ilohiyot faylasuflarining e'tiqodlaricha, ruh mustaqil va asl bo'lib, moddiy emasdir, hatto ayrim moddiy faylasuflar ham bu fikrga qo'shilganlar. Shunga ko'ra, inson tanasi o'lishi bilan «*ruh*» o'limga duchor bo'lmaydi, balki «*ruh*»ning badan bilan bo'lgan aloqasi va bog'liqligi uziladi va «*ruh*» o'z hayotini davom ettiraveradi.

Ular ushbu masalani, ya'ni «*ruh*»ning asl, mustaqil va boqiyiligini isbotlash uchun turli va murakkab dalillar keltirganlar. Biroq biz bu muxtasar bayon etayotganimiz o'rinda dalillardan eng ravshan va oydinlarini sodda va oson iboralar bilan aziz o'quvchilarning diqqatiga havola etamiz:

1. Buyuk bir jahonni kichik muhit ichiga sig'dirib bo'lmaydi

Faraz qiling, ulkan dengiz sohilida o'tiribsiz. Uning qirg'og'ida ko'kka qarab qad ko'targan tog'lar ham mavjud. Dengiz shovullab, o'zining hayqirayotgan to'lqinlarini sohilning xarsangtosh va qoyatoshlariga urmoqda va to'lqinlar

shiddat va g'azab bilan hayqirayotgan holda dengizning quchog'iga qaytmoqda.

Tog'ning yonbag'irlaridagi ulkan xarsangtoshlar uning haybatini saqlagan holda tog'ning cho'qqisida, Allohning mo'jizasini ko'rsatib turibdilar, moviy osmon esa mazkur tog' va dengizning ustidan chodir qurib, kechqurun-lari o'zining shukuh va ulkanligini namoyish etadi.

Mana shu tabiatning go'zal manzarasiga bir lahza nigoh tashlab, so'ngra ko'zlarimizni yumsak, ko'rgan sahnalarimiz ko'z o'ngimizda, o'sha buyuklik miqyosida gavdalanib turadi.

Shak-shubhasiz, bunday buyuk tasvir va sahnalar kattaligicha makon va joy talab qiladi, ammo miyaning kichik hujayralarida sig'isholmaydilar, aks holda keng va katta tasvir va manzara kichik bir nuqtaga o'rnashishi kerak bo'ladi. Holbuki, biz bu tasvirni kattaligicha o'z ongimizda idrok etamiz.

O'zingiz o'ylab ko'ringchi, qandayiga kichkina miyangiz katta bir tabiat manzarasini o'z ichiga sig'dira oldi?! Shundan ma'lum bo'ladiki, vujudimizda biz bilgan jism va miya hujayralari kabi moddiy a'zolarimizdan tashqari bizga noma'lum bo'lgan g'ayrimoddiy bir haqiqat va gavhar mavjud bo'lib, u har qanday tasvir va xaritani kattaligi va miqyosi qancha bo'lishidan qat'iy nazar, o'zida aks ettira oladi. Shubhasiz, bu haqiqat va gavhar moddiy olamdan yuqorida bo'lib, biz bilgan moddiy jismlarning hech biriga o'xshamaydi. Negaki, moddiy jahonda bunday narsani ko'z bilan ko'rish va kuzatish mumkin emas.

* * *

2. Ruhning tashqi olamni namoyon etish xosiyati

Biz vujudimizda fizikaviy va kimyoviy jarayonlarning

borligini yaxshi bilamiz. Me'da va yurakning harakati fizikaviy jarayon bo'lsa, ovqat uchun me'da va bezlardan so'laklarning ajralib chiqishining ta'siri kimyoviy omildir. Shunga o'xshash fizikaviy va kimyoviy jarayonlar inson organizmida doim ro'y berib turadi.

Agar ruh, fikr va fikrlashimiz ham moddiy va miyaning fizikaviy yoki kimyoviy xususiyatidan bo'ladigan bo'lsa, nima uchun tafakkur bilan badanimizdagi boshqa jismoniy jarayonlarning bunchalik katta farqi bor?

Fikrlash, o'ylash va ruh bizni tashqi olam bilan bog'lanib, aloqa o'rnatishimizga olib keladi va atrof-tevaragimizda ro'y berayotgan hodisalardan ogoh etadi. Ammo og'iz bo'shlig'idan va me'dadan so'lak ajralib chiqishi kabi kimyoviy jarayon yoki ko'zlarimiz, tilimizning harakati va yurak urishi kabi fizikaviy jarayonlar bunday holatga ega bo'lmay, bunaqangi natija bermaydi.

Boshqacha aytganda, biz tashqi olam bilan aloqadorligimizni va unga oid masalalardan ogoh ekanimizni yaxshi his qilamiz, buning ma'nosi butun tashqi olam bizning ichki olamimizga kirib keladi deganimi? Albatta, yo'q. Demak, masala qanday bo'ladi?

Shak-shubhasiz, tashqi olamning tasviri vujudimizga va ichki olamimizga kirib keladi. Bu esa ruhning tashqi olamni namoyon eta olish qobiliyatidan amalga oshadi va shu yo'l bilan tashqi olamdan xabardor bo'lamiz. Bunday qobiliyat va xosiyat badanimizdagi hech bir fizikaviy va kimyoviy holatlarda mavjud emas (diqqat qiling).

Yanada boshqacharoq ta'bir bilan aytadigan bo'lsak, tashqi va ayniy mavjudotlardan xabar topish uchun bu olamni ihota qilmoq va qamrab olmoq zarurdir va miya hujayralari bunday

ihota qilish¹ning uddasidan chiqqa olmasligi aniq. Miyaning hujayra va to'qimalari badanning boshqa hujayralaridan ta'sir olgani kabi faqatgina tashqi olamdan ta'sirlanadi, xolos.

Bu tafovutdan ma'lum bo'ladiki, tanamizning fizikaviy va kimyoviy o'zgarishlaridan tashqari yana boshqa bir haqiqat mavjud bo'lib, bizni tashqi olam ustidan ihota qiluvchi va qamrab oluvchi qiladi va bu haqiqat «*ruh*» deb ataladi. U moddiy olam va moddiy xususiyatlardan yuqori va yuksakdir.

* * *

3. Ruhning asl va mustaqilligiga dalolat qiluvchi tajribiy dalillar

Baxtimizga bugungi kunga kelib, olimlar ruhning moddiy emasligi, uning asl va mustaqilligini ilmiy va tajribiy dalillar bilan isbot qilganlar. Ular bu nazariyaga qarshi chiqib, ruhning mustaqilligini inkor qiluvchilarga va ruhni moddaning xosiyati hamda moddaga tobe deb biluvchilarga qat'iy javob berib, bu o'rinda hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaganlar.

A. Magnetik tushlar (gipnoz va manetizm) ruhning moddiy emasligiga dalolat qiluvchi yorqin dalillardan bo'lib, ushbu haqiqat ko'plab sinovlar natijasida isbotlangan va bugungi kunda ko'pchilik uni ko'rgan. Ko'rmaganlar uchun esa, qisqacha sharh berishni lozim topdik:

Ba'zi odamlar turli ilmiy uslublar bilan boshqa shaxsni uxlatib qo'yadi. Uxlatuvchiga «*omil*» va uxlaganga «*modium*» deyiladi. Omil talqin qilish, fikriy yo'naltirish va magnetik kuchlar yordamida modiumni uxlatadi va uning ko'zi va boshqa a'zolari chuqur uyquga ketadi. Ammo bu uyqu oddiy uyqularga o'xshamaydi, balki gipnozchi (omil) uning bilan aloqa o'rnata

1. Ihota qilishning ma'nosi, «*qamrab olmoq*» va «*qurshab olmoq*» demakdir.

oladigan, o'zaro so'zlashib, modiumning javobini eshita oladigan uyqudir.

Shunday holatda, gipnozchi modiumning ruhini turli yerlarga yo'llaydi. Ba'zan modium o'zi bilan yangi xabarlar keltiradi va oddiy hollarda bilmagan ma'lumotlardan voqif bo'ladi. Gohida modium magnetik uyqu holatida chet tilda so'zlaydi, holbuki, bu tilni uyqudan oldin sira bilmas edi. Ba'zida u magnetik uyqu holatida murakkab riyoziyot (matematika) masalasini hal qiladi, ba'zan esa mahkam qulflangan sandiq ichiga qo'yilgan lavhalarga allaqanday yozuvlarni bitadi va hokazo....

Hatto ahyon-ahyonda ruhlar sharpa va ko'lankalar hamda yorug' soyalar timsolida bunday majlislarda hozir bo'lishadi. Biz bu borada ruhlarning qaytishi kitobida mufassal yozganmiz.

B. «Espertizm» yoki «arvohlar» bilan aloqa o'rnatish;

O'limdan so'ng ruhlar bilan aloqa o'rnatish olish ruhning g'ayrimoddiy, asl va mustaqilligiga dalolat qiluvchi yorqin dalillardan biridir.

Hozirgi kunda dunyoning hamma yerlarida arvohlar bilan aloqa o'rnatuvchi odamlarning jamiyatlari mavjuddir. Misrlik olim Farid Vajadiyning aytishiga qaraganda, har yili taxminan uch yuzta jurnal va ro'znoma ular tarafidan butun jahon bo'ylab nashr etiladi. Turli shaxslardan iborat bo'lgan taniqli insonlar, ruhshunoslarning yig'ilishida ishtirok etadilar va ularning huzurida ruhlar bilan aloqa o'rnatish amalga oshiriladi hamda g'ayritabiiy va g'ayrioddiy ishlar bajariladi.

Garchi ayrim firibgar va tovlamachi shaxslar, arvohlar bilan aloqa o'rnatish masalasidan sira xabarlari bo'lmay turib, xalqning soddaligidan foydalanib, ularga firib berish uchun ruhlar bilan aloqa o'rnatish olish ilmini iddao qilib, bundan o'z manfaatlarini yo'lida foydalangan bo'lsalar-da, biroq bunday

suiiste'mol ishlar arvohtar bilan aloqa o'rnatish haqiqat ekanligiga to'sqinlik qila olmaydi. Ruhlar bilan aloqa o'rnatish mumkinligini yirik tadqiqotchilar e'tirof etganlar¹.

Bularning hammasi ruhning nomoddiy, asl va mustaqil ekanligiga hamda uning o'limdan so'ng boqiy qoluvchiligiga dalolat qiluvchi yorqin dalildir. Ushbu haqiqat maod-qayta tirilish va o'limdan keyingi hayot sari etaklovchi muhim va ta'sirli omildir.

V. Uyquda ko'riladigan tushlar

Biz uxlaganimizda ko'radigan tushlarimiz va tush ko'rayotganda ko'z o'ngimizdagidek, mujassam bo'ladigan sahnalar gohida kelajakda ro'y beradigan hodisalardan bizni oldindan xabardor qiladi va goh-goh maxfiy masalalarni oshkor etadi. Bu narsani shunchaki tasodifan va to'satdan ro'y bergan deya olmaymiz. Ushbu haqiqat ham ruhning g'ayrimoddiy, asl va mustaqilligiga dalolat qiluvchi dalildir.

Odatda ko'pchilik insonlar o'z hayotlarida rost va to'g'ri tushlarni ko'rishgan va falonchi o'rtog'i yoki tanishining ko'rgan tushi bir muddatdan so'ng, bekamu ko'st ro'yobga chiqqanining shohidi bo'lishgan. Bu esa insonning ruhi uxlayotganida, boshqa olam bilan aloqada ekanligini va ahyon-ahyonda kelajakda ro'y beradigan voqealardan xabardor etishini yaqqol ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rib chiqqan dalillardan ushbu haqiqat ma'lum bo'ladiki, ruh moddiy va jismoniy bo'lmay, inson miyasining fizikaviy yoki kimyoviy aksilharakat (reaktsiya)lari va xosiyatidan kelib chiqqan narsa emas, balki ilohiy olamga taalluqli alohida, mustaqil va g'ayrimoddiy bo'lgan bir haqiqat

1. Mufassalroq ma'lumotga ega bo'lish uchun «arvohtarining qaytishi» hamda «Maod va o'limdan keyingi olam» kitoblariga murojaat qiling.

bo'lib, inson tanasining o'lishi bilan u yo'q bo'lmaydi va bu esa maod-qayta tirilish va o'limdan keyingi hayot masalasini isbotlash uchun zamin yaratadi.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Ruh haqida moddiy va ilohiyot faylasuflari nazariyalarining farqi nimada?
2. Katta narsaning kichik muhitga sig'masligi ruhning borligiga qay tarzda dalolat qila oladi?
3. Magnetik uyqu haqida nima bilasiz?
4. Arvohlar bilan aloqa o'rnatish deganda, nimani tushunasiz?
5. Qandayiga to'g'ri va rost tushlar ko'rish ruhning alohida va mustaqilligiga dalil bo'la oladi?

9- DARS:

Maod – jismoniy va ruhiy qayta tirilish

Qiyomat kunida yuz beradigan maod va qayta tirilish haqida soʻraladigan muhim savollar quyidagilardan iborat: «*Maod va qayta tirilish faqatgina ruhiy shaklda roʻy beradimi yoki insonning badani va jismi ham oxirat olamga qaytariladimi?*» Boshqa taʼbir bilan aytganda, «*Inson aynan bu dunyodagi badani va ruhi bilan oxirat olamida faqat yuqoriroq va yuksakroq darajada oʻzining yangi hayotini davom ettiradimi yoki boshqa takomillashgan badan va ruhga ega boʻladimi?*»

Oldingi bir guruh faylasuflarning eʼtiqod qilishicha, inson oxirat dunyosida faqat ruhan qayta tiriladi, maod va qayta tirilish ruhiy shaklda amalga oshadi va ular insonning badanini ulov deb bilib, faqat bu dunyodagina inson bilan birga boʻlib, uning uchun xizmat qiladi va inson oʻlgandan soʻng, badanga ehtiyoj sezmay, uni tark etadi va arvohlar olamiga oshiqadi degan nazariyani ilgari surishgan.

Ammo islom olamining yirik ulamolari va hozirgi koʻplab faylasuflarning eʼtiqodlaricha, maod va qayta tirilish insonning har ikkala qismiga, yaʼni ham «*moddiy*» va «*jismoniy*» qismiga, hamda «*ruhiy*» qismiga tegishli boʻlib, qiyomat kunida insonning jismi va ruhi birgalikda qaytariladi. Garchand inson badani oʻlganidan keyin, tuproq ostida chirib va tuproqning tarkibiy qismiga aylanib, yer ostida tarqalib, yoʻq boʻlib ketsada, biroq har narsaga qodir va har narsadan xabardor va olim boʻlgan Alloh taolo yerga tarqalib ketgan har bir mayda zarrachalarni qaytadan jamlab, ularga yangitdan hayot bagʻishlaydi. Bu masalani «*jismoniy maod*», yaʼni badan va tananing qayta tirilishi deb taʼbirlashadi. Zero, ruhning qiyomat kunida qaytarilishini qatʼiy bilib, bahslashuv badan va tananing

qaytarilishi haqida borayotgani uchun qiyomat kunidagi qayta tirilish deganda asosan, «*jismoniy maod*», ya'ni jismoniy qayta tirilish nazarda tutiladi.

Har holda, Qur'oni karimda maod va qayta tirilish haqida bir talay va turli xil oyatlar kelgan bo'lib, ularning hammasida, «*jismoniy maod*» haqida so'z yuritilib, ushbu masala ta'kidlangan.

Jismoniy maodning Qur'oniyl dalillari

Oldingi darslarning birida aytib o'tganimizdek, bir ko'chmanchi va badaviy arab kishi sarvari olam Muhammad Mustafó (sallallohu alayhi va olihi vasallam) ning huzurlariga kelib, chirib ketgan suyakni ul hazratga ko'rsatib: «*Kim buni qaytadan tiriltirishga qodir?*» – deb so'radi. Hazrati Rasululloh (sallallohu alayhi va olihi vasallam) Allohning amri farmoniga binoan, unga javoban: «*Ilk daf'a yo'qdan bor qilib yaratgan, yeru osmonlarni paydo qilgan va yashil daraxtdan olov chiqargan Zot, ya'ni Alloh taolo chirib ketgan suyakni qayta tiriltiradi*», deb marhamat qildilar. Bu borada Yosin surasining so'nggi oyatlarida aytilgan.

Qur'oni Karimning boshqa oyatlarida esa bunday deyiladi:

﴿خَشَعًا أَبْصَارُهُمْ يَخْرُجُونَ مِنَ الْأَجْدَاثِ كَأَنَّهُمْ جَرَادٌ مُّنتَشِرٌ﴾

«Ular qabrlardan ko'zlari qo'rqinchga to'lgan holda xuddi yoyilgan chigirtkaga o'xshab chiqib kelurlar.» (Qamar surasi; 7 – oyat)

﴿وَنُفِخَ فِي الصُّورِ فَإِذَا هُمْ مِنَ الْأَجْدَاثِ إِلَىٰ رَبِّهِمْ يَنْسِلُونَ﴾

«Va (qiyomat soati kelib farishta Isrofilning) suri chalinishi bilan banogoh ular qabrlardan Parvardigorlari tomon shoshilib chiqurlar.» (Yosin surasi; 51 – oyat).

Hammamizga ma'lumki, qabrlar tuproqqa aylangan jasadlarning joyidir, ruhlarning emas. Asosan, maod va qayta

tirilishni inkor qiluvchilarni hayratga solarli joyi shunda edi va shu bois ular: «*Qandayiga biz tuproqqa aylanib, yer ostida tarqalib, yo'q bo'lib ketganimizdan so'ng, qaytadan hayotga qaytarilar ekanmiz?*», deb so'rar edilar.

﴿وَقَالُوا أَنبَاءًا ضَلَّلْنَا فِي الْأَرْضِ إِنَّمَا لَفِي خَلْقٍ جَدِيدٍ بَلْ هُمْ بِلِقَاءِ رَبِّهِمْ كَافِرُونَ﴾

«Ular: «Biz yer ostida yo'q bo'lib ketgach, haqiqatan ham, yana yangitdan yaralurmizmi?!» dyerlar. Balki ular Parvardigorlariga ro'baro' bo'lishni inkor qilguvchilardir.» (Sajda surasi; 10 – oyat)

Qur'oni Karim ularga javoban: «*Ilk daf'a mavjudotlarni yo'qdan bor qilib yaratgan qudratli Alloh taolo ularni qayta tiriltirishga va yangitdan yaratishga qodirdir*» deb aytadi:

﴿أَوَلَمْ يَرَوْا كَيْفَ يُبْدِئُ اللَّهُ الْخَلْقَ ثُمَّ يُعِيدُهُ إِنَّ ذَلِكَ عَلَى اللَّهِ يَسِيرٌ﴾

«Axir ular, Alloh qandayiga mavjudotni ilk bor yo'qdan yaratib, so'ngra (qiyomat kunida) uni (o'sha yaratgan mavjudotini) yana qaytarishini o'ylab ko'rmadilarmi?! Albatta, bu Allohga osondir.» (Ankabut surasi; 19 – oyat)

Bir johil arab bu borada shunday dyerdi:

﴿أَيُعِدُّكُمْ أَنَّكُمْ إِذَا مِتُّمْ وَكُنْتُمْ تُرَابًا وَعِظَامًا أَنَّكُمْ مُخْرَجُونَ﴾

«U sizlarga o'lib, tuproq va suyaklarga aylangan vaqtingizda albatta, (qabrlaringizdan) chiqarilguvchidirsiz deb va'da qilmoqdami?!» (Mo'minun surasi, 35 – oyat)

Qur'oni Karimning yuqoridagi oyatlari va ta'birlari hamda boshqa oyatlardan yorqin tarzda ayon bo'lishicha, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (sallallohu alayhi va o'lihi vasallam) har yerda «*jismoniy maod*»ni ilgari surar edilar va shu jihatdan kaltabin mushriklar taajjublanishar edi. Ko'rib chiqqanimizdek, Qur'oni Karim giyoh-o'simliklar va shularga o'xshash narsalarda ko'zga tashlanadigan «*jismoniy maod*»dan bir necha namunalar keltirib, Allohning ilk bor yaratish qudratini shohid

qilib keltiradi.

Binobarin, o'zini musulmon deb bilgan va ozgina bo'lsada, Qur'oni Karim ta'limotidan ogoh bo'lgan shaxs «*jismoniy maod*»ni inkor eta olmaydi. Negaki, Qur'oni Karim nuqtai nazaridan «*jismoniy maod*»ni inkor qilmoq asl maod va qayta tirilishni inkor qilish bilan barobardir.

* * *

Aqliy dalillar

Aqlning aytishicha, ruh va badan o'zaro bir-biridan ayri va judo bo'lmish ikki haqiqat emas, balki u ikkisi mustaqil bo'lishi bilan birga, bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, insonning ikki tarkibiy qismidir. Shu bois, u ikkisi birgalikda tarbiyalanib, birgalikda takomil topishadi. Tabiiyki, ular o'zlarining abadiy va mangu hayotlarini davom ettirish uchun bir-birlariga muhtojdirlar.

Agarki ruh va badan barzax olamida (bu dunyo va oxirat olami o'rtasidagi oraliq) ma'lum muddatga qadar bir-birlaridan ajralishsa-da, biroq bu holat uzluksiz oxirigacha davom eta olmaydi. Badan ruhsiz noqis va noraso bo'lgani kabi, ruh ham badansiz noqis va norasodir. Zero, ruh badanga farmon beruvchi va uni harakatlantiruvchi bo'lsa, badan esa farmonni ijro etuvchi va bajaruvchi asbob-uskuna hisoblanadi. Hech bir buyruq beruvchi itoat qiluvchi va farmonni ijro etuvchidan hamda hech bir hunarmand va usta asbob-uskunadan behojat bo'lmay, uningsiz yashay olmaydi. Har ikkisi bir-birini to'ldiruvchi va takomillashtiruvchidir.

Faqat ruh qiyomat kunida bu dunyodan yuqoriroq va yuksakroq darajada bo'lgani uchun badan ham unga mos va monand bo'lib, takomil topmog'i lozim va shunday ham bo'lg'usidir. Ya'ni qayta tirilish kuni bo'lmish qiyomatda inson badani bu dunyodagi eskirganlik, aybu nuqsonlar, kamchiliklar

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

va norasoliklardan xoli va yiroq bo'lgan holda qayta tiriladi.

Har holda ruh va badan bir-birini to'ldiruvchi, takomillashtiruvchi va bir-biriga tengdosh bo'lganligi uchun maod va qayta tirilish bu ikkisining birigagina, ya'ni faqatgina ruhga yoki faqatgina badanga taalluqli deb ayto'lmaymiz. Boshqa ta'bir bilan aytganda, ruh va badan paydo bo'lishidanoq, hamisha birga bo'lgani va o'zaro chambarchas bog'liq va aloqador bo'lgani maod va qayta tirilish faqat bu ikkisining birigagina emas, balki har ikkisiga tegishli ekaniga oydin dalildir.

Boshqa tarafdin qaraganda esa, adolat qonuni ham har ikkalasining qayta tirilishini taqozo etadi. Nimaga deganda, inson yovuz va gunoh amalni sodir etgan bo'lsa, o'zining ruh va badani bilan bajargan, shuning uchun har ikkisini ham jazolamoq va javobgarlikka tortmoq darkor. Agar qandaydir yaxshi va ezgu amal qilgan bo'lsa, ham ruh va ham badan bilan bajargan. Demak, har ikkisini mukofotlamoq lozim bo'ladi. Agar yolg'iz ruh yoki tanho badan qayta tirilib, jazolanadigan yoki mukofotlanadigan bo'lsa, u holda Allohning adolatiga mug'oyir va zid bo'lgan bo'lur edi.

* * *

Jismoniy maodga doir savollar

Allomalar maod va qayta tirilishga aloqador ko'plab savollarni ilgari surganlar. Bu o'rinda suhbatimiz yanada mukammalroq bo'lishi uchun ulardan ba'zilarini keltirish maqsadga muvofiqdir:

1. Biologiya va tabiiy fanlar bilimdonlarining tadqiqotiga ko'ra, insonning badani butun umri davomida bir necha marta o'zgaradi. Bu narsani xuddi hovuzning ichiga bir tomondan doimo uzluksiz ravishda suv quyib turilgan va boshqa tomondan esa suv asta-sekinlik bilan chiqayotgan holatga

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

o'xshatish mumkin. Bir muddatdan so'ng esa hovuzning suvi butkul almashadi.

Bu almashinish va o'zgarish jarayoni inson badanida taxminan har etti yilda bir marta ro'y beradi. Demak, biz insonlar umrimiz davomida bir necha bor o'zgarimiz.

Endi bu o'rinda ushbu savol tug'iladi: *«Agar insonning badani umri davomida bir necha marta o'zgaradigan bo'lsa, qayta tirilish kuni uning qaysi badani qaytariladi?»*

Mazkur savolning javobida aytamiz: Eng so'nggi badan qaytariladi, yuqoridagi Qur'on oyatlarida ko'rib chiqqanimizdek, Alloh taolo insonlarni o'sha chirib ketgan suyaklardan yana qayta tiriltirib, ularga yangitdan hayot baxsh etadi. Bu so'zning ma'no-mafhumi shuki, insonning eng oxirgi badani qaytariladi. Shuningdek, insonlarning qablardan shoshib chiqishlarining ma'nosi eng so'nggi badanning qaytarilishi demakdir.

Ammo masalaning nozik tomoni shundan iboratki, insonning o'lishidan burun eng oxirgi badani butun umri davomida ega bo'lgan avvalgi barcha badanlarining xosiyatlari va asarlarini to'la-to'kis o'zida saqlab qoladi.

Boshqacha aytganda, tadrijan va asta-sekinlik bilan o'zgarayotgan va almashinayotgan badan o'zida mavjud bo'lgan barcha xususiyatlar, asarlar va xosiyatlarni keyingi badanga ko'chiradi. Binobarin, eng so'nggi badan oldingi badanlarning butun xususiyat va sifatlariga irsiy shaklda ega bo'ladi. Bu holda, Allohning adolatli qonuniga binoan, eng oxirgi badanning jazolanishiga yoki ajr-mukofot olishiga to'g'ri keladi.

* * *

2. Ba'zilarining aytishiga qaraganda, inson o'limidan so'ng,

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

uning badani tuproqning tarkibiy qismiga aylanib, giyoh-o'simliklarning yoki mevali daraxtlarning bir bo'lagi bo'lib qoladi. Natijada giyohlar bilan oziqlanish va dunyoning zanjirli harakati tufayli boshqa inson badanining bir qismiga aylanadi. Xo'sh, qiyomat kunida qayta tirilish yuz berganda, insonlar badanlarining qaytarilishi qay tarzda amalga oshadi? Bu savol va shubhaga falsafa va kalom ilmida (ilohiyotda) «*Okil va ma'kul*» shubhasi¹ deb aytiladi.

Agarchi ushbu savolga javob berish uchun mufassal bahslashishga to'g'ri kelsa-da, biroq biz bu yerda qisqa, muxtasar va zarur miqdorda tushuntirishga harakat qilamiz.

Yuqoridagi savolning javobida avvalo shuni aytishimiz kerakki, bir insonning badani tuproqqa aylanib, boshqa odamning badaniga o'tgan bo'lsa, qayta tirilganda, so'zsiz birinchi badanga qaytariladi. Bu darsda keltirganimiz oyatlar mana shu fikrimizni ochiq-oshkor tasdiqlaydi.

Bu yerda qoladigan yagona muammo va mushkul shundan iboratki, u holda ikkinchi odamning badani noqis va noraso bo'lib qoladi-ku?! Ammo shuni aytmoq kerakki, ikkinchi odamning azosi noqis bo'lmaydi, balki kichikroq bo'ladi. Chunki, birinchi odamdan ikkinchisiga ko'chib o'tgan zarrachalar mayda-mayda bo'lib, uning butun badaniga tarqalib ketgan. Ana shu mayda zarrachalar undan olinganida, o'sha miqdorda uning badani ozib kichrayadi.

Shunga binoan, na birinchi odamning badani yo'q bo'lib

1. Okilning ma'nosi «*yeguvchi*» va ma'kulning ma'nosi esa «*yeyilgan yoki yeyilguvchi*» demakdir. Mazkur shubhaga ko'ra, dunyodagi butun jonzoqlar bir-birlariga nisbatan yeguvchi va yeyilguvchi holatdadir. Shu bois, ular o'zaro bir-birlarining tarkibiy qismiga aylanishlari bilan, jismoniy maod va qayta tirilish masalasiga mushkul va muammo tug'diradilar. (Tarjimon izohi)

ketadi va na ikkinchi odamning badani noqis va noraso bo'lib qoladi. Bu yerda yuzaga keladigan yagona mushkul narsa ikkinchi badanning kichrayishidir. Ikkinchi inson badanining kichrayishi esa qiyinchilik tug'dirmaydi. Zero, hammamizga ma'lumki, qiyomat kuni qayta tirilish yuz berganda butun insonlarning badani nuqsonlardan xoli bo'lgan holda takomil topadi hamda barcha kamchilik va norasoliklar barham topadi. Bu narsa xuddi unib-o'sayotgan bolaning organizmidek yoki badani shikastlangan odamning terisi va go'shtining yangilanishidek bo'ladi va bu holat inson shaxsiyatining o'zgarishiga bois bo'lmaydi. Noqis, noraso va kichik badanlar kamol topish olami bo'lmish qiyomatda komil va mukammal shaklda qayta tiriladilar.

Shunday qilib, badanning qayta tirilishiga doir onglarda hal bo'lmagan hech bir shubha va mushkul qolmaydi (diqqat qiling!) Agarda bu haqda batafsilroq bilmoqchi bo'lsangiz «*maod va o'limdan keyingi olam*» deb nomlangan kitobni mutolaa qilishingizni tavsiya etamiz.

* * *

O‘ylab javob bering:

1. Jismoniy maod va qayta tirilish nima degani?
2. Jismoniy maodni inkor qiluvchilarning nazarini bayon eting hamda Qur'oni Karim ularga qarata qanday javob berishini izohlang.
3. Maod va qayta tirilishga oid qanday aqliy dalillar keltira olasiz?
4. Jismoniy maod va Allohning adolati o‘rtasida qanday bog‘liqlik va robita mavjuddir?
5. «*Okil va ma'kul*» shubhasi haqida aytib bering. Unga qanday javob berasiz?

10- DARS:

Jannat, do‘zax va amallarning tajassumlanishi

Ko‘pchilik insonlarda oxirat olami haqida ko‘pgina savollar tug‘iladi. Ulardan ba‘zilarini shu yerda keltirishni lozim topdik: *«O‘limdan keyingi oxirat olami ham xuddi bu dunyoga o‘xshaydimi yoki undan farqi bormi? Oxirat olamidagi ne‘matlar, jazo va azoblar, bir so‘z bilan aytganda, oxirat olaming tuzumi va qonun-qoidalari bu dunyonikiga o‘xshaydimi?»*

Bu savolning javobida ochiq-oshkor qilib aytmoq lozimki, oldingi darslarda aytib o‘tilgan dalil va shohidlarning ko‘rsatishicha, oxirat olami bilan bu dunyoning orasida katta farq bor. Shu darajadagi, bizning qiyomat to‘g‘risida bilgan narsalarimiz xuddi uzoqdan ko‘rganimiz sharpa va ko‘lanka singaridir, xolos.

Eng yaxshisi oldin ham misol qilib keltirganimiz *«embrion»* misolidan foydalansak. Ona qornidagi olam bilan bu dunyo orasida qanday farq bo‘lsa, xuddi shunga o‘xshab bu *«dunyo»* va *«oxirat olami»* o‘rtasida shu miqdorda yoki ortiqroq farq va oraliq bordir.

Faraz qiling, agar ona qornidagi bolaning aql-hushi va tili bo‘lganida edi va ushbu go‘dak bu olamning yeru osmoni, yulduzlari, quyosh, oyi, tog‘-adirlari, o‘rmon-dengizlari va giyoh-o‘simliklari dunyosi haqida to‘g‘ri tushuncha va tasavvurga ega bo‘lmoqchi bo‘lsa, shak-shubhasiz, buning uddasidan chiqa olmas edi.

Ona qornida bo‘lib, juda tor muhitdan boshqa yerni ko‘rmagan go‘dak uchun oy, quyosh, dengiz, to‘fon, shabada, gullar va bu dunyoning go‘zalliklari aslo tushunarli emas.

Chunki, uning tor dunyosiga munosib bo'lgan lug'atida faqat bir necha qisqa so'zlargina mavjuddir, xolos. Agar farazand biror kishi ona qornidan tashqarida turib, bu dunyoning go'zalliklari haqida unga aytib bersa ham, uning so'zlarining ma'nosini sira tushunib etmaydi.

Bu dunyoning oxirat olamining kengligiga nisbatan cheklanganligi ham xuddi shunday yoki undan ham ko'proqdir. Ya'ni biz yashayotgan dunyo, oxirat olamiga qaraganda chegaralanganligi, ona qornidagi olamning bu dunyoga nisbatan cheklanganligidan ancha ko'proqdir. Shunday ekan, biz oxirat olamining noz-ne'matlari va jannat ma'vosi haqida mukammal holda to'g'ri tasavvur va tushunchaga ega bo'la olmasligimiz turgan gap.

Shuning uchun hadisi sharifda bu borada aytilishicha:

«فِيهَا مَا لَا عَيْنٌ رَأَتْ وَلَا أُذُنٌ سَمِعَتْ وَلَا خَطَرَ عَلَيَّ قَلْبٍ بَشَرٍ»

«Jannatda shunday noz-ne'matlar borki, hech bir ko'z ularni ko'rmagan, hech bir quloq eshitmagan va hatto hech kimsaning aqliga ham kelmagan!»

Qur'oni Karim ham ushbu haqiqatni boshqa ta'bir bilan bayon etadi:

﴿فَلَا تَعْلَمُ نَفْسٌ مَّا أُخْفِيَ لَهُم مِّن قُرَّةِ أَعْيُنٍ جَزَاءً بِمَا كَانُوا يَعْمَلُونَ﴾

«Demak, hech bir jon qilib o'tgan amallariga mukofot bo'lishi uchun, ularga berkitib qo'yilgan ko'z quvonchlarini (oxirat ne'matlarini) bilmas.» (Sajda surasi; 17 – oyat.)

Shunga binoan, oxirat olamida hukm suruvchi qonun-qoida va tuzumlar bilan bu dunyoning qonun-qoida va tuzumlari o'rtasida kata farq bor. Masalan: Qiyomat mahkamasida bizlarning bu dunyoda qilib o'tgan amallarimizga qo'l, oyoqlarimiz, badanimizning terisi, hattoki, amalni bajargan yer va makon ham guvohlik berishadi:

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

﴿الْيَوْمَ نَخْتِمُ عَلَىٰ أَفْوَاهِهِمْ وَتُكَلِّمُنَا أَيْدِيهِمْ وَتَشْهَدُ أَرْجُلُهُمْ بِمَا كَانُوا يَكْسِبُونَ﴾

«Bu Kunda Biz ularning og'izlarini muhrlab qo'yurmiz. Bizga ularning qilib o'tgan ishlari haqida qo'llari so'zlab, oyoqlari guvohlik berur.» (Yosin surasi; 65 – oyat.)

﴿وَقَالُوا لَجُلُودِهِمْ لَمْ شَهِدْتُمْ عَلَيْنَا قَالُوا أَنْطَقَنَا اللَّهُ الَّذِي أَنْطَقَ كُلَّ شَيْءٍ وَهُوَ خَلَقَكُمْ أَوَّلَ مَرَّةٍ وَإِلَيْهِ تُرْجَعُونَ﴾

«Ular terilariga: «Nima uchun bizga qarshi guvohlik berdinglar?» – deyishganida, (terilari): «Barcha narsani so'zlatgan Alloh bizlarni ham so'zlatdi. Va U sizlarni ilk bor yaratgan va sizlar yana Uning O'zigagina qaytarilursizlar», deydilar.» (Fussilat surasi; 21 – oyat.)

Qadimda bu narsani tasavvur qilish ham qiyin va mushkul edi. Ammo bugungi kunga kelib, ilm-fanning rivojlanishi bilan sahnalarni yoki tovushlarni yozib olish mumkinligini ko'rib turgan paytda, taajjublanish-ga o'rin qolmaydi.

Har holda, garchand oxirat olamining noz-ne'matlari to'g'risida bilgan ma'lumotimiz uzoqdan ko'rinadigan ko'lankaga o'xshasa-da hamda uning kengligi, ahamiyati va xususiyatidan tamoman voqif bo'lmasak-da, ammo bizga ma'lum bo'lishicha, maod va qayta tirilish har ikkala qismda, ya'ni ham jismoniy va ham ruhiy bo'lganligi uchun tabiatan ajr-mukofot va jazo ham shunga yarasha ikki taraflama bo'ladi. Boshqa ta'bir bilan aytganda, oxirat diyorida moddiy va jismoniy qayta tirilishni nazarda tutib, moddiy mukofotlar yoki jazolar beriladi va ruhiy qayta tirilishni nazarga olib, ruhiy va ma'naviy ajr-mukofotlar yoki jazolar ato etiladi. Qur'oni Karimda moddiy va jismoniy ne'matlar va mukofotlar haqida quyidagicha vasf etiladi:

﴿وَبَشِّرِ الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ أَنَّ لَهُمْ جَنَّاتٍ تَجْرِي مِنْ تَحْتِهَا الْأَنْهَارُ كُلَّمَا رُزِقُوا مِنْهَا مِنْ ثَمَرَةٍ رِزْقًا قَالُوا هَذَا الَّذِي رُزِقْنَا مِنْ قَبْلُ وَأَتُوا بِهِ مُتَشَابِهًا وَلَهُمْ فِيهَا أَنْهَارٌ مُمْطَرَةٌ وَهُمْ

فِيهَا خَالِدُونَ ﴿﴾

«Iymon keltirgan va solih amallar qilganlarga bashorat berginki, ular uchun ostidan anhorlar oqib turadigan jannat bog'lari bor. Har goh o'sha [jannat bog'lari]ning biror mevasidan tanovul qilsalar: «Bu bizga bundan oldin ham ato etilgan rizqning xuddi o'zi-ku» deyishadi. Holbuki, ularga shunga o'xshash mevalar keltiriladi. Hamda ular uchun u yerda pokiza juftlar ayollar] bor va ular u yer [jannat bog'lari]da abadiy qolurlar.» (Baqara surasi; 25 – oyat)

Ma'naviy va ruhiy mukofot va ne'matlar borasida esa bunday deyiladi:

﴿وَعَدَ اللَّهُ الْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمِنَاتِ جَنَّاتٍ تَجْرِي مِنْ تَحْتِهَا الْأَنْهَارُ خَالِدِينَ فِيهَا وَمَسَاكِنَ طَيِّبَةً فِي جَنَّاتٍ عَدْنٍ وَرِضْوَانٍ مِّنَ اللَّهِ أَكْبَرَ ذَلِكَ هُوَ الْفَوْزُ الْعَظِيمُ﴾

«Alloh mo'minlar va mo'minalarga ostidan anhorlar oqib turadigan jannatlarni, ular unda abadiy qoluvchi ekanliklarini va mangu jannatlardagi pokiza maskanlarni va'da qildi. Allohning rizoligi esa, (hamma ne'matlardan) buyukroqdir. Ana shu ulkan yutuqdir». (Tavba surasi; 72-oyat).

Ha, jannat ahli uchun, Allohning roziligiga erishishdan ko'ra, buyukroq ne'mat yo'qdir. Alloh ulardan rozi va ularni O'z huzuriga qabul qilganidan shunday shodlik, quvonch va lazzatga to'lib toshadilarki, hech qaysi ne'mat ular uchun bunchalik lazzatbaxsh bo'lmaydi va buni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, do'zax ahli uchun Allohning norizoligi va g'azabidan ko'ra og'irroq va shiddatliroq azob-qiynoq yo'qdir. Garchi do'zax ahli uchun olovda yonish singari jismoniy qiynoq-azoblar ham bor.

Amallarning mujassam holda namoyon bo'lishi

www.najotkemasi.com & www.najotkemasi.net

Diqqatga sazovor bo'lgan narsa shundaki, Qur'oni Karimning ko'plab oyatlaridan ma'lum bo'lishicha, qiyomat kunida biz bajargan amallarimiz tirilib, turli ko'rinishlarda ko'zimiz o'ngida namoyon bo'ladi. Ajr-mukofot ato etilish va jazolanishning eng muhim hissalaridan biri amallarning mujassam holda namoyon bo'lmog'idir.

Zulm qilgan zolimlarning amallari qop-qora bulut shaklida namoyon bo'lib, ularning atrof-tevaragini qamrab oladi. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (*sallallohu alayhi va olihi vasallam*) dan rivoyat qilingan hadisi sharifda aytilishicha;

«الظُّلْمُ هُوَ الظُّلْمَاتُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ»

«Qiyomat kunidagi zulmat va qorong'iliklar, (bu dunyodagi) zulm va zo'ravonlikning oqibatidir.»

Etimlarning mollarini nohaq eganlarning amallari esa olov shu'lalari bo'lib namoyon bo'ladi:

﴿إِنَّ الَّذِينَ يَأْكُلُونَ أَمْوَالَ الْيَتَامَىٰ ظُلْمًا إِنَّمَا يَأْكُلُونَ فِي بُطُونِهِمْ نَارًا وَسَيَصْلَوْنَ سَعِيرًا﴾

«Etimlarning mol-mulklarini zulm yo'li bilan yeydigan kimsalar, hech shak-shubhasiz, qorinlarida olov egan bo'lurlar va albatta, do'zaxga kirajaklar.» (Niso surasi; 10 – oyat)

Iymon esa qiyomat kunida nur va yorug'lik taratib, mo'minlarning atrof-tevaragini yoritadi:

﴿يَوْمَ تَرَى الْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمِنَاتِ يَسْعَىٰ نُورُهُمْ بَيْنَ أَيْدِيهِمْ وَبِأَيْمَانِهِمْ بُشْرَاكُمُ الْيَوْمَ جَنَّاتٌ

تَجْرِي مِنْ تَحْتِهَا الْأَنْهَارُ خَالِدِينَ فِيهَا ذَلِكَ هُوَ الْفَوْزُ الْعَظِيمُ﴾

«Mo'min va mo'minalarni ularning oldilarida va o'ng taraflarida nurlari harakat qilayotgan holda ko'rganingiz kunda: «Sizlarga bugungi kunning xushxabari – daraxtlari ostidan anhorlar oqib turadigan jannatlaridir. Sizlar u joyda abadiy qolajaksizlar». Bu esa, aynan ulkan yutuqdir», (deyiladi). (Hadid surasi; 12 – oyat).

Riboxo'rlar (sudxo'rlar) esa o'zlarining qabih va jirkanch amallari bilan jamiyat iqtisodi va uning muvozanatiga putur etkazganlari uchun o'rinlaridan turayotganlarida, o'z muvozanatlarini saqlay olmay, gohida yerga yiqiladilar va ba'zan esa emaklab yuradilar:

﴿الَّذِينَ يَأْكُلُونَ الرِّبَا لَا يَقُومُونَ إِلَّا كَمَا يَقُومُ الَّذِي يَخْطُطُهُ الشَّيْطَانُ مِنَ الْمَسِّ ذَلِكَ بِأَنَّهُمْ قَالُوا إِنَّمَا الْبَيْعُ مِثْلُ الرِّبَا وَأَحَلَّ اللَّهُ الْبَيْعَ وَحَرَّمَ الرِّبَا فَمَنْ جَاءَهُ مَوْعِظَةٌ مِّن رَّبِّهِ فَانْتَهَىٰ فَلَهُ مَا سَلَفَ وَأَمْرُهُ إِلَى اللَّهِ وَمَنْ عَادَ فَأُولَٰئِكَ أَصْحَابُ النَّارِ هُمْ فِيهَا خَالِدُونَ﴾

«Riboni yeydiganlar (sudxo'r bo'lgan kimsalar qiyomat kuni qabrlaridan) faqat shayton urib majnun bo'lgan kishidek dovdirab turadilar. Buning sababi, ularning: «Shak-shubhasiz, oldi-sotdi ham riboga (sudxo'rlikka) o'xshashdir» deb aytganlaridir. Va holbuki, Alloh oldi-sotdini halol, riboni (sudxo'rlikni) harom qilgan. Demak, kimgaki, Parvardigoridan mav'iza – nasihat kelgach (riboxo'rlikdan) to'xtasa, unda ilgari o'tgani o'ziga va uning ishi, Allohning O'ziga havola. Kimki, yana (riboga) qaytsa, ana o'shalar jahannam egalaridir. Ular unda abadiy qolurlar.» (Baqara surasi; 275 – oyat)

Chayqovchi va baxil kimsalar esa, muhtoj va yo'qsizlarning haq-huquqlarini ado qilmay, jamlagan mol-mulk va boyliklari qiyomat kuni tavqi la'nat bo'lib, ularning bo'yinlariga ilib qo'yiladi. Shu darajadaki, ular o'z o'rinlaridan siljishga ham kuchlari etmay qoladi:

﴿وَلَا يَحْسَبَنَّ الَّذِينَ يَبْخُلُونَ بِمَا آتَاهُمُ اللَّهُ مِنْ فَضْلِهِ هُوَ خَيْرًا لَّهُمْ بَلْ هُوَ شَرٌّ لَّهُمْ سَيُطَوَّقُونَ مَا بَخُلُوا بِهِ يَوْمَ الْقِيَامَةِ وَلِلَّهِ مِيرَاثُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ وَاللَّهُ بِمَا تَعْمَلُونَ خَبِيرٌ﴾

«Alloh O'z fazlidan bergan narsaga baxillik qilganlar hargiz bu (qilmishlari)ni o'zlari uchun yaxshilik deb hisoblamasinlar. Aksincha, bu qilmishlari ular uchun yomonlikdir. Qiyomat kuni baxillik qilib bermagan narsalari (ularning bo'yinlariga) bo'yinbog' qilib ilib qo'yiladi. Osmonlaru yerning merosi, Allohnikidir. Va Alloh

qilayotgan amallaringizdan xabardordir.» (Ol-Imron surasi; 180 – oyat)

Bugungi kunda ilm-fan taraqqiy etganligi natijasida olamda hech bir narsa yo'q bo'lmay, modda va quvvat (energiya)ning uzluksiz va muttasil holda bir turdan ikkinchi turga o'tib, o'zgarishi aytiladi. Bizning bu dunyodagi qiladigan amallarimiz ham bu ikkisidan tashqarida bo'lmagani bois, garchand ularning shakli va ko'rinishi o'zgarsa-da, ushbu qonunning taqozosi bo'yicha mangu va abadiy bo'lib qoladi.

Qur'oni Karimda qisqa, lo'nda va titratuvchi ibora bilan qiyomat borasida bunday deyiladi:

﴿وَوَضَعَ الْكِتَابَ فِتْرَتِي الْمُحْرَمِينَ مُشْفِقِينَ مِمَّا فِيهِ وَيَقُولُونَ يَا وَيْلَتَنَا مَا لَ هَذَا الْكِتَابِ لَا يُغَادِرُ صَغِيرَةً وَلَا كَبِيرَةً إِلَّا أَحْصَاهَا وَوَجَدُوا مَا عَمِلُوا حَاضِرًا وَلَا يَظُنُّ رَبُّكَ أَحَدًا﴾

«Va (har bir kishining) kitobi – nomai a'moli (o'z qo'liga) qo'yilur. Shunda jinoyatkorlarni undagi (bitilgan) narsalardan dahshatga tushgan hollarida ko'rursiz. Ular: «Holimizga voy! Bu qandoq kitobki, na kichik va na katta (gunohni) qoldirmay, barchasini hisoblab-bitib qo'yibdi» dyerlar. Va (ular) qilgan (barcha) amallarini hoziru nozir holda topurlar. Parvardigoringiz hech kimga zulm qilmas.» (Kahf surasi; 49 – oyat)

Yuqoridagi oyatning «Va (ular) qilgan (barcha) amallarini hoziru nozir holda topurlar» iborasi ko'zlangan ma'noni yaqqol anglatadi. Insonning boshiga tushadigan har qanday musibat va balolar uning qilgan amallari sabablidir. Shuning uchun oyati karimaning oxirida: «Parvardigoringiz hech kimga zulm qilmas» deb qo'shimcha qilinadi.

Qur'oni Karimning boshqa bir yerida esa qiyomatdagi amallar haqida bunday deyiladi:

﴿يَوْمَئِذٍ يَصُدُّ النَّاسُ أُمَّتَاتًا لِّبُرِّهِمْ أَعْمَالُهُمْ * فَمَنْ يَعْمَلْ مِثْقَالَ ذَرَّةٍ خَيْرًا يَرَهُ * وَمَنْ يَعْمَلْ مِثْقَالَ ذَرَّةٍ شَرًّا يَرَهُ﴾

«O'sha Kunda odamlar, ularga (nomai) amallari ko'rsatilishi uchun guruh-guruh bo'lib chiqib kelurlar.

Demak, kimki, dunyoda zarracha miqdorida yaxshilik qilgan bo'lsa, (Qiyomat kunida) uni (mujassam holda) ko'rur.

Va kimki, zarracha miqdorida yomonlik qilgan bo'lsa, uni ham (mujassam holda) ko'rur.» (Zalzala surasi; 6,7 va 8 – oyatlar)

Yuqoridagi oyati karimada inson qilgan amallarining o'zini mujassam va ayniy holda ko'radi deb aytilmoqda (diqqat qiling.)

Qilgan har bir amalimiz katta yoki kichik, yaxshi yoki yomon bo'lishidan qat'iy nazar, albatta saqlanib qolinadi, hargiz yo'q bo'lib ketmaydi va qiyomat kuni hamma joyda biz bilan birga bo'ladi. Mana shu haqiqatni nazarda tutsak, qiladigan har bir ishimizda ehtiyot bo'lib, yomonliklar va yovuzliklarga qarshi qattiqqo'l bo'lamiz, yaxshilik va ezguliklarni sevib, ular tomon intilamiz.

Kishini hayratga solarlik narsa, bugungi kunda kashf va ixtiro etilgan vositalar bo'lib, o'tgan zamonda yasalgan ashyolarning yasalish paytida chiqqan ovozlarni bizga eshittira oladi. Bu esa qilingan amallarning tajassum-lanishini bu dunyoning o'zida ham ko'rishimiz mumkinligini anglatadi.

Buyuk olimlardan birining yozishicha, hozirgi kunda ana shunday moslama va jihozlar yordamida ikki ming yil burun yashab o'tgan Misrlik ko'za yasovchilarning tovush to'liqlari eshitarli darajada aks ettirildi. Zero, Misr muzeylarida ikki ming yil bundan burun yasalgan ko'zalar saqlanib qolingan. Ushbu ko'zalarni ko'za yasovchilar ikki ming yil oldin maxsus g'ildiraklar va dastgohlar bilan yasayotganlarida, ish jarayonida o'zlaridan taratgan ovozlarning to'liqlari ko'zalarning tanasiga o'rnashib qolgan. Bugungi kunda o'sha tovush to'liqlarini yangitdan ixtiro etilgan dastgohlar yordamida o'z qulog'imiz

bilan eshita oladigan darajada qayta tiklaganlar.¹

Har holda, Qur'oni Karimda aytilgan maod va qayta tirilish, yaxshi insonlar mukofotlanishining va yomonlar jazolanishining abadiy, manguligiga oid ko'pgina savollarga hamon «*amallarning mujassam holda namoyon bo'lishi*»ni hamda bajaradigan har bir amalimiz ruhimizga ta'sir qilishini, ushbu ta'sir hamisha biz bilan birga qoluvchi ekanini nazarga olishimiz bilan javob bera olamiz.

* * *

O'ylab javob bering:

1. Insonning oxiratdagi hayoti har jihatdan bu dunyodagi yashashiga o'xshaydimi?
2. Oxiratning ajr va mukofotlari hamda jazolarini bu dunyoda fahmlay olamizmi?
3. Jannatdagi noz-ne'matlar va do'zaxdagi qiynoq-azoblar faqat moddiy va jismoniy jihatdan bo'ladimi?
4. «*Amallarning mujassam holda namoyon bo'lishi*» deganda nimani tushunasiz? Qur'onda bu haqda nima deyiladi?
5. «*Amallarning mujassam holda namoyon bo'lishi*»ga inonmoq maod masalasidagi qanday mushkullar va muammolarni echa oladi?

* * *

Alloh taoloning tavfiq va madadi bilan ushbu kitobning ta'lif va tarjimasi hijriy 1435-yil, Zul-qa'da oyining yigirma to'qqizinchisi, payshanba kuni (milodiy 2014-yil, 25-sentyabr)da intiho topdi.

1. «*Bosib o'tilgan yo'l*» kitobidan olindi.